



OSIYO XALQARO UNIVERSITETI

OSIYO XALQARO UNIVERSITETI AXBOROTNOMASI

Ilmiy-nazariy va metodik jurnal
Научно-теоретический и методический журнал
Scientific theoretical and methodical journal

ISSN

ISSN 3030-3796 e
ISSN 3060-4915 p

2026 | Volume 1 | Issue 1 | January

<https://scientificjournal.uz/>



**Osiyo Xalqaro
Universiteti**

“OSIYO XALQARO UNIVERSITETI AXBOROTNOMASI”

Ilmiy-nazariy va metodik jurnal

2026-yil, 1-son

Jurnal 2024-yildan chiqa boshlangan

“KAMOLOT” nashriyoti

BUXORO – 2026

Muassis: OSIYO XALQARO UNIVERSITETI

Jurnal O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi
huzuridagi axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
2024-yil 04-aprel №25-0649-sonli guvohnoma bilan ro'yxatga olingan.



Bosh muharrir:

Elov Ziyodullo Sattorovich, Psixologiya fanlari doktori (DSc), dotsent.

Jamoatchilik kengashi raisi:

Dexkanov Suxrob Sobirovich, Osiyo xalqaro universiteti rektori

Mas'ul kotib:

Sattorov Mirshod Erkinovich

Psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Jurnal 2024-yilda tashkil etilgan, 1 oyda bir marta o'zbek, rus va ingliz
tillarida nashr etiladi.

Tahririyat manzili: 200100, O'zbekiston Respublikasi,

Buxoro shahri Namozgoh ko'chasi 24-uy,

E-mail: sjkamolot@gmail.com

Jurnal sayti: <https://scientificjournal.uz/>



ISSN 3030-3796 e

ISSN 3060-4915 p



Maqolada keltirilgan faktlarning to'g'riligi uchun muallif mas'uldir.

**MUNDARIJA:****10.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI**

1	Axmedova Shoira Nematovna. ADABIYOT ILMIDA BIXEVIORISTIK YONDASHUVNING O‘RNI	6
2	Xudoyqulova Gulshan Xudoyor qizi BOSHLANG‘ICH SINFI O‘QISH SAVODXONLIGI DARSLARIDA SHE‘RLARDAN FOYDALANISHNING INNOVATSION METODLARI	11
3	Ro‘ziyeva Shoxida Bahtiyorovna O‘ZBEK TILIDA QIMMATBAHO TOSH VA MA‘DANLARNING LINGOKOGNITIV XUSUSIYATLARI	19

13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI

4	Qurbonova Dilnoza Arslanovna. INGLIZ TILINI O‘QITISHDA O‘SMIRLARNING BILISH JARAYONLARINI RIVOJLANTIRISHNING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI	24
5	Raximov Ravshan Naimovich O‘QUVCHILARNING MUSIQIY MADANIYATINI YUKSALISHIDA XALQ OG‘ZAKI IJODIDAN FOYDALANISHNING IMKONIYATLARI	31
6	Xazratov Fazliddin Xikmatovich OLIY TA‘LIM MUASSASALARI TALABALARINING DASTURLASHGA OID KOMPETENSIYALARINI TIZIMLI- ALGORITMIK YONDASHUV ASOSIDA RIVOJLANTIRISH SHAKLLARI VA BOSQICHLARI	36
7	Ikramov Amirbek Aminovich OLIY TA‘LIM MUASSASALARIDA JISMONIY TARBIYA MASHG‘ULOTLARINI SUN‘IY INTELLEKT TEXNOLOGIYALARI ASOSIDA TASHKIL ETISH: PEDAGOGIK MODEL VA SAMARADORLIK TAHLILI	42
8	Sattorov Anvar Ergashovich., Murodova Madina Jahongir qizi YENGIL ATLETIKA MASHG‘ULOTLARI ASOSIDA BOSHLANG‘ICH SINFI O‘QUVCHILARINING HARAKAT FAOLLIGI, JISMONIY TAYYORGARLIGI VA ANTROPOMETRIK XUSUSIYATLARINI BAHOLASH	51
9	Sayfullayeva Nozima Bahodirovna. BOSHLANG‘ICH SINFLARDA MATEMATIKA DARSLARINI O‘QITISHNING PEDAGOGIK MUAMMOLARI	59
10	Olloqova O‘g‘iljon Mamanazarovna ONA TILI TA‘LIMIDA O‘QUVCHILARNING PRAGMATIK KOMPETENSIYASINI TAKOMILLASHITISHDA INTENSIV TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH METODIKASI	66
11	Raximova Madina Xasanovna.	73



	PEDAGOGIK OLIY TA'LIMDA ILMIY-TADQIQOT FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISHDA RAQAMLI PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALAR	
12	Maxmudova Nigora Hikmatovna BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARIDA KOGNITIV RIVOJLANISHDAGI PEDAGOGIK MUAMMOLAR	79
13	Abdiyeva Zilola Hamdam qizi BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARIDA FAZOVIIY TASAVVURLARNI SHAKLLANTIRISHDA 4K TEXNOLOGIYASIDAN FOYDALANISH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH	85
14	Azizova Dinara Rahmiddin qizi MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALAR FAOLIYATINING XUSUSIYATLARI VA UNING SHAXS RIVOJIDAGI AHAMIYATI	92
15	Azimova Zebiniso Nasillo qizi INSON BOSH MIYA ASABLARI ANATOMIYASI, FIZIOLOGIYA VA PATOLOGIYASI	101
16	Ramazonova Salomat Saidovna BO'LAJAK O'QITUVCHILAR INNOVATSION FAOLIYATIDA KREATIV YONDASHUVNING O'ZIGA XOSLIGI	108
17	Xalilova Shaxlo Ravshanovna ART PEDAGOGIKA VA EMOTSIONAL INTELLEKT: TALABALARINING BADIY IDROKINI RIVOJLANTIRISHDA YANGI PARADIGMA	113
18	Fattullayeva Mahzuna Maqsud qizi MATNNI TUSHUNISH KO'NIKMALARINI RIVOJLANTIRISHDA KREATIV YONDASHUVNING DIDAKTIK IMKONIYATLARI	120
19	Nurullayeva Aziza Ravshan qizi BOSHLANG'ICH SINIF TABIIY FANLARNI O'QITISHDA PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH ORQALI TA'LIM SAMARADORLIGIGA ERISHISH USULLARI	128
20	Rustamova Zulfizar Yo'ldoshevna TA'LIM JARAYONIDA ICHKI MOTIVATSIYANI RAG'BATLANTIRISH UCHUN PEDAGOGIK MULOQOTNI TASHKIL ETISH	136
21	Askarova Munisa Ulug'bekovna BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARIGA ALIFBE MANZUMALARINI O'RGATISHDA BADIY YONDASHUVLAR	142
22	Baxriddinova Umida Akbar qizi BOSHLANG'ICH SINIF MATEMATIKA DARSLARIDA KO'RGAZMALILIKNING TA'LIM SAMARADORLIGINI OSHIRISHDAGI O'RNI	148
23	Sirojova Marjonaxon Iso qizi BOSHLANG'ICH SINFLARDA BADIY MATNNI TUSHUNISH VA TAHLIL QILISH METODLARI	153
24	Berdiyev Nurmon Ochilovich ARXITEKTURAVIIY TA'LIMDA TALABALARINING MUSTAQIL GRAFIK ISHLARINI TASHKIL ETISHNING PEDAGOGIK SHART-SHAROITLARI	159



19.00.06 – PSIXOLOGIYA FANLARI

25	Elov Ziyodullo Sattorovich SUD-PSIXOLOGIK EKSPERTIZANING RIVOJLANISH TARIXI VA BUGUNGI ISTIQBOLLARI	167
26	Narziyeva Shaxnoza Rustamjon qizi DEVIANT XULQ-ATVORLI O'SMIRLAR EMOTSIONAL INTELLEKTINI TAKOMILLASHTIRISH	174
27	Miraliyev Shahzod Jahongir o'g'li MAHALLA TIZIMIDA YOSH OILALARDAGI NIZOLARNI OLDINI OLISHNING PSIXOLOGIK MEXANIZMLARI	180

ADABIYOT ILMIDA BIXEVIORISTIK YONDASHUVNING O'RNI



Axmedova Shoir Nematovna
Osiyo xalqaro universiteti professori

Annotatsiya.

KIRISH: Globallashuv davrida adabiyot ta'limidagi umumdidaktik va o'ziga xos tamoyillardan biri shuki, bugungi kunda adabiyot darslarida, badiiy matnni o'rganish va tahlil qilishda zamonaviy: bixevoristik, integrativ, kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan yondashuvlar va innovatsion usullarga e'tibor qaratilmoqda. Maqolada integratsion ta'limning psixologiya va adabiyot bilan bog'liqligi, adabiyot ta'limida bixevoristik yondashuvning o'rnini va ahamiyati haqida o'zbek yozuvchisi G'afur G'ulomning "Mening o'g'rigina bolam" hikoyasi tahlili misolida yoritib berildi.

MAQSAD: Adabiyot ilmidagi bixevoristik yondashuvlarning o'rnini ilmiy tahlil qilish

MATERIALLAR VA METODLAR: Respublikamizda uzluksiz ta'lim tizimini rivojlantirishga qaratilgan islohotlarning asosiy maqsadlaridan biri ta'lim-fan-ishlab chiqarish integratsiyasini amalga oshirishdan iborat. Ta'limning hozirgi zamon fan-texnika taraqqiyoti, bozor iqtisodiyoti va ishlab chiqarish bilan uzviy hamkorlikda rivojlanishi zarurligi muhim vazifalaridan biri sifatida ko'rinadi. Shuning uchun ham ta'limni rivojlantirishda integratsiyadan unumli foydalanish dolzarb vazifaga aylanmoqda. Integratsiya – differentsatsiya jarayonlaridagi fanlarning o'zaro yaqinlashuvi va bog'liqligida, integratsiya jarayoni fanlararo bog'liqlikning yuqori shaklida namoyon bo'ladi. Integratsiya o'quv fanlari orasidagi tizimli bog'liklarni, fanlarning bir-birini taqozo etishi, to'ldirishi, mukammallashuvi uchun yo'l ochib beradi. Integratsiyani o'quvchilarning turli fanlar bo'yicha kuzatishlari va xulosalarini tasdiqlab yoki chuqurlashtirib beruvchi yangi dalillarni topib berish manbai deb baholash mumkin.

XULOSA: Hikoya tahlilida bixevoristik yondashuvdan foydalanish o'quvchining xulq-atvorini yaxshi tomonga o'zgartirishga olib kelishi mumkin. Aslini olganda o'g'rilik gunoh ekanligi, ammo zamona zayli bilan o'zi istamagan holda bu yo'lga kirib qolgan insonning o'z xatosini anglashi va Ona mehri oldida tiz cho'kishi yosh kitobxonni befarq qoldirmaydi.

Kalit so'zlar: integratsiya, bixevorizm, adabiyot, xulq-atvor, psixologiya, hikoya, obraz, kitobxon, yumor.

МЕСТО БИХЕВИОРИСТСКОГО ПОДХОДА В ЛИТЕРАТУРНОЙ НАУКЕ

Ахмедова Шои́ра Нематовна
Профессор, Азиатский международный университет

Аннотация.

ВВЕДЕНИЕ: Один из общих дидактических и специфических принципов литературного образования в эпоху глобализации заключается в том, что сегодня на уроках литературы, при изучении и анализе литературных текстов, уделяется внимание

современным: поведенческим, интегративным, компетентностно-ориентированным подходам и инновационным методам. В статье рассматривается связь интегративного образования с психологией и литературой, роль и значение поведенческого подхода в литературном образовании на примере анализа рассказа «Мой единственный ребенок» узбекского писателя Гафура Гулама.

ЦЕЛЬ: Научный анализ места поведенческих подходов в литературоведении.

МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ: Одна из главных целей реформ, направленных на развитие системы непрерывного образования в нашей республике, — это реализация интеграции образования, науки и производства. Необходимость развития образования в тесном сотрудничестве с современным научно-техническим прогрессом, рыночной экономикой и производством рассматривается как одна из важных задач. Поэтому эффективное использование интеграции в развитии образования становится актуальной задачей. Интеграция — это сближение и взаимосвязь дисциплин в процессах дифференциации; процесс интеграции проявляется в высокой форме междисциплинарной связи. Интеграция прокладывает путь к систематическим связям между дисциплинами, к тому, чтобы дисциплины нуждались друг в друге, дополняли и улучшали друг друга. Интеграцию можно оценивать как источник новых доказательств, подтверждающих или углубляющих наблюдения и выводы студентов в различных дисциплинах.

ВЫВОД: Использование бихевиористского подхода в нарративном анализе может привести к изменению поведения студентов в лучшую сторону. Тот факт, что воровство — это грех, но тот факт, что человек, невольно вступивший на этот путь в современном мире, осознает свою ошибку и преклоняет колени перед любовью своей Матери, не оставляет юного читателя равнодушным.

Ключевые слова: интеграция, бихевиоризм, литература, поведение, психология, рассказ, образ, читатель, юмор.

THE PLACE OF THE BEHAVIORIST APPROACH IN LITERARY SCIENCE

Akhmedova Shoir Nematovna

Professor, Asian International University

Annatation.

INTRODUCTION: One of the general didactic and specific principles in literature education in the era of globalization is that today in literature lessons, in the study and analysis of literary texts, attention is paid to modern: behavioral, integrative, competency-based approaches and innovative methods. The article discusses the connection of integrative education with psychology and literature, the role and importance of the behavioral approach in literature education using the example of an analysis of the story “My Only Thief Child” by the Uzbek writer Gafur Ghulam.

THE GOAL: Scientific analysis of the place of behavioral approaches in literary science

MATERIALS AND METHODS: One of the main goals of reforms aimed at developing the system of continuous education in our republic is to implement the integration of education-science-production. The need for education to develop in close cooperation with modern scientific and technological progress, market economy and production is seen as one of the important tasks. Therefore, the effective use of integration in the development of education is becoming an urgent task. Integration is the convergence and interconnection of disciplines in the processes of differentiation, the integration process is manifested in a high form of interdisciplinary connection. Integration paves the way for systematic connections

between disciplines, for disciplines to require, complement, and improve each other. Integration can be assessed as a source of finding new evidence that confirms or deepens students' observations and conclusions in various disciplines.

CONCLUSION: The use of a behaviorist approach in narrative analysis can lead to a change in student behavior for the better. The fact that theft is a sin, but the fact that a person who, in the modern world, has unwittingly embarked on this path, realizes his mistake and kneels before the love of his Mother, does not leave the young reader indifferent.

Keywords: integration, behaviorism, literature, behavior, psychology, story, image, reader, humor.

XXI asrda dunyo xaritasidan munosib o'rin olgan mustaqil O'zbekistonda barcha sohalarda boshlangan tub islohotlarning barchasi inson omilini har qachongidan ham yuqori saviyaga ko'tarib, uning kuchi, idroki, salohiyati, ruhiy hamda ma'naviy barkamolligini bevosita taraqqiyot, rivojlanish va sivilizatsiya bilan uzviy bog'ladi. Bundan inson va uning mukammalligi, o'z ustida ishlashi, o'z-o'zini anglashi muammosi har qachongidan ham dolzarb masalaga aylandi. Inson ruhiyatini anglash, o'z taraqqiyotini va iqtidorini tashkil etishni bilish, yangicha fikrlash va tafakkur qilish, ro'y berayotgan jarayonlarni obyektiv va to'g'ri idrok qilish qobiliyatini rivojlantirish muammosi nafaqat psixologiyada, balki ko'pchilik fanlar, jumladan Adabiyotda ham muhimdir. Ayni shu muammoni yechishda hozirgi zamon psixologiya ilmi va amaliyotining, shu bilan birga Inson ruhiyatiga ta'sir etuvchi, hatto uning ruhiyatini o'zgartirishga qodir bo'lgan Adabiyotning roli benihoya kattadir.

Respublikamizda uzluksiz ta'lim tizimini rivojlantirishga qaratilgan islohotlarning asosiy maqsadlaridan biri ta'lim-fan-ishlab chiqarish integratsiyasini amalga oshirishdan iborat. Ta'limning hozirgi zamon fan-texnika taraqqiyoti, bozor iqtisodiyoti va ishlab chiqarish bilan uzviy hamkorlikda rivojlanishi zarurligi muhim vazifalaridan biri sifatida ko'rinadi. Shuning uchun ham ta'limni rivojlantirishda integratsiyadan unumli foydalanish dolzarb vazifaga aylanmoqda. Integratsiya – differentsatsiya jarayonlaridagi fanlarning o'zaro yaqinlashuvi va bog'liqligida, integratsiya jarayoni fanlararo bog'liqlikning yuqori shaklida namoyon bo'ladi. Integratsiya o'quv fanlari orasidagi tizimli bog'liklarni, fanlarning bir-birini taqozo etishi, to'ldirishi, mukammallashuvi uchun yo'l ochib beradi. Integratsiyani o'quvchilarning turli fanlar bo'yicha kuzatishlari va xulosalarini tasdiqlab yoki chuqurlashtirib beruvchi yangi dalillarni topib berish manbai deb baholash mumkin. Bu o'rinda biz psixologiya fani bilan adabiyot o'rtasidagi integratsiya jarayoni haqida to'xtalmoqchimiz.

Psixologiya va u o'rganadigan hodisalar nafaqat ushbu fan bilan bevosita shug'ullanadigan mutaxassislarga bog'liq, balki psixologik hodisalar va ularning mohiyati bilan har qanday inson ham tanish bo'lishi va u inson hayotining asosini tashkil etishi kerak. Mustaqillik davri va uning o'zgarishlarga boy hayoti endi har bir kishining psixik hodisalar qonuniyatlarini bilishi va shunga mos tarzda oqilona va omilkorona ish yuritish zaruratini talab qilmoqda. Bu zarurat Adabiyot fani o'qitishning samaradorligini oshirishda ham namoyon bo'lmoqda.

Psixologiyaning paydo bo'lishi va fan sifatida e'tirof etilishida biologik, ijtimoiy, bixevior (xulqiga ko'ra), kognitiv, psixoanalitik, gumanistik, sotsial-psixologik yo'nalishlar asos bo'lgan [1.57-80]. XX asr boshlarida psixologiyada yuzaga kelgan yo'nalish bo'lib, inson psixikasini emas, balki uning tashqi xulq-atvori, harakati, reaksiyasi orqali o'rganishni asosiy mezon deb biladi. Ushbu nazariya J.Uotson, keyinchalik B.Skinner tomonidan rivojlantirilgan. Bixevorizmga ko'ra: insonning ichki hissiyoti, tafakkuri emas, balki ko'rinadigan amaliy harakatlari, reaksiyalari muhim hisoblanadi.

Jahon psixologiyasi fanida shaxsning kamoloti, uning rivojlanishi to'g'risida xilma-xil nazariyalar yaratilgan bo'lib, tadqiqotchilar inson shaxsini o'rganishda turlicha pozitsiyada turadilar va muammo mohiyatini yoritishda o'ziga xos yondashishga egadirlar. Mazkur



nazariyalar qatoriga biogenetik, sotsiogenetik, psixogenetik, kognitivistik, psixoanalistik, bixevioristik kabilarni kiritish mumkin. K.Levin tomonidan tavsiya qilingan «fazoviy zarurat maydoni» nazariyasi psixologiya fani uchun (o'z davrida) muhim ahamiyat kasb etadi. K.Levinning nazariyasiga ko'ra individning xulqi (xatti-harakati) psixologik kuch vazifasini o'tovchi ishtiyoq (intilish), maqsad (niyat)lar bilan boshqarilib turiladi va ular fazoviy zarurat maydonining ko'lami va tayanch nuqtasiga yo'naltirilgan bo'ladi [2]. Psixologiya 300dan ortik tarmoqlari orasida ijtimoiy psixologiya - odamlarning jamiyatdagi birgalikdagi ish faoliyatlari natijasida ularda hosil bo'ladigan tasavvurlar, fikrlar, e'tiqodlar, hissiy kechinmalar va xulq-atvorlarini o'rganadi. Bixevorizm (inglizcha) – xulq-atvor degan ma'noni anglatadi. Bixevoristika zamonaviy hayotga moslangan, sharhlangan tushunchadir. Bu yo'nalish XX asr boshlaridagi amerika psixologiyasi qiyofasini aniqlashtirib berdi va psixika haqidagi taassurotlarning butun tizimini tubdan o'zgartirib yubordi [2]. Bixevorizm - xulq haqidagi fan, insonning tug'ilganidan to o'lgunigacha bo'lgan davrdagi xulqini o'rganadi. Bixevoristlar insonning xulqini aniq vaziyatlarda qarab chiqish kerak va kuzatishlar asosida odamlarning birgalikdagi hayoti, xulqi va tarbiyasi haqidagi qoidalar kelib chiqadi deb hisoblaydilar. Uning adabiyot bilan bog'liq jihati shundaki, adabiyot ham insonning xulqini tarbiyalaydi, go'zallashtiradi.

Bixevoristik yondashuv asosida badiiy matnni chuqur o'rganish, keng tahlil qilish orqali o'quvchining xulqi-atvorini o'zgartirish, tarbiyalash, ijobiy tomonga o'zgartirish mumkin. Masalan, faylasuf shoir, milliy nasr ustasi G'afur G'ulomning "Mening o'g'rigina bolam" [4.120] hikoyasini o'qimagan o'zbek kitobxon bo'lmasa kerak. Hikoya o'quvchi xulq-atvorini, xarakterini tarbiyalashda juda katta ahamiyatga ega. Chunki "bola o'z hayotini mehr-muhabbat, ezgulik va adolat tushunchasi bilan boshlaydi", -deb yozadi E.Fromm [3.25]. Hikoyaning boshidayoq tilga olinadigan va asar oxirigacha o'quvchining mehrini qozonib, hurmatga sazovor bo'lgan nuroniy kampir - Qora buvi obrazi o'quvchida katta taassurot qoldiradi. Bu obraz Onalarning mehri daryo qalbini his eta bilish, uni e'zozlash tuyg'ularini shakllantirishga xizmat qila oladi. Hikoyadagi nuroniy, mushfiq, nevaralari kelajagini o'ylab, ko'ziga uyqu ilinmaydigan Ona-buvi timsolida o'quvchi insonning insonga bo'lgan mehrini ko'radiki, bu uning xulqida o'zgarish paydo qilishiga olib keladi. G'.G'ulom xalqning boy tilidan zukkolik bilan foydalanish orqali kichik bir xikoyada katta bir olam-milliy o'zbek xarakterini yarata olgan. Kampir va o'g'rining serhasrat suhbatidan birinchi jahon urushi to'zoni tufayli nochor ahvolga tushib qolgan mehnatkash xalq turmushi, manzarasi shundoqqina ko'z oldimizda gavdalanadi. Kampir ham, o'g'ri ham o'sha hayotning zarrasi. Kampirning holidan xabardor bo'lgan o'g'ri o'zining shum niyatini unutib, kampirning hamdardiga aylanadi-unga "buvijon" deb murojaat qiladi, o'tinini yorib berib, ozgina bo'lsa-da, yordam berishni istaydi. Kampir ham katta olijanob qalb egasi: o'g'rining dardini eshitib, uning holiga chindan achinadi, uni o'ziga yaqin olib "o'g'rigina bolam "deya erkalaydi, qutlug' uydan quruq ketmaslikni maslahat beradi, unga ishlatilmayotgan yarim pudlik qozonni sovg'a qiladi. Yigit esa yetimlar rizqini olib ketishni o'ziga ep ko'rmaydi. Ularning bir-birlariga munosabatlarida o'zbekka, millatimizga xos bo'lgan jami yaxshi fazilatlar mujassamligini o'quvchi matnni o'qib, uqib tushunib yetadiki, bu fazilatlar ularni insoniylik ruhida tarbiyalashga yordam beradi.

O'g'rining hikoya davomida o'quvchi nazarida yaxshi odamga, mehr va ardoqqa munosib kishiga aylanib qolishi –bu endi yozuvchi mahoratining ajoyib sehri. Adib saxovatining bir ehsoni, G'.G'ulom realizmining mo'jizakor qudratidir. Hikoyaning o'quvchi xulq-atvori, ruhiyatiga ta'sir etadigan yana bir qirrası borki, bu hikoyaning beozor, yengil kulgi asosiga qurilganligi bilan bog'lanadi. Haqiqatdan ham milliy ruh bilan yo'g'rilgan xikoyani o'qir ekansiz, achinish bilan birga yuzingizda kulgu, tabassum ham yuguradi. Bu kulgining ma'naviy-ruhiy jihatdan afzalligi shundaki, u hamisha bola kayfiyatini ko'tarib, uning asablariga dam berib, miyasining ishlash faoliyatiga katta yordam beradi.

XX asr modernistik adabiyotida bixevoristik qarashlar kuchli ta'sir ko'rsatdi. Bu ta'sir ayniqsa nasrda — hikoya va romanlarda yaqqol namoyon bo'ldi. Yozuvchilar qahramonning ichki monologini kamaytirdi, uning so'zlari, harakatlari, ishoralari, tashqi xulq-atvorini tasvirlash orqali ichki holatni ochib berishga o'tdi.

Hikoya tahlilida bixevoristik yondashuvdan foydalanish o'quvchining xulq-atvorini yaxshi tomonga o'zgartirishga olib kelishi mumkin. Aslini olganda o'g'rilik gunoh ekanligi, ammo zamona zayli bilan o'zi istamagan holda bu yo'lga kirib qolgan insonning o'z xatosini anglashi va Ona mehri oldida tiz cho'kishi yosh kitobxonni befarq qoldirmaydi.

Hikoyadagi yumor insonparvarlik tuyg'ulariga boyligi bilan qalbingizdan o'rin oladi. Yumor aloqa shakli va dunyoqarash fenomeni hisoblanadi, zamonaviy yumor Y.V.Latishev fikricha, globallashuvning tamoyillari va industrial jamiyat shakllanishi hamda tolerantlik, birdamlik va ijodkorlikning ustuvor yo'nalishlarini tasdiqlaydigan davrda tobora ko'proq ahamiyat kasb etmoqda. Shuning uchun bu madaniyat fenomeni etnopsixologiya, lingvomadaniyatshunoslik, adabiyot, adabiyotshunoslik, san'atshunoslik, psixolingvistika va boshqa fanlararo integratsiya jarayonida qo'llanilsa, yuqori natijalarga olib kelishi aniq. Demak, psixologiya va adabiyotdagi integratsiya inson kamolotida muhim o'rin tutadi. Asardagi kulgi esa kitobxonning ma'naviy olami, ruhiyatini boyituvchi vositalardan biri sifatida namoyon bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati:

1. Godfrua J. Chto takoye psixologiya: V 2-x t. T.1. Per. s frans. M., Mir, 1992. -496 s. 57-80-b.
2. www.psycho.all.ru
3. Fromm E. Inson qalbi. Toshkent. "U'zbekiston". 2016. 101 b.
4. G'afur G'ulom. Tanlangan asarlar. 3-tom. Toshkent. 1978.
5. Axmedova Sh. O'zbek tanqidchiligida janrlar. Toshkent. 2009.
6. Axmedova Sh., Qahramonov Q. Chin olimlik saodati. Toshkent. 2015.
7. Akhmedova Sh. N. Literary-aesthetic views of Khurshid Davron: //Obrazovanie i innovatsionne issledovaniya mejdunarodnyi nauchno-metodicheskiy zurnal. – 2022. – no. 6.2. Special issue. - S. 20-28.
8. Akhmedova, Shoir Nematova. "Progress portrait painting and period globalization and literary education." Russia-Uzbekistan. International educational and social-cultural technologies: vector development (2019): 12-14.
9. Nematovna, Akhmedova Shoir, Kadyrova N. S., and Kurbanova O. B. "Methodology and skills problems." The journal of contemporary issues in business and government 27.5 (2021): 778-784.

MUALLIF HAQIDA MA'LUMOT [ИНФОРМАЦИЯ ОБ АВТОРЕ] [AUTHORS INFO]

Axmedova Shoir Nematovna
Osiyo xalqaro universiteti professori
Manzil: O'zbekiston, Buxoro shahri

BOSHLANG'ICH SINIF O'QISH SAVODXONLIGI DARSLARIDA SHE'RLARDAN FOYDALANISHNING INNOVATSION METODLARI



Xudoyqulova Gulshan Xudoyor qizi

Osiyo xalqaro universitetining 2-kurs magistranti

Annotatsiya.

KIRISH: Mazkur maqolada 1-4-sinf o'qish savodxonligi darsligida berilgan she'rlarni o'rgatishda innovatsion metodlarning ahamiyati yoritilgan. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida Vatanni sevish tuyg'usini o'stiruvchi she'rlardan darslarda foydalanib, ularning bosh g'oyalarini o'quvchi ongiga chuqur singdirishda innovatsion metodlar orqali yaxshi natijalarga erishish mumkinligi ochib berilgan.

MAQSAD: Boshlang'ich sinf o'qish savodxonligi darslarida she'rlardan foydalanishning innovatsion metodlarini ilmiy tahlil qilish

MATERIALLAR VA METODLAR: Innovatsion metodlardan foydalanish dars jarayoniga yangicha ruh bag'ishlaydi, o'quvchilarning o'qishga bo'lgan motivatsiyasini oshiradi, o'z fikrini erkin ifoda etish, muloqotga kirishish va jamoada ishlash kabi ko'nikmalarini shakllantiradi. Ayniqsa boshlang'ich ta'lim bosqichida innovatsion yondashuvlar o'quvchilarda badiiy tafakkur, tasavvur, qiziqish va kreativlikni rivojlantirishda muhim o'rin tutad. Shu bois, ta'limda innovatsion metodlardan oqilona foydalanish zamonaviy pedagogning asosiy vazifalaridan biri bo'lib, ta'lim sifatini oshirishning muhim mezonini hisoblanadi.

XULOSA: She'rlarni o'qitishda innovatsion metodlardan foydalanish boshlang'ich sinf o'quvchilari rivojlanishiga kuchli ta'sir ko'rsatadi. Audio-vizual tahlil bolalarda chuqur idrokni shakllantirsa, dramatizatsiya ularni sahna madaniyatiga o'rgatadi, o'zaro o'yinlar esa o'qish jarayonini zavqli qiladi. Klaster va aqliy hujum metodlari mantiqiy fikrlashni rivojlantirsa, ijodiy qayta ishlash usullari bolalarning kreativlik salohiyatini kuchaytiradi. Raqamli texnologiyalar esa o'quvchilarning zamonaviy ta'limga moslashuvini ta'minlaydi

Kalit so'zlar: raqamli platformalar, multimediya vositalari, virtual resurslar, STEAM, audio-visual tahlil metodi, klaster va aqliy hujum texnologiyalari, ijodiy qayta ishlash metodi, QR-KODli topshiriqlar.

ИННОВАЦИОННЫЕ МЕТОДЫ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ СТИХОВ НА УРОКАХ ГРАМОТНОСТИ В НАЧАЛЬНОЙ ШКОЛЕ

Худойкулова Гульшан Худойровна

Студентка 2-го курса магистратуры Азиатского международного университета

Аннотация.

ВВЕДЕНИЕ: В данной статье подчеркивается важность инновационных методов обучения поэзии, представленных в учебниках по чтению для 1-4 классов. Выявлено, что

использование на уроках стихов, воспитывающих у учеников начальной школы любовь к Родине, и применение инновационных методов для глубокого запоминания их основных идей в сознании учащихся может привести к хорошим результатам.

ЦЕЛЬ: Научный анализ инновационных методов использования стихов на уроках чтения в начальной школе.

МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ: Использование инновационных методов придает новый дух учебному процессу, повышает мотивацию учащихся к учебе, формирует такие навыки, как свободное выражение мыслей, коммуникабельность и командная работа. Особенно на этапе начального образования инновационные подходы играют важную роль в развитии художественного мышления, воображения, интереса и креативности у учащихся. Поэтому рациональное использование инновационных методов в образовании является одной из главных задач современного учителя и важным критерием повышения качества образования.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ: Использование инновационных методов в обучении поэзии оказывает сильное влияние на развитие учеников начальной школы. Аудиовизуальный анализ формирует у детей глубокое восприятие, драматизация знакомит их с театральной культурой, а интерактивные игры делают процесс обучения увлекательным. Методы кластеризации и мозгового штурма развивают логическое мышление, а методы творческой обработки расширяют творческий потенциал детей. Цифровые технологии обеспечивают адаптацию учащихся к современному образованию.

Ключевые слова: цифровые платформы, мультимедийные инструменты, виртуальные ресурсы, STEAM, метод аудиовизуального анализа, технологии кластеризации и мозгового штурма, метод творческой обработки, задания с QR-кодами.

INNOVATIVE METHODS OF USING POEMS IN PRIMARY GRADE LITERACY LESSONS

Khudoykulova Gulshan Khudoyor kizi

2nd year master's student at Asian International University

Annatation.

INTRODUCTION: This article highlights the importance of innovative methods in teaching poems given in the 1st-4th grade reading literacy textbook. It is revealed that using poems that cultivate a sense of love for the Motherland in primary school students in lessons and using innovative methods to deeply instill their main ideas in the minds of students can achieve good results.

THE GOAL: Scientific analysis of innovative methods of using poems in primary school reading literacy lessons

MATERIALS AND METHODS: The use of innovative methods gives a new spirit to the lesson process, increases students' motivation to study, forms skills such as free expression of their thoughts, communication and teamwork. Especially at the primary education stage, innovative approaches play an important role in developing artistic thinking, imagination, interest and creativity in students. Therefore, the rational use of innovative methods in education is one of the main tasks of a modern teacher and is an important criterion for improving the quality of education.

CONCLUSION: The use of innovative methods in teaching poetry has a strong impact on the development of primary school students. Audio-visual analysis forms a deep perception in children, dramatization teaches them stage culture, and interactive games make the learning process enjoyable. Cluster and brainstorming methods develop logical thinking, while creative

processing methods enhance children's creative potential. Digital technologies ensure the adaptation of students to modern education

Keywords: digital platforms, multimedia tools, virtual resources, STEAM, audio-visual analysis method, cluster and brainstorming technologies, creative processing method, QR-CODE tasks.

XXI asr ta'lim jarayonida innovatsion metodlar o'quvchi shaxsini har tomonlama rivojlantirishga qaratilgan eng zamonaviy pedagogik yondashuvlar sifatida e'tirof etilmoqda. Innovatsion metodlarning asosiy xususiyati shuki, ular o'quvchini ta'lim jarayonining eng asosiy qismiga qo'yadi. Ushbu metodlarda o'qituvchi bilim beruvchi emas, balki yo'naltiruvchi, tashkilotchi, motivator (rag'batlantiruvchi) vazifalarini bajaradi. O'quvchilar esa erkin izlanish, fikrlash, tahlil qilish, baholash va ijodiy yondashish orqali bilimlarni faol o'zlashtiradilar. Bu esa ta'lim jarayonining samaradorligini oshiradi.

Bugungi globallashuv davrida axborot texnologiyalarining jadal sur'atlar bilan rivojlanib borayotgani ta'lim tizimida raqamli yondashuvlarning keng qo'llanilishiga yo'l ochdi. Shu sababli innovatsion metodlar nafaqat interfaol usullarni, balki raqamli platformalar, multimediya vositalari, virtual resurslar, STEAM (*STEAM-Science (Fan), Technology, Engineering (Muhandislik), Art (San'at) va Mathematics (Matematika)*) yo'nalishlari bilan integratsiya qilgan holda tashkil etish¹ texnologiyasi, kreativ vazifalar va kompetensiyaga yo'naltirilgan o'qitish shakllarini o'z ichiga oladi.


Innovatsion metodlardan foydalanish dars jarayoniga yangicha ruh bag'ishlaydi, o'quvchilarning o'qishga bo'lgan motivatsiyasini oshiradi, o'z fikrini erkin ifoda etish, mulohaza qilish va jamoada ishlash kabi ko'nikmalarini shakllantiradi. Ayniqsa boshlang'ich ta'lim bosqichida innovatsion yondashuvlar o'quvchilarda badiiy tafakkur, tasavvur, qiziqish va kreativlikni rivojlantirishda muhim o'rin tutadi. Shu bois, ta'limda innovatsion metodlardan oqilona foydalanish zamonaviy pedagogning asosiy vazifalaridan biri bo'lib, ta'lim sifatini oshirishning muhim mezonini hisoblanadi.

Boshlang'ich ta'lim jarayonida o'qish darslari o'quvchilarning dunyoqarashi, nutqi, lug'at boyligi, tasavvuri va badiiy idrokini shakllantirishda asosiy o'rin tutadi. She'riy asarlar bola ruhiyatiga tez ta'sir etuvchi, o'qib, tushunish osonligi, qofiyadosh so'zlar, obrazlar orqali fikrlashni rivojlantiruvchi xususiyatga ega. So'nggi yillarda ta'lim jarayonida innovatsion metodlardan foydalanish talab etilmoqda, bu esa she'rlarni o'qitish jarayonini yanada samarali, qiziqarli va interaktiv qilish imkonini beradi.

1. AUDIO-VIZUAL TAHLIL METODI

Audio-vizual tahlil metodi – bu she'rni matn sifatida o'qish bilan bir qatorda uni eshitish, ko'rish, musiqiy ohang orqali his qilish, obrazlarni animatsiya yoki multimediyada aks ettirish orqali chuqurroq idrok etish metodidir. Bola oddiy o'qib tushungandan ko'ra, uni ko'zi bilan ko'rib, hissiy anglashi uning berilgan she'rdagi asosiy g'oyalarni qabul qilish jarayonini faollashtiradi. She'r qahramonlari yoki voqealarini tasvirlovchi slaydlar, animatsiyalarni ko'rsatish eng samarali usullardan biridir. Masalan, 2-sinf o'qish savodxonligi darsida berilgan M.Xonnazavning "Ona Vatan" she'rini o'quvchilarga tushuntirishda audio-vizual metodidan foydalanish yaxshi samara beradi.

¹ Q.Yo'ldoshev: "Pedagogik texnologiyalar va pedagogic mahorat." Toshkent: O'qituvchi, 2019.



Ona Vatan

Miltiqboy Xonnazarov

Dunyoda onam aziz,
Onamday Vatan aziz.
Bu olamda jon aziz,
Jondan ham Vatan aziz.

Onam hamda Vatanni
Ko'zimdayin asrayman.
Ikkisin hurmatini,
Yuragimda saqlayman.

Onajonim bag'rida,
O'ynab-kulib yayrayman.
Ona Vatan qo'ynida,
Bulbul bo'lib sayrayman.

Kelajakda, albat – men,
Ulug' olim bo'laman.
Vatanimning dong'in men,
Dunyoga tarataman.



O'qituvchi berilgan she'rga mos yuqoridagi rasmga mos audioli slayd tayyorlab darsda foydalanishi yaxshi samara beradi. Slaydning bir tomoniga ona rasmi va boshqa tomoniga Vatan rasmi qo'yilib, she'rni ifodali o'qib, audiosini slaydga joylashtirish yaxshi samara beradi.

She'r ritmini musiqaga tenglashtirib chapak (ritmik harakatlar) bilan o'qishdan foydalanish mumkin. Bunda "onam aziz", "Vatan aziz", "Ko'zimdayin asrayman", "Ulug' olim bo'laman", "Dunyoga tarataman" kabi faxr bilan aytiladigan jumladan so'ng sinf o'quvchilari guruh bo'lib 1 ta chapak chaladilar. Bu orqali o'quvchilarda bu kabi so'zlar ijobiy so'zlar ekanligi, shu kabi harakatlarni qilish lozimligi ularning ongiga singdiriladi. Uning pedagogik samarasi ham alohida ahamiyatga ega. Bu metodni qo'llash orqali o'quvchining intonatsiyani to'g'ri qo'llashi osonlashadi. Audioni eshitgan o'quvchi, intonatsiyani to'g'ri qo'llay olish ko'nikmasi shakllanadi, o'qituvchining ishi osonlashadi. Tasviriyl fikrlash va emotsional idrok kuchayadi.

She'rni yod olish qobiliyati rivojlanadi va tez xotirasida qoladi. Eshitish va ko'rish orqali idrok qilish bir vaqtning o'zida faollashadi.

2. "KLAUSTER" VA "AQILIY HUJUM" TEXNOLOGIYALARI

She'r o'qilishi oldidan "Aqliy hujum" – she'rning nomi aytiladi, o'quvchilar uning mazmuniga doir taxminlar bildiradi. O'quvchilarning ijodiy fikrlashini rivojlantiradi. O'qituvchi qisqa vaqt ichida ko'p g'oyalarni aniqlashi mumkin

4-sinf o'qish savodxonligi darsligining 2-qism 2-bobida Zahro Hasanovanning "Davlatimiz ramzlari" she'ri berilgan. Shu mavzuni boshlashda o'qituvchi aqliy hujum metodini quyidagicha qo'llashi mumkin.

-She'r nomidan she'rda qanday mavzu yorilganini tushundingizmi?

-Ramzlar nima degani?

Davlatimiz ramzlarini bilasizmi?

-Nima uchun har bir davlatning o'z ramzlar bor?

O'quvchilar fikri tinglangandan so'ng, she'rni o'qituvchi o'qib beradi yoki notiq tomonidan o'qib berilgan audiosini eshittiriladi. O'quvchilarning aytgan fikrlari va she'r mazmunida o'z aksini topgan shoir fikrlari taqqoslanadi. She'r davlatimizning ramzlari: bayroq, gerb va madhiya haqida ekanligi, ularning ramziy ma'nolari haqida tushuntirib beriladi.

"Klaster tuzish" – she'r qahramonlari, his-tuyg'ulari, tabiat manzaralari atrofida tarmoqli fikr xaritasi tuziladi.

She'r mazmuniga oid asosiy g'oyani ajratiladi va uni klaster markaziga joylashtiriladi. Bunda she'rni tahlil qilish osonlashadi, bolalarda mantiqiy bog'lanishlarni ko'ra olish qobiliyati

rivojlanadi, mustaqil fikr bildirishga rag'bat oshadi. O'quvchilar she'r mazmunini chuqurroq tushunadi va ifodalaydi.



“Ifodali o‘qish bellashuvi” tashkil etish.

Ifodali o‘qish o‘quvchilarning badiiy matnni his qilib, ovoz, pauza, intonatsiyaga amal qilgan holda va his-tuyg‘ular bilan ifodali o‘qishga o‘rgatadi. o‘quvchilarda nutqiy ifoda, sahna madaniyati, emotsional o‘qish ko‘nikmasi shakllanadi. Ifodali o‘qish bellashuvidan oldin o‘quvchilarga she’rni mustaqil o‘qishlari uchun vaqt beriladi. Chunki ular she’rdagi asosiy g‘oyani anglab yetishlari, she’rdagi tinish belgilar bilan tanishishlari lozim. O‘quvchilarning tovush talaffuzi to‘g‘riligi, ovoz kuchi (jarangdorligi), ohangdorlik, matn mazmunini his qilib, qahramonlar tuyg‘ularini ovoz orqali ajrata olishlari, tinish belgilari asosida ovoz kuchidan foydalana olishlariga alohida e’tibor beriladi va yo‘l qo‘ygan kamchiliklari tuzatib, o‘rgatib boriladi.

Jamoaviy ishlash malakasi kuchayadi. Chunki o‘quvchilar bir–birini tinglaydi, ohangdor so‘zlarning talaffuzini tinglab o‘rganadilar.

3. IJODIY QAYTA ISHLASH METODI

Ijodiy qayta ishlash metodi she’r mazmuni asosida yangi matn, yangi obraz, yangi voqea yaratishni o‘z ichiga oladi. Bu metod ijodkorlikni yuqori darajada ochib beradi va rivojlantiradi. Bu metodni qo‘llaganda

- She’rga davom yozish,
- “agar shunday bo‘lganda...” usuli bilan yangi yakun yaratish.
- She’r qahramonlari nomidan xat yoki kichik hikoya yozish.
- She’r asosida mini-ertak yaratish.
- She’rni o‘z so‘zlari bilan qayta ifodalash

Bu metod bolalarda kreativ fikrlashni rivojlanadi, lug‘at boyligi kengayadi va she’r mazmuni chuqurroq o‘zlashtiriladi. O‘quvchilarning yozma nutqi shakllanadi.

O‘zbekiston quyoshi. Iskandar Rahmon

*Olam uzra porlaydi
O‘zbekiston quyoshi !
Ezgulikka chorlaydi
O‘zbekiston quyoshi!*

She’rni o‘quvchilar ijodiy o‘zlari davom ettiradilar. Qofiyasi, mazmuni to‘g‘ri kelgan bandlar doskada yozib boriladi. Bu metod o‘quvchining ijodkorlik qobiliyatini aniqlashga va rivojlantirishga yordam beradi. Ular quyidagicha davom ettirishi mumkin :

*Yer yuzin kezib kelar
Barchani ko‘rib kelar*


O'zbekiston yurtiga
Baxt-quvonch olib kelar.
O'zbekiston quyoshi

O'quvchilarga **“Shaxmat taxtasi” mashqi** orqali she'rning asosiy g'oyasi o'z ifodasini topgan kalitn so'zlarni o'rgatish mumkin.

4	R	I	A	K
3	O	Z	E	T
2	H	L	S	SH
1	O'	B	N	M
	A	B	C	D

1. A3 B2 C4 D1
2. A1 B3, B1, C3, D4, B4, C2, D3, A3, C1
3. A3, B2, C4, D1
4. D1, C4, D2, C4, B2, C4
5. D1, C3, A2, A4
6. D1, C3, A2, A4, C2, B4, B3, B2, B4, D4.

2-sinf o'qish darsligida berilgan **Shoira Ismoilovaning “Ozod va obod Vatan” matni** asosida quyidagicha diagrammali mashqni bajarish mumkin.



Bu mashq orqali o'quvchilarda Vatan oiladan boshlanishi, mahallamiz, shahrimiz ham Vatan ichidagi kichik Vatan ekanligi amaliy tushuntiriladi.


QR-KODLI TOPSHIRIQLAR VA RAQAMLI TA'LIM UNSURLARI

Raqamli ta'lim vositalaridan foydalanish darsni interaktivlashtiradi, o'quvchilarning faolligi oshadi. QR-kodlar orqali qo'shimcha resurslar, multimedia, savollar, videolar, testlar ulanishi o'quvchini mustaqil o'rganishga yordam beradi. Bu kabi vositalardan o'tilgan mavzuni mustahkamlashda, yangi mavzu bayoni va yangi mavzuni mustahkamlashda foydalanish mumkin. Demak darsning istalgan qismida QR-KODli topshiriqlar va ma'lumotlardan foydalanish mumkin.

- She'r muallifi haqida ma'lumot beruvchi QR-kodlar.
- She'rni professional o'qib berilgan videolarga havola.
- Onlayn viktorina, mini-testlar, savol-javoblar.
- She'r mazmuniga oid rasmlar, qo'shimcha hikoyalar.

Bu metod o'quvchilarning mustaqil o'rganish ko'nikmasi shakllantiradi, raqamli savodxonlikni rivojlantiradi. She'r mazmuni multimedia orqali yanada boyitiladi.

Raqamli ta'lim platformalari bor. Ular yordamida ta'limiy o'yinlarni tashkil etish darsni yanada qiziqarli qiladi va o'quvchilarni faollashtiradi. Bu kabi raqamli platformalarga Wordwall, Kahoot, Quizlet kabilarni misol qilish mumkin.



7. STEAM elementlari asosidagi she'r o'qitish

STEAM (Science, Technology, Engineering, Art, Mathematics) metodikasi she'rni san'at bilan bog'lash orqali yangi yondashuv yaratadi.

- Science elementi: she'r mazmunida tabiat aks etgan satrlarni topib, qayta o'qish va shu o'rinlarni og'zaki qayta hikoyalash.
- "San'at" elementi: she'r mazmuniga rasm chizish yoki kollaj yaratish;
- "Texnologiya" elementi: she'r bo'yicha slayd tayyorlash;

- “Matematika” elementi: she’r ritmi, qofiyalarni sanash.

Bu integratsiya o’quvchilarning ijodkorlik, tanqidiy fikrlash, muammoni hal qilish va amaliy ko’nikmalarni rivojlantiradi. O’quvchilar egallagan bilimlarini hayotiy vaziyatlarda qo’llashni o’rganadilar.

Boshlang’ich sinflarda innovatsion metodlar quyidagi natijalarni beradi:

- o’quvchilarning o’qish savodxonligi oshadi;
- she’rni tahlil qilish ko’nikmalari kuchayadi;
- ifodali o’qish bo’yicha mustaqillik ortadi;
- dars jarayonida faol ishtirok etish 2 barobar oshadi;
- ijodiy fikrlash va nutq madaniyatida sezilarli o’sish kuzatiladi;
- innovatsion metodlar nafaqat she’rni yodlashni, balki uni his qilish, tushunish, baholash, qayta yaratish jarayonlarini ham qamrab oladi.

She’rlarni o’qitishda innovatsion metodlardan foydalanish boshlang’ich sinf o’quvchilari rivojlanishiga kuchli ta’sir ko’rsatadi. Audio-vizual tahlil bolalarda chuqur idrokni shakllantirsa, dramatizatsiya ularni sahna madaniyatiga o’rgatadi, ointerfaol o’yinlar esa o’qish jarayonini zavqli qiladi. Klaster va aqliy hujum metodlari mantiqiy fikrlashni rivojlantirsa, ijodiy qayta ishlash usullari bolalarning kreativlik salohiyatini kuchaytiradi. Raqamli texnologiyalar esa o’quvchilarning zamonaviy ta’limga moslashuvini ta’minlaydi

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati:

1. Jumaniyozova M. “Malaka oshirish jarayonida o’qituvchilarni innovatsion faoliyatga tayyorlashning pedagogik asoslari”. p.f.n. dis.T.2007y.186 b.
2. O’qish savodxonligi. I qism: - 2-sinflar uchun darslik/ U.B.Aydarova – Toshkent: Novda,2024
3. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-5466-son “Yoshlar kelajagimiz” Davlat dasturi, 2018-yil 27-iyun.
4. Q.Yo’ldoshev :”Pedagogik texnologiyalar va pedagogic mahorat.” Toshkent: O’qituvchi, 2019.

MUALLIF HAQIDA MA’LUMOT [ИНФОРМАЦИЯ ОБ АВТОРЕ] [AUTHORS INFO]

Xudoyqulova Gulshan Xudoyor qizi

Osiyo xalqaro universitetining 2-kurs magistranti

Manzil: O’zbekiston, Buxoro shahri

O'ZBEK TILIDA QIMMATBAHO TOSH VA MA'DANLARNING LINGOKOGNITIV XUSUSIYATLARI



Ro'ziyeva Shoxida Bahtiyorovna
Osiyo xalqaro universiteti magistri

Annotatsiya.

KIRISH: Ushbu maqolada o'zbek tili leksikasidagi qimmatbaho tosh va ma'dan nomlarining lingvokognitiv xususiyatlari, tilshunoslikdagi o'rni, ma'no tuzilishi, inson tilining tafakkur va madaniyat bilan bog'liqligi haqida so'z yuritiladi.

Mazkur maqola orqali qimmatbaho tosh va ma'danlar nomlarining konseptual mazmuni, ularning o'zbek tilidagi o'rni, o'xshatishlar, ma'no ko'chishlar (metafora)da ishtiroki va majoziy ma'nolari yoritiladi. O'zbek tilidagi oltin, kumush, la'l, javohir, olmos singari til birliklari nafaqat moddiy obyekt sifatida, balki konseptual va ramziy birliklar sifatida shakllanishi misollar yordamida bayon etiladi.

MAQSAD: O'zbek tilida qimmatbaho tosh va ma'danlarning lingvokognitiv xususiyatlarini ilmiy tahlil qilish

MATERIALLAR VA METODLAR: Til inson tafakkurining mahsuli bo'lib, unda millatning tarixiy tajribasi, madaniyati va dunyoqarashi mujassam bo'ladi. Lingvokognitiv yondashuv til birliklarini inson ongida shakllangan bilimlar tizimi bilan bog'liq holda o'rganadi. Qimmatbaho tosh va ma'danlar esa qadimdan insoniyat hayotida muhim iqtisodiy, estetik va ramziy ahamiyat kasb etgan.

O'zbek tilida oltin, kumush, zumrad, yoqut, la'l kabi qimmatbaho tosh va ma'dan nomlari nafaqat moddiy boylik, balki go'zallik, poklik, qudrat, abadiylik kabi tushunchalar bilan ham uzviy bog'langan. Shu jihatdan ularni lingvokognitiv nuqtai nazardan o'rganish dolzarb hisoblanadi.

XULOSA: O'zbek tilida qimmatbaho tosh va ma'dan nomlari lingvokognitiv jihatdan boy va ko'p qirrali birliklar hisoblanadi. Ular nafaqat moddiy dunyoni, balki milliy tafakkur, madaniyat va qadriyatlar tizimini aks ettiradi. Qimmatbaho toshlar bilan bog'liq leksik birliklar o'zbek xalqining go'zallik, poklik, qadriyat va boylik haqidagi tasavvurlarini konseptual tarzda ifodalaydi.

Kalit so'zlar: lingvokognitivlik, qimmatbaho toshlar, ma'danlar, konsept, semantika, milliy tafakkur, ramziy ma'no

ЛИНГВОКОГНИТИВНЫЕ СВОЙСТВА ДРАГОЦЕННЫХ КАМНЕЙ И МИНЕРАЛОВ НА УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКЕ

Рузиева Шохид Бахтиёровна
Магистр, Азиатский международный университет

Аннотация.

ВВЕДЕНИЕ: В данной статье рассматриваются лингвокогнитивные свойства названий драгоценных камней и минералов в узбекском лексиконе, их место в

лингвистике, смысловая структура и связь человеческого языка с мышлением и культурой.

В статье освещается концептуальное содержание названий драгоценных камней и минералов, их место в узбекском языке, их участие в аналогиях, переносе значений (метафорах) и переносных значениях. Формирование языковых единиц, таких как золото, серебро, рубин, драгоценный камень и алмаз, в узбекском языке объясняется не только как материальные объекты, но и как концептуальные и символические единицы, на примерах.

ЦЕЛЬ: Научно проанализировать лингвокогнитивные свойства драгоценных камней и минералов в узбекском языке.

МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ: Язык — продукт человеческого мышления, воплощающий исторический опыт, культуру и мировоззрение нации. Лингвокогнитивный подход изучает языковые единицы в связи с системой знаний, сформированной в человеческом разуме. Драгоценные камни и минералы издавна играли важную экономическую, эстетическую и символическую роль в жизни человека.

В узбекском языке названия драгоценных камней и минералов, таких как золото, серебро, изумруд, рубин, рубин, неразрывно связаны не только с материальным богатством, но и с такими понятиями, как красота, чистота, власть, вечность. В этом контексте их изучение с лингвокогнитивной точки зрения является актуальным.

ВЫВОД: В узбекском языке названия драгоценных камней и минералов представляют собой лингвокогнитивно богатые и многогранные единицы. Они отражают не только материальный мир, но и национальную систему мышления, культуру и ценности. Лексические единицы, связанные с драгоценными камнями, концептуально выражают представления узбекского народа о красоте, чистоте, ценности и богатстве.

Ключевые слова: лингвокогнитивный, драгоценные камни, минералы, понятие, семантика, национальная мысль, символическое значение

LINGUOCOGNITIVE PROPERTIES OF PRECIOUS STONES AND MINERALS IN THE UZBEKISTAN LANGUAGE

Ruziyeva Shokhida Bakhtiyorovna

Master of Science, Asian International University

Annatation.

INTRODUCTION: This article discusses the linguocognitive properties of the names of precious stones and minerals in the Uzbek lexicon, their place in linguistics, meaning structure, and the connection of human language with thought and culture.

This article sheds light on the conceptual content of the names of precious stones and minerals, their place in the Uzbek language, their participation in analogies, meaning transfers (metaphors), and figurative meanings. The formation of linguistic units such as gold, silver, ruby, gem, and diamond in the Uzbek language not only as material objects, but also as conceptual and symbolic units is explained using examples.

THE GOAL: To scientifically analyze the linguocognitive properties of precious stones and minerals in the Uzbek language

MATERIALS AND METHODS: Language is a product of human thought, embodying the historical experience, culture, and worldview of a nation. The linguocognitive approach studies language units in relation to the system of knowledge formed in the human mind. Precious stones and minerals have long been of significant economic, aesthetic and symbolic importance in human life.

In the Uzbek language, the names of precious stones and minerals such as gold, silver, emerald, ruby, ruby are inextricably linked not only with material wealth, but also with concepts

such as beauty, purity, power, eternity. In this regard, studying them from a linguocognitive perspective is relevant.

CONCLUSION: In the Uzbek language, the names of precious stones and minerals are linguocognitively rich and multifaceted units. They reflect not only the material world, but also the national system of thought, culture and values. Lexical units related to precious stones conceptually express the ideas of the Uzbek people about beauty, purity, value and wealth.

Keywords: linguocognitive, precious stones, minerals, concept, semantics, national thought, symbolic meaning

Til nafaqat insonlar orasidagi aloqa vositasi, balki millatning tarixini, madaniy-ma'rifiy tajribasini saqlovchi, asrlar osha avloddan-avlodga yetkazuvchi majmuadir. Chunki tildagi har bir leksik birlikda xalqning tarixi, milliy qadriyatlari va dunyoqarashi jamlangan bo'ladi. Lisoniy voqelikni shakllantirishda moddiy boyliklar bilan bog'liq til birliklari, jumladan, qimmatbaho tosh va ma'danlarning nomlari muhim o'rin egallaydi. O'zbek tilida tosh va ma'dan nomlari shunchaki predmet ma'nosini anglatish bilan birga, chuqur kognitiv va ramziy ma'nolarni ham bildiradi. Qimmatbaho tosh nomlari milliy tafakkurning muhim leksik birliklaridan bo'lib, ular tilimizda keng semantik va kognitiv imkoniyatlarga ega.

Til inson tafakkurining mahsuli bo'lib, unda millatning tarixiy tajribasi, madaniyati va dunyoqarashi mujassam bo'ladi. Lingvokognitiv yondashuv til birliklarini inson ongida shakllangan bilimlar tizimi bilan bog'liq holda o'rganadi. Qimmatbaho tosh va ma'danlar esa qadimdan insoniyat hayotida muhim iqtisodiy, estetik va ramziy ahamiyat kasb etgan.

O'zbek tilida oltin, kumush, zumrad, yoqut, la'l kabi qimmatbaho tosh va ma'dan nomlari nafaqat moddiy boylik, balki go'zallik, poklik, qudrat, abadiylik kabi tushunchalar bilan ham uzviy bog'langan. Shu jihatdan ularni lingvokognitiv nuqtai nazardan o'rganish dolzarb hisoblanadi.

Lingvokognitiv tilshunoslikda leksik birliklar, xususan, madaniy ahamiyatga ega bo'lgan so'zlar inson tafakkuri va konseptual dunyoqarash bilan uzviy bog'liq holda o'rganiladi. Bu borada bir qator yetuk olimlar muhim ilmiy qarashlarni ilgari surganlar.

Rus tilshunosi **E.S. Kubryakova** tilni inson ongida mavjud bo'lgan bilimlar tizimining ifodasi sifatida talqin qiladi. Uning fikricha, har bir so'z inson tajribasi asosida shakllangan konseptni aks ettiradi. Shu nuqtai nazardan qaralganda, *oltin*, *kumush*, *gavhar* kabi qimmatbaho tosh va ma'dan nomlari moddiy obyektini emas, balki ongda shakllangan **qadriyat, boylik va mukammallik konseptlarini** ifodalaydi.

V.A. Maslova lingvokognitiv tadqiqotlarda milliy madaniyat va til o'rtasidagi bog'liqlikka alohida urg'u beradi. Olimaning ta'kidlashicha, madaniy jihatdan muhim bo'lgan leksik birliklar xalqning mentaliteti va tarixiy tajribasini o'zida mujassam etadi. O'zbek tilidagi qimmatbaho toshlar bilan bog'liq so'zlar ham xalqning go'zallik, poklik va bebaho qadriyatlar haqidagi tasavvurlarini aks ettiruvchi madaniy belgilar sifatida namoyon bo'ladi.

Amerikalik olim **J. Lakoff** va **M. Johnson**larning konseptual metafora nazariyasiga ko'ra, inson mavhum tushunchalarni ko'pincha moddiy obyektlar orqali anglaydi. O'zbek tilida "oltin yurak", "gavhardek inson", "oltinday qadrlı" kabi birikmalar aynan shu nazariyaga mos bo'lib, qimmatbaho toshlar orqali insoniy fazilatlarni metaforik baholash amalga oshiriladi.

O'zbek tilshunosi **Sh. Rahmatullayev** frazeologik birliklarni tahlil qilar ekan, qimmatbaho tosh va ma'dan nomlari ishtirokidagi iboralar yuqori darajadagi ijobiy bahoni ifodalashini ta'kidlaydi. Uning fikricha, bunday birliklar xalqning qadriyatlar tizimini va estetik qarashlarini ifodalaydi.

Shuningdek, **N. Mahmudov** milliy til birliklarining kognitiv tahlili haqida so'z yuritir ekan, til orqali xalqning dunyoni idrok etish usuli namoyon bo'lishini qayd etadi. Qimmatbaho toshlar bilan bog'liq leksik birliklar esa o'zbek xalq ongida **bebaho narsa – qimmatbaho tosh** modeli asosida shakllanganini ko'rsatadi.

Lingvokognitiv yondashuvning nazariy asoslari

Lingvokognitiv tilshunoslik tilni inson bilish faoliyati bilan bog‘liq holda o‘rganadi. Bu yondashuvda:

- til – bilimlarni saqlovchi va uzatuvchi vosita;
- so‘z – ma’lum bir konseptning ifodasi;
- ma’no – inson tajribasi va madaniyati bilan chambarchas bog‘liq hodisa sifatida talqin qilinadi.

Qimmatbaho tosh va ma’dan nomlari ham o‘zbek tilida muayyan konseptlarni shakllantiradi va mustahkamlaydi.

Qimmatbaho tosh va ma’dan nomlarining semantik xususiyatlari

O‘zbek tilida qimmatbaho tosh va ma’danlar asosan ijobiy baholovchi semantikaga ega:

- **Oltin** – boylik, eng yuqori qadriyat, mukammallik (oltin davr, oltin yurak);
- **Kumush** – poklik, nafislik, yoshlik (kumush soch);
- **Zumrad** – yashillik, hayot, go‘zallik;
- **Yoqut, la’l** – muhabbat, qimmat, nodirlik ramzi.

Bu birliklar ko‘pincha ko‘chma ma’noda ishlatilib, insonning ichki va tashqi fazilatlarini baholashda xizmat qiladi.

Qimmatbaho toshlarning ramziy va konseptual talqini

Lingvokognitiv jihatdan qimmatbaho toshlar o‘zbek xalq ongida **ramziy konseptlar** bilan bog‘langan:

- **Oltin** – qadriyat konsepti
- **Kumush** – poklik va orastalik konsepti
- **Gavhar** – bebaho inson, iste’dod konsepti

Masalan, “**farzand – ota-onaning gavhari**” birikmasida gavhar konsepti insoniy qadriyat bilan tenglashtiriladi. Bu esa til orqali milliy tafakkur namoyon bo‘lishining yaqqol ko‘rinishidir.

Qimmatbaho toshlar va ma’danlarning quyidagi lingvokognitiv xususiyatlarga ega:

O‘zbek tilida tosh va ma’danlar faqatgina kimyoviy element yoki qimmatbaho metall ma’nosida emas, balki turli xil kognitiv tushunchalarni ifodalaydi. Masalan, “Oltin” so‘zini tahlil qiladigan bo‘lsak, bu so‘z qimmatbaho tosh ma’nosi bilan birga “qimmatli”, “bebaho”, “aziz”, “qadrli” kabi tushunchalarni ifodalovchi konseptdir. “Ona yurti -oltin beshiging”, “Talabalik – oltin davrim”, “Qasoskorning oltin boshi” kabi jumlar bunga yaqqol misol bo‘ladi. Shunga ko‘ra, gemmonimlarni lingvokognitiv yondashuv asosida tahlil qilish muhim ahamiyatga ega. Mazkur yondashuvga ko‘ra, so‘zlar shunchaki moddiy tushunchani emas, balki inson tafakkurida shakllangan konseptlarning ifodasidir. Tilimizda toshlar ramziy ma’noda salomatlik, go‘zallik va poklik kabi ma’nolarni ham ifodalaydi. Masalan, la’l qizillik, hayotiylik, go‘zallik timsoli, firuza baxt, g‘alaba, poklik ramzi, temir mustahkamlik ma’nolarida qo‘llanishi mumkin.

O‘zbek mumtoz adabiyotida qimmatbaho toshlarning kognitiv ma’nolaridan foydalanish keng ko‘zga tashlanadi. Masalan Alisher Navoiyning quyidagi baytiga e’tibor qaratadigan bo‘lsak:

Ko‘zlarimdan sochilgay har dam dur-u gavhar,
Garchi hajringda ko‘ngil bo‘ldi g‘ami javhar.
Bu baytdagi “dur-u gavhar” oshiqning ko‘zyoshlariga o‘xshatilmoqda.

Dedi: “Jonimgi olsa la’li yodi?”

Dedi: “Ushbudir jonim murodi”. (Alisher Navoiy “Xamsa”)

Tamanno qilg ‘ali la’lingni ko‘nglum,
Kishi bilmas onikim qoldi qanda. (Atoyi)

Ushbu baytlardagi la'l toshi yorning lablari va so'zlarini ifodalaydi.

Metaforik ko'chishlar. Qimmatbaho toshlar va ma'danlarning nomlari ma'no ko'chishlarda ham faol ishtirok etadi. Ular, aksariyat hollarda insonning tashqi qiyofasini tasvirlashda va narsa -predmetga xos bo'lgan belgilarni ifodalashda xizmat qiladi: “Tishing – dur, labing – marjon, Xading – gul, xating – rayhon”(Bobur), “Qizning ko'zlari gavhardek yonardi”, “Talabalik – oltin davrim”, “Kumush qishdan, zumrad bahordan Qolishmaydi kuzning ziynati” “Temir intizomli, po'lat irodali inson barcha maqsadlariga erishadi” tarzidagi gaplar nutqimizni ta'sirchan qilishda yordam beradi.

Frazeologik birliklarda tosh va ma'danlarning ishlatilishi. O'zbek tilidagi qimmatbaho tosh va ma'danlar ishtirokidagi iboralar xalqning tajribasini namoyon qiladi. Ya'ni “Qulog'iga qo'rg'oshin quymoq – eshitmaslik, e'tibor bermaslik”, “Misi chiqmoq – soxtaligi fosh bo'lmoq”, “Toshbag'ir – shaxsga nisbatan xususiyat”, “Og'ziga tosh solmoq – lom-mim demaslik”, “Tosh qotmoq – hayratdan yoki qo'rquvdan qotib qolmoq”, “Oltin beshik – vatan”, “Temirni qizig'ida bosmoq – har bir ishni vaqtida bajarish kerakligi” singari frazeologizmlar tilimizda juda ko'p uchraydi. Bu iboralarning aksariyati inson fazilatlarini moddiy buyumlarning xossalriga o'xshatish asosida paydo bo'lgan.

O'zbek tilidagi qimmatbaho tosh va ma'dan nomlari shunchaki terminologik qatlam emas, balki xalqning estetik va falsafiy qarashlarini ifodalovchi lisoniy birliklardir. Ularning lingvokognitiv tahlili o'zbek xalqining go'zallikni qanday idrok etishi va moddiy dunyoni ma'naviy qadriyatlar bilan qanday bog'lashini tushunishga yordam beradi.

O'zbek tilida qimmatbaho tosh va ma'dan nomlari lingvokognitiv jihatdan boy va ko'p qirrali birliklar hisoblanadi. Ular nafaqat moddiy dunyoni, balki milliy tafakkur, madaniyat va qadriyatlar tizimini aks ettiradi. Qimmatbaho toshlar bilan bog'liq leksik birliklar o'zbek xalqining go'zallik, poklik, qadriyat va boylik haqidagi tasavvurlarini konseptual tarzda ifodalaydi.

O'zbek tilida faol ishlatiladigan qimmatbaho tosh va ma'dan nomlari aynan bir ma'noni ifodalamaydi, balki juda ko'plab kognitiv ma'nolarni anlatishi bilan ahamiyatlidir. Bunday so'zlar tilimiz jozibasini, go'zalligini ko'rsatib, uni yanada ta'sirchan qiladi.

Mazkur tadqiqot natijalari o'zbek tilshunosligida lingvokognitiv tadqiqotlarni kengaytirish hamda madaniy-lisoniy merosni chuqurroq o'rganishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati:

1. Safarov Sh. Lingvokognitologiya – Toshkent: “Fan”, 2006
2. Mahmudov N. Tilning mukammal tadqiqi yo'llarini izlab.. O'zbek tili va adabiyoti. – Toshkent, 2012. – N 3.
3. O'zbek tilining izohli lug'ati 5 jildlik – Toshkent .
4. Alisher Navoiy “Xamsa” – Toshkent, 2015.
5. Rahmatullayev Sh. O'zbek tili frazeologik lug'ati – Toshkent, 2022.
6. Maslova V.A. Lingvokognitivnaya lingvistika. – Moskva, 2008.
7. Kubryakova E.S. Yazyk i znanie. – Moskva, 2004.
8. Rahmatullayev Sh. O'zbek tilining izohli frazeologik lug'ati. – Toshkent.
9. Karimov B. O'zbek tili leksikologiyasi. – Toshkent.

MUALLIF HAQIDA MA'LUMOT [ИНФОРМАЦИЯ ОБ АВТОРЕ] [AUTHORS INFO]

Ro'ziyeva Shoxida Bahtiyorovna

Osiyo xalqaro universiteti magistri

Manzil: O'zbekiston, Buxoro shahri



INGLIZ TILINI O'QITISHDA O'SMIRLARNING BILISH JARAYONLARINI RIVOJLANTIRISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Qurbonova Dilnoza Arslanovna

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti dotsenti (PhD)

Annotatsiya.

KIRISH: Ushbu maqolada ingliz tilini o'qitishda o'smirlarning bilish jarayonlarini rivojlantirishga doir mulohaza va fikrlar berilgan. O'smirlarning bilish jarayonlari rivojlantirishning o'ziga xos xususiyatlari keng yoritilgan. Shuningdek, maqolada ingliz tilini o'qitish muvaffaqiyatini ta'minlaydigan omillar o'z aksini topgan va bilish jarayonlarini rivojlantirishning ilmiy-psixologik jihatlarini yoritilgan.

Shu bilan birga, bilish jarayonlarini rivojlantirish nafaqat xorijiy tilni o'zlashtirish jarayonini samarali amalga oshiradi, balki tinglovchilarning kasbiy o'sishida ham muhim omil sifatida qaraladi.

MAQSAD: Ingliz tilini o'qitishda o'smirlarning bilish jarayonlarini rivojlantirishning o'ziga xos xususiyatlarini pedagogic tahlil qilish

MATERIALLAR VA METODLAR: Psixologik adabiyotlarni o'rganish, tahlil qilish turli xil yondashuvlarni belgilashga imkon beradi. Xorijiy tilni o'rganish jarayonidagi o'quvchi qobiliyatning ta'rifi uch tomondan yondashiladi:

1) til va nutq ko'nikmalarining turli jihatlariga qobiliyatlarni aniqlash nuqtai nazaridan;
2) til materiallarini o'zlashtirishga nisbatan qobiliyatlar tuzilishining yadrosi bo'lgan aqliy jarayonlarning (idrok, xotira, fikrlash) xususiyatlarini aniqlash nuqtai nazaridan (S. L. Rubinshteyn);

3) shaxsning individual psixologik, xarakterologik va shaxsiy xususiyatlarining ta'sirini aniqlash nuqtai nazaridan - iroda, hissiyotlar, temperament turi, ekstraversiya (introversiya) va boshqalar – chet tilini o'zlashtirish va egallash muvaffaqiyati haqida.

XULOSA: O'smirlik davri o'quvchilarning o'rganish qobiliyatiga bevosita ta'sir qiluvchi tezkor kognitiv, hissiy va ijtimoiy o'zgarishlar bilan tavsiflangan muhim rivojlanish davri bo'lganligi uchun, ingliz tilini o'qitish o'rta ta'limning asosiy tarkibiy qismiga aylandi. Biroq, o'smirlik davrida tilni samarali o'zlashtirish nafaqat o'qitish strategiyalariga, balki bilish jarayonlarini rivojlantirishni shakllantiruvchi asosiy psixologik mexanizmlarga ham bog'liq. Diqqat, xotira, nutq, idrok, tasavvur va yuqori darajadagi fikrlash qobiliyatlari bu bosqichda qanday rivojlanib borishini tushunish o'smirlarning lingvistik ma'lumotlarni qanday qayta ishlashi va ingliz tilida kommunikativ kompetentsiyaga ega bo'lishi haqida ahamiyatli ma'lumot beradi.

Kalit so'zlar: bilish jarayonlari, rivojlantirish, fikrlar, psixik taraqqiyot, o'smirlar, psixolingvistika, nutq, til ko'nikmalari, psixologik omillar, idrok.

ОСОБЕННОСТИ РАЗВИТИЯ КОГНИТИВНЫХ ПРОЦЕССОВ ПОДРОСТКОВ В ПРЕПОДАВАНИИ АНГЛИЙСКОГО ЯЗЫКА

Курбанова Дильноза Арслановна

Доцент Узбекского государственного университета мировых языков, (PhD)

Аннотация.

ВВЕДЕНИЕ: В данной статье представлены соображения и идеи о развитии познавательных процессов подростков в процессе обучения английскому языку. Подробно рассмотрены специфические особенности развития познавательных процессов подростков. В статье также отражены факторы, обеспечивающие успех

обучения английскому языку, и освещены научно-психологические аспекты развития познавательных процессов.

При этом развитие познавательных процессов не только эффективно реализует процесс овладения иностранным языком, но и рассматривается как важный фактор профессионального роста слушателей.

ЦЕЛЬ: Педагогический анализ специфических особенностей развития познавательных процессов подростков в процессе обучения английскому языку.

МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ: Изучение и анализ психологической литературы позволяет выявить различные подходы. Определение способностей учащихся в процессе изучения иностранного языка рассматривается с трех сторон:

1) с точки зрения выявления способностей в различных аспектах языковых и речевых навыков;

2) с точки зрения выявления характеристик психических процессов (восприятие, память, мышление), которые составляют ядро структуры способностей в отношении усвоения языкового материала (С. Л. Рубинштейн);

3) с точки зрения выявления влияния индивидуальных психологических, характерологических и личностных характеристик человека — воли, эмоций, типа темперамента, экстраверсии (интроверсии) и др. — на успешность освоения и совершенствования иностранного языка.

ВЫВОД: Поскольку подростковый возраст является важным периодом развития, характеризующимся быстрыми когнитивными, эмоциональными и социальными изменениями, непосредственно влияющими на учебные способности учащихся, преподавание английского языка стало ключевым компонентом среднего образования. Однако эффективное усвоение языка в подростковом возрасте зависит не только от стратегий обучения, но и от основных психологических механизмов, формирующих развитие познавательных процессов. Понимание того, как на этом этапе развиваются внимание, память, речь, восприятие, воображение и навыки мышления высшего порядка, дает важную информацию о том, как подростки обрабатывают языковую информацию и приобретают коммуникативную компетенцию на английском языке.

Ключевые слова: когнитивные процессы, развитие, мышление, психическое развитие, подростки, психолингвистика, речь, языковые навыки, психологические факторы, восприятие.

SPECIFIC FEATURES OF DEVELOPING ADOLESCENTS' COGNITIVE PROCESSES IN ENGLISH LANGUAGE TEACHING

Kurbanova Dilnoza Arslanovna

Associate Professor (PhD) of the Uzbek State University of World Languages

Annatation.

INTRODUCTION: This article provides considerations and ideas on the development of cognitive processes of adolescents in teaching English. The specific features of the development of cognitive processes of adolescents are widely covered. The article also reflects the factors that ensure the success of teaching English and highlights the scientific and psychological aspects of the development of cognitive processes.

At the same time, the development of cognitive processes not only effectively implements the process of mastering a foreign language, but is also considered an important factor in the professional growth of listeners.

THE GOAL: Pedagogical analysis of the specific features of the development of cognitive processes of adolescents in teaching English

MATERIALS AND METHODS: Studying and analyzing psychological literature allows us to identify different approaches. The definition of student abilities in the process of learning a foreign language is approached from three sides:

- 1) from the point of view of identifying abilities in various aspects of language and speech skills;
- 2) from the point of view of identifying the characteristics of mental processes (perception, memory, thinking), which are the core of the structure of abilities in relation to the assimilation of language materials (S. L. Rubinstein);
- 3) from the point of view of identifying the influence of individual psychological, characterological and personal characteristics of a person - will, emotions, type of temperament, extraversion (introversion), etc. - on the success of mastering and mastering a foreign language.

CONCLUSION: Since adolescence is an important period of development characterized by rapid cognitive, emotional and social changes that directly affect students' learning abilities, teaching English has become a key component of secondary education. However, effective language acquisition in adolescence depends not only on teaching strategies, but also on the basic psychological mechanisms that shape the development of cognitive processes. Understanding how attention, memory, speech, perception, imagination, and higher-order thinking skills develop at this stage provides important information about how adolescents process linguistic information and acquire communicative competence in English.

Keywords: cognitive processes, development, thoughts, mental development, adolescents, psycholinguistics, speech, language skills, psychological factors, perception.

“Yoshlarni qo‘llab-quvvatlash va aholi salomatligini mustahkamlash yili” Davlat dasturiga muvofiq, xorijiy tillarni o‘rgatishni ta’lim siyosatining ustuvor yo‘nalishi sifatida rivojlantirish, ushbu yo‘nalishda ta’lim sifatini tubdan oshirish, sohaga malakali pedagoglarni jalb etish hamda aholining xorijiy tillarni o‘rganishga bo‘lgan qiziqishini oshirish maqsadida, yurtimizda ko‘plab islohotlar amalga oshirilmoqda.

O‘zbekiston kelajagi hisoblangan yoshlarning har tomonlama rivojlanishi uchun zarur bilimlarni, shu bilan birgalikda, xorijiy tillarni o‘zlashtirish jarayonida dars mashg‘ulotlarini psixologik yondashuvlar va amaliy psixologik mashqlar asosida boyitib borishni talab etmoqda. Shu boisdan, turli soha mutaxassislari o‘z ona tilini mukammal bilish bilan bir qatorda, bir nechta xorijiy tillarni bilishi va erkin muloqot qila olishi maqsadga muvofiq bo‘ladi. Mamlakatimizda xorijiy tillarni o‘rgatishni ommalashtirishni yangi bosqichga olib chiqish va soha rivojini ta’minlash uchun tizimli ishlarni tashkil etish, ulg‘ayib kelayotgan yosh avlodni har tomonlama barkamol qilib tarbiyalash, buning uchun barcha shart-sharoitlarni yaratish masalalari pedagogik va psixologik jihatdan ilmiy izlanishlar olib borishni taqozo etmoqda. Buning sababini har yili xorijiy tillarni o‘zlashtirishga ixtisoslashtirilgan ta’lim muassasalarida mamlakatimiz yoshlari sonining ortib borayotganligida ko‘rishimiz mumkin.

Ingliz tilini o‘rganish jarayonida shaxsda nafaqat yosh psixologik xususiyatlari farq qiladi, balki tug‘ilganidan beri dunyoni o‘z ona tilisi orqali anglab kelgan, muntazam oilada, jamiyatda muloqot qilib kelgan tilidan yana boshqa tilni o‘zlashtirishga bo‘lgan urinish psixologik jihatdan birmuncha qiyinchilik tug‘diradi. Ta’lim muassasalarining barcha qatlamlarida xorijiy tillarga bo‘lgan qiziqish va o‘qitish tizimlarini kuchaytirishga oid o‘quv mashg‘ulotlari, darslik va o‘quv qullanmalar amaliyotda qo‘llanilib kelinmoqda. Shunday bo‘lishiga qaramay, ta’lim muassasalarida pedagog kadrlar uchun va o‘smirlar o‘rtasida yangi zamonaviy ilg‘or tajribalar ya’ni psixologik nuqtai nazardan qaraganda psixolingvistik ilmlarga bo‘lgan zarurat sezilmoqda.

Psixologik adabiyotlarni o‘rganish, tahlil qilish turli xil yondashuvlarni belgilashga imkon beradi. Xorijiy tilni o‘rganish jarayonidagi o‘quvchi qobiliyatning ta’rifiga uch tomondan yondashiladi: 1) til va nutq ko‘nikmalarining turli jihatlariga qobiliyatlarni aniqlash

nuqtai nazaridan; 2) til materiallarini o'zlashtirishga nisbatan qobiliyatlar tuzilishining yadrosi bo'lgan aqliy jarayonlarning (idrok, xotira, fikrlash) xususiyatlarini aniqlash nuqtai nazaridan (S. L. Rubinshteyn); 3) shaxsning individual psixologik, xarakterologik va shaxsiy xususiyatlarining ta'sirini aniqlash nuqtai nazaridan - iroda, hissiyotlar, temperament turi, ekstraversiya (introversiya) va boshqalar – chet tilini o'zlashtirish va egallash muvaffaqiyati haqida.

Xorijiy tilni o'qitish psixologiyasida sezgilarning o'ziga xos sezgirligi va idrokning individual xususiyatlariga katta ahamiyat beriladi. Bir qator tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, tinglab tushunishning asosi bo'lgan eshitish sezgilarining ishlash darajasi past bo'lgan o'quvchilar og'zaki xorijiy nutqni o'zlashtirishda jiddiy qiyinchiliklarga duch keladi. Shunga o'xshash qiyinchiliklar artikulyatsiya apparati moslashuvchanligi yetarli bo'lmagan o'quvchilarda uchraydi (Yatsikevichus A. I., 1970).

S. Yu. Nikolaevaning e'tirof etishiga ko'ra, o'quvchilarning hissiyotlari va idrokining rivojlanish darajasini o'rganishni ikkita parametr bilan cheklab qo'yish mumkin: eshitish moslamasining sezgirligi va artikulyatsiya apparatining moslashuvchanligi (Nikolaeva S. Yu., 1987, 35-bet).

Xotira xorijiy til o'rganish qobiliyatlari yoki bilish jarayonlaridan biridir. Shu bilan birga, xotira ustida olib borilgan tadqiqotlar biroz kengroq kontekstda – o'quvchilarning xorijiy tilni o'rganishdagi bilish jarayonlari bilan bog'liq bo'lgan qobiliyatida o'tkazildi.

A. T. Alibina (1975) tomonidan olib borilgan tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, yaxshi mexanik xotira har doim ham rivojlangan xorijiy til bilish qobiliyatlari bilan birga kelmaydi va yaxshi eshitish xotirasi kechiktirilgan ijro etish parametrida juda samarali kechadi. Eshitish xotirasi yaxshi rivojlangan to'quvchilarning afzalliklari boshqa mualliflar tomonidan ham ko'rsatilgan (Kabardov M. K., 1983; Lyaxovitskiy M. V., 1981).

Maktab o'quvchilari bo'lgan o'smirlari o'qitishda o'qituvchilar bilan suhbatlar shuni ko'rsatdiki, eksperimental guruhning bir qismi bo'lgan o'quvchilar til bilish holati har hil darajalarda bo'lib, o'rta maktabda allaqachon ingliz tilini o'rganishga moyilligi mavjud. O'qituvchilar bilan o'tkazilgan suhbatda shu narsa ma'lum bo'ldiki, o'quvchilarga til, adabiyot, matematika, musiqa, dramatika to'garaklari va xorlarda faol ishtirok etish ularga yaxshi eshitish, xotirani mustahkamlashga, zukkolik va xushmuomalalikni rivojlantirishiga yordam bergan.

Ushbu o'quvchilardagi og'zaki xotiraning mahsuldorligi, ya'ni og'zaki assotsiatsiyalarning shakllanish tezligi, xotirada saqlanishi va tezkor aktuallashuvi kam qobiliyatli o'quvchilarga nisbatan yuqori. Shunday qilib, muallif ushbu parametрни - og'zaki xotirani - til qobiliyatining ko'rsatkichi sifatida ajratib ko'rsatadi. Ushbu ko'rsatkich o'rganuvchilarning lotin, rus va ingliz tillaridagi akademik ko'rsatkichlari bilan yuqori korrelyatsiyalarni beradi. O'z tadqiqotlari natijalariga ko'ra, tadqiqot muallifi gumanitar fanlarga qiziqishning asosi birinchi signal tizimiga, aniq fanlarga esa ikkinchisi signal tizimiga ega bo'lish degan xulosaga keladi.

Ingliz tilini o'qitishda o'smirlarning fanni o'zlashtirishini ta'minlashi uchun shaxs individualligidan kelib chiqib, xotiraning barcha turlariga tayanish samaraliroq hisoblanadi (Artemov V. A., 1969; Kasparova M. K., 1986; Rogova G. V., 1991).

Psixologik nuqtai nazardan xotira shaxs individualligini ifodalanishida muhim bilish jarayonidir. Inson ongi va ruhiyatidagi eng muhim jarayonlardan biri hisoblangan. Xotira orqali inson o'tmishdagi tajribalarini eslab, kelajakda to'g'ri qaror qabul qila oladi. Inson xotirasiz rivojlanish, ta'lim olish, muomala qilish va shaxsiy o'sishda imkonsiz bo'ladi. Xotira —bu insonning ma'lumotlarni qabul qilishi, saqlashi, qayta ishlashi va kerak paytda eslash jarayonidir. Xotira bilimlar bilan birga hissiyotlar, harakatlar, ovozlari, manzaralar va hayotiy voqealarni ham o'z ichiga oladi.

O'smirlarning bilish jarayonlarining individual xususiyatlarining ingliz tilini o'zlashtirish

muvaqqiyatiga ta'siriga kelsak, bu borada yagona nuqtai nazar ishlab chiqilmagan.

Shu bilan birga, inson fikrlashining qaysi turlari eng samarali ekanligi ongning qaysi fazilatlariga afzallik berilishiga bog'liqdir. Ba'zi tadqiqotchilar og'zaki fikrlash yanada qulayroq deb hisoblashadi, boshqalarning fikriga ko'ra, bu xorijiy tilni o'qitishning muvaqqiyati bilan bog'liq emas (Voyevodina G. K., 1976).

T. K. Reshetnikovaning (1981) og'zaki fikrlashning o'ziga xos xususiyatlarini o'rganish natijasi qobiliyatli va nogiron o'quvchilar o'rtasida katta farqlarni ko'rsatdi: fikrlashning moslashuvchanligi ya'ni assotsiatsiyalarning kengligi, so'z birikmalarining harakatchanligi, suhbatning bir mavzusidan boshqasiga o'tish qulayligi, chuqurlik esa bu og'zaki va yozma matnlarga, maqollarga, rasmlarga kiritilgan ma'lumotlarni tushunishda namoyon bo'ladi, mahsuldorlik (to'liq nutq mahsulotlari hajmida namoyon bo'ladi), mantiqiy fikrlash.

Xorijiy tillarni muvaqqiyatli o'rganish ongning maxsus lingvistik yo'nalishiga ham yondashishni talab qiladi (Gizatulina N. V., 1982).

E. D. Petrova (1973) tomonidan o'tkazilgan tadqiqotda xorijiy tilini o'rganishga ta'sir etuvchi omillarning umumlashtirish qobiliyati, samarali fikrlash moyilligi, hayot va til tajribasi, ixtiyoriy yodlashning rivojlanishi va yoshi boshqa fanlar va faoliyat turlarini o'rganishga aloqasi bo'lmagan maxsus omil deb hisoblanmasligi kerakligi isbotlangan. Shuning uchun, uning fikriga ko'ra, xorijiy tilni o'rganish qobiliyatini bashorat qilish uchun umumiy qobiliyat testlaridan foydalanish mumkin (Melieva diss.).

Dastlab, xorijiy til qobiliyatlari bilan bog'liq birinchi muammolar ustida N. S. Magin (1960) shug'ullangan. Uning ta'kidlashicha, xorijiy tilni o'zlashtirish qobiliyati tashqarida va faoliyatda namoyon bo'lishidan oldin mavjud emas, ular ushbu faoliyatning o'ziga xos sharoitlariga qarab shakllanadi, uning natijasi bo'lib, shu bilan birga uni amalga oshirish muvaqqiyatini belgilaydi. Ularning rivojlanishi tilning tabiiy muhitda, ta'lim muassasasida yoki mustaqil ravishda o'rganilishiga qarab har xil yo'llar bilan sodir bo'ladi.

Uning fikriga ko'ra, chet tilini o'zlashtirish qobiliyatini va tilshunoslik sohasidagi ilmiy ishlarni farqlash kerak. N. S. Maginning ta'kidlashicha, nutq faoliyatining har xil turlari turli xil qobiliyatlarni talab qiladi. Xorijiy tillarni o'zlashtirish uchun ma'lum qobiliyatlarni rivojlantirishga maqsadli dasturlar va o'qitish metodlariga bog'liq. Muallifning fikriga ko'ra, og'zaki nutqqa dastur qilinganda, xorijiy tildagi so'zlar va jummalarni eshitish orqali ajratish qobiliyati, eshitilgan narsani tezda tarjimasiz tushunish, xorijiy tildagi so'z va iboralarni og'zaki takrorlash va boshqalar rivojlanadi. O'qish va tushunish uchun dastur qilinganda esa, grafik shaklda taqdim etilgan xorijiy so'zlar va matnlarni vizual ravishda ajratish qobiliyati, xorijiy va ona tillari so'zlari va iboralari ma'nosi o'rtasidagi aniq munosabatlarni aniqlash va boshqalar (Magin N.S., 1960).

Shuningdek, N. S. Maginning fikriga ko'ra, faqat ikkita asosiy til qobiliyati mavjud bo'lib, xorijiy tilida o'ylash va o'rganish qobiliyati, til hissi, ya'ni ma'lum bir til uchun zarur bo'lgan tovushlarni, so'zlarni va ularning birikmalarini intuitiv tanlash va ma'lum bir til uchun zarur bo'lgan hodisalarni shu tilga xos emasliklarini intuitiv tarzda yo'q qilish qobiliyati.

Ular tomonidan quyidagi parametrlar tanlandi: xorijiy so'zlarni ruscha ekvivalentlariga nisbatan yodlash qobiliyati; grammatik qoidalarini o'rganish qobiliyati; xorijiy tildan ona tiliga tarjima qilish qobiliyati.

Xorijiy tilda nutq faoliyati bilan bevosita bog'liq bo'lgan quyidagi bilish jarayonlari, aqliy harakatlar va aqliy jarayonlarning xususiyatlari ushbu yondashuv doirasida o'rganish ob'ekti hisoblanadi. Fikrlar zanjirini qurish, nutq holatini ehtimoliy prognozlash va bir nechta nutqni qo'llash orqali til qoidasini aniqlanadi (Zimnaya I. A.).

Yu.A. Samarinning so'zlariga ko'ra, qobiliyatlarning ko'rsatkichlaridan biri, shu jumladan xorijiy til, assotsiativ jarayonning sur'ati bo'lishi mumkin. Qobiliyat ma'lum bir bilim yoki amaliy faoliyat sohasidagi assotsiatsiyalar va assotsiativ tizimlarni shakllantirish tezligida ifodalanishi mumkin. Bilim va faoliyatning turli sohalarida insonning ijodiy faoliyati

bu tegishli bilim, ko'nikma va malakalarni o'zlashtirish tezligini tavsiflaydi yoki mustaqil ravishda tashkil etilgan bo'lib, assotsiatsiyalar va assotsiativ tizimlarning o'ziga xosligi, yangiligi bilan ifodalanadi.

Xorijiy til o'rganish qobiliyati, shuningdek, tegishli tilning lug'ati va grammatik tuzilmalarini tezkorlik va albatta, to'g'ri o'zlashtirishda, ma'lum bir xorijiy tilning xususiyatlariga muvofiq o'z fikrlarini eng aniq ifoda etish xilma-xil, mustaqil ishlatilishida ifodalanishi mumkin. Yu. A. Samarin, xorijiy tilni bilish ko'rsatkichlaridan biri bu ona tilidagi nutq tempiga mos keladigan xorijiy tildagi nutq tempining qiyosiy tezligi deb hisoblagan. Nutqning o'ziga xos tezligi assotsiativ jarayonning tezligiga bog'liq. Shuningdek, u fikrning boshqa mazmunini ifodalovchi to'g'ri so'zlar va grammatik tuzilmalarni tanlashdan iborat (Samarin Yu.A., 1959).

Jins va yosh farqlari, shuningdek, ona va xorijiy tillarda oldingi mashg'ulotlar natijalari va intellektual rivojlanishning umumiy darajasi xorijiy til o'rganish qobiliyatlari tarkibiy qismlarining rivojlanishiga dominant ta'sirni belgilaydi. Ularning barchasi bir-biriga nisbatan kompensatsion kuchga ega.

Tadqiqotchilarning ma'lumotlariga ko'ra ko'nikmalar va qobiliyat o'rtasidagi munosabatlarning dialektikasi, ko'nikmalar boshqa ko'nikmalarga nisbatan qobiliyatlarni shakllantirishga hissa qo'shadigan omillar sifatida harakat qilishi, ularning ta'limining asosi bo'lib xizmat qilishi mumkin. Xorijiy tilni o'zlashtirish qobiliyati bilan shug'ullanganimizda bu jarayon yanada samaraliroq bo'ladi. Bir tilda nutq faoliyatida ma'lum rivojlangan ko'nikmalarning mavjudligi ikkinchi tilni o'zlashtirish qobiliyati ko'rinishidagi psixologik yangiliklarni yaratishga ko'maklashadi. (Eyger G. V. va boshqalar 1992).

Ikkinchi tilning u yoki bu tomonini o'zlashtirish qobiliyatining shakllanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadigan omil sifatida ona tili sohasidagi operatsion bilimlar ham ishtirok etishi mumkin, bunga asosiy sabab, ular xorijiy tilni o'zlashtirish qobiliyatining tarkibiga kiradigan funksional-lingvistik umumlashmalarning tez shakllanishiga yordam beradi (Eyger G. V. va boshqalar, 1992).

Olimlar M. M. Gohlerner, G. V. Yeyger va I. A. Rapoport (1992) quyidagi qobiliyatlar tomonidan xorijiy tilni muvaffaqiyatli o'zlashtirishni ta'minlash sifatida ajratib ko'rsatgan: so'zlarni o'rganish uchun rivojlangan xotira; rivojlangan imlo xotirasi; mashg'ulotning dastlabki bosqichida alohida ahamiyatga ega bo'lgan nutq tovushlarini (fonemalar va ularning variantlarini) farqlash qobiliyati; artikulyatsiya qobiliyatlari; belgining tovushda ham, harf kodida ham ma'lum ma'noga ega bo'lish qulayligi (bu qobiliyat xorijiy tili lug'atini o'zlashtirish uchun alohida ahamiyatga ega); intonatsiyaga nisbatan taqlid qilish qobiliyatlari, urg'u berish, ohang, til kleshleri va shtamlari (bu qobiliyatlar musiqiy eshitishga o'xshaydi, garchi ular unga to'g'ri kelmasa ham); ma'noni umumlashtirish qobiliyati (bu til materialiga nisbatan umumiy intellektual induktiv qobiliyat); grammatik shakl, so'z yasash modeli sohasida umumlashtirish qobiliyati; nominatsiyalarning qulayligi (predmetni mavzuga bog'lash); nutq jarayonida so'zlarni semantik tanlash qulayligi, leksik prognozlash asosida nutqning ravonligi; grammatik prognozlash asosida rasmiy ko'rsatkichlar (so'zlar sinfi, elementlar soni va boshqalar) bo'yicha so'zlarni tanlash qulayligi; transformatsiya jarayonlarining moslashuvchanligi asosida gapni tuzish qulayligi; og'zaki bayon etish qobiliyati (notiqlik); nutq uslubining o'ziga xos xususiyatlarini farqlash va ushlash qobiliyati ya'ni parodiya qilish qobiliyati (Eyger G. V. va boshqalar, 1992).

Ingliz tilini o'qitishda o'smirlarda bilish jarayonlari turli bosqichlarida va turli yosh guruhlarida turlicha qobiliyatlar shaklida "ishlaydi". O'qitishning birinchi bosqichida yuqoridagi ro'yxatda 1, 3, 4, 6- raqamlarda ko'rsatilgan qobiliyatlar alohida ahamiyatga ega bo'lsa, ko'proq umumiy qobiliyatlar 2, 7 va 9-14-raqamlarda erta namoyon bo'ladi. 5, 8 qobiliyatlar esa garchi ular o'qitishning keyingi bosqichlarida to'liq ahamiyatga ega bo'lsa nisbatan erta namoyon bo'la boshlaydi va tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki kattalar bilan ishlashda,

ular dominant rolni o'ynaydi.

Bu qobiliyatlarning barchasi o'rtasida ichki va o'zaro bog'liqlik mavjud. Shunday qilib, masalan, 12, 13-sonli qobiliyatlar 9-11-sonli ko'proq elementar qobiliyatlarga tayanadi.

O'smirlik davri miya rivojlanishining muhim davri bo'lib, u keng ko'lamli strukturaviy va funksional o'zgarishlar bilan tavsiflanadi. Bu bosqichda miya turli kognitiv ya'ni bilish jarayonlarga ta'sir qiluvchi muhim o'zgarishlarni boshdan kechiradi. An'anaga ko'ra, til o'rganish yondashuvlari o'qitish, yodlash texnikasiga qaratilgan. O'smirlik davrida sodir bo'ladigan miya jarayonlarini o'rganish orqali miyaning ayrim sohalarining kognitiv va neyron sharoitlariga mos keladigan, ikkinchi tilni o'zlashtirish kabi o'qitish usullarini ishlab chiqish mumkin. O'smirlik davri o'quvchilarning o'rganish qobiliyatiga bevosita ta'sir qiluvchi tezkor kognitiv, hissiy va ijtimoiy o'zgarishlar bilan tavsiflangan muhim rivojlanish davri bo'lganligi uchun, ingliz tilini o'qitish o'rta ta'limning asosiy tarkibiy qismiga aylandi. Biroq, o'smirlik davrida tilni samarali o'zlashtirish nafaqat o'qitish strategiyalariga, balki bilish jarayonlarini rivojlantirishni shakllantiruvchi asosiy psixologik mexanizmlarga ham bog'liq. Diqqat, xotira, nutq, idrok, tasavvur va yuqori darajadagi fikrlash qobiliyatlari bu bosqichda qanday rivojlanib borishini tushunish o'smirlarning lingvistik ma'lumotlarni qanday qayta ishlashi va ingliz tilida kommunikativ kompetentsiyaga ega bo'lishi haqida ahamiyatli ma'lumot beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhari

1. Рубинштейн, С.Л. Основы общей психологии. Т.2.М.: Педагогика, 1989.
2. Belyaev B.V. Essays on foreign language teaching psychology. Moscow: Education. Available online.2005.
3. Кабардов М.К. О диагностике языковых способностей// Психологические и психофизиологические исследования речи. М., 1985, с. 176-202.
4. Зимняя, И.А. Лингвопсихология речевой деятельности / И.А. Зимняя: - М.-Воронеж, 2001. - 400 с.
5. Eyger, G.V. (1992). Jazyk i sinergetika [Language and synergetics]. Visnyk Kharkiv. nats. un-tuim.V.N. Karazina. – V. N. Karazin National Univ. Messenger, 372, 131–137 (in Russian).
6. Кабардов М.К. О диагностике языковых способностей// Психологические и психофизиологические исследования речи. М., 1985, с. 176-202.

MUALLIF HAQIDA MA'LUMOT [ИНФОРМАЦИЯ ОБ АВТОРЕ] [AUTHORS INFO]

Qurbonova Dilnoza Arslanovna

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti dotsenti (PhD)

Manzil: O'zbekiston, Toshkent shahri

O'QUVCHILARNING MUSIQIY MADANIYATINI YUKSALISHIDA XALQ OG'ZAKI IJODIDAN FOYDALANISHNING IMKONIYATLARI



Raximov Ravshan Naimovich

Buxoro davlat pedagogika instituti

“Musiqi va tasviriy san’at” kafedrasi dotsenti.

Annotatsiya.

KIRISH: Maqolada umum o'rta ta'lim maktablarining musiqa darslarida o'tiladigan xalq qo'shiqlari ularni ijro uslublaridan foydalanish va bolalar folklor qo'shiqlari o'rgatishning metodik uslublari hamda bu qo'shiqlar orqali bolalarni ona vatani uning qo'shiqlariga bo'lgan mehrini ortirish va ularning tahlili haqida so'z boradi.

MAQSAD: O'quvchilarning musiqiy madaniyatini yuksalishida xalq og'zaki ijodidan foydalanishning imkoniyatlari ilmiy tahlil qilish

MATERIALLAR VA METODLAR: Donishmand xalqimiz azal-azaldan kuy va qo'shiqni bola qalbiga tez yo'l topa olishi, uning ruhiyatiga ijobiy ta'sir ko'rsatishi, yaxshi xulq va odob, mehr-oqibat, sabrtoqat, kattalarga hurmat fazilatlarini musiqa orqali tarkib topishini anglab yetgan. Oilada farzandni qo'shiq aytishga, soz chalishga o'rgatish ota-ona orzusi hisoblangan. Bola musiqa bilan ona allasi orqali tanishib, musiqadan umrbod ozuqa oladi. Chunki bola ilk yoshidan hali yurishni, so'zlashni bilmay turib, musiqani eshitib, turli qo'l harakatlari bilan musiqaga munosabatini bildiradi. Shuning uchun azaldan har bir oilada musiqa cholg'u asboblardan dutor, doira, rubob saqlash urf-odat bo'lib qolgan. Musiqadan ozuqa olish uchun esa, inson sof qalb egasi, yuksak ma'naviyatli, go'zallikni his eta oladigan inson bo'lishi kerak.

XULOSA: Bolalar folklor qo'shiqlari orqali o'quvchi-yoshlarni musiqiy madaniyatini, ma'naviy va badiiy estetik tarbiyalashning pedagogik va metodik tizimini yaratish, bugungi kungacha to'plangan mavjud tajribalarni o'rganish, turli viloyatlarda faoliyat yuritayotgan folklor-etnografik ansambillar faoliyatini o'rganish, ular repertuaridagi bolalar folkloriga tegishli namunalarni to'plash, umumlashtirish va ta'lim jarayoniga tadbiiq etish orqali musiqiy ta'limning milliy asoslarini mustahkamlashga erishish mumkin.

Kalit so'zlar: Kuy, qo'shiq, ijro, xalq ijodi, bolalar folklori ijrosi, mahalliy uslub, ta'lim va tarbiya, tahlil.

ВОЗМОЖНОСТИ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ УСТНОГО НАРОДНОГО ТВОРЧЕСТВА В ПОВЫШЕНИИ МУЗЫКАЛЬНОЙ КУЛЬТУРЫ УЧАЩИХСЯ

Рахимов Равшан Наимович

Бухарский государственный педагогический институт

Доцент кафедры «Музыка и изобразительные искусства»

Аннотация.

ВВЕДЕНИЕ: В статье рассматривается использование народных песен на уроках музыки в средних школах, стили их исполнения и методические методы обучения детей

фольклорным песням, а также анализируется, как посредством этих песен привить детям любовь к родине и ее песням.

ЦЕЛЬ: Научный анализ возможностей использования народного устного искусства в развитии музыкальной культуры учащихся.

МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ: Наши мудрецы давно поняли, что мелодии и песни быстро находят путь к сердцу ребенка, оказывают положительное влияние на его психику, и что хорошие манеры и порядочность, доброта, терпение и уважение к старшим воплощаются через музыку. Обучение ребенка пению и игре на инструменте в семье считается родительской мечтой. Ребенок знакомится с музыкой через свою мать и получает от нее питание на всю жизнь. Потому что с раннего возраста ребенок, еще до того, как научиться ходить или говорить, слышит музыку и выражает свое отношение к музыке различными движениями рук. Поэтому в каждой семье издавна существовала традиция хранить музыкальные инструменты, такие как дутар, дойра и рубаб. Для того чтобы получать духовную пищу от музыки, человек должен обладать чистым сердцем, высокой духовностью и чувством прекрасного.

ВЫВОД: Укрепление национальных основ музыкального образования возможно путем создания педагогико-методической системы музыкальной культуры, духовно-художественно-эстетического воспитания учащихся посредством детских фольклорных песен, изучения накопленного к настоящему времени опыта, изучения деятельности фольклорных и этнографических ансамблей, действующих в разных регионах, сбора образцов детского фольклора в их репертуаре, их обобщения и применения в образовательном процессе.

Ключевые слова: Мелодия, песня, исполнение, народное искусство, детское фольклорное исполнение, местный стиль, воспитание и образование, анализ.

OPPORTUNITIES FOR USING FOLK ORAL CREATIVITY IN ENHANCING STUDENTS' MUSICAL CULTURE

Rakhimov Ravshan Naimovich

Bukhara State Pedagogical Institute

Associate Professor of the Department of "Music and Fine Arts"

Annatation.

INTRODUCTION: The article discusses the use of folk songs in music lessons of secondary schools, their performance styles, and methodological methods of teaching children's folklore songs, as well as the analysis of how to increase children's love for their homeland and its songs through these songs.

THE GOAL: Scientific analysis of the possibilities of using folk oral art in the development of students' musical culture

MATERIALS AND METHODS: Our wise people have long understood that melodies and songs can quickly find their way to a child's heart, have a positive effect on his psyche, and that good manners and decency, kindness, patience, and respect for elders are embodied through music. Teaching a child to sing and play the instrument in the family is considered a parental dream. A child gets acquainted with music through his mother and receives lifelong nourishment from music. Because from an early age, a child, even before he can walk or speak, hears music and expresses his attitude to music with various hand movements. Therefore, it has long been a tradition in every family to keep musical instruments such as dutar, doira, and rubab. In order to receive nourishment from music, a person must be a person with a pure heart, high spirituality, and a sense of beauty.

CONCLUSION: It is possible to strengthen the national foundations of musical education by creating a pedagogical and methodological system for the musical culture, spiritual and artistic aesthetic education of students through children's folklore songs, studying the existing experience accumulated to date, studying the activities of folklore and ethnographic ensembles operating in different regions, collecting samples of children's folklore in their repertoire, generalizing them, and applying them to the educational process.

Keywords: Melody, song, performance, folk art, children's folklore performance, local style, education and upbringing, analysis.

Yosh avlodni kamolot sari yetaklashda tarbiyaning ko‘plab omillari qatori musiqa tarbiyasi alohida o‘rin tutadi. Musiqa insonni yuksak did bilan qurollantiradi va unga ma‘naviy ozuqa beradi. Musiqa – inson ruhiyatiga kuchli ta‘sir ko‘rsatish imkoniyatiga ega bo‘lib, uni nafas olamiga olib kiradi. Musiqa madaniy hayotimizda keng o‘rin tutgan, insonni rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadigan san‘at turidir. Musiqa tarbiyasi nafas tarbiyasining asosiy va murakkab qirralaridan biri bo‘lib, insonni atrofdagi go‘zal narsalarni to‘g‘ri idrok etishga va qadrlashga o‘rgatadi. Har bir insonni ma‘naviy shakllanishida oila, jamiyat, maktab, san‘atning ahamiyati katta. Maktabda musiqa o‘qitishning asosiy maqsadi o‘quvchilarda musiqa madaniyatini shakllantirish, ularni zamon talabiga javob bera oladigan, yuksak ma‘naviyat sohibi, insonparvar, vatanparvar, estetik zavq ola biladigan, qadrlaydigan har tomonlama barkamol inson qilib voyaga yetkazishdir.

Donishmand xalqimiz azal-azaldan kuy va qo‘shiqni bola qalbiga tez yo‘l topa olishi, uning ruhiyatiga ijobiy ta‘sir ko‘rsatishi, yaxshi xulq va odob, mehr-oqibat, sabrtoqat, kattalarga hurmat fazilatlarini musiqa orqali tarkib topishini anglab yetgan. Oilada farzandni qo‘shiq aytishga, soz chalishga o‘rgatish ota-ona orzusi hisoblangan. Bola musiqa bilan ona allasi orqali tanishib, musiqadan umrbod ozuqa oladi. Chunki bola ilk yoshidan hali yurishni, so‘zlashni bilmay turib, musiqani eshitib, turli qo‘l harakatlari bilan musiqaga munosabatini bildiradi. Shuning uchun azaldan har bir oilada musiqa cholg‘u asboblardan dutor, doira, rubob saqlash urf-odat bo‘lib qolgan. Musiqadan ozuqa olish uchun esa, inson sof qalb egasi, yuksak ma‘naviyatli, go‘zallikni his eta oladigan inson bo‘lishi kerak.

Buyuk mutafakkir shoir Alisher Navoiy o‘z asarlarida musiqa tarbiyasining qirralarini chuqur o‘rganib, shunday degan edi: “Musiqa jamiyat hayotining muhim negizidir. Faqat musiqagina odamning qalbiga tiniqlik, mutanosiblik va o‘z-o‘zidan qanoat tuyg‘usini olib kiradi va uni baxtiyor qiladi”.

Buyuk mutafakkirlardan Abu Nasr al Forobiyning fikricha, “Musiqa – nodir san‘at, ezgulikka yetaklovchi kuchdir” “Kimki ilm, hikmat o‘rganmoqchi bo‘lsa, avvalo o‘zi ma‘naviy barkamollikka erishmog‘i lozim” degan edi.

Buyuk astronom olim Abu Rayxon Beruniy. “Har kimki hikmat o‘rganaman desa, yoshlikdan bolasini ilmi va dono kishilardan saboq olishiga harakat qilsin. Shunday ekan, hozirgi davrda musiqa o‘qituvchisidan mas‘uliyat, fanga yangicha yondashuv, uning metodologiyasini chuqur o‘rganish talab etiladi. Umumta‘lim maktablarida esa musiqa madaniyati darslarining asosiy maqsadi, o‘quvchilarda musiqaga qiziqish uyg‘otish orqali musiqiy madaniyatini tarkib toptirish. Zero, kuy va ohang ta‘sirida inson ezgulikka intilish, go‘zallikni asrash, ona tabiatga, onavatanga muhabbat histuyg‘ularini shakllantirib, ma‘naviy dunyosini boyitadi.

Buyuk pedagog olim A.Avloniy shunday degan edilar “Tarbiya qiluvchilar tabib kabi, tabib xastani badanidagi kasallikka davo qilgani kabi, o‘qituvchi ham bolani musiqa orqali aqliy rivojiga, diqqat markaziga ta‘sir etib, ularda poklik, sadoqat, mehr, kattalarga hurmat, Vatanga muhabbat kabi tuyg‘ularni tarbiyalaydi”. “Tarbiya biz uchun yo hayot yo momot, yo najot – yo halokat. Yo saodat – yo falokat masalasidir” deb yozgan edi.

Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev “Yoshlarimizning mustaqil fikrlaydigan, yuksak intellektual va ma’naviy salohiyatga ega bo’lib, dunyo miqyosida o’z tengdoshlariga hech qaysi sohada bo’sh kelmaydigan insonlar bo’lib kamol topishi, baxtli bo’lishi uchun davlatimiz va jamiyatimizning bor kuch va imkoniyatlarini safarbar etamiz” deb da’vat etadi. Bu da’vat, birinchi navbatda, yoshlarni mustaqil fikrlaydigan, yuksak intellektual va ma’naviy salohiyatga ega bo’lishida ajdodlarimiz an’analari, bebaho qadriyatlari va madaniyati, ma’naviy-axloqiy fazilatlarini, milliy-musiqiy merosi, xususan, Xorazm xalq dostonlarini nazariy va amaliy jihatlari tadqiq qilishda alohida o’rin tutadi. Milliy musiqiy qadriyatlarimizning butun jahon hamjamiyati tomonidan e’tirof qilinayotganligini o’tmish tariximiz, bugungi hayotimizga berilgan munosib baho sifatida Shaxrisabz shahrida bo’lib o’tgan maqom musiqa san’ati va uning jahon sivilizatsiyasida tutgan o’rni mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyani, shuningdek Surxondaryoda “Baxshichilik”, Xivada “Raq’s” festivallarini yuqori saviyada o’tkazilganligidan ham ko’rish mumkin. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 14-maydagi PQ-4320-sonli “Baxshichilik” san’atini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to’g’risidagi, 2021-yil 10-apreldagi PQ-5070-sonli II- xalqaro baxshichilik san’ati festivaliga tayyorgarlik ko’rish va baxshichilik san’atini rivojlantirish uchun qulay shart-sharoitlar yaratishga doir qo’shimcha chora-tadbirlar to’g’risidagi, 2018-yil 26-avgustdagi PQ-3920-son O’zbekiston Respublikasi madaniyat va san’at sohasini innovatsion rivojlantirish chora-tadbirlari to’g’risidagi qabul qilingan qaror va farmonlar talabalar bilimi va salohiyatini yanada yuksaltirishga qaratilmoqda. Bu kabi o’zgarishlar ortida o’quvchilarga ta’lim berish asnosida tarbiyaviy immunitetni ham oshirib borish muhim bo’lib bormoqda. Jumladan, ta’lim-tarbiya jarayoni mazmuniga milliy mafkura g’oyalarini singdira borish, talabalarni qadriyatlarimiz, an’analari va ko’p asrlik musiqiy merosimiz asosida ma’naviy tarbiyalash bugungi kunning dolzarb muammolaridan biri hisoblanadi.

Musiqa madaniyati darslarida folklor namunalari foydalanishning qulay jihatlari shuki, oddiy xalq tili bilan kuylangan qo’shiqlar va qarakatlar o’quvchi yoshlar ongida tez shakllantiriladi. Musiqa san’ati insonni tarbiyalaydi, uni ezgulikka, kishilarni yaxshilik qilishga undaydi.

Birinchi, har bir qo’shiq musiqa orqali insonda yashirinayotgan qobiliyat va iqtidorlarni topish imkoniyatini yuzaga keltiradi. Ikkinchi, san’at odamlardagi yomon sifatlarni bartaraf etishga yordam beradi. Milliy-madaniy merosni o’rganish va o’zlashtirish orqali o’zbek millatiga mansubligi bilan faxrlanish hissini uyg’otadi. Uchinchi esa san’at kishilarni jamiyatdagi mavjud kamchilik va muammolarni hal etishga safarbar etadi. Musiqa orqali yana takroran aytamizki, inson tarbiya topadi, xalqona yo’lda yaratilgan qo’shiqlar orqali kishilar ruhan dam oladilar. Biroz bo’lsada madaniy hordiq chiqaradilar, g’am-tashvishlarini unutadilar. Umuman olganda milliy qo’shiq yoki musiqa inson qalbiga yaqin bo’ladi.

O’quvchilarni xalq qo’shiqlari vositasida estetik tarbiyalashga pedagogik rahbarlik barcha o’quv jarayoni bilan, uzluksiz ta’lim-tarbiya jarayoni bilan bog’lab olib borilgandagina samarali bo’ladi. Shuningdek o’quvchilarga singdirilishi lozim bo’lgan g’oyalar tizimini yaratishda pedagogika nazariyasida o’z isbotini topgan. Bolalar folkloriga tegishli namunalarni to’rt yo’nalish asosida belgilash mumkin.

1. O’quvchilarning ona vatanga, uning jonli va jonsiz tabiatiga, xalqiga, asrlar osha shakllanib kelgan an’alarimizga bo’lgan sadoqat ishlari. Boshqa millat kishilariga bo’lgan oqibatlilik.

2. O’quvchilarning mehnatga bo’lgan munosabati, mehnatni, kasbni ulug’lash, mehnat kishilarni qadrlash, mehnat mahsulotlarini avaylash, kasb tanlash va halol mehnat qilishga intilish hislarini tarbiyalash.

3. O’quvchilarning kishilarga bo’lgan munosabatini tarbiyalash. Ota-onaga, qarindosh-urug’larga, mahalladagilarga, o’qituvchilarga, sinfdoshlarga, tanish va notanishlarga bo’lgan munosabatini tarbiyalash.

4. O'quvchilarning o'z-o'ziga bo'lgan munosabati, o'z burchini anglashi, kundalik vazifalarini bajarish, o'z-o'zini hurmat qilish, iymon-e'tiqodli bo'lish, o'z so'zida turish, yolg'on gapirmaslik, o'g'irlik qilmaslik, ozodalikka rioya qilish, yuz-qo'llari va jismini ozoda tutish, halol va haromning farqiga borish, barqaror e'tiqodli bo'lish hislarini tarbiyalash.

Xulosa qilib aytsak bolalar folklor qo'shiqlari orqali o'quvchi-yoshlarni musiqiy madaniyatini, ma'naviy va badiiy estetik tarbiyalashning pedagogik va metodik tizimini yaratish, bugungi kungacha to'plangan mavjud tajribalarni o'rganish, turli viloyatlarda faoliyat yuritayotgan folklor-etnografik ansambillar faoliyatini o'rganish, ular repertuaridagi bolalar folkloriga tegishli namunalarni to'plash, umumlashtirish va ta'lim jarayoniga tadbqiq etish orqali musiqiy ta'limning milliy asoslarini mustahkamlashga erishish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati:

1. G. Sharipova, G'. Najmetdinov, Z. Xodjayeva "Musiqqa o'qitish metodikasi va maktab repertuari". Darslik. Andijon-2020 9-12
2. I. Karimov "Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch", – T.: «Ma'naviyat», 2008
3. Naimovich, R. R. (2025, June). METHODS OF USING NATIONAL MUSICAL INSTRUMENTS IN MUSIC CULTURE LESSONS. In *International Conference on Educational Discoveries and Humanities* (pp. 220-223).
4. Rakhimov, R. N. "FOLKLORE ART, AS AN IMPORTANT FACTOR IN THE STUDY OF NATIONAL VALUES." *Western European Journal of Linguistics and Education* 3.2 (2025): 157-159.
5. Naimovich, R. R. (2025, March). THE MUSICAL CULTURE OF STUDENTS THE IMPORTANCE OF FOLK ORAL CREATIVITY IN ITS RISE. In *International Conference on Medical Science, Medicine and Public Health* (pp. 147-151).
6. Raximov, R. N. (2023). MUSIQANING SHAXS TARBIYASI UCHUN AHAMIYATI. *Inter education & global study*, (3), 40-43.
7. Naimovich, R. R. (2025, March). THE MUSICAL CULTURE OF STUDENTS THE IMPORTANCE OF FOLK ORAL CREATIVITY IN ITS RISE. In *International Conference on Medical Science, Medicine and Public Health* (pp. 147-151).
8. Naimovich, Raximov Ravshan. "musiqqa madaniyati darslarida milliy cholg'ulardan foydalanish." *Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi* 4 (2024): 7-11.
9. Рахимов, Равшан Наимович. "МУЗЫКАЛЬНО-ЭСТЕТИЧЕСКОЕ ВОСПИТАНИЕ УЧАЩИХСЯ НА ОСНОВЕ РАЗВИТИЯ ВОКАЛЬНО-ХОРОВЫХ НАВЫКОВ." *FRONTIERS OF KNOWLEDGE AND INTERDISCIPLINARY DISCOVERY* 1.1 (2025): 33-41.
10. Naimovich, Raximov Ravshan, and Hikmatov Asadbek Xidoyatjon o'g'li. "MUSIQA MADANIYATI DARSLARIDAVOKAL-XOR MALAKALARINI RIVOJLANTIRISH IMKONIYATLARI." *Лучшие интеллектуальные исследования* 46.5 (2025): 404-412.

MUALLIF HAQIDA MA'LUMOT [ИНФОРМАЦИЯ ОБ АВТОРЕ] [AUTHORS INFO]

Raximov Ravshan Naimovich

Buxoro davlat pedagogika instituti

"Musiqqa va tasviriy san'at" kafedrasida dotsenti

OLIV TA'LIM MUASSASALARI TALABALARINING DASTURLASHGA OID KOMPETENSIYALARINI TIZIMLI-ALGORITMIK YONDASHUV ASOSIDA RIVOJLANTIRISH SHAKLLARI VA BOSQICHLARI



Xazratov Fazliddin Xikmatovich

Buxoro davlat universiteti dotsent,

Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Annotatsiya.

KIRISH: Maqolada oliy ta'lim muassasalari talabalarining dasturlashga oid kompetensiyalarini tizimli-algoritmik yondashuv asosida rivojlantirish shakllari va bosqichlari yoritilgan. Tadqiqotda zamonaviy ta'lim texnologiyalari va pedagogik yondashuvlar asosida talabalarining dasturlash ko'nikmalarini shakllantirish jarayoni tahlil qilingan. Tizimli-algoritmik yondashuvning afzalliklari va uni amalda qo'llash yo'llari ko'rsatilgan. Tadqiqot natijalari eksperimental tajriba-sinov ishlari orqali tasdiqlangan.

MAQSAD: Talabalarda dasturlashga oid tushunchalarni tizimli rivojlantirish

MATERIALLAR VA METODLAR: Nazariy metodlar: pedagogik, psixologik va texnik adabiyotlarni tahlil qilish, umumlashtirish, modellashtirish;

Empirik metodlar: pedagogik kuzatish, so'rovnoma, test, ekspert baholash;

Eksperimental metodlar: pedagogik tajriba, konstatlovchi va shakllantiruvchi eksperiment;

Statistik metodlar: matematik-statistik tahlil, Student t-mezonidan foydalanish.

XULOSA: Tadqiqot natijalari oliy ta'lim muassasalarida dasturlash fanlarini o'qitish jarayonini takomillashtirish va talabalarining kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish uchun qo'llanilishi mumkin. Ishlab chiqilgan metodika boshqa texnik fanlarni o'qitishda ham samarali qo'llanilishi mumkin.

Kalit so'zlar: dasturlash kompetensiyasi, tizimli-algoritmik yondashuv, talabalar, rivojlantirish shakllari, bosqichli ta'lim, oliy ta'lim, o'quv dasturi.

МЕТОДЫ И ЭТАПЫ РАЗВИТИЯ ПРОГРАММНЫХ КОМПЕТЕНЦИЙ ВЫСШИХ УЧЕБНЫХ ЗАВЕДЕНИЙ НА ОСНОВЕ СИСТЕМАТИКО- АЛГОРИТМИЧЕСКОГО ПОДХОДА.

Хазратов Фазлиддин Хикматович

Доцент Бухарского государственного университета,

Доктор философии (PhD) в области педагогических наук

Аннотация.

ВВЕДЕНИЕ: В статье рассматриваются формы и этапы развития компетенций в программировании у студентов высших учебных заведений на основе систематически-алгоритмического подхода. Анализируется процесс формирования навыков программирования у студентов с использованием современных образовательных технологий и педагогических подходов. Показаны преимущества систематически-алгоритмического подхода и пути его практического применения. Результаты исследования подтверждены экспериментальными и пилотными исследованиями.

ЦЕЛЬ: Систематическое развитие концепций программирования у студентов.

МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ: Теоретические методы: анализ, обобщение, моделирование на основе педагогической, психолого-технической литературы;

Эмпирические методы: педагогическое наблюдение, анкетирование, тестирование, экспертная оценка;

Экспериментальные методы: педагогический эксперимент, определяющий и формирующий эксперимент;

Статистические методы: математико-статистический анализ, использование t-критерия Стьюдента.

ВЫВОД: Результаты исследования могут быть использованы для улучшения процесса преподавания дисциплин программирования в высших учебных заведениях и развития профессиональных компетенций студентов. Разработанная методология также может быть эффективно использована в преподавании других технических дисциплин.

Ключевые слова: компетенция в программировании, систематически-алгоритмический подход, студенты, формы развития, поэтапное обучение, высшее образование, учебный план.

METHODS AND STAGES OF DEVELOPING PROGRAMMING COMPETENCES OF HIGHER EDUCATIONAL INSTITUTIONS BASED ON A SYSTEMATIC-ALGORITHMIC APPROACH

Khazratov Fazliddin Khikmatovich

*Associate Professor, Bukhara State University,
Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences*

Annatation.

INTRODUCTION: The article covers the forms and stages of developing programming competencies of students of higher educational institutions based on a systematic-algorithmic approach. The study analyzes the process of forming students' programming skills based on modern educational technologies and pedagogical approaches. The advantages of a systematic-algorithmic approach and ways of its practical application are shown. The results of the study are confirmed by experimental and pilot studies.

THE GOAL: Systematic development of programming concepts in students

MATERIALS AND METHODS: Theoretical methods: analysis, generalization, modeling of pedagogical, psychological and technical literature;

Empirical methods: pedagogical observation, questionnaire, test, expert assessment;

Experimental methods: pedagogical experiment, ascertaining and formative experiment;

Statistical methods: mathematical-statistical analysis, use of Student's t-test.

CONCLUSION: The results of the study can be used to improve the process of teaching programming subjects in higher educational institutions and develop students' professional competencies. The developed methodology can also be effectively used in teaching other technical disciplines.

Keywords: programming competence, systematic-algorithmic approach, students, development forms, staged education, higher education, curriculum.

Hozirgi kunda axborot texnologiyalarining jadal rivojlanishi va raqamlashtirish jarayonlarining kengayib borishi oliy ta'lim tizimiga, xususan, dasturlash ta'limiga nisbatan yangi talablar qo'yimoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 29-apreldagi PF-

5992-son "Axborot-kommunikatsiya sohasida raqamli iqtisodiyot va elektron hukumatni rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Farmoni va 2020-yil 17-fevraldagi "2020-2030 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning takomillashtirilgan strategiyasi to'g'risida"gi PF-5953-son Farmoni dasturlash sohasidagi mutaxassislarga bo'lgan talabni yanada oshirdi.

Dasturlash kompetensiyalarini rivojlantirishga oid xorijiy tadqiqotchilardan J. Wing, M. Guzdial, A. Robins va J. Rountree kabilar o'z ishlarida algoritmik fikrlash va dasturlashni o'rgatish metodikasini ishlab chiqishga e'tibor qaratganlar. Mahalliy olimlardan S.S. Gulomov, N.A. Sayidaxmedov, A.A. Abduqodirov va boshqalar ta'limda zamonaviy texnologiyalarni qo'llash masalalarini o'rganganlar.

Tadqiqot maqsadi: oliy ta'lim muassasalari talabalarining dasturlashga oid kompetensiyalarini tizimli-algoritmik yondashuv asosida rivojlantirish uchun samarali pedagogik shakl va bosqichlar tizimini ishlab chiqish hamda uning amaliy samaradorligini aniqlash.

Tadqiqotda quyidagi metodlar qo'llanildi:

- Nazariy metodlar: pedagogik, psixologik va texnik adabiyotlarni tahlil qilish, umumlashtirish, modellashtirish;
- Empirik metodlar: pedagogik kuzatish, so'rovnoma, test, ekspert baholash;
- Eksperimental metodlar: pedagogik tajriba, konstatlovchi va shakllantiruvchi eksperiment;
- Statistik metodlar: matematik-statistik tahlil, Student t-mezonidan foydalanish.

Tadqiqot Toshkent axborot texnologiyalari universiteti va O'zbekiston Milliy universiteti Jizzax filialida 2022-2024 o'quv yillarida olib borildi. Eksperiment guruhida 124 nafar, nazorat guruhida 118 nafar talaba ishtirok etdi. Talabalar 2-3 kurs o'quvchilari bo'lib, "Dasturlash asoslari", "Obyektga yo'naltirilgan dasturlash" va "Ma'lumotlar tuzilmasi va algoritmlari" fanlarini o'zlashtirishdi.

Tizimli-algoritmik yondashuvning nazariy asoslari

Tizimli-algoritmik yondashuv o'quv jarayonini bir butun tizim sifatida qarash va uni mantiqiy ketma-ketlikda tashkil etishni nazarda tutadi. Ushbu yondashuv asosida dasturlash kompetensiyalarini rivojlantirish uchun quyidagi tamoyillar belgilandi:

- Tizimlilik tamoyili – o'quv jarayonini o'zaro bog'liq elementlar majmui sifatida qarash;
- Bosqichlilik tamoyili – o'quv materialini sodda darajadan murakkab darajaga o'tish asosida tashkil etish;
- Algoritmilashtirish tamoyili – har bir masalani aniq ketma-ketlikda yechish;
- Faollik tamoyili – talabaning mustaqil va faol ishtirokini ta'minlash.

Rivojlantirish bosqichlari modeli

Tadqiqot davomida talabalarining dasturlash kompetensiyalarini rivojlantirish uchun 4 bosqichli model ishlab chiqildi (1-rasm):



1-rasm. Dasturlash kompetensiyalarini rivojlantirish bosqichlari

Har bir bosqich o'zining o'quv maqsadi, mazmuni va baholash mezonlariga ega. Bosqichlar ketma-ketligi talabanning bilim va ko'nikmalarini bosqichma-bosqich rivojlantirishni ta'minlaydi.

Ta'lim shakllari va metodlari

Tizimli-algoritmik yondashuvni amalga oshirish uchun quyidagi o'quv shakllari qo'llanildi (1-jadval):

1-jadval

Bosqichlar bo'yicha ta'lim shakllari va metodlari

Bosqich	Ta'lim shakllari	Metodlar	Vositalar
I bosqich	Ma'ruza, amaliy mashg'ulot, suhbat	Vizualizatsiya, muammoli bayon, o'yin texnologiyalari	Multimedia, video darslar
II bosqich	Laboratoriya mashg'uloti, seminar, kichik guruhlarda ishlash	Algoritmik masalalar yechish, blok-sxemalar tuzish, psevdokod yozish	Scratch, Flowgorithm, PascalABC
III bosqich	Amaliy mashg'ulot, mustaqil ish, masofaviy ta'lim	Dasturlash tillari, debugging, refaktoring, kod sharhlash	Python, C++, Visual Studio, GitHub
IV bosqich	Loyiha ishi, hackathon, amaliyot	Jamoa loyihalari, dizayn patterns, agile metodologiyasi	Django, React, Docker, Git

Eksperimental tajriba natijalari

Pedagogik tajriba 2022-2024 o'quv yillarida ikki bosqichda amalga oshirildi. Boshlang'ich eksperiment bosqichida talabalarning boshlang'ich kompetensiya darajasi aniqlandi. Shakllantiruvchi eksperiment davomida eksperiment guruhida ishlab chiqilgan metodika qo'llanildi, nazorat guruhida esa an'anaviy usulda darslar olib borildi.

Talabalarning dasturlash kompetensiyalari 4 ta mezonga ko'ra baholandi:

- Nazariy bilimlar (dasturlash konsepsiyalari, sintaksis, ma'lumotlar strukturalari);
- Algoritmik fikrlash (masalani tahlil qilish, algoritm tuzish);
- Amaliy ko'nikmalar (kod yozish, debugging, optimallashtirish);
- Ijodiy qobiliyat (mustaqil loyiha yaratish, muammolarni hal etish).

Har bir mezon 100 ballik tizimda baholandi. Kompetensiya darajalari: past (0-64 ball), o'rta (65-84 ball), yuqori (85-100 ball). Eksperiment natijalari 2-jadvalda keltirilgan.

2-jadval

Eksperiment natijalari (% hisobida)

Guruh / Bosqich	Nazariy bilim	Algoritmik fikrlash	Amaliy ko'nikmalar	Ijodiy qobiliyat
TG (boshlang'ich)	62.4	58.7	55.3	51.2
TG (yakuniy)	86.3	83.9	81.7	78.5
NG (boshlang'ich)	61.8	59.1	56.2	52.4
NG (yakuniy)	71.5	68.9	66.3	63.8

Izoh: TG – tajriba guruhi, NG – nazorat guruhi

Natijalardan ko'rinib turibdiki, eksperiment guruhida barcha mezonlar bo'yicha sezilarli o'sish kuzatildi. Nazariy bilimlar darajasi 23.9%, algoritmik fikrlash 25.2%, amaliy ko'nikmalar 26.4%, ijodiy qobiliyat esa 27.3% ga oshdi. Nazorat guruhida o'sish ancha past bo'lib, mos ravishda 9.7%, 9.8%, 10.1% va 11.4% ni tashkil etdi.

Student t-mezonidan foydalanib statistik tahlil o'tkazildi. Barcha mezonlar bo'yicha farqlar statistik jihatdan ishonchli ($p < 0.05$) ekanligi aniqlandi. Bu tizimli-algoritmik yondashuvning samaradorligini tasdiqlaydi.

Tadqiqot natijalariga asoslanib quyidagi xulosalar shakllantirildi:

1. Tizimli-algoritmik yondashuv talabalarning dasturlash kompetensiyalarini rivojlantirishning samarali pedagogik asosi hisoblanadi. Bu yondashuv o'quv jarayonining barcha komponentlarini (maqsad, mazmun, shakl, metod, vosita, natija) bir butun tizim sifatida qarash va ularni mantiqiy ketma-ketlikda tashkil etish imkonini beradi.

2. Ishlab chiqilgan 4 bosqichli model (motivatsion-tayyorgarlik, kognitiv-algoritmik, amaliy-texnologik, ijodiy-loyihalovchi) talabalarning kompetensiyalarini bosqichma-bosqich rivojlantirishni ta'minlaydi. Har bir bosqich o'zining o'quv maqsadi, mazmuni, shakllari, metodlari va vositalari bilan ajralib turadi.

3. Pedagogik tajriba natijalari tizimli-algoritmik yondashuvning yuqori samaradorligini ko'rsatdi. Eksperiment guruhida talabalarning kompetensiya darajasi nazorat guruhiga nisbatan 2.5 baravar ko'proq oshdi. Bu farq barcha baholash mezonlari (nazariy bilim, algoritmik fikrlash, amaliy ko'nikmalar, ijodiy qobiliyat) bo'yicha statistik jihatdan ishonchli ($p < 0.05$) ekanligi aniqlandi.

4. Tadqiqot natijalari oliy ta'lim muassasalarida dasturlash fanlarini o'qitish jarayonini takomillashtirish va talabalarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish uchun qo'llanilishi mumkin. Ishlab chiqilgan metodika boshqa texnik fanlarni o'qitishda ham samarali qo'llanilishi mumkin.



Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 29-apreldagi PF-5992-son "Axborot-kommunikatsiya sohasida raqamli iqtisodiyot va elektron hukumatni rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Farmoni.
2. Wing J.M. Computational thinking // Communications of the ACM. – 2006. – Vol. 49(3). – P. 33-35.
3. Guzdial M. Learner-centered design of computing education: Research on computing for everyone. – Morgan & Claypool Publishers, 2015. – 165 p.
4. Robins A., Rountree J., Rountree N. Learning and teaching programming: A review and discussion // Computer Science Education. – 2003. – Vol. 13(2). – P. 137-172.
5. Gulomov S.S., Sayidaxmedov N.A. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari asosida ta'lim samaradorligini oshirish. – T.: Fan, 2020. – 256 b.
6. Abduqodirov A.A. Talabalarning dasturlash kompetensiyalarini shakllantirish texnologiyalari. – T.: O'qituvchi, 2018. – 184 b.
7. Papert S. Mindstorms: Children, computers, and powerful ideas. – Basic Books, 2020. – 252 p.

MUALLIF HAQIDA MA'LUMOT [ИНФОРМАЦИЯ ОБ АВТОРЕ] [AUTHORS INFO]

Xazratov Fazliddin Xikmatovich

Buxoro davlat universiteti dotsent,

Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Manzil: O'zbekiston, Buxoro shahri

OLIIY TA'LIM MUASSASALARIDA JISMONIY TARBIYA MASHG'ULOTLARINI SUN'IY INTELLEKT TEXNOLOGIYALARI ASOSIDA TASHKIL ETISH: PEDAGOGIK MODEL VA SAMARADORLIK TAHLILI



Ikramov Amirbek Aminovich

*Osiyo xalqaro universiteti professori,
Pedagogika fanlari bo'yicha falfafa doktori (PhD)*

Annatatsiya.

KIRISH: Oliy ta'lim tizimining raqamli transformatsiyasi sharoitida jismoniy tarbiya fanini zamonaviy pedagogik va texnologik yondashuvlar asosida takomillashtirish dolzarb vazifalardan biridir. Mazkur maqolada oliy ta'lim muassasalarida jismoniy tarbiya mashg'ulotlarini sun'iy intellekt texnologiyalari asosida tashkil etishning nazariy va amaliy jihatlarini tahlil qilinadi. Tadqiqotning maqsadi sun'iy intellektdan foydalanishga asoslangan pedagogik modelni ishlab chiqish va uning samaradorligini baholash mezonlarini aniqlashdan iborat. Tadqiqot jarayonida tizimli, kompetensiyaviy va shaxsga yo'naltirilgan yondashuvlar, pedagogik modellash va statistik tahlil usullaridan foydalanildi. Olingan natijalar sun'iy intellekt asosidagi yondashuv talabalarning jismoniy tayyorgarligi, funksional holati va motivatsiyasini oshirishda samarali ekanligini ko'rsatdi.

MAQSAD: Oliy ta'lim muassasalarida jismoniy tarbiya mashg'ulotlarini sun'iy intellekt texnologiyalari asosida tashkil etish jarayonini pedagogic tahlil qilish.

MATERIALLAR VA METODLAR: Funksional holatni baholashda yurak urish tezligini o'lchash va mashg'ulotdan keyingi tiklanish vaqtini aniqlash metodlaridan foydalanildi. Ushbu diagnostik metodlar mashg'ulot yuklamasining talaba organizmiga ta'sirini aniqlash imkonini berdi.

Motivatsion holatni baholash maqsadida anonim so'rovnoma metodi qo'llanildi. So'rovnoma savollari talabalarning jismoniy tarbiya mashg'ulotlariga bo'lgan qiziqishi, muntazamligi va subyektiv bahosini aniqlashga yo'naltirildi.

Olingan ma'lumotlarni tahlil qilishda taqqoslash, dinamik tahlil va umumlashtirish metodlaridan foydalanildi. Tajriba va nazorat guruhlarining boshlang'ich hamda yakuniy ko'rsatkichlari solishtirilib, o'zgarishlar miqdoriy va sifat jihatdan baholandi. Statistik tahlil natijalari pedagogik xulosalar chiqarish uchun asos bo'lib xizmat qildi.

XULOSA: Mazkur tadqiqot oliy ta'lim muassasalarida jismoniy tarbiya fanini modernizatsiya qilishga xizmat qiluvchi ilmiy-amaliy asoslarni taklif etadi. Shu bilan birga, tadqiqot doirasida faqat ayrim jismoniy va motivatsion ko'rsatkichlar tahlil qilinganligi uning muayyan cheklavlardan biri hisoblanadi. Kelgusidagi tadqiqotlarda sun'iy intellekt texnologiyalarining jismoniy tarbiya mashg'ulotlarida qo'llanilishi psixoemotsional holat,

akademik faollik va uzoq muddatli sog'lomlashtirish samaralari bilan bog'liq jihatlarida yanada chuqur o'rganilishi maqsadga muvofiqdir.

Kalit so'zlar: jismoniy tarbiya; oliy ta'lim; sun'iy intellekt; pedagogik model; ta'lim samaradorligi

ОРГАНИЗАЦИЯ ФИЗИЧЕСКОГО ВОСПИТАНИЯ В ВЫСШИХ УЧЕБНЫХ ЗАВЕДЕНИЯХ НА ОСНОВЕ ТЕХНОЛОГИЙ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА: ПЕДАГОГИЧЕСКАЯ МОДЕЛЬ И АНАЛИЗ ЭФФЕКТИВНОСТИ.

Икрамов Амирбек Аминович

*Профессор Азиатского международного университета,
Доктор философии в области педагогических наук (PhD)*

Аннотация.

ВВЕДЕНИЕ: В контексте цифровой трансформации системы высшего образования одной из актуальных задач является совершенствование дисциплины физического воспитания на основе современных педагогических и технологических подходов. В данной статье анализируются теоретические и практические аспекты организации занятий по физическому воспитанию в высших учебных заведениях с использованием технологий искусственного интеллекта. Цель исследования – разработка педагогической модели, основанной на использовании искусственного интеллекта, и определение критериев оценки ее эффективности. В процессе исследования использовались системный, компетентностный и личностно-ориентированный подходы, методы педагогического моделирования и статистического анализа. Полученные результаты показали, что подход, основанный на искусственном интеллекте, эффективен в повышении физической подготовленности, функционального состояния и мотивации студентов.

ЦЕЛЬ: Педагогический анализ процесса организации занятий по физическому воспитанию в высших учебных заведениях с использованием технологий искусственного интеллекта.

МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ: Для оценки функционального состояния использовались методы измерения частоты сердечных сокращений и определения времени восстановления после тренировки. Эти диагностические методы позволили определить влияние тренировочной нагрузки на организм студента.

Для анализа полученных данных использовались методы сравнения, динамического анализа и обобщения. Сравнивались начальные и конечные показатели экспериментальной и контрольной групп, а изменения оценивались количественно и качественно. Результаты статистического анализа послужили основой для педагогических выводов.

ВЫВОД: Данное исследование предлагает научно-практические основы, которые послужат модернизации физического воспитания в высших учебных заведениях. В то же время, одним из его определенных ограничений является тот факт, что в рамках исследования были проанализированы лишь некоторые физиологические и мотивационные показатели. В будущих исследованиях целесообразно продолжить изучение применения технологий искусственного интеллекта на уроках физической культуры с точки зрения психоэмоционального состояния, успеваемости и долгосрочных последствий для здоровья.

Ключевые слова: физическое воспитание; Высшее образование; искусственный интеллект; педагогическая модель; эффективность образования

ORGANIZATION OF PHYSICAL EDUCATION IN HIGHER EDUCATIONAL INSTITUTIONS BASED ON ARTIFICIAL INTELLIGENCE TECHNOLOGIES: PEDAGOGICAL MODEL AND EFFICIENCY ANALYSIS

Ikramov Amirbek Aminovich

*Professor of the Asian International University,
Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD)*

Annatation.

INTRODUCTION: In the context of the digital transformation of the higher education system, improving the discipline of physical education based on modern pedagogical and technological approaches is one of the urgent tasks. This article analyzes the theoretical and practical aspects of organizing physical education classes in higher education institutions based on artificial intelligence technologies. The purpose of the study is to develop a pedagogical model based on the use of artificial intelligence and determine the criteria for assessing its effectiveness. In the research process, systematic, competency-based and person-oriented approaches, pedagogical modeling and statistical analysis methods were used. The results obtained showed that the approach based on artificial intelligence is effective in increasing the physical fitness, functional state and motivation of students.

THE GOAL: Pedagogical analysis of the process of organizing physical education classes in higher education institutions based on artificial intelligence technologies.

MATERIALS AND METHODS: Standard physical tests were used to determine the level of physical fitness of students. These tests were aimed at assessing the indicators of endurance, strength and agility.

The methods of measuring heart rate and determining the recovery time after training were used to assess the functional state. These diagnostic methods made it possible to determine the effect of training load on the student's body.

An anonymous questionnaire method was used to assess the motivational state. The questionnaire questions were aimed at determining the interest, regularity and subjective assessment of students in physical education classes.

The methods of comparison, dynamic analysis and generalization were used to analyze the obtained data. The initial and final indicators of the experimental and control groups were compared, and the changes were evaluated quantitatively and qualitatively. The results of statistical analysis served as the basis for drawing pedagogical conclusions.

CONCLUSION: This study offers scientific and practical foundations that serve to modernize physical education in higher educational institutions. At the same time, one of its certain limitations is the fact that only some physical and motivational indicators were analyzed within the framework of the study. In future studies, it is advisable to further study the application of artificial intelligence technologies in physical education classes in terms of psycho-emotional state, academic performance, and long-term health effects.

Keywords: physical education; higher education; artificial intelligence; pedagogical model; educational effectiveness

Hozirgi globallashuv va raqamli transformatsiya sharoitida oliy ta'lim tizimi oldida ta'lim jarayonini zamonaviy pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalari asosida takomillashtirish vazifasi dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Xususan, talabalarning sog'lig'ini mustahkamlash, jismoniy rivojlanishini ta'minlash va sog'lom turmush tarziga bo'lgan ehtiyojini shakllantirishga xizmat qiluvchi "Jismoniy tarbiya" fani mazmuni va uni tashkil etish shakllarini yangilash zarurati yuzaga kelmoqda.



An'anaviy jismoniy tarbiya mashg'ulotlari ko'p hollarda talabalarning individual jismoniy tayyorgarligi, funksional holati va motivatsion xususiyatlarini yetarli darajada hisobga olmasligi bilan tavsiflanadi. Natijada o'quv mashg'ulotlarining samaradorligi pasayishi, talabalarda jismoniy faollikka bo'lgan qiziqishning susayishi hamda sog'lomlashtiruvchi ta'sirning cheklanishi kuzatiladi. Shu bois oliy ta'lim muassasalarida jismoniy tarbiya mashg'ulotlarini individuallashtirish va optimallashtirishga yo'naltirilgan innovatsion yondashuvlarni joriy etish muhim ilmiy-pedagogik muammo sifatida namoyon bo'lmoqda.

So'nggi yillarda ta'lim sohasida sun'iy intellekt texnologiyalarining keng joriy etilishi o'quv jarayonini tahlil qilish, boshqarish va shaxsga yo'naltirilgan tarzda tashkil etish imkoniyatlarini sezilarli darajada kengaytirdi. Sun'iy intellekt asosida ishlovchi raqamli platformalar, analitik vositalar va monitoring tizimlari yordamida talabalarning jismoniy faolligi, yurak-qon tomir tizimi ko'rsatkichlari, yuklama darajasi hamda mashg'ulotlarga bo'lgan munosabatini real vaqt rejimida kuzatish va baholash imkoniyati vujudga kelmoqda. Bu esa jismoniy tarbiya mashg'ulotlarini ilmiy asoslangan holda rejalashtirish va boshqarishga xizmat qiladi.

O'zbekiston oliy ta'lim tizimida ham raqamlashtirish jarayonlari izchil amalga oshirilayotgan bo'lsa-da, jismoniy tarbiya fanida sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish masalasi yetarli darajada ilmiy asoslanmagan va tizimli yondashuvni talab etadi. Mavjud tadqiqotlarda asosan umumiy raqamli texnologiyalar yoki alohida texnik vositalardan foydalanish masalalari yoritilgan bo'lib, sun'iy intellektni jismoniy tarbiya mashg'ulotlariga integratsiya qilishning pedagogik modeli va samaradorlik mezonlari yetarlicha ishlab chiqilmagan.

Shu munosabat bilan mazkur maqolada oliy ta'lim muassasalarida jismoniy tarbiya mashg'ulotlarini sun'iy intellekt texnologiyalari asosida tashkil etishning nazariy va amaliy jihatlarini ilmiy asoslash, pedagogik modelni ishlab chiqish hamda uning samaradorligini baholash masalalari tadqiq etiladi.

So'nggi yillarda oliy ta'lim tizimida jismoniy tarbiya fanining mazmuni va uni tashkil etish shakllarini takomillashtirish masalasi ilmiy tadqiqotlar markazida turibdi. Jismoniy tarbiya talabaning nafaqat jismoniy rivoji, balki umumiy sog'lig'i, funksional holati va psixologik barqarorligiga ta'sir ko'rsatuvchi muhim ta'lim komponenti sifatida qaralmoqda. Shu bois mazkur fan bo'yicha mashg'ulotlarni tashkil etishda an'anaviy yondashuvlar bilan bir qatorda zamonaviy texnologik yechimlardan foydalanish zarurati tobora ortib bormoqda.

Pedagogik adabiyotlarda jismoniy tarbiya mashg'ulotlarining samaradorligi ko'p jihatdan talabalarning individual xususiyatlarini hisobga olish darajasiga bog'liq ekani ta'kidlanadi. Amaliyotda esa mashg'ulotlar ko'pincha yagona me'yor va umumiy yuklama asosida olib borilishi kuzatiladi. Bu holat jismoniy tayyorgarligi past bo'lgan talabalarda ortiqcha zo'riqish, yuqori tayyorgarlikka ega bo'lganlarda esa yetarli rivojlanish bo'lmasligiga olib kelishi mumkin. Shu sababli ilmiy manbalarda jismoniy tarbiyani individuallashtirish masalasi muhim pedagogik muammo sifatida ko'rib chiqiladi.

Raqamli texnologiyalarning ta'lim tizimiga joriy etilishi ushbu muammoni yangi nuqtai nazardan hal qilish imkonini bermoqda. Tadqiqotlarda ta'lim jarayonini raqamli monitoring asosida boshqarish, talabalarning faoliyat ko'rsatkichlarini muntazam tahlil qilish va olingan ma'lumotlar asosida pedagogik qarorlar qabul qilish samarali yondashuv sifatida baholanadi. Ayniqsa, jismoniy tarbiya mashg'ulotlarida yuklama darajasi, mashg'ulot intensivligi, tiklanish jarayonlari va umumiy funksional holatni kuzatish imkoniyati mashg'ulotlarning sog'lomlashtiruvchi ta'sirini kuchaytirishi qayd etiladi.

Ilmiy adabiyotlarda sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish aynan ana shu monitoring va tahlil jarayonlarini avtomatlashtirish, katta hajmdagi ma'lumotlarni tezkor qayta ishlash va individual tavsiyalar ishlab chiqish imkonini berishi bilan izohlanadi. Jismoniy tarbiya kontekstida bu mashg'ulot yuklamasini talabaning joriy holatiga moslashtirish,

xavfsizlikni ta'minlash va mashg'ulot samaradorligini oshirishga xizmat qilishi mumkin. Shu bilan birga, tadqiqotchilar sun'iy intellektdan foydalanishda metodik asosning yetarli darajada ishlab chiqilmaganligi uni samarali qo'llashga to'sqinlik qilishi mumkinligini ham ta'kidlaydilar.

Alohida tadqiqotlarda jismoniy faollikni raqamli qurilmalar orqali nazorat qilish va natijalarni tahlil qilish talabalarning mashg'ulotlarga bo'lgan munosabatini ijobiy tomonga o'zgartirishi ko'rsatilgan. Mashg'ulot jarayonida o'z natijalarini ko'rish, progressni kuzatish va individual ko'rsatkichlar asosida baholanish talabalar motivatsiyasini oshiruvchi omil sifatida qaraladi. Shu bilan birga, faqat texnik vositalarga tayanish yetarli emasligi, ular pedagogik maqsadlar bilan uyg'un holda qo'llanishi zarurligi qayd etiladi.

Motivatsiya masalasiga bag'ishlangan ilmiy ishlarda jismoniy tarbiya mashg'ulotlarida baholashning subyektivligi va natijalarning yetarli darajada shaffof emasligi talabalar qiziqishining pasayishiga olib kelishi mumkinligi ta'kidlanadi. Raqamli va analitik yondashuvlar esa baholash jarayonini obyektivlashtirish, nafaqat yakuniy natijani, balki mashg'ulot jarayonidagi sa'y-harakat va rivojlanish dinamikasini ham hisobga olish imkonini beradi. Bu esa jismoniy tarbiyani faqat normativ topshirish bilan cheklab qo'ymasdan, sog'lom turmush tarzini shakllantirish vositasi sifatida qarashga imkon yaratadi.

Shuningdek, adabiyotlarda jismoniy tarbiya mashg'ulotlariga raqamli texnologiyalarni joriy etishda axborot xavfsizligi va etik masalalar alohida e'tiborga olinadi. Talabalarning sog'lig'i bilan bog'liq ma'lumotlar maxfiy hisoblanishi, ularni yig'ish va qayta ishlashda rozilik va himoya mexanizmlariga rioya qilinishi lozimligi qayd etiladi. Bu talabalar e'tiborga olinmagan taqdirda, texnologik imkoniyatlar pedagogik ishonchga putur yetkazishi mumkin.

Umuman olganda, mavzuga oid ilmiy manbalar tahlili shuni ko'rsatadiki, jismoniy tarbiya mashg'ulotlarida sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish masalasi alohida texnik vositalar darajasida emas, balki yaxlit pedagogik tizim sifatida ko'rib chiqilishi zarur. Mavjud tadqiqotlarda ko'proq ayrim jihatlar — monitoring, motivatsiya yoki baholash masalalari yoritilgan bo'lib, ularni yagona pedagogik model doirasida integratsiyalash masalasi yetarli darajada ishlab chiqilmagan. Shu bois mazkur maqolada sun'iy intellektni jismoniy tarbiya mashg'ulotlariga integratsiya qilish masalasini kompleks pedagogik yondashuv asosida tahlil qilish zarurati asoslab beriladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI:

Mazkur tadqiqot oliy ta'lim muassasalarida jismoniy tarbiya mashg'ulotlarini sun'iy intellekt texnologiyalari asosida tashkil etishning pedagogik samaradorligini aniqlashga yo'naltirilgan bo'lib, u amaliy yo'nalishga ega kompleks pedagogik tadqiqot sifatida olib borildi. Tadqiqot jarayonida nazariy tahlil bilan bir qatorda empirik ma'lumotlar to'plash va ularni statistik jihatdan qayta ishlash usullaridan foydalanildi.

Tadqiqot bosqichlari

Tadqiqot kvazi-eksperimental asosida tashkil etildi va uch bosqichda amalga oshirildi:

1. konstatatsiyalovchi bosqich,
2. shakllantiruvchi bosqich,
3. yakuniy bosqich.

Konstatatsiyalovchi bosqichda talabalarning dastlabki jismoniy tayyorgarlik darajasi, funksional holati va jismoniy tarbiya mashg'ulotlariga bo'lgan munosabati aniqlab olindi. Ushbu bosqich natijalari keyingi taqqoslashlar uchun boshlang'ich ko'rsatkich sifatida qabul qilindi.

Shakllantiruvchi bosqichda jismoniy tarbiya mashg'ulotlarini tashkil etishda sun'iy intellekt asosidagi monitoring va tahlil elementlari joriy etildi. Mashg'ulot yuklamasi, intensivlik va tiklanish jarayonlari talabalarning individual ko'rsatkichlari asosida moslashtirildi. Nazorat bosqichida esa olingan natijalar dastlabki ko'rsatkichlar bilan solishtirilib, pedagogik samaradorlik baholandi.

Tadqiqot obyekti va subyekti

Tadqiqot obyekti sifatida Osiyo xalqaro universitetida jismoniy tarbiya fanini o'qitish jarayoni tanlandi. Tadqiqot subyekti esa jismoniy tarbiya mashg'ulotlarini sun'iy intellekt texnologiyalari asosida tashkil etish jarayoni hisoblanadi.

Tadqiqot tanlanmasi

Tadqiqotda jami 120 nafar talaba ishtirok etdi. Ular tasodifiy tanlash usuli asosida tajriba guruhi (60 nafar) va nazorat guruhi (60 nafar) ga ajratildi. Guruhlar jinsiy tarkib, yosh va dastlabki jismoniy tayyorgarlik ko'rsatkichlari bo'yicha taxminan tenglashtirildi. Tajriba guruhi bilan mashg'ulotlar sun'iy intellekt asosidagi monitoring va individuallashtirilgan yondashuv asosida olib borilgan bo'lsa, nazorat guruhida an'anaviy o'qitish usullari saqlab qolindi.

QO'LLANILGAN METODLAR VA VOSITALAR

Mazkur tadqiqotda jismoniy tarbiya mashg'ulotlarini takomillashtirish maqsadida pedagogik, diagnostik va analitik metodlar majmuasi hamda raqamli monitoring vositalari kompleks tarzda qo'llanildi.

Tadqiqot jarayonida individuallashtirishga asoslangan pedagogik yondashuv asosiy metod sifatida tanlandi. Ushbu metod doirasida mashg'ulot yuklamasi, mashqlar hajmi va intensivligi barcha talabalar uchun yagona me'yor asosida emas, balki har bir talabaning jismoniy tayyorgarligi va funksional holatiga mos ravishda belgilandi.

Shuningdek, differensial yondashuv qo'llanilib, talabalar jismoniy imkoniyatlariga qarab kichik guruhlariga ajratildi va mashg'ulot mazmuni moslashtirildi. Mashg'ulot jarayonida rag'batlantiruvchi va refleksiv metodlar (natijalarni muhokama qilish, o'z-o'zini baholash)dan foydalanildi, bu esa talabalarning ongli ishtirokini kuchaytirdi.

Talabalarning jismoniy tayyorgarlik darajasini aniqlash uchun standart jismoniy testlar qo'llanildi. Ushbu testlar chidamlilik, kuch va tezkorlik ko'rsatkichlarini baholashga qaratildi.

Funksional holatni baholashda yurak urish tezligini o'lchash va mashg'ulotdan keyingi tiklanish vaqtini aniqlash metodlaridan foydalanildi. Ushbu diagnostik metodlar mashg'ulot yuklamasining talaba organizmiga ta'sirini aniqlash imkonini berdi.

Motivatsion holatni baholash maqsadida anonim so'rovnoma metodi qo'llanildi. So'rovnoma savollari talabalarning jismoniy tarbiya mashg'ulotlariga bo'lgan qiziqishi, muntazamligi va subyektiv bahosini aniqlashga yo'naltirildi.

Olingan ma'lumotlarni tahlil qilishda taqqoslash, dinamik tahlil va umumlashtirish metodlaridan foydalanildi. Tajriba va nazorat guruhlarining boshlang'ich hamda yakuniy ko'rsatkichlari solishtirilib, o'zgarishlar miqdoriy va sifat jihatdan baholandi. Statistik tahlil natijalari pedagogik xulosalar chiqarish uchun asos bo'lib xizmat qildi.

Tadqiqotda raqamli monitoring vositalari asosiy texnologik vosita sifatida qo'llanildi. Ushbu vositalar yordamida talabalarning jismoniy faolligi, yurak urish tezligi va mashg'ulot intensivligi qayd etildi. Olingan raqamli ma'lumotlar mashg'ulot jarayonida yuklamani moslashtirish va pedagogik qarorlar qabul qilishda foydalanildi.

Shuningdek, axborot-tahliliy vositalar yordamida talabalarning mashg'ulotlardagi faolligi, qatnashuvi va individual rivojlanish dinamikasi umumlashtirilib, jadval va grafiklar shaklida aks ettirildi.

O'lchov ko'rsatkichlari va diagnostika vositalari

Tadqiqot jarayonida quyidagi asosiy ko'rsatkichlar baholandi:

- jismoniy tayyorgarlik darajasi (chidamlilik, kuch va tezkorlik elementlari),
- funksional holat (yurak urish tezligi, mashg'ulotdan keyingi tiklanish ko'rsatkichlari),
- motivatsion holat (jismoniy tarbiyaga bo'lgan qiziqish va muntazamlilik),
- mashg'ulot jarayonining samaradorligi (yuklama va natija o'rtasidagi muvofiqlik).

Ko'rsatkichlarni aniqlashda standart pedagogik testlar, funksional sinovlar hamda raqamli monitoring ma'lumotlaridan foydalanildi. Motivatsiya darajasi maxsus tuzilgan anonim so'rovnoma asosida baholandi.

Ma'lumotlarni qayta ishlash usullari

Olingan empirik ma'lumotlar matematik-statistik usullar yordamida qayta ishlanib, o'rtacha arifmetik qiymatlar, foiz ko'rsatkichlari va dinamik o'zgarishlar tahlil qilindi. Guruhlar o'rtasidagi farqlarni aniqlashda taqqoslash usullaridan foydalanildi. Natijalar grafik va jadval ko'rinishida umumlashtirildi, bu esa tahlilning aniqligi va shaffofligini ta'minladi.

Etik jihatlar

Tadqiqot jarayonida ishtirokchi talabalarning roziligi olindi, shaxsiy va funksional ko'rsatkichlar maxfiyligi ta'minlandi. Olingan ma'lumotlar faqat ilmiy-tadqiqot maqsadlarida qo'llanildi va uchinchi shaxslarga berilmadi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Mazkur bo'limda tajriba-sinov ishlari davomida olingan natijalar tahlil qilinadi hamda sun'iy intellekt texnologiyalariga asoslangan yondashuvning jismoniy tarbiya mashg'ulotlari samaradorligiga ta'siri baholanadi. Tahlil tajriba va nazorat guruhlarining boshlang'ich va yakuniy ko'rsatkichlarini solishtirish asosida amalga oshirildi.

1. Talabalarining jismoniy tayyorgarlik ko'rsatkichlari tahlili

Tajriba va nazorat guruhlarida chidamlilik, kuch va tezkorlik elementlari bo'yicha o'zgarishlar aniqlandi. Quyidagi jadvalda ikki guruh bo'yicha o'rtacha ko'rsatkichlarning dinamikasi keltirilgan.

1-jadval. Jismoniy tayyorgarlik ko'rsatkichlarining o'zgarishi (o'rtacha qiymatlar)

Ko'rsatkichlar	Guruh	Boshlang'ich holat	Yakuniy holat	O'zgarish
Chidamlilik (daq/sek)	Tajriba guruhi	8,4	10,1	+1,7
	Nazorat guruhi	8,5	9,1	+0,6
Kuch (takrorlar soni)	Tajriba guruhi	18,2	23,4	+5,2
	Nazorat guruhi	18,0	20,1	+2,1
Tezkorlik (sek)	Tajriba guruhi	5,1	4,6	-0,5
	Nazorat guruhi	5,0	4,8	-0,2

Jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, tajriba guruhida barcha jismoniy tayyorgarlik ko'rsatkichlari bo'yicha ijobiy o'sish kuzatilgan. Ayniqsa chidamlilik va kuch ko'rsatkichlaridagi o'sish nazorat guruhiga nisbatan sezilarli darajada yuqori bo'ldi. Bu holat mashg'ulot yuklamasining sun'iy intellekt asosida individuallashtirilgani bilan izohlanadi.

2. Talabalarining funksional holati ko'rsatkichlari tahlili

Funksional holat yurak urish tezligi va mashg'ulotdan keyingi tiklanish vaqti orqali baholandi. Olingan natijalar quyidagi jadvalda aks ettirilgan.

2-jadval. Funksional holat ko'rsatkichlarining dinamikasi

Ko'rsatkichlar	Guruh	Boshlang'ich holat	Yakuniy holat
Yurak urish tezligi (zarba/min)	Tajriba guruhi	86	78
	Nazorat guruhi	85	82
Tiklanish vaqti (daq)	Tajriba guruhi	6,2	4,3
	Nazorat guruhi	6,1	5,4

Natijalar shuni ko'rsatadiki, tajriba guruhida mashg'ulotdan keyingi tiklanish jarayoni tezlashgan, yurak urish tezligi me'yorlashgan. Bu esa jismoniy yuklamaning individual funksional imkoniyatlarga mos ravishda belgilangani bilan bog'liq.

3. Talabalarining motivatsion holati tahlili

Motivatsiya darajasi anonim so'rovnomasida baholandi. Talabalarning jismoniy tarbiya mashg'ulotlariga bo'lgan munosabatidagi o'zgarishlar quyidagi jadvalda keltirilgan.

3-jadval. Talabalarning motivatsiya darajasi (% hisobida)

Motivatsiya darajasi	Guruh	Boshlang'ich (%)	Yakuniy (%)
Yuqori	Tajriba guruhi	32	58
	Nazorat guruhi	34	41
O'rtacha	Tajriba guruhi	45	34
	Nazorat guruhi	44	40
Past	Tajriba guruhi	23	8
	Nazorat guruhi	22	19

Tahlil natijalariga ko'ra, tajriba guruhida yuqori motivatsiyaga ega talabalar ulushi sezilarli darajada oshgan, past motivatsiya ko'rsatkichlari esa keskin kamaygan. Bu holat mashg'ulot jarayonida talabalarning individual natijalarini ko'rish, doimiy tahlil va shaxsiy tavsiyalar berilishi bilan bog'liq.

4. Umumiy pedagogik samaradorlik tahlili

Olingan natijalar umumlashtirilganda, tajriba guruhida:

- jismoniy tayyorgarlikning barqaror o'sishi,
- funksional holatning yaxshilanishi,
- motivatsiyaning oshishi bir vaqtning o'zida kuzatilgani aniqlandi. Nazorat guruhida ham ijobiy o'zgarishlar mavjud bo'lsa-da, ular asosan tabiiy moslashuv doirasida bo'lib, tajriba guruhiga nisbatan pastroq darajada namoyon bo'ldi.

Bu holat sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish jismoniy tarbiya mashg'ulotlarini nafaqat nazorat qilish, balki pedagogik jihatdan asoslangan holda boshqarish imkonini berishini ko'rsatadi.

Olib borilgan tadqiqot natijalari oliy ta'lim muassasalarida jismoniy tarbiya mashg'ulotlarini tashkil etishda sun'iy intellekt elementlaridan foydalanish pedagogik jihatdan maqsadga muvofiq va samarali ekanligini tasdiqladi. Tadqiqot davomida ishlab chiqilgan pedagogik model jismoniy tayyorgarlik, funksional holat va motivatsion ko'rsatkichlarni kompleks tarzda yaxshilashga xizmat qilishi aniqlandi.

Tajriba guruhi ko'rsatkichlarining tahlili shuni ko'rsatdiki, mashg'ulot yuklamasini individuallashtirish, funksional holatni muntazam monitoring qilish va raqamli tahlil natijalariga tayangan holda pedagogik qarorlar qabul qilish jismoniy tarbiya mashg'ulotlarining sog'lomlashtiruvchi va rivojlantiruvchi ta'sirini kuchaytiradi. Talabalarning jismoniy faolligi va mashg'ulotlarga bo'lgan munosabatidagi ijobiy o'zgarishlar mazkur yondashuvning pedagogik samaradorligini tasdiqlaydi.

Shuningdek, tadqiqot natijalari sun'iy intellekt asosidagi yondashuv baholash jarayonining obyektivligi va shaffofligini ta'minlashga xizmat qilishini ko'rsatdi. Talabalarning individual rivojlanish dinamikasini kuzatish imkoniyati jismoniy tarbiya mashg'ulotlarini faqat normativlarga yo'naltirilgan jarayon sifatida emas, balki shaxsiy rivojlanishga qaratilgan ta'lim faoliyati sifatida tashkil etishga sharoit yaratdi.

Tadqiqot natijalariga asoslanib quyidagi **amaliy takliflar ishlab chiqildi**:

- oliy ta'lim muassasalarida jismoniy tarbiya mashg'ulotlarini rejalashtirishda talabalarning individual jismoniy va funksional ko'rsatkichlarini hisobga olish tizimini joriy etish;
- jismoniy tarbiya fanida raqamli monitoring va tahliliy vositalardan foydalanishni bosqichma-bosqich kengaytirish;
- mashg'ulot natijalarini baholashda yakuniy normativlar bilan bir qatorda individual rivojlanish dinamikasini ham inobatga olish;
- jismoniy tarbiya o'qituvchilarining raqamli va tahliliy kompetensiyalarini rivojlantirishga qaratilgan malaka oshirish dasturlarini takomillashtirish.

Mazkur tadqiqot oliy ta'lim muassasalarida jismoniy tarbiya fanini modernizatsiya qilishga xizmat qiluvchi ilmiy-amaliy asoslarni taklif etadi. Shu bilan birga, tadqiqot doirasida faqat ayrim jismoniy va motivatsion ko'rsatkichlar tahlil qilinganligi uning muayyan cheklovlaridan biri hisoblanadi. Kelgusidagi tadqiqotlarda sun'iy intellekt texnologiyalarining jismoniy tarbiya mashg'ulotlarida qo'llanilishi psixoemotsional holat, akademik faollik va uzoq muddatli sog'lomlashtirish samaralari bilan bog'liq jihatlarida yanada chuqur o'rganilishi maqsadga muvofiqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Gao Z., Lee J., Pope Z. Artificial intelligence in physical education: A systematic review. *Journal of Teaching in Physical Education*, 2022, vol. 41(3), pp. 432–445.
2. Kirk D. *Physical Education Futures*. London: Routledge, 2010.
3. Holmes W., Bialik M., Fadel C. *Artificial Intelligence in Education: Promises and Implications for Teaching and Learning*. Boston: Center for Curriculum Redesign, 2019.
4. Chertovskih O. Digital transformation of physical education in higher education institutions. *Theory and Practice of Physical Culture*, 2021, no. 4, pp. 15–19.
5. Ratten V. Digital transformation in sport education. *Education and Information Technologies*, 2020, vol. 25, pp. 1–15.
6. Li J., Wong S. Wearable technologies and artificial intelligence in sport and physical education. *Sensors*, 2021, vol. 21(12).
7. Buchheit M., Laursen P. Monitoring training load to understand fatigue in athletes. *Sports Medicine*, 2013, vol. 43(9), pp. 833–849.
8. Peake J., Kerr G., Sullivan J. A critical review of consumer wearables, mobile applications, and technologies for monitoring physical activity. *Sports Medicine*, 2018, vol. 48(3), pp. 1–19.
9. Dede C. *Digital Tools for Deeper Learning*. Cambridge: Harvard Education Press, 2014.
10. Selwyn N. *Should Robots Replace Teachers? AI and the Future of Education*. Cambridge: Polity Press, 2019.
11. Sadler D. Formative assessment and the design of instructional systems. *Instructional Science*, 1989, vol. 18, pp. 119–144.
12. Siedentop D. *Introduction to Physical Education, Fitness and Sport*. New York: McGraw-Hill, 2011.
13. UNESCO. *Artificial Intelligence and Education: Guidance for Policy-makers*. Paris, 2021.
14. OECD. *Artificial Intelligence in Education: Challenges and Opportunities*. Paris: OECD Publishing, 2021.

MUALLIF HAQIDA MA'LUMOT [ИНФОРМАЦИЯ ОБ АВТОРЕ] [AUTHORS INFO]

Ikramov Amirbek Aminovich

Osiyo xalqaro universiteti professori,

Pedagogika fanlari bo'yicha falfafa doktori (PhD)

Manzil: O'zbekiston, Buxoro shahri

YENGIL ATLETIKA MASHG'ULOTLARI ASOSIDA BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINING HARAKAT FAOLLIGI, JISMONIY TAYYORGARLIGI VA ANTROPOMETRIK XUSUSIYATLARINI BAHOLASH



Sattorov Anvar Ergashovich

Buxoro davlat universiteti

Sport faoliyati kafedrası professori



Murodova Madina Jahongir qizi

Buxoro davlat universiteti 1-bosqich

magistranti

Annotatsiya.

KIRISH: Mazkur tadqiqotning maqsadi yengil atletika bilan shug'ullanuvchi boshlang'ich va o'rta sinf yoshidagi o'g'il va qiz o'quvchilarning harakat faolligi, jismoniy tayyorgarligi hamda performans bilan bog'liq ayrim antropometrik xususiyatlarini yosh va jins omillari asosida aniqlash va baholashdan iborat. Tadqiqot doirasida sportchi-o'quvchilarning antropometrik xususiyatlarini aniqlash maqsadida bo'y uzunligi, tana vazni, teri osti yog' qatlamlari (skinfold), tana diametrlari, aylana o'lchovlari va uzunlik ko'rsatkichlarini o'z ichiga olgan jami 17 ta antropometrik o'lchov amalga oshirildi hamda somatotip ko'rsatkichlari aniqlandi. Jismoniy tayyorgarlik va performans bilan bog'liq sifatlarni baholashda 30 metrga yugurish, o'tirib-uzanib bukilish, 1 daqiqalik qorinni bukish mashqi, 1 kg og'irlikdagi tibbiy to'pni uloqtirish, joyidan uzunlikka sakrash, vertikal sakrash, o'ng va chap qo'l kaft kuchi hamda 1 milga yugurish testlari qo'llanildi. Yosh va jins guruhlarida o'rtasidagi farqlarni aniqlashda One-Way ANOVA va Tukey post-hoc tahlil usullaridan foydalanildi.

MAQSAD: Yengil atletika mashg'ulotlari asosida boshlang'ich sinf o'quvchilarning harakat faolligi, jismoniy tayyorgarligi va antropometrik xususiyatlarini ilmiy tahlil qilish

MATERIALLAR VA METODLAR: Mazkur tadqiqot Buxoro shahrida joylashgan umumta'lim maktablari qoshida faoliyat yurituvchi yengil atletika to'garaklari bazasida olib borildi. Tadqiqotda boshlang'ich sinf o'quvchilari orasidan dastlabki tanlab olish (saralash) jarayoni amalga oshirilib, yengil atletika mashg'ulotlariga qiziqishi va jismoniy imkoniyatlari aniqlangan o'quvchilar tanlab olindi. Tadqiqotga 8–10 yosh oralig'idagi jami 40 nafar sportchi-o'quvchi (o'g'il va qiz bolalar) ixtiyoriy ravishda jalb etildi.

Ishtirokchilar kamida 6 oy davomida muntazam ravishda yengil atletika mashg'ulotlarida qatnashib kelgan bo'lib, mashg'ulotlar haftasiga 3 marotaba, har bir mashg'ulotning davomiyligi 60–90 daqiqani tashkil etdi. Tadqiqot jarayonida o'lchov va test sinovlari Buxoro shahridagi sport maydonlari va yengil atletika mashg'ulotlari uchun moslashtirilgan sport inshootlarida amalga oshirildi.

Ko'rsatkichlar va performans bilan bog'liq jismoniy tayyorgarlik darajasi asosan yosh omiliga bog'liq holda o'zgarib boradi. Jinslar o'rtasidagi farqlar esa mazkur yosh bosqichida aniq va barqaror xarakterga ega emas. Somatotip tahlili sportchi-o'quvchilarning tana tuzilishi yengil atletika mashg'ulotlari uchun mos ekanligini ko'rsatdi.

Kalit so'zlar: yengil atletika, bolalar, harakat faolligi, jismoniy tayyorgarlik, antropometrik xususiyatlar.



ОЦЕНКА ДВИГАТЕЛЬНОЙ АКТИВНОСТИ, ФИЗИЧЕСКОЙ ПОДГОТОВЛЕННОСТИ И АНТРОПОМЕТРИЧЕСКИХ ХАРАКТЕРИСТИК УЧАЩИХСЯ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ НА ОСНОВЕ ЗАНЯТИЙ ЛЕГКОЙ АТЛЕТИКОЙ

Сатторов Анвар Эргашович

Бухарский государственный университет
Профессор кафедры спортивной
деятельности

Муродова Мадина Джахангировна

Бухарский государственный университет
магистрант 1 степени

Аннотация.

ВВЕДЕНИЕ: Целью данного исследования является выявление и оценка уровня двигательной активности, физической подготовленности, а также некоторых антропометрических характеристик, связанных с результативностью, у мальчиков и девочек младшего и среднего школьного возраста, занимающихся легкой атлетикой, с учетом возрастных и половых факторов. В рамках исследования для определения антропометрических особенностей учащихся-спортсменов были проведены в общей сложности 17 антропометрических измерений, включающих длину тела, массу тела, толщину кожно-жировых складок (skinfold), диаметры тела, окружности и линейные размеры, а также определены показатели соматотипа. Для оценки физической подготовленности и качеств, связанных с результативностью, применялись тесты бега на 30 метров, наклона вперед из положения сидя, упражнения на сгибание туловища в течение 1 минуты, метание медицинского мяча массой 1 кг, прыжок в длину с места, вертикальный прыжок, сила хвата правой и левой руки, а также бег на 1 милю. Для выявления различий между возрастными и половыми группами использовались методы однофакторного дисперсионного анализа (One-Way ANOVA) и пост-хок тест Тьюки.

ЦЕЛЬ: Провести научный анализ двигательной активности, физической подготовленности и антропометрических характеристик учащихся начальной школы на основе занятий легкой атлетикой.

МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ: Данное исследование проводилось на базе легкоатлетических клубов, действующих в средних школах Бухары. В исследовании был проведен предварительный отбор среди учащихся начальной школы, и были отобраны ученики, чья заинтересованность и физические возможности в занятиях легкой атлетикой были определены. В исследовании добровольно приняли участие 40 юных спортсменов (мальчиков и девочек) в возрасте 8–10 лет.

Уровень физической подготовленности, связанный с показателями и результатами, варьируется в основном в зависимости от возраста. Различия между полами на этом возрастном этапе нечеткие и нестабильные. Соматотипический анализ показал, что строение тела студентов-спортсменов подходит для занятий легкой атлетикой.

Ключевые слова: легкая атлетика, дети, двигательная активность, физическая подготовленность, антропометрические характеристики.

ASSESSMENT OF PHYSICAL ACTIVITY, PHYSICAL FITNESS, AND ANTHROPOMETRIC CHARACTERISTICS OF PRIMARY SCHOOL STUDENTS BASED ON ATHLETICS TRAINING

Sattorov Anvar Ergashovich

Bukhara State University
Professor of the Department of Sports
Activities

Murodova Madina Dzhakhangirovna

Bukhara State University
1st degree Master's student

Annatation.

INTRODUCION: The aim of this study was to identify and evaluate the levels of physical activity, physical fitness, and selected performance-related anthropometric characteristics of primary and lower secondary school boys and girls engaged in athletics, considering age and gender factors. Within the scope of the research, a total of 17 anthropometric measurements were conducted to determine the athletes' physical characteristics, including body height, body mass, skinfold thickness, body diameters, circumferences, and length measurements, and somatotype components were also assessed. To evaluate physical fitness and performance-related qualities, the following tests were applied: 30-meter sprint, sit-and-reach flexibility test, 1-minute sit-up test, 1 kg medicine ball throw, standing long jump, vertical jump, right and left handgrip strength, and the 1-mile run test. Differences between age and gender groups were analyzed using One-Way ANOVA and Tukey post-hoc analysis.

THE GOAL: To conduct a scientific analysis of the motor activity, physical fitness and anthropometric characteristics of primary school students based on track and field training

MATERIALS AND METHODS: This study was conducted on the basis of track and field clubs operating at secondary schools in Bukhara. In the study, a preliminary selection (qualification) process was carried out among primary school students, and students whose interest and physical capabilities in track and field training were determined were selected. A total of 40 student athletes (boys and girls) aged 8–10 years were voluntarily involved in the study.

The participants had been regularly participating in track and field training for at least 6 months, and the training sessions were 3 times a week, with the duration of each session being 60–90 minutes. During the research, measurements and tests were carried out at sports grounds and sports facilities adapted for athletics training in Bukhara.

The level of physical fitness associated with indicators and performance varies mainly depending on the age factor. Differences between the sexes are not clear and stable at this age stage. Somatotype analysis showed that the body structure of student athletes is suitable for athletics training.

Keywords: athletics, children, physical activity, physical fitness, anthropometric characteristics.

Bugungi kunda sportning jahon miqyosida tutgan oʻrni tobora ortib bormoqda va ushbu jarayon sportchilar hamda mamlakatlar oʻrtasidagi raqobat darajasining izchil kuchayishi bilan kechmoqda. Zamonaviy sportda yuqori natijalarga erishish koʻp jihatdan isteʼdodli sportchilarni imkon qadar erta, aniq va ilmiy asoslangan mezonlar asosida aniqlashga bogʻliq. Shu sababli sport amaliyotida bolalar va oʻsmirlar yoshidan boshlab sportga saralash jarayonini takomillashtirish, shuningdek, tanlab olingan sportchi bolalarning mashgʻulot jarayonidagi jismoniy rivojlanish darajasi va tayyorgarlik holatini muntazam baholab borish muhim ahamiyat kasb etadi [1].

Umumiy maʼnoda jismoniy tayyorgarlik shaxsning jismoniy faoliyatni samarali va muvaffaqiyatli bajarish qobiliyati sifatida talqin etiladi. Jismoniy tayyorgarlik sogʻliq bilan bogʻliq hamda harakat-bilim (motor) koʻnikmalariga asoslangan tarkibiy qismlarni oʻz ichiga oladi. U yurak-qon tomir tizimi chidamliligi, mushak kuchi va chidamliligi, tana tarkibi, egiluvchanlik, chaqqonlik, kuch, tezkorlik va muvozanat kabi koʻrsatkichlar orqali baholanadi. Ushbu koʻrsatkichlarni aniqlashda turli test va oʻlchov usullaridan foydalaniladi.

Sportchilarning tana tuzilishini baholashga qaratilgan boʻy uzunligi, tana vazni, tana proporsiyalari va kompozitsiyasi kabi antropometrik koʻrsatkichlar muayyan sport turlari uchun mos boʻlgan optimal jismoniy xususiyatlar haqida muhim maʼlumotlar beradi. Antropometrik baholash sport amaliyotida bir qator muhim vazifalarni bajaradi: birinchidan, isteʼdodli

sportchilarni aniqlash va tanlab olish; ikkinchidan, sportchilarning o'sish va rivojlanish jarayonini nazorat qilish; uchinchidan, mashg'ulot va sport natijadorligini baholash; to'rtinchidan esa ayrim sport turlari uchun mushak massasi va yog' miqdorining optimal nisbatini belgilash imkonini yaratadi [2].

Ilmiy adabiyotlarda turli sport turlari bilan shug'ullanuvchi yuqori malakali sportchilarning jismoniy va fiziologik xususiyatlari keng yoritilgan bo'lsa-da, bolalar va o'smirlar yoshidagi sportchilar, ayniqsa yengil atletika yo'nalishida olib borilgan tadqiqotlar soni cheklangan. O'zbekiston sharoitida, xususan Buxoro viloyatida boshlang'ich va o'rta sinf yoshidagi sportchi-o'quvchilarning harakat faolligi, jismoniy tayyorgarligi va antropometrik xususiyatlarini kompleks tarzda o'rganishga bo'lgan ehtiyoj dolzarb hisoblanadi.

Shu munosabat bilan mazkur tadqiqotning maqsadi yengil atletika bilan shug'ullanuvchi bolalarning performans bilan bog'liq ayrim jismoniy tayyorgarlik ko'rsatkichlarini hamda antropometrik xususiyatlarini aniqlash, ularni yosh va jins omillari asosida baholashdan iboratdir. Tadqiqot natijalari boshlang'ich sinf o'quvchilarida yengil atletika mashg'ulotlarini ilmiy asosda rejalashtirish, sportga tanlab olish jarayonini takomillashtirish va mashg'ulotlar samaradorligini oshirishga xizmat qilishi kutiladi [3].

Mazkur tadqiqot Buxoro shahrida joylashgan umumta'lim maktablari qoshida faoliyat yurituvchi yengil atletika to'garaklari bazasida olib borildi. Tadqiqotda boshlang'ich sinf o'quvchilari orasidan dastlabki tanlab olish (saralash) jarayoni amalga oshirilib, yengil atletika mashg'ulotlariga qiziqishi va jismoniy imkoniyatlari aniqlangan o'quvchilar tanlab olindi. Tadqiqotga 8–10 yosh oralig'idagi jami 40 nafar sportchi-o'quvchi (o'g'il va qiz bolalar) ixtiyoriy ravishda jalb etildi.

Ishtirokchilar kamida 6 oy davomida muntazam ravishda yengil atletika mashg'ulotlarida qatnashib kelgan bo'lib, mashg'ulotlar haftasiga 3 marotaba, har bir mashg'ulotning davomiyligi 60–90 daqiqani tashkil etdi. Tadqiqot jarayonida o'lchov va test sinovlari Buxoro shahridagi sport maydonlari va yengil atletika mashg'ulotlari uchun moslashtirilgan sport inshootlarida amalga oshirildi. Tadqiqot boshlanishidan oldin barcha ishtirokchilar va ularning ota-onalariga tadqiqotning maqsadi, mazmuni hamda o'lchov protokollari haqida tushuntirish berildi va rozilik olindi [4].

Sportchi-o'quvchilarning bo'y uzunligi va tana vazni umumiy qabul qilingan antropometrik talablarga muvofiq o'lchandi. Tana vazni 0,1 kg aniqlikdagi tarozida, yengil sport kiyimida va yalangoyoq holda aniqlanib, bo'y uzunligi esa maxsus bo'y o'lchagich yordamida o'lchandi. Olingan ko'rsatkichlar asosida tana massasi indeksi (TMI) hisoblab chiqildi [5].

Teri osti yog' qatlamini baholash maqsadida triceps, subskapulyar va boldir sohalaridan skinfold o'lchovlari amalga oshirildi. Ushbu ko'rsatkichlar asosida tana yog' foizi aniqlanib, sportchi-o'quvchilarning tana tarkibi baholandi.

Jismoniy tayyorgarlik va harakat faolligi testlari

Boshlang'ich sinf yoshidagi o'quvchilarning jismoniy tayyorgarligi va harakat faolligini baholash uchun quyidagi testlar qo'llanildi:

- Tezkorlik – 20 yoki 30 metrga yugurish testi
- Sakrash qobiliyati – joyidan uzunlikka sakrash testi
- Portlovchi kuch – vertikal sakrash testi
- Mushak chidamliligi – 30 soniya yoki 1 daqiqa davomida mekik mashqi
- Umumiy harakat faolligi – yengil atletika mashg'ulotlari jarayonida kuzatuv va testlar asosida baholandi

Barcha testlar boshlang'ich (old test) va tajriba yakunida (yakuniy test) bir xil sharoitda o'tkazildi.

Tadqiqot davomida olingan barcha ma'lumotlar statistik dastur yordamida qayta ishlanib, arifmetik o'rtacha qiymatlar (X) va standart og'ish (SD) ko'rsatkichlari hisoblandi.

Old test va yakuniy test natijalari o'rtasidagi farqlarni aniqlashda juftlangan t-testi (Paired t-test) qo'llanildi. Statistik ahamiyat darajasi $p < 0,05$ mezonini asosida baholandi. Tadqiqot natijalari tegishli jadvallar ko'rinishida bayon etildi [6].

Tadqiqotda ishtirok etgan sportchi-o'quvchilar yosh va jins belgilariga ko'ra guruhlariga ajratildi. Antropometrik ko'rsatkichlarning o'rtacha qiymatlari va standart og'ishlari hisoblandi hamda guruhlar o'rtasidagi farqlarni aniqlash maqsadida dispersion tahlil (ANOVA) va Tukey post-hoc testi qo'llanildi. Olingan natijalar quyidagi jadvalda keltirilgan.

1-jadval

Yengil atletika bilan shug'ullanuvchi 8–10 yoshdagi sportchi-o'quvchilarning yosh va jinsga ko'ra ayrim antropometrik ko'rsatkichlari ($X \pm SD$)

Ko'rsatkichlar	Yosh (yil)	O'g'il bolalar (n=20) $X \pm SD$	Qiz bolalar (n=20) $X \pm SD$	ANOVA (F)	Tukey
Bo'y (sm)	8	128,4 $\pm$ 5,1	127,9 $\pm$ 4,8		
	9	132,6 $\pm$ 5,4	131,8 $\pm$ 5,2	6,21	8–10
	10	137,9 $\pm$ 5,8	136,7 $\pm$ 5,5		
Tana vazni (kg)	8	27,3 $\pm$ 3,9	26,8 $\pm$ 3,6		
	9	29,6 $\pm$ 4,2	28,9 $\pm$ 4,0	5,48	8–10
	10	32,8 $\pm$ 4,7	31,9 $\pm$ 4,4		
TMI (kg/m ²)	8	16,5 $\pm$ 1,4	16,3 $\pm$ 1,3		
	9	16,9 $\pm$ 1,6	16,8 $\pm$ 1,5	2,17	–
	10	17,3 $\pm$ 1,7	17,1 $\pm$ 1,6		
Teri osti yog' qatlami (mm) (Σ SF)	8	29,8 $\pm$ 8,7	31,5 $\pm$ 9,2		
	9	32,4 $\pm$ 9,5	34,1 $\pm$ 9,8	2,94	–
	10	35,6 $\pm$ 10,1	37,8 $\pm$ 10,6		
Tana yog' foizi (%)	8	13,9 $\pm$ 3,6	15,2 $\pm$ 3,9		
	9	14,6 $\pm$ 3,8	16,1 $\pm$ 4,1	3,87	8–10
	10	15,8 $\pm$ 4,1	17,4 $\pm$ 4,3		

Jadval ma'lumotlariga ko'ra, 8–10 yosh oralig'idagi sportchi-o'quvchilarda bo'y va tana vazni ko'rsatkichlari yosh ortishi bilan izchil ravishda oshib borgan. Ushbu o'sish jarayoni statistik jihatdan ahamiyatli farqlar bilan namoyon bo'lgan ($p < 0,05$). Tana massasi indeksi bo'yicha esa yosh va jins omillariga ko'ra sezilarli farqlar aniqlanmadi ($p > 0,05$). Teri osti yog' qatlami va tana yog' foizi ko'rsatkichlarida qiz bolalarda nisbatan yuqori qiymatlar qayd etilgan bo'lsa-da, bu farqlar faqat ayrim yosh guruhlarida statistik ahamiyat kasb etdi.

2-jadval

Yengil atletika bilan shug'ullanuvchi 8–10 yoshdagi sportchi-o'quvchilarning ayrim tana o'lchamlari ($X \pm SD$)

Ko'rsatkichlar	Yosh (yil)	O'g'il bolalar (n=20) $X \pm SD$	Qiz bolalar (n=20) $X \pm SD$	ANOVA (F)	Izoh
Biceps ayl. (sm)	8	20,3 $\pm$ 1,8	20,6 $\pm$ 1,6		
	9	21,4 $\pm$ 2,0	21,7 $\pm$ 1,9	2,61	–
	10	22,6 $\pm$ 2,2	22,9 $\pm$ 2,1		
Boldir ayl. (sm)	8	26,8 $\pm$ 1,9	27,1 $\pm$ 2,0		
	9	28,4 $\pm$ 2,2	28,7 $\pm$ 2,3	3,94	8–10
	10	30,1 $\pm$ 2,5	30,4 $\pm$ 2,6		
	8	25,9 $\pm$ 1,4	25,6 $\pm$ 1,3		

Biakromial diam. (sm)	9	26,8 ± 1,6	26,5 ± 1,5	3,12	8–10
	10	27,9 ± 1,8	27,6 ± 1,7		
Biiliakal diam. (sm)	8	19,6 ± 1,2	20,1 ± 1,3		
	9	20,8 ± 1,4	21,2 ± 1,5	4,08	8–10
	10	22,1 ± 1,6	22,5 ± 1,7		
Bust uzunligi (sm)	8	73,8 ± 3,9	74,6 ± 4,1		
	9	78,2 ± 4,3	79,0 ± 4,4	5,66	8–10
	10	82,9 ± 4,7	83,6 ± 4,8		
To'liq oyoq uzunligi (sm)	8	69,5 ± 3,6	68,8 ± 3,4		
	9	72,8 ± 3,9	72,1 ± 3,8	4,91	8–10
	10	76,4 ± 4,2	75,7 ± 4,1		
Qo'l yoyilishi – kulaç (sm)	8	137,6 ± 6,1	136,8 ± 5,9		
	9	142,9 ± 6,6	142,1 ± 6,4	6,38	8–10
	10	148,7 ± 7,2	147,9 ± 7,0		
To'liq qo'l uzunligi (sm)	8	59,6 ± 2,9	60,1 ± 3,0		
	9	62,8 ± 3,2	63,3 ± 3,3	4,27	8–10
	10	66,4 ± 3,6	66,9 ± 3,7		

Jadval 1 (davomi) ma'lumotlariga ko'ra, 8–10 yosh oralig'idagi sportchi-o'quvchilarda tana o'lchamlari (aylana, diametr va uzunlik ko'rsatkichlari) yosh ortishi bilan izchil ravishda oshib borgan. Ko'rsatkichlarning aksariyatida 8 va 10 yosh guruhlar o'rtasida statistik jihatdan ahamiyatli farqlar aniqlangan ($p < 0,05$). Jinslar o'rtasidagi farqlar esa aksariyat o'lchamlarda sezilarli bo'lmagan bo'lib, kuzatilgan o'zgarishlar asosan biologik o'sish va rivojlanish jarayoni bilan izohlanadi.

3-jadval

Yengil atletika bilan shug'ullanuvchi 8–10 yoshdagi sportchi-o'quvchilarning somatotip elementlari ($X \pm SD$)

Somatotip komponentlari	Yosh (yil)	O'g'il bolalar (n=20) $X \pm SD$	Qiz bolalar (n=20) $X \pm SD$	ANOVA (F)	Izoh
Endomorf	8	2,3 ± 0,7	2,6 ± 0,8		
	9	2,4 ± 0,8	2,8 ± 0,9	1,02	–
	10	2,6 ± 0,9	3,0 ± 1,0		
Mezomorf	8	3,0 ± 0,8	2,7 ± 0,7		
	9	3,2 ± 0,9	2,9 ± 0,8	1,36	–
	10	3,4 ± 1,0	3,1 ± 0,9		
Ektomorf	8	4,4 ± 1,1	4,6 ± 1,0		
	9	4,6 ± 1,2	4,8 ± 1,1	0,94	–
	10	4,8 ± 1,3	5,0 ± 1,2		

Izoh: Somatotip elementlari bo'yicha yosh va jins omillariga ko'ra statistik jihatdan ahamiyatli farqlar aniqlanmadi ($p > 0,05$). 8–10 yoshdagi sportchi-o'quvchilarda somatotip komponentlari (endomorf, mezomorf va ektomorf) bo'yicha jinslar va yosh guruhlar o'rtasida

sezilarli statistik farqlar aniqlanmadi. Natijalar bolalarning tana tuzilishi xususiyatlari ushbu yosh davrida nisbatan barqaror ekanligini va asosiy o'zgarishlar biologik o'sish jarayoni bilan bog'liqligini ko'rsatadi.

4-jadval

8–10 yoshdagi sportchi-o'quvchilarning performans bilan bog'liq jismoniy tayyorgarlik ko'rsatkichlari ($X \pm SD$)

Ko'rsatkichlar	Yosh (yil)	O'g'il bolalar (n=20) $X \pm SD$	Qiz bolalar (n=20) $X \pm SD$	ANOVA (F)	Izoh
20 m tezkorlik (soniya)	8	5,62 $\pm$ 0,28	5,74 $\pm$ 0,31		
	9	5,41 $\pm$ 0,26	5,55 $\pm$ 0,29	4,12	8–10
	10	5,18 $\pm$ 0,24	5,33 $\pm$ 0,27		
Joyidan uzunlikka sakrash (sm)	8	124,6 $\pm$ 14,2	119,3 $\pm$ 13,8		
	9	131,8 $\pm$ 15,0	126,9 $\pm$ 14,6	5,47	8–10
	10	139,7 $\pm$ 15,9	134,8 $\pm$ 15,4		
Vertikal sakrash (sm)	8	22,1 $\pm$ 4,6	21,4 $\pm$ 4,3		
	9	24,8 $\pm$ 4,9	23,9 $\pm$ 4,7	6,03	8–10
	10	27,6 $\pm$ 5,2	26,5 $\pm$ 5,0		

Performans testlari natijalariga ko'ra, 8–10 yosh oralig'ida sportchi-o'quvchilarning tezkorlik va sakrash ko'rsatkichlarida yosh ortishi bilan ijobiy o'sish kuzatildi. 8 va 10 yosh guruhlar o'rtasida statistik jihatdan ahamiyatli farqlar aniqlandi ($p < 0,05$). Jinslar o'rtasida esa ko'rsatkichlar o'xshash bo'lib, farqlar statistik ahamiyat kasb etmadi.

Mazkur tadqiqotda yengil atletika bilan shug'ullanuvchi 8–10 yoshdagi sportchi-o'quvchilarning antropometrik ko'rsatkichlari, somatotip xususiyatlari hamda performans bilan bog'liq jismoniy tayyorgarlik darajalari yosh va jins omillari asosida tahlil qilindi. Olingan natijalar tadqiqot doirasida tuzilgan jadvallar asosida baholandi.

Antropometrik ko'rsatkichlar tahlili shuni ko'rsatdiki, sportchi-o'quvchilarda bo'y uzunligi, tana vazni, tana aylanalari, diametrlar va uzunlik ko'rsatkichlari yosh ortishi bilan izchil ravishda oshib borgan. Ayniqsa, 8 va 10 yosh guruhlar o'rtasida bir qator ko'rsatkichlarda statistik jihatdan ahamiyatli farqlar aniqlandi ($p < 0,05$). Jinslar o'rtasida esa antropometrik ko'rsatkichlarning aksariyatida sezilarli farqlar qayd etilmadi. Bu holat kuzatilgan o'zgarishlarning asosan biologik o'sish va rivojlanish jarayoni bilan bog'liqligini ko'rsatadi. Qiz bolalarda tana yog' foizi va teri osti yog' qatlamiga oid ko'rsatkichlar nisbatan yuqori bo'lsa-da, bu farqlar barcha yosh guruhlarida statistik ahamiyat kasb etmadi.

Somatotip elementlari tahlili natijalariga ko'ra, endomorf, mezomorf va ektomorf komponentlar bo'yicha na yosh guruhlar, na jinslar kesimida statistik jihatdan ishonchli farqlar aniqlanmadi ($p > 0,05$). Shu bilan birga, o'rtacha qiymatlar sportchi-o'quvchilarda ektomorf komponentning nisbatan ustun ekanligini ko'rsatdi. Bu holat tadqiqotda ishtirok etgan bolalarning tana tuzilishi yengil atletika mashg'ulotlari bilan mos ekanligidan dalolat beradi.

Performans bilan bog'liq jismoniy tayyorgarlik ko'rsatkichlari tahlili shuni ko'rsatdiki, tezkorlik, vertikal sakrash va joyidan uzunlikka sakrash natijalari yosh ortishi bilan ijobiy tomonga o'zgargan. 8 va 10 yosh guruhlar o'rtasida ushbu ko'rsatkichlar bo'yicha statistik jihatdan ahamiyatli farqlar aniqlangan ($p < 0,05$). Jinslar o'rtasidagi farqlar esa kichik bo'lib, ko'pchilik testlarda statistik ahamiyat kasb etmadi. Bu holat mazkur yosh davrida jismoniy tayyorgarlik ko'rsatkichlarining shakllanishida yosh omili jins omiliga nisbatan ustuvor ekanligini ko'rsatadi.



Tadqiqot natijalariga ko'ra, 8–10 yoshdagi sportchi-o'quvchilarda antropometrik ko'rsatkichlar va performans bilan bog'liq jismoniy tayyorgarlik darajasi asosan yosh omiliga bog'liq holda o'zgarib boradi. Jinslar o'rtasidagi farqlar esa mazkur yosh bosqichida aniq va barqaror xarakterga ega emas. Somatotip tahlili sportchi-o'quvchilarning tana tuzilishi yengil atletika mashg'ulotlari uchun mos ekanligini ko'rsatdi.

Olingan natijalar Buxoro sharoitida boshlang'ich sinf o'quvchilari bilan olib borilayotgan yengil atletika mashg'ulotlarini rejalashtirishda yoshga mos yondashuvni kuchaytirish, mashg'ulot yuklamalarini biologik rivojlanish darajasiga moslashtirish hamda jismoniy tayyorgarlikni baholashda kompleks testlardan foydalanish zarurligini ko'rsatadi. Tadqiqot natijalari yengil atletika mashg'ulotlari asosida bolalarning harakat faolligi va jismoniy rivojlanishini baholashda amaliy ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati:

1. САТТОРОВ А. Э., ИБРАГИМОВ А. К. СПОРТЧИЛАРДА ХИССИЙ-ИРОДАВИЙ СИФАТЛАР ШАКЛЛАНИШИНИНГ ПСИХОЛОГИК ХУСУСИЯТЛАРИ //PSIXOLOGIYA Учредители: Бухарский государственный университет. – №. S2. – С. 112-118.
2. Malina, R. M. (2010). Physical growth and biological maturation of young athletes. Exercise and Sport Sciences Reviews, 38(2), 59–64.
3. Carter, J. E. L., & Heath, B. H. (1990). Somatotyping – Development and Applications. Cambridge: Cambridge University Press.
4. Beunen, G. P., & Malina, R. M. (2008). Growth and physical performance relative to the timing of puberty. Exercise and Sport Sciences Reviews, 36(2), 63–69.
5. Lloyd, R. S., & Oliver, J. L. (2012). The youth physical development model. Strength and Conditioning Journal, 34(3), 61–72.
6. Armstrong, N., & Welsman, J. R. (2007). Aerobic fitness: What are we measuring? Medicine & Science in Sports & Exercise, 39(3), 505–512.

MUALLIF HAQIDA MA'LUMOT [ИНФОРМАЦИЯ ОБ АВТОРЕ]

[AUTHORS INFO]

Sattorov Anvar Ergashovich

Buxoro davlat universiteti

Sport faoliyati kafedrasini professori

anvar.sattorov87@gmail.com

Murodova Madina Jahongir qizi

Buxoro davlat universiteti 1-bosqich magistranti

Manzil: O'zbekiston, Buxoro shahri

BOSHLANG'ICH SINFLARDA MATEMATIKA DARSLARINI O'QITISHNING PEDAGOGIK MUAMMOLARI



Sayfullayeva Nozima Bahodirovna
Osiyo xalqaro universiteti katta o'qituvchisi

Annotatsiya.

KIRISH: Mazkur maqolada boshlang'ich sinflarda matematika fanini o'qitish jarayonida uchrayotgan dolzarb pedagogik muammolar, ularning kelib chiqish sabablari hamda bartaraf etish yo'llari tahlil qilingan. O'quvchilarning yosh va psixologik xususiyatlari, didaktik tamoyillar, zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish masalalari yoritilgan. Shuningdek, boshlang'ich sinf o'qituvchisining kasbiy kompetensiyasi va metodik tayyorgarligining ahamiyati asoslab berilgan.

MAQSAD: Boshlang'ich sinflarda matematika darslarini o'qitishning pedagogik muammolarini pedagogik tahlil qilish

MATERIALLAR METODLAR: Boshlang'ich ta'limda matematika fani barcha fanlar uchun poydevor vazifasini bajaradi. Aynan shu bosqichda o'quvchilarda:

- son va miqdor tushunchalari;
- arifmetik amallarni bajarish malakalari;
- mantiqiy fikrlash asoslari;
- muammoli vaziyatlarni hal qilish ko'nikmalari shakllantiriladi.

Matematika ta'limining muvaffaqiyati ko'p jihatdan o'qitish metodlari, didaktik vositalar va pedagogik yondashuvlarning to'g'ri tanlanishiga bog'liq.

XULOSA: Boshlang'ich sinflarda matematika darslarini o'qitishda mavjud pedagogik muammolarni bartaraf etish ta'lim sifatini oshirishning muhim sharti hisoblanadi. O'quvchilarning yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda zamonaviy pedagogik texnologiyalarni joriy etish, o'qituvchining kasbiy kompetensiyasini rivojlantirish matematika ta'limining samaradorligini ta'minlaydi.

Kalit so'zlar: boshlang'ich ta'lim, matematika, pedagogik muammo, metodika, didaktik tamoyillar, kompetensiya, interfaol metodlar.

ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ПРОБЛЕМЫ ПРЕПОДАВАНИЯ МАТЕМАТИКИ В НАЧАЛЬНЫХ КЛАССАХ

Сайфуллаева Нозима Баходировна

Старший преподаватель Азиатского международного университета

Аннотация.

ВВЕДЕНИЕ: В данной статье анализируются актуальные педагогические проблемы, возникающие в процессе обучения математике в начальных классах, их причины и пути преодоления. Рассматриваются возрастные и психологические особенности учащихся, дидактические принципы и использование современных

педагогических технологий. Также обосновывается важность профессиональной компетентности и методической подготовки учителя начальной школы.

ЦЕЛЬ: Педагогический анализ педагогических проблем обучения математике в начальных классах.

МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ: Математика в начальном образовании служит основой для всех предметов. Именно на этом этапе у учащихся формируются:

- понятия числа и количества;
- навыки выполнения арифметических операций;
- основы логического мышления;
- навыки решения проблемных ситуаций.

Успех математического образования во многом зависит от правильного выбора методов обучения, дидактических средств и педагогических подходов.

ВЫВОД: Устранение существующих педагогических проблем в преподавании математики в начальных классах является важным условием повышения качества образования. Внедрение современных педагогических технологий, учитывающих возрастные особенности учащихся, и развитие профессиональной компетентности учителя обеспечивают эффективность математического образования.

Ключевые слова: начальное образование, математика, педагогическая проблема, методология, дидактические принципы, компетентность, интерактивные методы.

PEDAGOGICAL PROBLEMS OF TEACHING MATHEMATICS IN PRIMARY GRADES

Sayfullayeva Nozima Bahodirovna

Senior Lecturer, Asian International University

Annatation.

INTRODUCTION: This article analyzes the current pedagogical problems encountered in the process of teaching mathematics in primary grades, their causes and ways to overcome them. The age and psychological characteristics of students, didactic principles, and the use of modern pedagogical technologies are covered. The importance of the professional competence and methodological training of a primary school teacher is also substantiated.

THE GOAL: Pedagogical analysis of pedagogical problems of teaching mathematics in primary grades

MATERIALS METHODS: Mathematics in primary education serves as the foundation for all subjects. It is at this stage that students:

- concepts of number and quantity;
- skills in performing arithmetic operations;
- foundations of logical thinking;
- skills in solving problem situations are formed.

The success of mathematics education largely depends on the correct choice of teaching methods, didactic tools, and pedagogical approaches.

CONCLUSION: Eliminating existing pedagogical problems in teaching mathematics in primary grades is an important condition for improving the quality of education. The introduction of modern pedagogical technologies, taking into account the age characteristics of students, and the development of the teacher's professional competence ensure the effectiveness of mathematics education.

Keywords: primary education, mathematics, pedagogical problem, methodology, didactic principles, competence, interactive methods.

Bugungi kunda ta'lim tizimini modernizatsiya qilish, ayniqsa, boshlang'ich ta'lim sifatini oshirish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Boshlang'ich sinflarda matematika fani o'quvchilarda mantiqiy fikrlash, tahlil qilish, taqqoslash va xulosa chiqarish ko'nikmalarini shakllantirishda muhim o'rin tutadi. Shu bois matematika darslarini samarali tashkil etish pedagog oldiga yuqori talablarni qo'yadi.

Biroq amaliyot shuni ko'rsatadiki, matematika darslarini o'qitishda qator pedagogik muammolar mavjud bo'lib, ular o'quvchilarning bilimlarni to'liq o'zlashtirishiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Ushbu maqolada ana shu muammolar ilmiy-pedagogik nuqtayi nazardan tahlil qilinadi.

Boshlang'ich sinflarda matematika ta'limining ahamiyati.

Boshlang'ich ta'limda matematika fani barcha fanlar uchun poydevor vazifasini bajaradi. Aynan shu bosqichda o'quvchilarda:

- son va miqdor tushunchalari;
- arifmetik amallarni bajarish malakalari;
- mantiqiy fikrlash asoslari;
- muammoli vaziyatlarni hal qilish ko'nikmalari shakllantiriladi.

Matematika ta'limining muvaffaqiyati ko'p jihatdan o'qitish metodlari, didaktik vositalar va pedagogik yondashuvlarning to'g'ri tanlanishiga bog'liq.

Matematika darslarini o'qitishda uchraydigan asosiy pedagogik muammolar:

1. O'quvchilarning yosh va psixologik xususiyatlarini inobatga olmaslik

Boshlang'ich sinf o'quvchilari abstrakt tafakkurdan ko'ra, ko'rgazmali-obrazli tafakkurga moyil bo'ladilar. Shunga qaramay, ayrim hollarda matematik tushunchalar haddan tashqari murakkab va mavhum tarzda bayon etiladi. Bu esa o'quvchilarda fanga bo'lgan qiziqishning susayishiga olib keladi.

2. An'anaviy o'qitish usullarining ustunligi

Ko'plab maktablarda matematika darslari hali ham ma'ruza va mashq bajarish asosida olib borilmoqda. Interfaol metodlar, o'yin texnologiyalari, muammoli ta'lim yetarli darajada qo'llanilmayapti. Natijada o'quvchilar passiv tinglovchi sifatida qolib ketmoqda.

3. Differensial yondashuvning yetishmasligi

Boshlang'ich sinfda o'quvchilarning bilim darajasi, qobiliyati va o'zlashtirish sur'ati turlicha bo'ladi. Ammo dars jarayonida barcha o'quvchilarga bir xil talab qo'yilishi ularning ayrimlarida qiyinchilik tug'diradi.

1-jadval

Boshlang'ich sinflarda matematika darslarini o'qitishda uchraydigan pedagogik muammolar

№	Pedagogik muammo nomi	Muammoning mohiyati	Ta'lim jarayoniga ta'siri
1	Yosh xususiyatlarini inobatga olmaslik	Abstrakt tushunchalarning erta berilishi	O'quvchilarda tushunmovchilik va qiziqishning pasayishi
2	An'anaviy metodlarning ustunligi	Interfaol usullarning kam qo'llanishi	O'quvchi faolligining pastligi
3	Differensial yondashuvning yo'qligi	Individual imkoniyatlar hisobga olinmasligi	Past o'zlashtirish va bilimlar tafovuti
4	Ko'rgazmali vositalarning yetishmasligi	Darslarda vizual materiallarning kamligi	Mavzuni tas

4. O'quv-metodik ta'minot bilan bog'liq muammolar

Ba'zi darslik va qo'llanmalarda mashqlar tizimi o'quvchilarning yosh xususiyatlariga to'liq mos kelmaydi. Ko'rgazmali vositalarning yetishmasligi ham dars samaradorligiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Boshlang'ich sinf matematika o'qituvchisining kasbiy kompetensiyasi

Matematika darslarini samarali tashkil etishda o'qituvchining kasbiy kompetensiyasi muhim ahamiyatga ega. U quyidagi jihatlarni o'z ichiga oladi:

- metodik bilim va malakalar;
- pedagogik texnologiyalarni qo'llay olish;
- psixologik-pedagogik bilimlar;
- innovatsion yondashuv.

O'qituvchi nafaqat bilim beruvchi, balki o'quvchilarda matematik tafakkurni rivojlantiruvchi shaxs bo'lishi lozim.

Zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish muammolari

Bugungi kunda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari matematika darslarida keng imkoniyatlar yaratmoqda. Ammo ularni amaliyotga joriy etishda quyidagi muammolar kuzatiladi:

- texnik vositalarning yetishmasligi;
 - o'qituvchilarning AKT bo'yicha malakasining pastligi;
 - elektron resurslardan foydalanish metodikasining to'liq ishlab chiqilmaganligi.
- Shu sababli AKTdan foydalanish tizimli va maqsadga yo'naltirilgan bo'lishi zarur.

Pedagogik muammolarni bartaraf etish yo'llari

Boshlang'ich sinflarda matematika o'qitishdagi pedagogik muammolarni hal etish uchun quyidagi chora-tadbirlar muhim hisoblanadi:

1. Dars jarayonida interfaol va o'yin metodlaridan keng foydalanish.
2. Differensial va individual yondashuvni amalga oshirish.
3. Ko'rgazmali vositalar va raqamli texnologiyalarni samarali qo'llash.
4. O'qituvchilarning malakasini oshirish va metodik tayyorgarligini kuchaytirish.
5. O'quvchilarda matematikaga ijobiy munosabatni shakllantirish.

Matematika ta'limining rivojlantiruvchi xarakteri haqidagi ilmiy qarashlar

Ko'plab pedagog olimlar (L.S. Vigotskiy, P.Ya. Galperin, V.V. Davidov) matematikani faqat hisob-kitob fani emas, balki **tafakkurni rivojlantiruvchi vosita** sifatida baholaydilar.

Ilmiy fikr mazmuni:

- Matematika darslari o'quvchilarda mantiqiy fikrlashni shakllantirishi lozim;
- Har bir matematik amal ongli ravishda o'zlashtirilishi kerak;
- Mexanik yodlash emas, balki tushunish asosida o'qitish muhim.

Agar darslar faqat mashq bajarishga yo'naltirilsa, rivojlantiruvchi ta'lim vazifasi bajarilmaydi.

L.S. Vigotskiyning "yaqin rivojlanish zonasi" nazariyasi

Vigotskiy boshlang'ich ta'limda o'qitish **o'quvchi imkoniyatidan biroz yuqori** darajada tashkil etilishi kerakligini ta'kidlaydi.

Matematika darslaridagi ahamiyati:

- O'quvchilarga mustaqil bajara olmaydigan, ammo o'qituvchi yordamida bajariladigan topshiriqlar berish;
- Muammoli masalalar orqali fikrlashni faollashtirish.

Pedagogik muammo: Amaliyotda ko'pincha topshiriqlar juda oson yoki haddan tashqari murakkab bo'lib qolmoqda.

P.Ya. Galperinning bosqichma-bosqich shakllantirish nazariyasi

Galperin matematik bilimlar **bosqichma-bosqich** (ko'rgazmali → og'zaki → aqliy) shakllantirilishi kerakligini ilmiy asoslab bergan.

Ilmiy fikrlar:

- Har bir matematik amal avval predmetli harakatlar orqali o'rgatilishi zarur;
- Keyin u sxema, rasm, model yordamida tushuntiriladi;
- Oxirida aqliy amalga aylantiriladi.

Ko'rgazmalilik yetarli bo'lmaganda o'quvchilar mavzuni yuzaki o'zlashtiradi.

Didaktik tamoyillarni matematika darslarida qo'llash haqidagi qarashlar

Pedagog olimlar (Ya.A. Komenskiy, N.N. Azizxo'jayeva) matematika o'qitishda quyidagi didaktik tamoyillar muhimligini ta'kidlaydi:

- Tizimlilik va izchillik
- Onglilik va faollik
- Ko'rgazmalilik
- Yosh xususiyatlariga moslik

Ushbu tamoyillarga amal qilinmasa, matematika darslari samarasiz bo'ladi.

Differensial va individual yondashuv zarurligi haqidagi ilmiy qarashlar

Zamonaviy pedagogik tadqiqotlarda (Saidahmedov N., Klarin M.V.) boshlang'ich ta'limda **differensial ta'lim** muhim deb e'tirof etiladi.

Ilmiy asos:

- Har bir bolaning qobiliyati va o'zlashtirish tezligi turlicha;
- Bir xil topshiriq barcha o'quvchilar uchun bir xil natija bermaydi.

Matematika darslarida individual ishlashga vaqt yetarli ajratilmaydi.

6. O'yin faoliyatining matematika ta'limidagi o'rni haqidagi ilmiy fikrlar

Psixolog va pedagoglar (D.B. Elkonin, A.K. Markova) boshlang'ich sinfda **o'yin asosidagi ta'lim** samaradorligini isbotlagan.

Ilmiy fikrlar:

- O'yin o'quvchining ichki motivatsiyasini oshiradi;
- Murakkab matematik tushunchalar o'yin orqali osonroq o'zlashtiriladi;
- Dars jarayonida faollik kuchayadi.

O'yin texnologiyalari yetarli darajada qo'llanilmayapti.

7. AKT va raqamli texnologiyalar bo'yicha ilmiy yondashuvlar

Zamonaviy tadqiqotlarda (UNESCO, OECD materiallari) matematika darslarida AKTdan foydalanish quyidagicha baholanadi:

- Vizual fikrlashni rivojlantiradi;
- Mustaqil o'rganishni rag'batlantiradi;
- Ta'lim samaradorligini oshiradi.

AKT metodikasiz qo'llansa, kutilgan natija bermaydi.

Boshlang'ich sinflarda matematika o'qitishga oid ilmiy tahlil turlari

Nazariy-pedagogik tahlil mazmuni:

Nazariy-pedagogik tahlil matematika ta'limining ilmiy asoslarini o'rganishga qaratiladi. Unda pedagogika, psixologiya va metodika fanlaridagi qarashlar tahlil qilinadi.

Tahlil yo'nalishlari:

- matematika ta'limining maqsad va vazifalari;
- didaktik tamoyillarning dars jarayonida aks etishi;
- rivojlantiruvchi ta'lim g'oyalari.

Ilmiy xulosa: Nazariy manbalarda matematika darslari rivojlantiruvchi xarakterga ega bo'lishi ta'kidlangan bo'lsa-da, amaliyotda bu talab to'liq bajarilmayapti.

Psixologik-pedagogik tahlil Mazmuni:

Ushbu tahlil o'quvchilarning yosh va individual xususiyatlarini matematika darslarida hisobga olish darajasini aniqlaydi.

Tahlil obyekti:

- boshlang'ich sinf o'quvchilarining tafakkur turlari;
- e'tibor va xotira hajmi;
- matematik tushunchalarni qabul qilish mexanizmi.

Ilmiy tahlil natijasi:

Ko'rgazmali-obrazli tafakkur ustun bo'lgan yoshda abstrakt tushunchalar ustuvor berilishi o'quvchilar o'zlashtirishida qiyinchilik tug'diradi.

Didaktik tahlil mazmuni:

Didaktik tahlil matematika darslarining mazmuni, shakli va metodlari o'rtasidagi muvofiqlikni aniqlashga qaratiladi.

Asosiy mezonlar:

- dars maqsadining aniqligi;
- metod va vositalarning mosligi;
- o'quv faoliyatining faolligi.

Ilmiy xulosa: An'anaviy tushuntirish-usuli ustunligi o'quvchilarning bilish faolligini pasaytiradi.

Taqqoshlama (komparativ) tahlil mazmuni:

Mazkur tahlil turli davr yoki turli davlatlarning matematika o'qitish tajribalarini solishtirishga asoslanadi.

Tahlil obyektlari:

- milliy va xorijiy darsliklar;
- o'qitish metodlari;
- baholash tizimlari.

Ilmiy xulosa: Rivojlangan ta'lim tizimlarida (Finlyandiya, Singapur) muammoli va faol metodlar ustuvor.

Empirik tahlil (tajriba-sinov asosida) mazmuni:

Empirik tahlil kuzatuv, suhbat, test va diagnostika natijalariga asoslanadi.

Tahlil ko'rsatkichlari:

- o'quvchilarning o'zlashtirish darajasi;
- mustaqil fikrlash ko'nikmalari;
- matematikaga bo'lgan qiziqish.

Ilmiy natija: Interfaol metodlar qo'llangan sinflarda o'zlashtirish ko'rsatkichlari sezilarli oshgan.

Statistik-pedagogik tahlil mazmuni: Statistik tahlil tajriba natijalarini raqamlar asosida baholash imkonini beradi.

Qo'llaniladigan usullar:

- foizli tahlil;
- o'rtacha ko'rsatkichlar;
- taqqoshlash diagrammalari.

Ilmiy xulosa: Matematika darslarida innovatsion metodlar samaradorligi statistik jihatdan tasdiqlanadi.

Diagnostik tahlil mazmuni: Diagnostik tahlil o'quvchilardagi bilim bo'shliqlari va xatolar sabablarini aniqlaydi.

Natija: Asosiy muammolar:

- tushunchalarni yuzaki o'zlashtirish;
- mantiqiy bog'lanishlarni tushunmaslik;
- mustaqil ishlash malakasining pastligi.

Xulosa qilib aytganda, boshlang'ich sinflarda matematika darslarini o'qitishda mavjud pedagogik muammolarni bartaraf etish ta'lim sifatini oshirishning muhim sharti hisoblanadi. O'quvchilarning yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda zamonaviy pedagogik



texnologiyalarni joriy etish, o'qituvchining kasbiy kompetensiyasini rivojlantirish matematika ta'limining samaradorligini ta'minlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati

1. Karimov I.A. **Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch.** – Toshkent, 2008.
2. Azizxo'jayeva N.N. **Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat.** – Toshkent, 2016.
3. Saidahmedov N. **Yangi pedagogik texnologiyalar.** – Toshkent, 2018.
4. Boshlang'ich ta'lim davlat ta'lim standarti. – Toshkent, 2021.

MUALLIF HAQIDA MA'LUMOT [ИНФОРМАЦИЯ ОБ АВТОРЕ]

[AUTHORS INFO]

Sayfullayeva Nozima Bahodirovna

Osiyo xalqaro universiteti katta o'qituvchisi

Manzil: O'zbekiston, Buxoro shahri

ONA TILI TA'LIMIDA O'QUVCHILARNING PRAGMATIK KOMPETENSIYASINI TAKOMILLASHTIRISHDA INTENSIV TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH METODIKASI



Olloqova O'g'iljon Mamanazarovna
Osiyo xalqaro universiteti o'qituvchisi

Annotatsiya.

KIRISH: Zamonaviy kompetensiyaviy ta'lim konsepsiyasi til o'qitish jarayoniga yangi yondashuvlarni taklif etib, o'quvchilarda nutqiy, lingvistik, kreativ hamda pragmatik kompetensiyalarni shakllantirishni asosiy vazifa sifatida belgilaydi. Bu yondashuv tilni faqat grammatik bilimlar majmui sifatida emas, balki kommunikativ faoliyatning mazmuniy, uslubiy va pragmatik jihatlari bilan uyg'un o'zlashtirishni ko'zda tutadi.

Bugungi kunda ta'lim muassasalarida ona tili ta'limini sifat jihatidan yangi pog'onaga – tilni tizimli o'zlashtirish bosqichiga ko'tarish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Imloviy va uslubiy savodxonlikni yuksaltirish, o'quvchilarda nutqiy, lingvistik va pragmatik kompetensiyalarni shakllantirish, shuningdek, shu asosda og'zaki va yozma nutqning kompetentli darajada tashkil etilishiga erishish ta'limning ustuvor yo'nalishlaridan sanaladi.

MAQSAD: Ona tili ta'limida intensiv texnologiyalardan foydalanish orqali o'quvchilarning pragmatik kompetensiyasini takomillashtirish, til sezgirligini oshirish, ularning bilim, ko'nikma va malakalarini shakllantirish bo'yicha tavsiyalar berish.

MATERIAL VA METODLAR: Ushbu tadqiqotda maktab darsliklari va nazariy adabiyotlarni tahlil qilish, so'rovnomalar, suhbat va kuzatish metodlari, shuningdek, ona tili dasturlari tahlili asosida ma'lumotlar to'plandi va umumlashtirildi. Empirik material sifatida kuzatilgan ona tili darslaridan, ona tili o'qituvchilar bilan olib borilgan suhbatlardan va mavjud ilmiy tadqiqotlardan foydalanildi.

XULOSA: Intensiv ta'lim texnologiyasining mazmuni o'quv jarayonida samaradorlik va sifat ko'rsatkichlarini oshirishga qaratilgan raqamli texnologiyalarni tatbiq etishga tayanadi. Raqamli muhit o'quv faoliyatini individuallashtiradi, o'quvchida mustaqil ishlash ko'nikmalarini rivojlantiradi va shaxsiy ta'lim trayektoriyasini shakllantirishga zamin yaratadi.

Kalit so'zlar: kompetensiya, kompetentlik, pragmatik kompetensiya, texnologiya, intensiv texnologiya, integrativ pedagogika.

МЕТОДИКА ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ИНТЕНСИВНЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В СОВЕРШЕНСТВОВАНИИ ПРАГМАТИЧЕСКОЙ КОМПЕТЕНЦИИ УЧАЩИХСЯ В ОБУЧЕНИИ РОДНОМУ ЯЗЫКУ

Оллокова Угилжон Маманазаровна
Азиатский международный университет

Аннотация.

ВВЕДЕНИЕ: Современная компетентностная концепция образования предлагает новые подходы к процессу обучения языку и определяет формирование у учащихся

речевой, лингвистической, креативной и прагмалингвистической компетенций в качестве приоритетной задачи. Данный подход рассматривает язык не только как совокупность грамматических знаний, но и как средство освоения коммуникативной деятельности в единстве её содержательных, стилистических и прагматических аспектов.

На сегодняшний день одной из актуальных задач в образовательных учреждениях является выведение обучения родному языку на качественно новый уровень — этап системного усвоения языка. Повышение орфографической и стилистической грамотности, формирование речевой, лингвистической и прагматической компетенций учащихся, а также обеспечение компетентной организации устной и письменной речи являются приоритетными направлениями образования.

ЦЕЛЬ: Совершенствование прагматической компетенции учащихся в обучении родному языку посредством использования интенсивных технологий, повышение языковой чувствительности, а также разработка рекомендаций по формированию их знаний, умений и навыков.

МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ: В данном исследовании были проанализированы школьные учебники и теоретическая литература, использованы методы анкетирования, беседы и наблюдения, а также проведён анализ программ по родному языку. В качестве эмпирического материала использовались наблюдения за уроками родного языка, беседы с учителями родного языка и результаты существующих научных исследований.

ВЫВОД: Содержание интенсивных образовательных технологий основано на внедрении цифровых технологий, направленных на повышение эффективности и качества учебного процесса. Цифровая среда способствует индивидуализации учебной деятельности, развитию у учащихся навыков самостоятельной работы и созданию условий для формирования индивидуальной образовательной траектории.

Ключевые слова: компетенция, компетентность, прагматическая компетенция, технология, интенсивная технология, интегративная педагогика.

METHODOLOGY OF USING INTENSIVE TECHNOLOGIES TO IMPROVE STUDENTS' PRAGMATIC COMPETENCE IN MOTHER TONGUE EDUCATION

Ollokova Ugiljon Mamanazarovna
Asian International University

Annatation.

INTRODUCTION: The modern competency-based education concept offers new approaches to language teaching and identifies the formation of students' communicative, linguistic, creative, and pragmalinguistic competencies as a key objective. This approach views language not merely as a set of grammatical rules but as an integrated means of mastering communicative activity through its semantic, stylistic, and pragmatic dimensions.

Today, one of the most pressing issues in educational institutions is elevating mother tongue education to a qualitatively new level—the stage of systematic language acquisition. Enhancing orthographic and stylistic literacy, developing students' communicative, linguistic, and pragmatic competencies, and ensuring competent organization of oral and written speech are among the priority directions of education.

THE GOAL: To improve students' pragmatic competence in mother tongue education through the use of intensive technologies, enhance language sensitivity, and provide recommendations for developing their knowledge, skills, and abilities.

MATERIALS AND METHODS: This study involved the analysis of school textbooks and theoretical literature, as well as the use of questionnaires, interviews, and observation

methods. Data were also collected through the analysis of mother tongue curricula. Empirical materials included observations of mother tongue lessons, interviews with mother tongue teachers, and existing scientific research findings.

CONCLUSION: The content of intensive educational technologies is based on the implementation of digital technologies aimed at increasing the efficiency and quality of the educational process. The digital learning environment individualizes educational activities, fosters students' independent learning skills, and creates a foundation for shaping personalized educational trajectories.

Keywords: competence, competency, pragmatic competence, technology, intensive technology, integrative pedagogy.

Bugungi kunda ta'lim sohasida *kompetensiya*, *kompetensiyaviy yondashuv* va *kompetentlilik* kabi tushunchalar faol muomalaga kirib kelgan bo'lib, ular ta'lim jarayonining mazmunini yangilashda asosiy metodologik tayanchlardan biri sifatida qaralmoqda. Tilshunoslikdagi mazkur atamaning dastlabki qo'llanishi XX asr o'rtalariga, N. Xomskiy tadqiqotlariga borib taqaladi. Olim kompetensiya tushunchasini tilni qo'llash jarayonida zarur bo'ladigan bilim, ko'nikma va malakalar majmuasi sifatida izohlagan.

Uning izdoshlari esa mazkur g'oyani ta'lim sohasiga tatbiq qilib, *kompetensiyaviy yondashuvni* o'quv jarayonida natijaviylikni belgilovchi muhim omil sifatida talqin etganlar. Natijada, kompetensiyaviy yondashuv zamonaviy ta'limning samaradorligini ta'minlashga qaratilgan metodik konsepsiya sifatida shakllandi.

Pedagogik ensiklopediyada *kompetensiya* tushunchasiga quyidagicha izoh beriladi: "*Kompetensiya (lot. competere – layoqatli bo'lmoq, munosib bo'lmoq) – 1) ma'lum bir organ yoki mansabdor shaxsning rasmiy hujjatlar bilan belgilangan vakolatlar doirasi; 2) muayyan sohadagi bilim va tajribalar yig'indisi; 3) shaxsning ma'lum bir sohaga oid xabardorlik darajasi, shu sohani bilish ko'lami.*"

Kompetentlilik esa shaxsning o'z kasbiga mosligi, o'z sohasiga oid bilim, ko'nikma va malakalarini amaliy faoliyatda mustaqil qo'llay olishi, yuzaga kelgan vaziyatlarga ijodkorona yondasha olishi bilan belgilanadi. Haqiqatdan ham, ko'p ma'lumotga ega bo'lib, biroq uni amalda qo'llay olmaslik na o'quvchiga, na talabaga, na o'qituvchining o'ziga samara beradi. Kompetent o'qituvchi quruq nazariy ma'lumot sohibi bo'lib qolmay, balki zarur holatlarda o'z bilimini tez tiklay oladi, muammoni hal etishda undan samarali foydalanadi.

Shu boisdan, "**Kompetentlik** – pedagogning mavjud imkoniyatlardan oqilona foydalana olishi, o'z kasbiga va faoliyatiga nisbatan talabchan bo'lishi, maktab–oilahamkorligini yo'lga qo'ya bilishi, kasb sirlarini chuqur o'zlashtirgan, o'zini muntazam rivojlantirib boradigan va mavjud qobiliyat hamda imkoniyatlarini to'liq ishga sola oladigan pedagogik layoqatidir" degan fikr bejiz ta'kidlanmaydi.

O'zbekiston Respublikasida ta'lim tizimining uzviy va uzluksiz xarakteri, shuningdek ta'lim oluvchining shaxsiy rivoji ustuvor yo'nalish sifatida e'tirof etilganligi bois, o'quvchilarning yosh davriga mos ravishda bir qator tayanch kompetensiyalar shakllantiriladi. Ular qatoriga **kommunikativ kompetensiya, o'zini o'zi rivojlantirish kompetensiyasi, axborot bilan ishlash kompetensiyasi, ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyasi**, shuningdek **umummadaniy va milliy kompetensiya** turlari kiradi.

Ona tilini o'rganish jarayonida esa o'quvchi-talabalardan, avvalo, **nutqiy va lingvistik kompetensiyalarni** puxta egallash talab etiladi. Mazkur kompetensiyalar o'quvchining fikrni mantiqiy va aniq ifoda eta olishi, til birliklari mohiyatini anglash hamda ularni turli kommunikativ vaziyatlarda samarali qo'llay bilishi uchun zarur omil sanaladi.

Davlat ta'lim standartlarida belgilangan talablarning amalda bajarilishi, avvalo, har bir ta'lim bosqichi uchun ko'zda tutilgan kompetensiyalar darajasini aniq tasavvur etish va ta'lim oluvchilarda mazkur layoqatlarni shakllantirishga qaratilgan ta'lim mazmunini puxta egallashni

talab etadi. Ona tili ta'limida kompetensiyaviy yondashuv masalasida olib borilgan ilmiy izlanishlar – xususan, taniqli tilshunos olimlar A. Nurmonov va G. Ziyodullayevalarning tadqiqotlarida o'quvchilarning til kompetentligini rivojlantirishga oid qimmatli mulohazalar bayon etilgan.

Shuningdek, tilshunos olim Sh. Safarov muloqotning murakkab ijtimoiy vaziyatlarda turlicha namoyon bo'lishi, sodda ko'rinishdagi pragmatik strukturalarning asta-sekin murakkablashuvi, pragmatikaning semantik qobig'i uzluksiz kengayib borishini ta'kidlar ekan, "tilni tahlil qilishni pragmatik asosdan boshlash lozim" degan ilmiy xulosaga keladi. Bu fikr pragmatik kompetensiya ona tili ta'limida markaziy o'rin egallashini yana bir bor isbotlaydi.

Tilshunos U. Rahimov o'z maqolasida kommunikativ muloqot hamda lingvistik kompetensiyaning shakllanishi va rivojlanishi ijtimoiy munosabat omillari bilan chambarchas bog'liq ekanini ta'kidlab, kompetentlikning boyib borishiga ta'sir ko'rsatuvchi bir qator omillar mavjudligini qayd etadi. Uning fikricha, shaxsning til vositasida muloqotga kirishish qobiliyati ijtimoiy tajriba, kommunikativ muhit va til bilan bog'liq faoliyat turlari orqali tobora kengayib boradi.

Shu bilan birga, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari zamonaviy bilim va imkoniyatlarni kengaytiruvchi asosiy vositalardan biri sifatida taraqqiyotning muhim omili bo'lib xizmat qiladi. Yurtimiz 2019-yilda "Xalqaro axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish indeksi"da 8-o'rinni egallagan bo'lsa-da, sohada hali amalga oshirilishi zarur bo'lgan vazifalar ko'lami katta ekanini ko'rsatmoqda.


Bugungi kunda jahon ta'lim makonida o'qitish jarayonining samaradorligi va sifatini oshirish maqsadida **integrativ pedagogika** imkoniyatlaridan foydalanish, ta'lim jarayonlarida kompleks integratsiya yondashuvini joriy etish bo'yicha keng ko'lamli ilmiy izlanishlar amalga oshirilmogda. O'zbekistonni yanada rivojlantirishga qaratilgan **Harakatlar strategiyasida** ham "yosh avlodning ijodiy va intellektual salohiyatini qo'llab-quvvatlash va ro'yobga chiqarish" ustuvor vazifa sifatida belgilangan bo'lib, bu integrativ yondashuvlarning ahamiyatini yana bir bor tasdiqlaydi.

Professor Q. Yo'ldoshev ta'kidlaganidek, *"Hamkorlik pedagogikasi har bir inson shaxsiyatida demokratik fazilatlarini shakllantirishga qaratilgan bo'lib, toptalmas erkinlik va saqlanib qolgan insoniy g'urur o'quvchi faoliyatida ijodkorlikni kuchaytiradi. Bunday yondashuvda o'qituvchi va ta'lim oluvchi orasida samimiy insoniy munosabatlar shakllanadi hamda ularning ishchanlik salohiyati bir necha barobar ortadi"*.

Mazkur fikrlar ta'lim jarayonida o'zaro hamkorlikka asoslangan, integrativ va demokratik tamoyillarning qanchalik dolzarb ekanini ko'rsatadi.

Ta'lim-tarbiya tizimida, xususan, ona tili ta'limida innovatsion texnologiyalarni qo'llashdan ko'zlangan asosiy maqsad pedagogik jarayonni insonparvarlik tamoyillari asosida tashkil etishdir. So'nggi yillarda ona tili ta'limini boshqa fanlar bilan uyg'unlashtirib o'qitishga alohida e'tibor qaratilayotganining sababi ham bejiz emas. Chunki ona tili – barcha fanlarni ongli va samarali o'zlashtirishga xizmat qiluvchi poydevor, o'quv jarayonining intellektual asosidir.

Integratsion yondashuv asosida qurilgan darslar qisqa vaqt ichida sezilarli natija berishi, o'quvchilarda tilni amaliy va nazariy jihatdan chuqur o'zlashtirishga imkon yaratishi bilan ahamiyatlidir. Ammo ta'lim jarayonida demokratik va insonparvar muhitni shakllantirmasdan turib, hech bir texnologiyaning kutilgan samarani berishi qiyin. Shuning uchun ona tili ta'limida intensiv texnologiyalar asosida o'quvchilarning pragmatik kompetensiyasini rivojlantirishga yo'naltirilgan darslar aniq metodik tuzilishga ega bo'lishi zarur (1rasmga qarang).



“1-rasm.” Intensiv texnologiyaga asoslangan mashg'ulot tuzilmasi

Innovatsion ta'lim texnologiyalari asosida tashkil etilgan darslarda o'qituvchi va o'quvchi hamkorligiga yo'naltirilgan ta'lim jarayonida insonparvarlik tarbiyasini berish imkoniyati sezilarli darajada ortadi. Bunday mashg'ulotlarda markaziy o'rinda insoniylik g'oyalari singdirilgan, umumlashtirilgan va tizimlashtirilgan o'quv topshiriqlari hamda savollar turishi maqsadga muvofiqdir.

Bo'lajak ona tili o'qituvchisining shaxs sifatida shakllanishi ham, avvalo, unga nisbatan e'zoz va hurmatning mavjudligi, o'z-o'zini rivojlantirishga xizmat qiluvchi ijtimoiy-psixologik muhitning yaratilishi bilan chambarchas bog'liq. O'quvchi shaxsiga ehtirom ko'rsatish natijasida unda o'ziga bo'lgan ishonch mustahkamlanadi. Insonparvarlik ruhida, hayotiy tajriba bilan uyg'unlashtirilgan darslar o'quvchilarning fikrni erkin, mantiqiy va asosli tarzda bayon qila olishlariga ko'maklashadi.

Milliy tilni chuqur egallash ta'lim-tarbiya jarayonining eng muhim tarkibiy jihatlaridan biri sanaladi. Shu bois ona tili – barcha fanlarning poydevori sifatida – o'qitilish jarayonida faqat dastur va darsliklarda berilgan ma'lumotlar bilan chegaralanib qolmaslik lozim. Aksincha, nazariy qoida va ta'riflarni tushuntirish jarayonida amaliy misollardan keng foydalanish, bu misollarni buyuk ajdodlarimizning hayoti va ijodiga doir dalillar bilan boyitish o'quvchilarda milliy tilga bo'lgan qiziqish va hurmatni yanada kuchaytiradi.

Ona tili fani ijtimoiy hayot haqidagi bilimlarni mustahkamlovchi, kengaytiruvchi va shaxsning ma'naviy kamolotiga xizmat qiluvchi asosiy fanlardan biri ekanini e'tiborga olsak, yaratilayotgan yangi dastur va darsliklar mazmuniga tarixiy merosimiz, milliy qadriyatlarimiz va buyuk mutafakkirlarimizning ilmiy-ma'naviy merosini yanada keng qamrovda singdirish maqsadga muvofiqdir. Bu nafaqat o'quvchilarning til boyligini oshiradi, balki ularning ma'naviy dunyosini boyitib, milliy o'zligini anglashiga ham xizmat qiladi.

Ona tili faniga oid davlat ta'lim standartlarida o'quvchi shaxsida shakllantirilishi ko'zda tutilgan sifatlar qatorida o'z-o'zini jismonan, ma'naviy, ruhiy, intellektual va kreativ jihatdan rivojlantirishga doir kompetensiyalar alohida urg'u bilan qayd etilgan. Shuningdek, ta'lim oluvchining o'z bilim darajasi hamda xatti-harakatlarini baholay olishi, mustaqil qaror qabul qilish layoqatini egallashi ham muhim mezon sifatida e'tirof etiladi.

Bundan tashqari, tilning boy imkoniyatlaridan foydalanib, fikrni aniq, ravon va mantiqiy tarzda ifodalay olish ko'nikmasini rivojlantirish ham mazkur standartlarning ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida belgilangan.

Kreativ kompetensiya qanday qilib nutqiy va lingvistik bilim hamda ko'nikmalar asosida shakllansa, pragmatik kompetensiya ham aynan shu o'zaro bog'liq malaka va amaliy tajribalar yig'indisi orqali rivojlanadi. Pragmatik kompetensiya – bu kommunikativ vaziyatda yuzaga keladigan turli holatlardan mohirlik bilan chiqib keta olish, ya'ni muloqotni maqsadga muvofiq ravishda boshqara olish qobiliyatidir.

Pragmatika esa real muloqot jarayonida kommunikativ vazifalarni hal etish uchun til vositalaridan ongli tarzda, vaziyatga mos holda tanlab foydalanishni talab qiluvchi yondashuv sifatida ta'riflanadi. Demak, pragmatik kompetensiya muloqotga kirishayotgan shaxslarning millati, ijtimoiy mavqei, yoshi, jinsi kabi omillarni inobatga olib, til vositalarini madaniyat normalariga muvofiq qo'llay bilishni nazarda tutadi.

4K texnologiyasining mazmuni va ta'limdagi o'rni

4K texnologiyasi XXI asr ko'nikmalari sifatida e'tirof etilgan quyidagi to'rt asosiy kompetensiyani o'z ichiga oladi:

1. **Kritik fikrlash** – muammoni tahlil qilish, xulosalar chiqarish;
2. **Kreativlik** – yangicha fikrlash, noodatiy yechimlar topish;
3. **Kommunikativlik** – fikrni aniq va ravon ifodalash;
4. **Kooperatsiya** – jamoada ishlash, hamkorlikda faoliyat yuritish.

Boshlang'ich sinf ta'limida 4K texnologiyasidan foydalanish o'quvchilarning faolligini oshiradi, mustaqil fikrlashga undaydi va bilimlarni chuqur o'zlashtirishga yordam beradi.

Fazoviy tasavvurlarni shakllantirishda 4K texnologiyasidan foydalanish metodikasi

Fazoviy tasavvurlarni rivojlantirishda 4K texnologiyasini qo'llash quyidagi metodik yo'nalishlar asosida amalga oshiriladi:

Kritik fikrlashni rivojlantirish

O'quvchilarga turli geometrik shakllar, rasmlar va maketlar asosida savollar berish orqali ularning tahliliy fikrlashi rivojlantiriladi. Masalan, "Qaysi shakl ortiqcha?", "Bu figuralar qanday farqlanadi?" kabi savollar.

Kreativlikni qo'llab-quvvatlash

O'quvchilarga berilgan shakllardan yangi predmetlar yasash, chizmalar chizish, fazoviy o'yinlar tashkil etish orqali ijodiy fikrlash rivojlantiriladi.

Kommunikativlikni rivojlantirish

O'quvchilar o'z fikrlarini og'zaki va yozma ravishda bayon etish, guruhda muhokama qilish orqali nutq madaniyatini oshiradilar.

Kooperatsiya asosida ishlash

Guruhli va juftlikda ishlash orqali o'quvchilarning jamoaviy faoliyati tashkil etiladi, bu esa o'zaro fikr almashish va ijtimoiy ko'nikmalarni rivojlantiradi.

Tajriba-sinov ishlari va natijalar

Tajriba-sinov ishlari boshlang'ich sinf o'quvchilari ishtirokida o'tkazilib, unda 4K texnologiyasiga asoslangan mashg'ulotlar tizimi ishlab chiqildi. Natijalar shuni ko'rsatdiki:

- o'quvchilarning fazoviy tasavvurlari sezilarli darajada rivojlandi;
- darslarga qiziqish va faollik oshdi;
- mustaqil va ijodiy fikrlash ko'nikmalari shakllandi.

2-jadval

Fazoviy tasavvurlarni shakllantirishda an'anaviy metodlar va 4K texnologiyasining taqqoslama tahlili

Tahlil mezonlari	An'anaviy metodlar	4K texnologiyasi
O'quvchi faolligi	Past	Yuqori
Mustaqil fikrlash	Cheklangan	Rivojlangan
Kreativ yondashuv	Kam qo'llaniladi	Tizimli rivojlanadi
Guruhli ishlash	Epizodik	Doimiy
Natijaning barqarorligi	O'rtacha	Yuqori

Tahlil: Taqqoslama natijalari shuni ko'rsatadiki, 4K texnologiyasi o'quvchilarning faolligi va mustaqilligini oshirib, fazoviy tasavvurlarni shakllantirishda yuqori pedagogik samaradorlikni ta'minlaydi.

Tajriba-sinov ishlarining tashkil etilishi va tahlili

Tajriba-sinov ishlari 2–3-sinf o'quvchilari ishtirokida olib borildi. Tadqiqotda nazorat va tajriba guruhlar shakllantirildi. Tajriba guruhida fazoviy tasavvurlarni rivojlantirish 4K texnologiyasi asosida tashkil etildi.

Natijalarni tahlil qilish

Dastlabki diagnostika natijalariga ko'ra, o'quvchilarning fazoviy tasavvurlari o'rtacha darajada ekanligi aniqlandi. Tajriba yakunida esa:

- yuqori daraja 18 % dan 42 % ga oshdi;
- o'rtacha daraja 46 % ni tashkil etdi;

- past daraja 36 % dan 12 % gacha kamaydi.

Bu ko'rsatkichlar 4K texnologiyasining pedagogik samaradorligini ilmiy jihatdan tasdiqlaydi.

4K texnologiyasi bo'yicha pedagogik fikrlar va ilmiy qarashlar

Zamonaviy pedagogika fanida 4K texnologiyasi o'quvchini passiv bilim oluvchidan faol bilim yaratuvchi subyektga aylantiruvchi muhim ta'limiy yondashuv sifatida e'tirof etiladi. Tadqiqotchilar fikriga ko'ra, 4K komponentlari ta'lim jarayonida alohida-alohida emas, balki o'zaro integratsiyalashgan holda qo'llangandagina yuqori pedagogik samaradorlikka erishiladi.

edagog olimlar kritik fikrlashni o'quvchining muammoli vaziyatni tahlil qilish, dalillarni solishtirish va asoslangan xulosaga kelish qobiliyati sifatida talqin etadilar. L.S. Vigotskiy ta'kidlaganidek, o'quvchining intellektual rivoji faqat tayyor bilimni o'zlashtirish bilan emas, balki muammoli vaziyatlarni mustaqil hal etish jarayonida shakllanadi.

Boshlang'ich sinf ta'limida kritik fikrlash fazoviy tasavvurlarni shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki o'quvchi shakllar, yo'nalishlar va makoniy munosabatlarni tahlil qilish orqali ularning mohiyatini chuqur anglaydi. Ilmiy tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, kritik fikrlash elementlari qo'llanilgan darslarda o'quvchilarning tahliliy qobiliyatlari sezilarli darajada oshadi.

Kreativlik pedagogikada o'quvchining yangicha fikrlash, noodatiy yechimlar topish va mavjud bilimlarni yangi vaziyatlarda qo'llay olish qobiliyati sifatida baholanadi. J. Gilford va E. Torrensning ilmiy ishlari kreativ tafakkurning rivoji aynan kichik maktab yoshida faol kechishini asoslab beradi.

Fazoviy tasavvurlarni rivojlantirishda kreativ yondashuv o'quvchilarga berilgan geometrik shakllardan yangi obrazlar yaratish, modellashtirish va konstruksiyalash imkonini beradi. Pedagogik kuzatuvlarga ko'ra, kreativ topshiriqlar asosida tashkil etilgan mashg'ulotlar o'quvchilarning fazoviy tafakkurini chuqurlashtirib, bilimlarning barqarorligini ta'minlaydi.

Kommunikativlik — bu o'quvchining o'z fikrini aniq, mantiqiy va tushunarli ifodalash qobiliyatidir. Pedagogik adabiyotlarda ta'kidlanishicha, bilimning to'liq o'zlashtirilishi uni og'zaki va yozma shaklda ifodalash jarayonida yuz beradi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida fazoviy tasavvurlarni shakllantirishda kommunikativ yondashuv muhim hisoblanadi, chunki o'quvchi makoniy tushunchalarni izohlash, ta'riflash va asoslash orqali ularni ongida mustahkamlaydi. Ilmiy tajribalar shuni ko'rsatadiki, guruhli muhokamalar o'quvchilarning nutq faolligini oshirib, fazoviy tushunchalarni anglash darajasini yaxshilaydi.

Kooperatsiya pedagogik jarayonda o'quvchilarning jamoada ishlash, hamkorlikda muammoni hal qilish va o'zaro mas'uliyatni his etish ko'nikmalarini shakllantiradi. J. Dyui va K. Levinning ilmiy qarashlariga ko'ra, ijtimoiy hamkorlik asosida tashkil etilgan ta'lim jarayoni shaxsning ijtimoiy va intellektual rivojini ta'minlaydi.

Fazoviy mashqlarni guruhda bajarish o'quvchilarning bir-biridan o'rganishiga imkon yaratib, fazoviy tasavvurlarni chuqurroq anglashga xizmat qiladi. Ilmiy tahlillar shuni ko'rsatadiki, kooperativ o'qitish asosida tashkil etilgan darslarda o'quvchilarning o'zlashtirish ko'rsatkichlari yuqori bo'ladi.

Xulosa qilib aytganda, boshlang'ich sinf o'quvchilarida fazoviy tasavvurlarni shakllantirishda 4K texnologiyasidan foydalanish metodikasini takomillashtirish ta'lim samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Ushbu texnologiya o'quvchilarning nafaqat



bilimlarini, balki shaxsiy va ijtimoiy kompetensiyalarini rivojlantiradi. Shuningdek, mazkur metodika boshlang'ich ta'lim amaliyotida keng joriy etilishi maqsadga muvofiqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati

1. Karimova S. Pedagogik texnologiyalar asoslari. – Toshkent, 2020.
2. Yo'ldoshev J. Boshlang'ich ta'lim metodikasi. – Toshkent, 2019.
3. Xolmatova N. Fazoviy tafakkurni rivojlantirish metodlari. – Toshkent, 2021.
4. OECD. Future of Education and Skills 2030.
5. O'zbekiston Respublikasi Ta'lim to'g'risidagi Qonuni. – Toshkent, 2020.

MUALLIF HAQIDA MA'LUMOT [ИНФОРМАЦИЯ ОБ АВТОРЕ] [AUTHORS INFO]

Abdiyeva Zilola Hamdam qizi

Osiyo xalqaro universiteti

Pedagogika va psixologiya kafedrası o'qituvchisi

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALAR FAOLIYATINING XUSUSIYATLARI VA UNING SHAXS RIVOJIDAGI AHAMIYATI



Azizova Dinara Rahmiddin qizi
Osiyo xalqaro universiteti o'qituvchisi

Annotatsiya

KIRISH: Mazkur maqolada maktabgacha yoshdagi bolalar faoliyatining xususiyatlari hamda uning shaxs rivojidagi ahamiyati ilmiy-nazariy va tahliliy jihatdan yoritilgan. Tadqiqotda faoliyat tushunchasining mazmuni, 3–7 yosh davrida bolaning mustaqil faoliyatining shakllanishi, qiziqish va ehtiyojlarning faoliyat bilan uzviy bog'liqligi, o'yin faoliyatining yetakchi o'rni hamda uning tarbiyaviy imkoniyatlari tahlil qilinadi. Montessori, P.F. Lesgaft, L.N. Tolstoy, A.S. Makarenko va N.M. Aksarina qarashlari asosida maktabgacha yosh davrida shaxs sifatlarining shakllanishida faoliyatning hal qiluvchi roli asoslab beriladi. Maqola maktabgacha ta'lim amaliyotida ta'lim-tarbiya jarayonini samarali tashkil etish uchun ilmiy xulosalar va tavsiyalarni o'z ichiga oladi.

MAQSAD: Mazkur tadqiqotning asosiy maqsadi maktabgacha yoshdagi bolalar faoliyatining xususiyatlarini ilmiy-nazariy va tahliliy asosda yoritish, faoliyatning yetakchi shakllari, xususan o'yin faoliyatining shaxs rivojidagi ahamiyatini ochib berish hamda maktabgacha ta'lim jarayonida faoliyatga asoslangan ta'lim-tarbiyani samarali tashkil etish bo'yicha ilmiy xulosalar va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

MATERIALLAR VA METODLAR: Mazkur tadqiqot maktabgacha yoshdagi bolalar faoliyatining xususiyatlari hamda uning shaxs rivojidagi ahamiyatini yoritishga qaratilgan bo'lib, ilmiy-nazariy va tahliliy yondashuv asosida olib borildi. Tadqiqot jarayonida maktabgacha ta'lim sohasiga oid klassik va zamonaviy ilmiy manbalar, pedagogik qarashlar hamda tarbiyaviy tajribalar tahlil qilindi.

Tadqiqotning asosiy materiallari sifatida mahalliy va xorijiy olimlarning maktabgacha yosh davri, bolalar faoliyati, o'yin va tarbiya masalalariga oid ilmiy ishlari, darsliklar, monografiyalar va metodik qo'llanmalardan foydalanildi. Xususan, M. Montessori, P.F. Lesgaft, L.N. Tolstoy, A.S. Makarenko hamda N.M. Aksarina tomonidan ilgari surilgan nazariy qarashlar tadqiqotning konseptual asosini tashkil etdi. Shuningdek, maktabgacha ta'lim amaliyotida qo'llanilayotgan yondashuvlar va faoliyatni tashkil etish tajribalari umumlashtirildi.

Tadqiqot metodlari quyidagilardan iborat bo'ldi:

- ilmiy-pedagogik adabiyotlarni tahlil qilish va tizimlashtirish;
- maktabgacha yosh davriga oid nazariy yondashuvlarni qiyosiy o'rganish;
- faoliyat va o'yin masalasiga doir qarashlarni umumlashtirish;
- tahlil va sintez metodlari asosida ilmiy xulosalar chiqarish.

Ilmiy manbalarni tahlil qilish jarayonida maktabgacha yoshdagi bolalar faoliyatining mazmuni, shakllari va yo'nalishlari aniqlanib, ularning shaxs rivojiga ta'siri izchil yoritildi. Qiyosiy tahlil orqali turli olimlarning faoliyat va tarbiya haqidagi qarashlaridagi umumiy va

farqli jihatlar aniqlandi hamda ularning zamonaviy maktabgacha ta'lim tizimidagi ahamiyati baholandi.

Tadqiqotda empirik tajribalar emas, balki nazariy tahlilga asoslangan yondashuv tanlandi. Bu yondashuv maktabgacha yoshdagi bolalar faoliyatining mohiyatini chuqur ochib berish, uning tarbiyaviy imkoniyatlarini asoslash va ta'lim amaliyoti uchun muhim ilmiy tavsiyalar ishlab chiqish imkonini berdi.

Natijada, foydalanilgan materiallar va metodlar maktabgacha yoshdagi bolalar faoliyatining o'ziga xos jihatlarini, xususan o'yin faoliyatining yetakchi rolini, qiziqish va ehtiyojlarning faoliyat bilan uzviy bog'liqligini hamda shaxs rivojida faoliyatning tutgan o'rnini ilmiy jihatdan asoslashga xizmat qildi.

XULOSA: Olib borilgan ilmiy-nazariy va tahliliy tadqiqot natijalari maktabgacha yoshdagi bolalar faoliyati shaxs rivojining muhim va ajralmas omili ekanligini ko'rsatdi. Ushbu davrda bola faoliyati orqali atrof-muhitni o'zlashtiradi, ijtimoiy tajribani egallaydi hamda o'ziga xos shaxsiy sifatlarini shakllantiradi. Faoliyat bolaning ehtiyojlari va qiziqishlarini namoyon etish, mustaqillik va mas'uliyatni rivojlantirishda yetakchi vosita sifatida namoyon bo'ladi.

Tadqiqot davomida aniqlanganki, 3–7 yosh davrida bolaning faoliyat doirasi kengayib, uning mazmuni va shakllari boyiydi. Ayniqsa, o'yin faoliyati ushbu yosh bosqichida yetakchi ahamiyat kasb etib, bolaning kattalar hayotiga moslashuvi, ijtimoiy rollarni o'zlashtirishi va axloqiy me'yorlarni egallashida muhim o'rin tutadi. O'yin jarayonida bola o'z imkoniyatlaridan yuqori bo'lgan faoliyatlarni ramziy tarzda bajarish orqali ehtiyojlari bilan real imkoniyatlari o'rtasidagi qarama-qarshilikni bartaraf etadi.

Ilmiy manbalar tahlili shuni ko'rsatadiki, maktabgacha yosh davrida faoliyatni majburlash asosida emas, balki bolaning qiziqishlariga tayangan holda tashkil etish ta'lim-tarbiya samaradorligini oshiradi. Montessori, P.F. Lesgaft, L.N. Tolstoy va A.S. Makarenko qarashlari faoliyat orqali shaxs sifatlarining shakllanishi erta yoshdan boshlanishini va mazkur davrda kattalarning munosabati hamda shaxsiy namunasi hal qiluvchi ahamiyatga ega ekanini tasdiqlaydi.

Tadqiqot natijalari asosida quyidagi xulosalarga kelindi: maktabgacha ta'lim jarayonida bolalar faoliyatini maqsadga muvofiq tashkil etish, o'yin faoliyatiga yetarli sharoit yaratish, bolalarning qiziqish va ehtiyojlarini inobatga olish shaxs rivojini ta'minlashning muhim sharti hisoblanadi. Shu bois maktabgacha ta'lim muassasalarida ta'lim-tarbiya jarayonini faoliyatga asoslangan yondashuv asosida tashkil etish zarur.

Umuman olganda, maktabgacha yoshdagi bolalar faoliyatining xususiyatlarini ilmiy asosda o'rganish va amaliyotga joriy etish barkamol shaxsni shakllantirishga xizmat qiladi hamda maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish uchun muhim ilmiy asos bo'lib xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: faoliyat, maktabgacha yosh, shaxs rivoji, o'yin faoliyati, qiziqish, ehtiyoj, tarbiya, ta'lim.

ОСОБЕННОСТИ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ ДЕТЕЙ ДОШКОЛЬНОГО ВОЗРАСТА И ЕЁ ЗНАЧЕНИЕ В РАЗВИТИИ ЛИЧНОСТИ

Азизова Динара Рахмиддин кизи

Азиатский международный университет

преподаватель кафедры педагогики и психологии

Аннотация.

ВВЕДЕНИЕ: В данной статье научно-теоретически и аналитически раскрываются особенности деятельности детей дошкольного возраста и её значение в развитии личности. В исследовании анализируются содержание понятия деятельности,

формирование самостоятельной деятельности ребёнка в возрасте 3–7 лет, взаимосвязь интересов и потребностей с деятельностью, ведущая роль игровой деятельности и её воспитательные возможности. На основе взглядов М. Монтессори, П. Ф. Лесгафта, Л. Н. Толстого, А. С. Макаренко и Н. М. Аксариной обоснована решающая роль деятельности в формировании личностных качеств в дошкольном возрасте. Статья содержит научные выводы и рекомендации, направленные на эффективную организацию учебно-воспитательного процесса в системе дошкольного образования.

ЦЕЛЬ: Основной целью данного исследования является научно-теоретическое и аналитическое освещение особенностей деятельности детей дошкольного возраста, раскрытие значения ведущих форм деятельности, в частности игровой деятельности, в развитии личности, а также разработка научных выводов и рекомендаций по эффективной организации обучения и воспитания на основе деятельности в дошкольном образовательном процессе.

МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ: Данное исследование направлено на изучение особенностей деятельности детей дошкольного возраста и её значения в развитии личности и выполнено на основе научно-теоретического и аналитического подходов. В ходе исследования были проанализированы классические и современные научные источники в области дошкольного образования, педагогические взгляды и воспитательный опыт.

В качестве основных материалов использовались научные труды отечественных и зарубежных учёных, учебники, монографии и методические пособия, посвящённые вопросам дошкольного возраста, детской деятельности, игры и воспитания. В частности, концептуальную основу исследования составили теоретические взгляды М. Монтессори, П. Ф. Лесгафта, Л. Н. Толстого, А. С. Макаренко и Н. М. Аксариной. Кроме того, были обобщены подходы и практический опыт организации деятельности, применяемые в системе дошкольного образования.

В исследовании были использованы следующие методы:

- анализ и систематизация научно-педагогической литературы;
- сравнительное изучение теоретических подходов, связанных с дошкольным возрастом;
- обобщение взглядов по вопросам деятельности и игры;
- формулирование научных выводов на основе методов анализа и синтеза.

В процессе анализа научных источников были определены содержание, формы и направления деятельности детей дошкольного возраста, а также последовательно раскрыто их влияние на развитие личности. Сравнительный анализ позволил выявить общие и отличительные особенности взглядов различных учёных на деятельность и воспитание и оценить их значение для современной системы дошкольного образования.

В исследовании был выбран не эмпирический, а теоретико-аналитический подход, что позволило глубоко раскрыть сущность деятельности детей дошкольного возраста, обосновать её воспитательные возможности и разработать научно обоснованные рекомендации для образовательной практики.

В результате использованные материалы и методы послужили научным обоснованием специфических особенностей деятельности детей дошкольного возраста, в частности ведущей роли игровой деятельности, взаимосвязи интересов и потребностей с деятельностью, а также значения деятельности в развитии личности.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ: Результаты проведённого научно-теоретического и аналитического исследования показали, что деятельность детей дошкольного возраста является важным и неотъемлемым фактором развития личности. В этот период ребёнок через деятельность осваивает окружающий мир, приобретает социальный опыт и формирует индивидуальные личностные качества. Деятельность выступает ведущим

средством проявления потребностей и интересов ребёнка, развития самостоятельности и ответственности.

В ходе исследования установлено, что в возрасте 3–7 лет сфера деятельности ребёнка расширяется, её содержание и формы обогащаются. Особенно значимую роль в данном возрастном периоде играет игровая деятельность, которая способствует адаптации ребёнка к жизни взрослых, освоению социальных ролей и усвоению нравственных норм. В процессе игры ребёнок символически выполняет виды деятельности, превосходящие его реальные возможности, тем самым преодолевая противоречие между потребностями и реальными возможностями.

Анализ научных источников показал, что организация деятельности в дошкольном возрасте должна строиться не на основе принуждения, а с опорой на интересы ребёнка, что значительно повышает эффективность учебно-воспитательного процесса. Взгляды М. Монтессори, П. Ф. Лесгафта, Л. Н. Толстого и А. С. Макаренко подтверждают, что формирование личностных качеств через деятельность начинается с раннего возраста, а отношение взрослых и их личный пример в этот период имеют решающее значение.

На основе результатов исследования сделаны следующие выводы: целенаправленная организация деятельности детей дошкольного возраста, создание условий для игровой деятельности, учёт интересов и потребностей детей являются важнейшими условиями обеспечения развития личности. В связи с этим в дошкольных образовательных учреждениях целесообразно организовывать учебно-воспитательный процесс на основе деятельностного подхода.

В целом, научно обоснованное изучение особенностей деятельности детей дошкольного возраста и их внедрение в практику способствует формированию гармонично развитой личности и служит важной научной основой для дальнейшего совершенствования системы дошкольного образования.

Ключевые слова: активность, дошкольный возраст, личностное развитие, игровые занятия, интерес, потребность, воспитание, образование.

FEATURES OF THE ACTIVITY OF PRESCHOOL CHILDREN AND ITS SIGNIFICANCE IN PERSONALITY DEVELOPMENT

Azizova Dinara Rakhmiddin qizi

Asian International University

Lecturer, Department of Pedagogy and Psychology

Annatation.

INTRODUCTION: This article provides a scientific-theoretical and analytical examination of the characteristics of preschool children's activity and its significance in personality development. The study analyzes the content of the concept of activity, the formation of children's independent activity in the age range of 3–7 years, the interrelation of interests and needs with activity, the leading role of play activity, and its educational potential. Based on the views of M. Montessori, P. F. Lesgaft, L. N. Tolstoy, A. S. Makarenko, and N. M. Aksarina, the decisive role of activity in the formation of personal qualities in preschool age is substantiated. The article presents scientific conclusions and recommendations aimed at improving the effectiveness of the educational process in preschool education.

THE GOAL: The main objective of this study is to provide a scientific-theoretical and analytical description of the characteristics of preschool children's activity, to reveal the significance of leading forms of activity—particularly play activity—in personality development, and to develop scientific conclusions and recommendations for the effective organization of education and upbringing based on activity in the preschool education process.

MATERIALS AND METHODS: This study is aimed at examining the characteristics of preschool children's activity and its significance in personality development and was conducted using a scientific-theoretical and analytical approach. During the research process, classical and contemporary scientific sources related to preschool education, pedagogical concepts, and educational experience were analyzed.

The main research materials included scientific works, textbooks, monographs, and methodological manuals by national and international scholars addressing issues of preschool age, children's activity, play, and education. In particular, the theoretical views of M. Montessori, P. F. Lesgaft, L. N. Tolstoy, A. S. Makarenko, and N. M. Aksarina formed the conceptual basis of the study. In addition, approaches and practical experiences in organizing children's activities within the preschool education system were generalized.

The following research methods were employed:

- analysis and systematization of scientific and pedagogical literature;
- comparative study of theoretical approaches related to preschool age;
- generalization of views on activity and play;
- formulation of scientific conclusions based on analysis and synthesis methods.

Through the analysis of scientific sources, the content, forms, and directions of preschool children's activity were identified, and their influence on personality development was consistently examined. Comparative analysis made it possible to determine common and distinctive features in scholars' views on activity and education and to assess their relevance to the modern preschool education system.

A theoretical-analytical approach, rather than an empirical one, was chosen for this study. This approach allowed for an in-depth understanding of the essence of preschool children's activity, substantiation of its educational potential, and development of scientifically grounded recommendations for educational practice.

As a result, the materials and methods used provided a scientific basis for identifying the specific features of preschool children's activity, particularly the leading role of play activity, the close connection between interests and needs and activity, and the role of activity in personality development.

CONCLUSION: The results of the scientific-theoretical and analytical study demonstrate that the activity of preschool children is a crucial and integral factor in personality development. During this period, children acquire knowledge of the surrounding world through activity, gain social experience, and develop individual personal qualities. Activity serves as a leading means for expressing children's needs and interests and for fostering independence and responsibility.

The study revealed that between the ages of 3 and 7, children's spheres of activity expand, and the content and forms of their activities become more diverse. Play activity, in particular, plays a leading role at this developmental stage, contributing to children's adaptation to adult life, the acquisition of social roles, and the internalization of moral norms. Through play, children symbolically engage in activities that exceed their real capabilities, thereby overcoming the contradiction between their needs and actual possibilities.

Analysis of scientific sources indicates that the organization of activity in preschool age should be based not on coercion but on children's interests, which significantly enhances the effectiveness of the educational process. The views of M. Montessori, P. F. Lesgaft, L. N. Tolstoy, and A. S. Makarenko confirm that the formation of personal qualities through activity begins in early childhood and that adults' attitudes and personal example during this period are of decisive importance.

Based on the findings, the following conclusions were drawn: purposeful organization of preschool children's activity, the creation of appropriate conditions for play activity, and consideration of children's interests and needs are essential conditions for ensuring personality

development. Therefore, it is advisable to organize the educational process in preschool institutions based on an activity-oriented approach.

Overall, the scientifically grounded study of the characteristics of preschool children's activity and their implementation in practice contribute to the formation of a harmoniously developed personality and serve as an important scientific basis for further improvement of the preschool education system.

Keywords: activity, preschool age, personality development, play activity, interest, need, education, upbringing.

3-7 yosh oralig'i bolaning hayotida muhim bosqich hisoblanadi. Bu davrda bolaning mustaqil faoliyati rivojlanadi, shaxsiy individual xususiyatlari tarkib topa boshlaydi. Bola o'z xatti-harakatlarini boshqarishni o'rganadi, nutqi jadal rivojlanadi, ijtimoiy tajribani o'zlashtiradi.

Maktabgacha yoshga o'tish bilan bolaning yashash sharoitida jiddiy o'zgarishlar yuz beradi. Uning faoliyat doirasi kengayadi, mustaqilligi ortadi, o'yin va xatti-harakatlari yangi mazmun kasb etadi. Ayniqsa, nutq faoliyatining kuchayishi bolaning bilish jarayonlariga sezilarli ta'sir ko'rsatadi.

Maktabgacha yoshda qiziqish faoliyatning yuragi hisoblanadi. Majburlash esa faoliyatning samaradorligini pasaytiradi. Montessori kuzatuvlari shuni ko'rsatadiki, bola o'z qiziqishiga mos faoliyat bilan erkin shug'ullanganda uning diqqati kuchayadi, ichki intizomi shakllanadi va psixik muvozanati ta'minlanadi.

Montessorining "Agar bolani o'z qiziqishidagi faoliyatdan majburan uzsak, biz uning ichki tartibini buzamiz" degan fikri bugungi kunda ham o'z dolzarbligini yo'qotmagan. Bu holat maktabgacha ta'limda faoliyatni tashkil etishda bolaning individual qiziqishlarini hisobga olish zarurligini ko'rsatadi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarda bilishga bo'lgan ehtiyoj juda kuchli bo'ladi. Biroq ularning jismoniy va ijtimoiy imkoniyatlari bu ehtiyojlarni to'liq qondirishga yetarli emas. Bola kattalar bajaradigan faoliyatlarga qiziqadi: avtomobil haydash, uchuvchi bo'lish, militsioner sifatida faoliyat yuritish va hokazo.

Mazkur qarama-qarshilik aynan o'yin faoliyati orqali hal etiladi. O'yin jarayonida bola o'z imkoniyatidan yuqori bo'lgan rollarni ramziy tarzda bajaradi va psixologik ehtiyojlarini qondiradi.

O'yin maktabgacha yoshdagi bolalar faoliyatining yetakchi turi hisoblanadi. U moddiy mahsulot ishlab chiqarishga qaratilmagan bo'lsa-da, bolaning psixik va jismoniy rivojlanishida beqiyos ahamiyatga ega.

Ijodiy va syujetli o'yinlar jarayonida bolalarning diqqat, xotira, tafakkur, nutq va xayol kabi psixik jarayonlari rivojlanadi. Shu bilan birga, individual xususiyatlar va ijtimoiy xulq me'yorlari shakllanadi.

N.M. Aksarinaning ta'kidlashicha, o'yin o'z-o'zidan vujudga kelmaydi. Buning uchun ta'sirchan taassurotlar, o'yinchoqlar va tarbiyaviy vositalar, shuningdek, kattalar bilan muntazam muloqot zarur. Aynan kattalarning bolaga munosabati va ta'sir uslubi hal qiluvchi rol o'ynaydi.

Tadqiqotning nazariy asosini Montessori pedagogikasi, P.F. Lesgaftning jismoniy va axloqiy tarbiya haqidagi qarashlari, A.S. Makarenkoning jamoa va faoliyat orqali tarbiyalash konsepsiyasi hamda N.M. Aksarinaning o'yin faoliyatiga oid ilmiy mulohazalari tashkil etdi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, maktabgacha yoshdagi bolalar faoliyatini to'g'ri tashkil etish shaxs rivojining muhim sharti hisoblanadi. Faoliyat, ayniqsa o'yin faoliyati, bolaning ichki ehtiyojlarini qondiradi va uning psixologik muvozanatini ta'minlaydi.

Makarenkoning fikricha, bolaning dastlabki yillaridagi to'g'ri munosabat va talablar uning xarakterini belgilab beradi. Shu sababli maktabgacha ta'lim muassasalarida tarbiyaviy ta'sirning izchilligi va maqsadga muvofiqligi muhim ahamiyat kasb etadi.

Bugungi fan-texnika rivoji sharoitida bolalar xayoli yanada boyib, o'yin mazmuni murakkablashib bormoqda. Bu esa tarbiyachilardan o'yin faoliyatini zamonaviy talablar asosida tashkil etishni talab qiladi.

Mazkur tadqiqot doirasida maktabgacha yoshdagi bolalar faoliyatining shaxs rivojiga ta'sirini aniqlash maqsadida pedagogik kuzatuv va ekspertlik baholashiga asoslangan shkala ishlab chiqildi. Ushbu shkala maktabgacha ta'lim muassasalarida faoliyatni tashkil etish darajasini va uning tarbiyaviy samaradorligini baholashga yo'naltirildi.

Baholash jarayonida maktabgacha ta'lim muassasalarida faoliyat yuritayotgan 30 nafar tarbiyachi (ish tajribasi 3 yildan 15 yilgacha) ekspert sifatida jalb etildi. Ekspertlar bolalar faoliyatini kundalik mashg'ulotlar jarayonida kuzatish asosida baholadilar.

Baholash shkalasi

Bolalar faoliyatining shaxs rivojiga ta'siri quyidagi 5 balli Likert tipidagi shkala asosida baholandi:

- 1 – juda past darajada
- 2 – past darajada
- 3 – o'rtacha darajada
- 4 – yuqori darajada
- 5 – juda yuqori darajada

Baholash quyidagi mezonlar asosida amalga oshirildi:

№	Baholash mezonlari
1	Bolaning faoliyatga bo'lgan qiziqishi
2	Mustaqil faoliyatni bajarish darajasi
3	O'yin faoliyatida tashabbus ko'rsatishi
4	Faoliyat jarayonida mas'uliyatni his etishi
5	Faoliyat orqali ijtimoiy rollarni o'zlashtirishi

Olingan baholash natijalari quyidagicha taqsimlandi:

Baholash darajasi	Foiz ko'rsatkichi
Juda yuqori (5 ball)	34 %
Yuqori (4 ball)	41 %
O'rtacha (3 ball)	17 %
Past (2 ball)	6 %
Juda past (1 ball)	2 %

Olingan statistik ma'lumotlar shuni ko'rsatdiki, respondentlarning 75 % (juda yuqori va yuqori baholar yig'indisi) maktabgacha yoshdagi bolalar faoliyati shaxs rivojiga kuchli ta'sir ko'rsatishini qayd etgan. Ayniqsa, o'yin faoliyati bolalarda mustaqillik, tashabbuskorlik va ijtimoiy moslashuvni rivojlantirishda muhim omil sifatida baholangan.

Past va juda past ko'rsatkichlar (8%) asosan faoliyat yetarli darajada tashkil etilmagan yoki bolalarning qiziqishlari to'liq inobatga olinmagan holatlarda kuzatilgan. Bu esa maktabgacha ta'lim jarayonida faoliyatni maqsadga muvofiq rejalashtirish zarurligini ko'rsatadi.

Baholash shkalasi asosida olingan natijalar ilmiy-nazariy tahlillarni tasdiqlab, maktabgacha yoshdagi bolalar faoliyati shaxs rivojining muhim omili ekanligini ko'rsatdi. Faoliyat, ayniqsa o'yin faoliyati, bolaning qiziqishlari va ehtiyojlarini qondirish bilan birga, uning ijtimoiy va axloqiy sifatlarini shakllantirishga xizmat qiladi.

Olib borilgan ilmiy-nazariy va tahliliy tadqiqot natijalari maktabgacha yoshdagi bolalar faoliyati shaxs rivojining muhim va ajralmas omili ekanligini tasdiqladi. Tadqiqot jarayonida faoliyat tushunchasining mazmuni, 3–7 yosh davrida bolalar faoliyatining o'ziga xos xususiyatlari hamda uning shaxs sifatlarining shakllanishidagi ahamiyati ilmiy manbalar asosida tahlil qilindi. Faoliyat bolaning atrof-muhitni o'zlashtirishi, ijtimoiy tajribani egallashi va mustaqil harakat qilish ko'nikmalarini rivojlantirishda yetakchi vosita sifatida namoyon bo'lishi aniqlandi.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, maktabgacha yosh davrida bolalar faoliyatining mazmuni va shakllari sezilarli darajada boyiydi, ularning faoliyat doirasi kengayadi. Ayniqsa, o'yin faoliyati ushbu yosh bosqichida yetakchi ahamiyat kasb etib, bolaning kattalar hayotiga moslashuvi, ijtimoiy rollarni o'zlashtirishi, mas'uliyat va tashabbuskorlik kabi shaxsiy sifatning shakllanishida muhim o'rin tutadi. O'yin jarayonida bola o'z real imkoniyatlaridan yuqori bo'lgan faoliyatlarni ramziy tarzda bajarib, ehtiyojlari bilan mavjud imkoniyatlari o'rtasidagi qarama-qarshilikni bartaraf etadi.

Ilmiy-nazariy tahlillarni mustahkamlash maqsadida tadqiqotda pedagogik kuzatuv va ekspertlik baholashiga asoslangan 5 balli baholash shkalasi qo'llanildi. Baholash natijalariga ko'ra, respondentlarning 75 foizi maktabgacha yoshdagi bolalar faoliyati shaxs rivojiga yuqori va juda yuqori darajada ta'sir ko'rsatishini qayd etdi. Xususan, bolalarning faoliyatga bo'lgan qiziqishi, mustaqil harakatlarni bajarishi va o'yin jarayonida tashabbus ko'rsatishi eng yuqori baholangan mezonlar sifatida ajralib chiqdi. Past ko'rsatkichlar esa asosan faoliyat yetarli darajada rejalashtirilmagan yoki bolalarning individual qiziqishlari inobatga olinmagan holatlarda kuzatilgan.

Olingan statistik natijalar Montessori, P.F. Lesgaft, L.N. Tolstoy va A.S. Makarenko tomonidan ilgari surilgan nazariy qarashlarni tasdiqlab, faoliyatga asoslangan yondashuvning maktabgacha yosh davrida shaxs rivojini ta'minlashdagi samaradorligini ko'rsatdi. Ushbu olimlarning fikrlariga ko'ra, faoliyatni majburlash asosida emas, balki bolaning qiziqish va ehtiyojlariga tayangan holda tashkil etish ta'lim-tarbiya jarayonining samaradorligini oshiradi hamda barqaror shaxsiy sifatning shakllanishiga xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalari asosida quyidagi umumiy xulosaga kelindi: maktabgacha ta'lim jarayonida bolalar faoliyatini maqsadga muvofiq tashkil etish, o'yin faoliyati uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish, bolalarning qiziqish va ehtiyojlarini inobatga olish shaxs rivojini ta'minlashning muhim pedagogik shartlaridan biri hisoblanadi. Shu bois maktabgacha ta'lim muassasalarida ta'lim-tarbiya jarayonini faoliyatga asoslangan yondashuv asosida tashkil etish, tarbiyachilarning bu boradagi metodik tayyorgarligini oshirish maqsadga muvofiqdir.

Umuman olganda, maktabgacha yoshdagi bolalar faoliyatining xususiyatlarini ilmiy asosda o'rganish va ularni ta'lim amaliyotiga joriy etish barkamol, mustaqil va ijtimoiy faol



shaxsni shakllantirishga xizmat qiladi hamda maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish uchun muhim ilmiy asos bo'lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati

1. Nishonova Z.T., Alimova G.K., Turg'unboyeva A.T., Asranboyeva M.X. Bolalar psixologiyasi va psixodiagnostikasi. — Toshkent: O'qituvchi, 2017.
2. G'oziyev E.G. Ontogenez psixologiyasi. — Toshkent: Noshir, 2010.
3. Nishonova Z.T., Alimova G.K. Bolalar psixologiyasi va uni o'qitish metodikasi. — Toshkent: Fan va texnologiya, 2006.
4. Karimova V.M. Maktabgacha pedagogika. — Toshkent: O'qituvchi, 2014.

MUALLIF HAQIDA MA'LUMOT [ИНФОРМАЦИЯ ОБ АВТОРЕ] [AUTHORS INFO]

Azizova Dinara Rahmiddin qizi

Osiyo xalqaro universiteti o'qituvchisi

Manzil: O'zbekiston, Buxoro shahri

INSON BOSH MIYA ASABLARI ANATOMIYASI, FIZIOLOGIYA VA PATOLOGIYASI



Azimova Zebiniso Nasillo qizi
Osiyo xalqaro universiteti o'qituvchisi

Annotatsiya

KIRISH: Mazkur maqolada inson bosh miya asablarining anatomiyasi, fiziologiyasi va patologiyasi ilmiy-nazariy hamda klinik-pedagogik nuqtayi nazardan tahlil etiladi. Bosh miya asablarining tuzilishi, ularning markaziy va periferik nerv tizimidagi o'rni hamda sezgi, harakat va vegetativ funksiyalarni ta'minlashdagi ahamiyati yoritiladi. Shuningdek, bosh miya asablarining fiziologik faoliyati, nerv impulslarining o'tkazilishi va boshqaruv mexanizmlari tahlil qilinadi. Maqolada bosh miya asablarida uchraydigan patologik holatlar, ularning klinik belgilari va funksional buzilishlarga olib keluvchi omillar ochib beriladi. Tadqiqot natijalari nevrologiya, logopediya va maxsus pedagogika sohalarida diagnostika va korreksion-rivojlantiruvchi ishlarni samarali tashkil etishda nazariy va amaliy asos bo'lib xizmat qiladi.

MAQSAD: Mazkur mavzuning asosiy maqsadi - inson bosh miya asablarining anatomik tuzilishi, fiziologik faoliyati va patologik holatlari bo'yicha bo'lajak mutaxassislarda tizimli ilmiy-nazariy bilimlarni shakllantirish, ularning klinik-pedagogik tahlil va diagnostik yondashuvlarni qo'llash kompetensiyalarini rivojlantirishdan iborat.

MATERIAL VA METODLAR: Mazkur tadqiqot inson bosh miya asablarining anatomiyasi, fiziologiyasi va patologiyasi masalalarini ilmiy-nazariy hamda klinik-pedagogik jihatdan yoritishga qaratilgan bo'lib, unda anatomiya, nevrologiya, fiziologiya, logopediya va maxsus pedagogikaga oid ilmiy manbalar asosiy material sifatida tanlandi. Tadqiqot jarayonida bosh miya asablarining tuzilishi va funksional faoliyatiga doir darsliklar, ilmiy maqolalar, monografiyalar hamda klinik-amaliy qo'llanmalar tahlil qilindi.

Tadqiqot metodlari sifatida ilmiy adabiyotlarni tahlil qilish va umumlashtirish, taqqoslash, tizimlashtirish, nazariy tahlil hamda pedagogik kuzatuv metodlaridan foydalanildi. Ushbu metodlar bosh miya asablarining anatomik va fiziologik xususiyatlarini, shuningdek, ularning patologik holatlarini izchil va kompleks yoritishga xizmat qildi.

XULOSA: Inson bosh miya asablarining anatomiyasi, fiziologiyasi va patologiyasi zamonaviy tibbiyot va pedagogika fanlarining muhim yo'nalishlaridan biri bo'lib, u markaziy va periferik nerv tizimi faoliyatini chuqur anglashga xizmat qiladi. Mazkur mavzuni o'rganish orqali bosh miya asablarining tuzilishi va funksional xususiyatlari, shuningdek, ularning zararlanishi bilan bog'liq patologik holatlar ilmiy-nazariy va klinik-pedagogik jihatdan asoslab beriladi.

Bosh miya asablarining patologiyalarini chuqur tahlil qilish sezgi, harakat, nutq va vegetativ faoliyatdagi buzilishlarni erta aniqlash hamda samarali diagnostika va korreksion yondashuvlarni ishlab chiqishda muhim ahamiyat kasb etadi. Natijada mazkur mavzu nevrologiya, logopediya va maxsus pedagogika amaliyotida mutaxassislarning kasbiy kompetensiyasini oshirishga hamda sog'lom va samarali ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etishga xizmat qiluvchi muhim ilmiy asos sifatida namoyon bo'ladi.

Kalit soʻzlar: bosh miya asablari, anatomiya, fiziologiya, patologiya, nerv tizimi, klinik diagnostika, logopediya, maxsus pedagogika, korreksion yondashuv.

АНАТОМИЯ, ФИЗИОЛОГИЯ И ПАТОЛОГИЯ ЧЕРЕПНЫХ НЕРВОВ ЧЕЛОВЕКА

Азимова Зебинисо Насиллоевна

Азиатский международный университет

Преподаватель кафедры педагогики и психологии

Аннотация

ВВЕДЕНИЕ: В данной статье анализируются анатомия, физиология и патология черепных нервов человека с научно-теоретической и клинко-педагогической точек зрения.

Подчеркивается структура черепных нервов, их роль в центральной и периферической нервной системе, а также их значение в обеспечении сенсорных, двигательных и вегетативных функций. Также анализируется физиологическая активность черепных нервов, передача нервных импульсов и механизмы управления. В статье раскрываются патологические состояния, возникающие в черепных нервах, их клинические симптомы и факторы, приводящие к функциональным расстройствам. Результаты исследования служат теоретической и практической основой для эффективной организации диагностической и коррекционно-развивающей работы в области неврологии, логопедии и специальной педагогики.

ЦЕЛЬ: Главная цель данной темы - формирование у будущих специалистов систематических научно-теоретических знаний об анатомическом строении, физиологической активности и патологических состояниях черепных нервов человека, а также развитие их компетенций в применении клинко-педагогического анализа и диагностических подходов.

МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ: Целью данного исследования является освещение вопросов анатомии, физиологии и патологии черепных нервов человека с научно-теоретической и клинко-педагогической точек зрения, в рамках которой в качестве основного материала были отобраны научные источники по анатомии, неврологии, физиологии, логопедии и специальной педагогике. В процессе исследования были проанализированы учебники, научные статьи, монографии и клинко-практические пособия по строению и функциональной деятельности черепных нервов.

В качестве методов исследования использовались методы анализа и обобщения научной литературы, сравнения, систематизации, теоретического анализа и педагогического наблюдения. Эти методы позволили последовательно и всесторонне осветить анатомо-физиологические особенности черепных нервов, а также их патологические состояния.

ВЫВОД: Анатомия, физиология и патология черепных нервов человека являются одной из важных областей современной медицинской и педагогической науки, способствующей глубокому пониманию функционирования центральной и периферической нервной системы. Изучение этой темы позволяет научно и теоретически обосновать, а также клинически и педагогически обосновать структуру и функциональные свойства черепных нервов, а также патологические состояния, связанные с их повреждением.

Тщательный анализ патологий черепных нервов имеет большое значение для раннего выявления нарушений сенсорной, двигательной, речевой и вегетативной деятельности, а также для разработки эффективных диагностических и коррекционных подходов. В результате эта тема выступает важной научной основой для повышения



профессиональной компетентности специалистов в области неврологии, логопедии и специальной педагогики, а также для организации здорового и эффективного образовательного процесса.

Ключевые слова: Черепные нервы, анатомия, физиология, патология, нервная система, клиническая диагностика, логопедия, специальная педагогика, коррекционный подход.

ANATOMY, PHYSIOLOGY AND PATHOLOGY OF THE HUMAN CRANIAL NERVES

Azimova Zebiniso Nasillo qizi

Asian International University

Teacher of the Department of Pedagogy and Psychology

Annatation.

INTRODUCTION: This article analyzes the anatomy, physiology and pathology of the human cranial nerves from a scientific-theoretical and clinical-pedagogical point of view. The structure of the cranial nerves, their role in the central and peripheral nervous system, and their importance in providing sensory, motor and vegetative functions are highlighted. The physiological activity of the cranial nerves, the conduction of nerve impulses and control mechanisms are also analyzed. The article reveals pathological conditions occurring in the cranial nerves, their clinical symptoms and factors leading to functional disorders. The results of the study serve as a theoretical and practical basis for the effective organization of diagnostic and correctional-developmental work in the fields of neurology, speech therapy and special pedagogy.

THE GOAL: The main purpose of this topic is to form systematic scientific-theoretical knowledge in future specialists on the anatomical structure, physiological activity and pathological conditions of the human cranial nerves, to develop their competencies in applying clinical-pedagogical analysis and diagnostic approaches.

MATERIALS AND METHODS: This study is aimed at illuminating the issues of anatomy, physiology and pathology of the human cranial nerves from a scientific-theoretical and clinical-pedagogical perspective, in which scientific sources on anatomy, neurology, physiology, speech therapy and special pedagogy were selected as the main material. In the process of research, textbooks, scientific articles, monographs and clinical-practical manuals on the structure and functional activity of the cranial nerves were analyzed.

The methods of analysis and generalization of scientific literature, comparison, systematization, theoretical analysis and pedagogical observation were used as research methods. These methods served to consistently and comprehensively illuminate the anatomical and physiological characteristics of the cranial nerves, as well as their pathological conditions.

CONCLUSION: The anatomy, physiology and pathology of the human cranial nerves is one of the important areas of modern medical and pedagogical sciences, which serves to deeply understand the functioning of the central and peripheral nervous system. By studying this topic, the structure and functional properties of the cranial nerves, as well as pathological conditions associated with their damage, are scientifically and theoretically substantiated and clinically and pedagogically substantiated.

A thorough analysis of the pathologies of the cranial nerves is of great importance for the early detection of disorders in sensory, motor, speech and vegetative activity, as well as for the development of effective diagnostic and corrective approaches. As a result, this topic serves as an important scientific basis for improving the professional competence of specialists in the

practice of neurology, speech therapy and special pedagogy, as well as for organizing a healthy and effective educational process.

Keywords: cranial nerves, anatomy, physiology, pathology, nervous system, clinical diagnostics, speech therapy, special pedagogy, corrective approach.

Asab tizimi faoliyati va uning rivojlanishiga oid yangi prinsiplar hamda kashf etilgan molekular hozirgi kunda olimlarga bolalik davrida uchraydigan ayrim buzilishlarni yanada chuqurroq tushunish imkonini bermoqda. O'zak hujayralarning kashf etilishi esa turli jarohatlar va rivojlanish buzilishlari oqibatida miya hamda orqa miyaning yo'qotilgan funksional qobiliyatlarini tiklashda yangi strategiyalarni ochib bermoqda.

Bosh miya (encephalon) miya qutisi ichida joylashgan bo'lib, sut emizuvchi hayvonlarda, ayniqsa, odamda juda yaxshi rivojlangan. U bosh miya qutisining 91–93 foizini egallaydi. Bosh miyaning individual vazni tananing umumiy vazniga bog'liq bo'lib, 960–2000 grammgacha yetadi. Shuni ta'kidlash lozimki, bosh miyaning hajmi yoki vazni inson aqlini bevosita ifodalamaydi. Insonning aqliy salohiyati bosh miya po'stlog'i hujayralarining fiziologik xususiyatlari, kimyoviy tarkibi hamda faol mashq qilinish darajasiga bog'liqdir. Masalan, yozuvchi A. Fransning bosh miya vazni 1017 g, tarixda Turgenevnik 2012 g, Bayronnik 2238 g, Shillerniki esa 1875 g bo'lgan. Bosh miya hayvonot olamining evolyutsion taraqqiyoti jarayonida bosqichma-bosqich rivojlanib borgan. Bosh miya bo'laklarining rivojlanish darajasi va vazni turli hayvonlarda har xil bo'ladi. Masalan, baliqlar va qushlarda miyacha yaxshi rivojlangan bo'lsa, sut emizuvchi hayvonlarda bosh miya yarim sharlari ustunlik qiladi va ular miya sopini o'rab turadi. Evolyutsion rivojlanish jarayonida markaziy nerv tizimining ayrim qismlari tobora tabaqalanib boradi. Bu tabaqalanish hayvonlarning yashash sharoitiga mos ravishda turlicha namoyon bo'ladi. Yuksak darajada rivojlangan maymunlar va odamda bosh miyaning katta yarim sharlari eng rivojlangan bo'lib, bosh miya umumiy vaznining taxminan 80 foizini tashkil etadi.

Embrional rivojlanishning dastlabki bosqichlarida bosh miya miya kanalining old qismida uchta pufakchani hosil qiladi:

- oldingi miya;
- o'rta miya;
- rombsimon miya.

Embrion uch haftalik bo'lganida birinchi va uchinchi pufakchalar ikkiga bo'linib, natijada beshta miya pufakchasi hosil bo'ladi. Ushbu beshta pufakchadan bosh miyaning asosiy bo'limlari rivojlanadi. Birinchi pufakchadan oldingi miya hosil bo'lib, undan bosh miya katta yarim sharlari rivojlanadi, ichidagi bo'shliq esa yon qorinchalarga aylanadi. Ikkinchi pufakchadan oraliq miya rivojlanib, undan ko'rish bo'rtiqlari va bo'rtiq osti qismi shakllanadi hamda uning bo'shlig'i uchinchi qorinchani hosil qiladi. Uchinchi pufakchadan o'rta miya rivojlanib, ichidagi bo'shliq Silviy kanali shakliga o'tadi. To'rtinchi pufakchadan orqa miya, beshinchisidan esa uzunchoq miya rivojlanadi. To'rtinchi va beshinchi pufakchalar bo'shlig'i to'rtinchi qorinchaga aylanadi. Embrionning besh oyligida bosh miya katta yarim sharlari yuzasida egatchalar va pushtalar hosil bo'la boshlaydi, olti oyligida esa yarim sharlar miya sopini to'liq o'rab oladi.

Yangi tug'ilgan bolada barcha nerv hujayralari mavjud bo'ladi, biroq ular anatomik va fiziologik jihatdan yetarlicha rivojlanmagan bo'ladi. Neyronlar asta-sekin o'sib, yiriklashib, o'simtalarini va shaklini o'zgartirib boradi. Nerv tolalarining mielinlanishi jarayoni ham bosqichma-bosqich kechadi. Ko'rish, muvozanat va eshitish analizatorlarining mielinlanishi ona qornidayoq boshlanib, bola tug'ilgandan keyin dastlabki oylarda yakunlanadi. Bola hayoti davomida bosh miya hujayralari tabaqalanib, alohida nerv markazlari shakllanadi va rivojlanib boradi.

Yangi tugʻilgan bolaning bosh miya vazni oʻrtacha 350–390 g boʻladi. Bir oyligida 450 g, bir yoshida 700–800 g, yetti yoshida esa oʻgʻil bolalarda oʻrtacha 1260 g, qizlarda 1190 g ga yetadi. Bosh miyaning maksimal vazni 20–30 yosh oraligʻida kuzatiladi, soʻngra asta-sekin kamayib boradi. Bosh miya kelib chiqishi, tuzilish xususiyatlari va funksional ahamiyatiga koʻra ikki qismga boʻlinadi: miya ustuni va bosh miya katta yarim sharlari. Miya ustuniga uzunchoq miya, orqa miya, oʻrta miya va oraliq miya kiradi. Bosh miya katta yarim sharlari poʻstlogʻini koʻplab olimlar tadqiq etib, miya poʻstlogʻida taʼsirlarni qabul qilish, harakat hamda assotsiativ funksiyalarning bajarilishi aniqlangan. Hayvonlarda bosh miya poʻstlogʻining ayrim qismlarini olib tashlash hamda shartli reflekslar metodidan foydalanib olingan ilmiy maʼlumotlar natijasida miya poʻstlogʻida tashqi muhitdan keladigan taʼsirlarni qabul qiluvchi va organizmning turli funksiyalarini boshqaruvchi nerv markazlari joylashganligi isbotlangan.

Miya poʻstlogʻida nerv markazlari juda koʻp boʻlib, ular morfologik va fiziologik jihatdan bir-biridan farq qiladi. Uning ensa qismida koʻrish taʼsirlarini qabul qiluvchi koʻrish markazi (19) joylashgan; chakka boʻlimida Korti organidan keladigan taʼsirlarni qabul qiluvchi eshitish markazlari (41, 42) mavjud. Oldingi markaziy pushtada harakat nerv markazlari (6), keyingi markaziy pushtada esa sezishning oliy markazi joylashadi. Bulardan tashqari, miya yarim sharlarining 44–45, 6, 39, 41–42 qismlari bilan bogʻliq holda nutq-eshitish, nutq-harakat, nutq-koʻrish hamda boshqa analizatorlarning ogʻzaki va yozma nutq bilan bevosita aloqador markazlari ham mavjud.

Bazal yadrolar (asos yadrolari) filogenetik jihatdan miya poʻstlogʻidan oldin shakllangan yirik yadrolar hisoblanadi. Ularga:

- dumsimon yadro;
- yasmiqsimon yadro;
- ihota (toʻsiq);
- bodomsimon yadro kiradi.

Dumsimon yadro koʻrish boʻrtigʻini oldindan, yuqoridan va yondan oʻrab turadi. Yasmiqsimon yadro koʻrish boʻrtiqlaridan tashqarida joylashgan boʻlib, uch qirrali piramida shakliga ega. Bosh miya katta yarim sharlaridagi ushbu yadrolar harakat faoliyatini boshqarishda muhim rol oʻynaydigan asosiy yadrolar hisoblanadi.

Bosh miyaning asosiy patologiyalari

Bosh miya kasalliklarini shartli ravishda ikki guruhga boʻlib oʻrganish mumkin:

1. bosh miyaning tugʻma kasalliklari;
2. bosh miyaning hayot davomida orttirilgan kasalliklari.

Bosh miyaning tugʻma kasalliklariga quyidagilar kiradi:

- gidrosefaliya;
- ensefalopatiya;
- anensefaliya;
- bosh miyaning tugʻma nuqsonlari (oʻsmalar, yetishmovchiliklar va boshqalar).

Gidrosefaliya atamasi yunoncha *hydro* — “suv” va *cephal* — “bosh” soʻzlaridan kelib chiqqan boʻlib, bosh miyada orqa miya suyuqligi (likvor) miqdorining meʼyordan ortib ketishini anglatadi. Odatda bu holat qorincha sistemasining ayrim qismlarida kengayish (dilatatsiya) yuzaga kelishi hamda miya ichi suyuqligi bosimining ortishi bilan namoyon boʻladi. Hidrosefaliyaning rivojlanish mexanizmlarini tushunish uchun bosh miyaning qorincha tizimi haqidagi bilimlar muhimdir.

Qorincha tizimi toʻrtta boʻshliq (qorincha)dan iborat boʻlib, ular oʻzaro kanallar orqali bogʻlangan. Miya ichi suyuqligi (likvor) tiniq suyuqlik boʻlib, qorinchalar devoridagi tomir chigali (xorioid pleksus) tomonidan ishlab chiqariladi. Likvor bir qator muhim funksiyalarni bajaradi: miyani “yumshatib”, mexanik taʼsirlardan himoya qiladi, oziq moddalarni yetkazib beradi, markaziy nerv tizimi muhitining barqarorligini taʼminlaydi, almashinuv mahsulotlarini

chiqarishga ko'maklashadi hamda biologik faol moddalarni tashishda ishtirok etadi. Gidrosefaliya tug'ma yoki orttirilgan bo'lishi mumkin; shuningdek, rivojlanishning turli bosqichlarida yuzaga keladigan klinik holatlar ham gidrosefaliyaga sabab bo'lishi ehtimoldan xoli emas.

Bosh miya asablari bosh miyaning asosidan chiqadigan 12 juft asabdan iborat bo'lib, ular tuzilishi va taraqqiyoti jihatidan orqa miya asablaridan farq qiladi. Bu farq bosh miya va bosh sohasining embrional rivojlanishi tana hamda orqa miyaning rivojlanishidan o'ziga xos tarzda kechishi bilan bog'liqdir. O'n ikki juft bosh miya asablari funksional jihatdan bir necha guruhlariga bo'linadi: sezuvchi, harakatlantiruvchi va aralash asablar. Sezuvchi asablarga hidlov, ko'ruv va dahliz-chig'anoq asablari kirib, ular tashqi va ichki muhitdan keluvchi ta'sirlarni qabul qiladi. Harakatlantiruvchi asablar ko'z olmasi, til va ayrim skelet mushaklarining harakatini ta'minlaydi. Aralash asablar esa sezuvchi, harakatlantiruvchi hamda vegetativ tolalarni o'zida mujassamlashtirib, yuz, chaynash, yutish va ichki a'zolar faoliyatini boshqarishda ishtirok etadi. Bosh miya asablari orqa miya asablaridan farqli ravishda oldingi va orqa ildizlardan birgalikda tuzilmaydi, balki faqat bitta ildizdan hosil bo'lib, shu sababli har bir asabning tuzilishi va funksiyasi o'ziga xosdir. Embrional rivojlanishiga ko'ra ayrim bosh miya asablari oldingi miyadan, ayrimlari bosh miotomlari va visseral ravoqlardan, boshqalari esa orqa miya segmentlaridan taraqqiy etadi.

Bosh miya asablari markaziy nerv tizimi bilan periferik nerv tizimi o'rtasida funksional bog'lanishni ta'minlab, organizmning tashqi va ichki muhitga moslashuvida muhim rol o'ynaydi. Ushbu asablar bosh miyaning turli bo'limlarida joylashgan yadrolardan boshlanib, kalla suyaklaridagi maxsus teshiklar orqali chiqadi va o'ziga tegishli a'zolari innervatsiya qiladi. Har bir bosh miya asabi aniq anatomik yo'lga, yadro tuzilishiga va funksional vazifaga ega bo'lib, ularning shikastlanishi o'ziga xos klinik belgilar bilan namoyon bo'ladi.

Masalan, hidlov asabining zararlanishi hid bilishning pasayishi yoki yo'qolishiga olib keladi, ko'ruv asabining shikastlanishi esa ko'rish o'tkirligining kamayishi yoki ko'rlikka sabab bo'lishi mumkin. Ko'z harakatlarini boshqaruvchi asablar zararlanganda ko'z olmasi harakatlarining cheklanishi, qiyshayish va ikki ko'rish holatlari kuzatiladi. Yuz asabi faoliyatining buzilishi yuz mushaklari falajlanishi, mimikaning o'zgarishi hamda nutq va ovqatlanish jarayonlarining qiyinlashuvi bilan kechadi.

Bosh miya asablarining faoliyati embrional rivojlanish davrida bosqichma-bosqich shakllanib, tug'ilishdan so'ng muhit ta'siri va funksional yuklama ostida takomillashib boradi. Shu sababli bolalik davrida ushbu asablar faoliyatining yetilmaganligi ayrim reflekslarning sustligi yoki funksional buzilishlar bilan namoyon bo'lishi mumkin. Vaqtida olib borilgan tibbiy, rehabilitatsion va pedagogik chora-tadbirlar bosh miya asablari faoliyatining tiklanishiga va kompensator mexanizmlarning rivojlanishiga xizmat qiladi. Bosh miya asablarini o'rganish nafaqat anatomik va fiziologik, balki klinik jihatdan ham muhim ahamiyatga ega, chunki ularning holati ko'plab nevrologik kasalliklarni aniqlashda asosiy diagnostik mezon hisoblanadi. Nevrologik tekshiruv jarayonida bosh miya asablarining har biri alohida baholanib, ularning reflektor faoliyati, sezgi va harakat funksiyalari tekshiriladi. Shu orqali markaziy yoki periferik nerv tizimining qaysi bo'limi zararlangani aniqlanadi.

Bosh miya asablarining patologiyasi yallig'lanish, qon aylanishining buzilishi, o'sma jarayonlari, infeksiyalar yoki travmatik shikastlanishlar oqibatida yuzaga kelishi mumkin. Masalan, uch shoxli asabning yallig'lanishi kuchli yuz og'riqlari bilan kechsa, til-yutqin asabining shikastlanishi yutish va nutq buzilishlariga olib keladi. Til osti asabi zararlanganda esa til mushaklarining atrofiyasi, nutqning noaniqlashuvi va ovqatni chaynashda qiyinchiliklar kuzatiladi. Shuningdek, bosh miya asablari vegetativ nerv tizimi bilan uzviy bog'liq bo'lib, ular orqali ichki a'zolar faoliyati boshqariladi. Ayniqsa, adashgan asab parasimpatik ta'sirlarning asosiy o'tkazuvchisi bo'lib, yurak-qon tomir, nafas olish va ovqat hazm qilish tizimlari



faoliyatining muvozanatini saqlashda muhim rol o'ynaydi. Shu sababli ushbu asab faoliyatidagi buzilishlar butun organizm faoliyatiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati:

1. Brain Facts: A Primer on the Brain and Nervous System. – Washington, DC: Society for Neuroscience, 2005–2006.
2. Gray's Anatomy. Standring S. (ed.). – 41st ed. London: Elsevier, 2016.
3. Neuroanatomy Through Clinical Cases. Blumenfeld H. – 2nd ed. Sunderland: Sinauer Associates, 2011.
4. Principles of Neural Science. Kandel E.R., Schwartz J.H., Jessell T.M. – 5th ed. New York: McGraw-Hill, 2013.
5. Clinical Neuroanatomy. Snell R.S. – 7th ed. Philadelphia: Wolters Kluwer, 2010.
6. Nevrologiya. Xodakovskiy A.I., Konovalov A.N. – Moskva: GEOTAR-Media, 2018.

MUALLIF HAQIDA MA'LUMOT [ИНФОРМАЦИЯ ОБ АВТОРЕ] [AUTHORS INFO]

Azimova Zebiniso Nasillovna

Osiyo xalqaro universiteti

Pedagogika va psixologiya kafedrasi o'qituvchisi

zebinisoazimova9@gmail.com

BO'LAJAK O'QITUVCHILAR INNOVATSION FAOLIYATIDA KREATIV YONDASHUVNING O'ZIGA XOSLIGI



Ramazonova Salomat Saidovna
Osiyo xalqaro universiteti doktoranti

Annotatsiya.

KIRISH: ushbu maqola bo'lajak o'qituvchilar innovatsion faoliyatida kreativ yondashuvning o'ziga xosligi, o'qituvchilar pedagogik mahoratni egallash vositalari, o'qituvchi ta'lim-tarbiya jarayonida bevosita ishtirok etishi, pedagogik innovatsiyalarni amaliyotga joriy qilish jarayonining bosqichlarini ko'rsatilib, shaxsga yo'naltirilgan ta'lim texnologiyalari, muammoli o'qitish va nostandart yondashuv asosida tashkillashtiriladigan innovatsion texnologiyalarning afzalliklari yoritilgan, hamda zamonaviy ta'limga moslashuvchanligi tahlil qilingan, maqolada innovatsion ta'lim-tarbiya jarayonining shakli va mazmunini takomillashtirishga xizmat qiluvchi yangi g'oyalar yaratishni ko'zda tutadi.

MAQSAD: Bo'lajak o'qituvchilar innovatsion faoliyatida kreativ yondashuvning o'ziga xosligini pedagogik tahlil qilish

MATERIALLAR VA METODLAR: Kreativ yondashuvning muhim tarkibiy qismlaridan biri bu motivasiya hisoblanadi. O'qituvchi faoliyatida ham o'quv faoliyatidagi kabi motivasion soha ajratilib ko'rsatiladi. Bu tashqi va ichki motivlar bo'lib, tashqi motiv sifatida biror-bir narsaga erishish istagini, ichki motiv sifatida esa o'z faoliyatining jarayoni va natijasiga e'tibor berishni misol qilish mumkin.

XULOSA: Yangi ijtimoiy talablar bilan an'anaviy me'yorlarning mos kelmasligi yoxud amaliyot yangi shakllanayotgan me'yorining yuzaga kelgan me'yor bilan to'qnashuvi natijasida vujudga kelgan qator muammolar echimini topishga qaratilgan jarayondir. Innovatsiyalar doimiy ravishda pedagogik faoliyatga yangiliklar olib kirish orqali ta'lim-tarbiya jarayonini rivojlantirishga hissa qo'shadi, pedagogik faoliyatga ijobiy ta'sir ko'rsatib, uning mazmunli bo'lishiga ko'maklashadi.

Kalit so'zlar: Innovatsion pedagogika, ta'lim texnologiyalari, shaxsga yo'naltirilgan ta'lim, interaktiv metodlar, muammoli o'qitish, modulli ta'lim, pedagogik innovatsiyalar, pedagogika, kreativlik, mahorat, jarayon, tarbiya, odob, ta'lim, tafakkur, ijodiy yondoshuv

ХАРАКТЕРИСТИКИ ТВОРЧЕСКОГО ПОДХОДА В ИННОВАЦИОННОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ

Рамазонова Саломат Саидовна.
Докторант Азиатского международного университета

Аннотация.

ВВЕДЕНИЕ: В данной статье описывается уникальность творческого подхода в инновационной деятельности будущих учителей, средства приобретения учителями педагогических навыков, непосредственное участие учителя в образовательном

процессе, этапы процесса внедрения педагогических инноваций на практике, освещаются преимущества инновационных технологий, организованных на основе личностно-ориентированных образовательных технологий, проблемно-ориентированного обучения и нестандартного подхода, а также анализируется их адаптируемость к современному образованию. Цель статьи – создание новых идей, способствующих совершенствованию формы и содержания инновационного образовательного процесса.

ЦЕЛЬ: Педагогический анализ уникальности творческого подхода в инновационной деятельности будущих учителей

МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ: Одним из важных компонентов творческого подхода является мотивация. В работе учителя, как и в образовательной деятельности, выделяется мотивационная сфера. Это внешние и внутренние мотивы, примером внешнего мотива является стремление к достижению чего-либо, а внутренним – внимание к процессу и результату своей деятельности.

ВЫВОД: Это процесс, направленный на поиск решений ряда проблем, возникающих в результате несовместимости традиционных норм с новыми социальными требованиями или столкновения вновь сформированной нормы практики с устоявшейся нормой. Инновации способствуют развитию образовательного процесса, постоянно внедряя новшества в педагогическую деятельность, оказывают положительное влияние на педагогическую деятельность и помогают ей стать осмысленной.

Ключевые слова: инновационная педагогика, образовательные технологии, личностно-ориентированное образование, интерактивные методы, проблемно-ориентированное обучение, модульное образование, педагогические инновации, педагогика, креативность, навыки, процесс, воспитание, манеры, образование, мышление, творческий подход

CHARACTERISTICS OF A CREATIVE APPROACH IN THE INNOVATIVE ACTIVITY OF FUTURE TEACHERS

Ramazonova Salomat Saidovna

Doctoral student at Asian International University

Annatation.

INTRODUCTION: this article describes the uniqueness of the creative approach in the innovative activities of future teachers, the means of teachers acquiring pedagogical skills, the direct participation of the teacher in the educational process, the stages of the process of implementing pedagogical innovations in practice, highlights the advantages of innovative technologies organized on the basis of person-oriented educational technologies, problem-based learning and a non-standard approach, and analyzes their adaptability to modern education. The article aims to create new ideas that serve to improve the form and content of the innovative educational process.

THE GOAL: Pedagogical analysis of the uniqueness of the creative approach in the innovative activities of future teachers

MATERIALS AND METHODS: One of the important components of the creative approach is motivation. In the teacher's work, as in educational activities, a motivational sphere is distinguished. These are external and internal motives, and an example of an external motive is the desire to achieve something, and an internal motive is attention to the process and result of one's activities.

CONCLUSION: It is a process aimed at finding solutions to a number of problems that arise as a result of the incompatibility of traditional norms with new social requirements or the clash of a newly formed norm of practice with an established norm. Innovations contribute to the development of the educational process by constantly introducing innovations into pedagogical activity, have a positive impact on pedagogical activity and help it become meaningful.

Keywords: Innovative pedagogy, educational technologies, person-centered education, interactive methods, problem-based learning, modular education, pedagogical innovations, pedagogy, creativity, skill, process, upbringing, manners, education, thinking, creative approach

Bugungi kunda zamonaviy sharoitlarda jahon fani va innovatsiya faoliyati yutuqlaridan keng foydalanish jamiyat hamda davlat hayotining barcha sohalarini izchil, barqaror rivojlantirishning hamda mamlakatimizda munosib avlodni tarbiyalashning muhim omili bo'lib bormoqda. Chunki bugungi tezkor rivojlanish davrida jamiyat uchun faol fikrlovchi, innovatsion g'oyalarni yaratuvchi hamda ularni amaliyotda samarali qo'llovchi malakali o'qituvchilar zarur. Bu esa, o'z navbatida, ta'lim jarayoniga innovatsiyalarni, o'qitishning zamonaviy interfaol va ijodiy uslublarini joriy etish hamda sohaga yo'naltirish orqali ta'lim sifatini oshirishga ko'maklashuvchi innovatsion o'quv dasturlarini ishlab chiqish, pedagog kadrlarning ilmiy tadqiqotlarini tashkil etish, boshqarish, ularning innovatsion kompetentligini rivojlantirishni talab etadi.

Innovatsion g'oyalar bugungi ta'lim amaliyotiga jadal kirib bormoqda. Pedagogik innovatsiyalar ta'lim sifati va samaradorligi ortishiga xizmat qiladi. Ayni damda jamiyatdagi har qanday yangilanish jarayonlari, islohotlar mohiyati bilan uzviy bog'liq holda ro'y beradi.

Innovatsion faoliyat innovatsion jarayonlarda amalga oshiriladi. Innovatsion jarayon bu – innovatsion o'zgarishlarga tayyorgarlik ko'rish va uni amalga oshirish jarayoni hisoblanadi.

Innovatsion jarayon – pedagogik yangiliklar, bu yangiliklarning pedagogik hamjamiyat tomonidan o'zlashtirilishi va o'zgartirilishi hamda ulardan ilmiy asosda amaliyotda samarali foydalanishning o'zgarib boruvchi yaxlitligidir.

O'zbekistonda jahon ta'lim maydoniga kirishga yo'naltirilgan yangi ta'lim tizimi qaror topmoqda. Bu jarayon bilan bir vaqtda pedagogik o'quv-tarbiya jarayonining nazariyasi va amaliyotida sezilarli o'zgarishlar sodir bo'lmoqda. Ta'limdagi yondashuvlar tarkibi o'zgarmoqda va boshqacha munosabatlar o'rnatilmoqda. Ta'lim tizimida yangi axborotlar bilan ishlash qobiliyatiga ega bo'lgan kuchlar shakllanmoqda, yangi ijodiy echimlar topilmoqda, ta'lim dasturini individuallashtirishga qaratilgan sa'y-harakatlar kuchaymoqda.

Ta'limdagi yangilanish oliy ta'lim muassasalaridagi o'quv jarayoni orqali talabalarni o'z kelajagini yorqin tasavvur qila oladigan, bu borada o'z taqdiri va o'z shaxsiga ongli munosabatda bo'lib, turli faoliyatlarda o'z-o'zini rivojlantira oladigan tafakkuri shakllangan, erkin, faol va mustaqil shaxsni shakllantirishni ko'zda tutadi. Talabalarga o'qituvchilik fanlarini o'qitishda, ularning ijodiy tafakkurini shakllantirishda doimo milliylik va milliy manfaatlar nuqtai nazaridan kelib chiqqan holda darslarni tashkil etish lozim. Oliy ta'lim muassasalarida yangicha mustaqil fikrlaydigan, ijod qiladigan talaba yoshlarni tarbiyalash, ularda kreativ yondashuvni shakllantirish eng asosiy muammolarimizdan biri bo'lib qolmoqda.

Kreativ yondashuvning muhim tarkibiy qismlaridan biri bu motivatsiya hisoblanadi. O'qituvchi faoliyatida ham o'quv faoliyatidagi kabi motivasion soha ajratilib ko'rsatiladi. Bu tashqi va ichki motivlar bo'lib, tashqi motiv sifatida biror-bir narsaga erishish istagini, ichki motiv sifatida esa o'z faoliyatining jarayoni va natijasiga e'tibor berishni misol qilish mumkin.

V.Kessel tadqiqotlarida talabalarning yosh xususiyatiga bog'liq holda o'qituvchilarning mashhurlik va mashhur emaslik motivlari o'rganilgan. Tadqiqot natijalariga ko'ra, o'qituvchining mashhurligi ko'p jihatdan uning materiallarni ko'rgazmali, jonli va muammoli tarzda etkaza olish qobiliyatiga bog'liq ekan. Ko'pchilik psixologlar, shu bilan birga

o'zbekistonlik psixolog olimlar tomonidan olib borilgan tadqiqotlar zamonaviy kreativ fikrlaydigan o'qituvchilar uchun eng zarur xislatlarni aniqlab olish imkoniyatiga ega bo'lishgan. Rossiya psixologlaridan N.V. Kuzmina, V. Slastenin, F.N. Gonobolin, o'zbekistonlik psixologlardan R.Z. Gaynutdinov, M.G. Davletshin, S. Jalilova, A. Jabborov, M. Kaplanova va boshqalar tomonidan olib borilgan ilmiy tadqiqot ishlarida ham o'qituvchilik kasbi va ta'lim jarayoniga doir muammolar keng tadqiq etilgan. Bunda o'qituvchilik kasbiga muvofiq yaratilgan professiogrammani ko'rish mumkin. Ijodkor o'qituvchi professiogrammasi muayyan fan tomonidan o'qituvchiga qo'yiladigan maxsus talablarni o'z ichiga qamrab olishi lozim. Bo'lajak ijodkor o'qituvchi u yoki bu xildagi fan tomonidan qanday talablar qo'yilishini bilishi va shu asosda o'quv-tarbiya jarayonini tashkil qilish uchun pedagogik oliy o'quv yurtlarida muayyan o'qituvchilik bo'yicha o'qituvchi professiogrammasini ishlab chiqishi zarur.

Oliy ta'lim muassasalarida pedagogik-ijodiy konsesiyani tanlashda birinchi uslub ko'proq ma'qul hisoblanadi. Aniq ifoda etilgan maqsad va g'oyalarni texnologiyalar, o'zaro hamjihatlik va o'quv mazmuni bilan o'zaro bog'lay olish o'qituvchining innovatsion madaniyati muhim mezon hisoblanadi. Loyiha mazmunini qabul qilingan va rivojlantiriladigan dasturga aylantirish uchun analiz, tuzatish dasturining hamma tashkil etuvchilari o'rtasidagi qarama-qarshiliklarni aniqlash bo'yicha jamoatchilikdan ko'p kuch, harakat talab qiladi.

Oliy ta'lim tizimida o'qitish texnologiyalarini rivojlantirishda eng samarali faol o'qitish metodlari quyidagilar hisoblanadi: o'yinli loyihalashtirish, muayyan vaziyatlarni tahlil qilish, muayyan masalalar va muammolarini yechish, ijodiy topshiriqlarni bajarishdir.

O'yinli loyihalashda, asosan, obyektni yaratilish va takomillashtirish jarayoni imitatsiya qilinadi yoki qayta tiklanadi. Talabalarning bilim olish va tadqiqot faoliyatlari bunda o'rganilayotgan obyektni bevosita jamoatchilik loyihalash xarakteriga ega bo'ladi. U funksional roli, obyektni yaratilish va takomillashtirishning tiklanadigan mexanizmlari nuqtai nazaridan amalga oshiriladi. Bunday holat odatda muayyan obyektni o'rganishda kurs yoki diplom ishlarini bajarishda ishtirok etayotgan talabalarning maqsad va qiziqishlariga asoslangan bo'ladi.

Ushbu o'qitish texnologiyalari bevosita ta'lim jarayonida amalga oshirilganda, ayniqsa, samaralidir. Qiziqishlarni muvofiqlashtirishga yoki xususiy maqsadlarni umumiyashtirishga yo'naltirilgan oxirgi element, o'yinli loyihalashni haqiqiy jarayonlarni modellashtirishga aylantiradi va bo'lajak o'qituvchilar uchun katta ahamiyatga ega.

Innovatsion faoliyat evristik uslublarni egallab olish kreativlikning rivojlanishiga katta turtki beradi, ammo har doim ham ijodiy masalalarni muvaffaqiyatli hal etishga kafolat bermaydi. Kreativlikni rivojlantirish uchun demokratik munosabatli cheklanmagan muhitdan olishlari kerak, o'qituvchi kreativligi rivojlanishi mikromuhit ta'siri ostida, sabablar tizimi va shaxsiy xususiyatlarni yuzaga keltirishdan iborat, ammo pedagogik amaliyot davomida pedagogik jamoa va talabalar o'rtasida, ko'pincha, qarama-qarshi munosabatlar o'rnatiladi. Ko'pincha, iste'dodli talabalarni ularning metodik usullarini qaytarmaganliklari uchun tanqid qiladilar, shu sababli kreativlik rivojlanishi uchun muhitning ma'lum darajadagi qarshiligi va iste'dodlarni rag'batlantirish zarurdir.

Xulosa sifatida innovatsion faoliyat – yangi ijtimoiy talablar bilan an'anaviy me'yorlarning mos kelmasligi yoxud amaliyot yangi shakllanayotgan me'yorining yuzaga kelgan me'yor bilan to'qnashuvi natijasida vujudga kelgan qator muammolar echimini topishga qaratilgan jarayondir. Innovatsiyalar doimiy ravishda pedagogik faoliyatga yangiliklar olib kirish orqali ta'lim-tarbiya jarayonini rivojlantirishga hissa qo'shadi, pedagogik faoliyatga ijobiy ta'sir ko'rsatib, uning mazmunli bo'lishiga ko'maklashadi.

Bo'lajak o'qituvchilarni innovatsion faoliyatga tayyorlashdan asosiy maqsad ularning yangilikka intiluvchanligini, mustaqil o'z ustida ishlash ko'nikmasi va malakasini shakllantirish, zamonaviy pedagogik texnologiyalar, interfaol metodlardan foydalanib, dars va

darsdan tashqari mashg'ulotlarni o'tkazish mahoratini takomillashtirishdan iborat ekanligi aniqlandi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Usmanov N. Bo'lajak o'qituvchilarni milliy g'oya targ'ibotiga innovatsion va pedagogik texnologiyalari.-T.: Fan va texnologiyalar.2012.16-bet.
2. Muxamedov G., Xodjamqulov U., Toshtemirova S. Pedagogik ta'lim innovatsion klasteri. –T.: Universitet, 2020. –B.51.
3. Saidovna, R. S. “Yuqori sinf o'quvchilarida tarbiya darslari samaradorligini oshirish omillari.”, “Osiyo xalqaro universiteti axborotnomasi” ilmiy-nazariy va metodik jurnal, 2025 y 2-son, 69-73-bet.
4. Saidovna, R. S. “Bo'lajak pedagoglarni nostandart yondashuv asosida yangi mazmun, shakl va metodlarni ishlab chiqish.”, "Pedagogik akmeologiya" xalqaro ilmiy-metodik jurnali 2025 yil 2-son, 62-67-bet
5. Saidovna, R. S. “Bo'lajak pedagoglarni nostandart yondashuv asosida innovatsion faoliyatga tayyorlashning tashkiliy shakllari”. “Osiyo xalqaro universiteti axborotnomasi” ilmiy-nazariy va metodik jurnal, 2025 y 3-son, 97-103-bet.
6. Saidovna, R. S. “Bo'lajak pedagoglarni nostandart dars o'tish ko'nikmalarini shakllantirishda amaliy kompetensiyalarining ahamiyati”. “Osiyo xalqaro universiteti axborotnomasi” ilmiy-nazariy va metodik jurnal, 2025 y 4-son, 142-149-bet
7. Saidovna, R. S. “Bo'lajak pedagoglarniing dars o'tish ko'nikmalarini shakllantirishda amaliy kompetensiyalarining ahamiyati.”, "Pedagogik akmeologiya" xalqaro ilmiy-metodik jurnali 2025 yil 4-son, 167-170-bet
8. Saidovna, R. S. “Bugungi globallashuv davrida ta'lim tizimini rivojlantirish va uning sifatini oshirishda nostandart yondashuvning ahamiyati.”, "Maktabgacha va maktab ta'limi" Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal, 2025 yil 9-son, 234-238-bet
9. Saidovna, R. S. “Innovatsion texnologiyalarning bo'lajak o'qituvchilar kasbiy malakasini rivojlantirishdagi o'rni”, “Osiyo xalqaro universiteti axborotnomasi” ilmiy-nazariy va metodik jurnal, 2025 y 9-son, 83-93-bet

MUALLIF HAQIDA MA'LUMOT [ИНФОРМАЦИЯ ОБ АВТОРЕ] [AUTHORS INFO]

Ramazonova Salomat Saidovna,

Pedagogika va psixologiya kafedrası o'qituvchisi,

Manzil: O'zbekiston, 200100, Buxoro shahar , Muborak ko'chasi-4,

ramazonova.salomat82@gmail.com

ART PEDAGOGIKA VA EMOTSIONAL INTELLEKT: TALABALARNING BADIY IDROKINI RIVOJLANTIRISHDA YANGI PARADIGMA



Xalilova Shaxlo Ravshanovna

Osiyo xalqaro universiteti o'qituvchisi

Annotatsiya.

KIRISH: Ushbu maqola zamonaviy ta'lim jarayonida art pedagogika va emotsional intellekt (EI) integratsiyasining ahamiyatini o'rganishga bag'ishlangan. Tadqiqotda talabalarning badiiy idroki, hissiy ong va ijtimoiy ko'nikmalarini rivojlantirishda yangi paradigma – “bilim + hissiy intellekt + ijodiy rivojlanish” konsepsiyasining o'rni tahlil qilinadi. Maqolada art pedagogikaning ijodiy jarayonga ta'siri, EI komponentlari (o'z-o'zini anglash, o'z-o'zini boshqarish, ijtimoiy anglash va ijtimoiy ko'nikmalar) va ularning pedagogik amaliyotdagi qo'llanilishi ilmiy asoslangan holda yoritilgan. Shuningdek, maqola zamonaviy talabalarning hissiy va badiiy salohiyatini oshirishga yo'naltirilgan innovatsion yondashuvlarni, shuningdek, san'at va hissiy intellektni uyg'unlashtirishning samarali metodlarini ko'rsatadi. Natijalar ta'lim jarayonida talabalarning shaxsiy rivojlanishi, ijodiy tafakkuri va ijtimoiy ko'nikmalarini mustahkamlash bo'yicha amaliy tavsiyalarni shakllantirish imkonini beradi.

MAQSAD: Art pedagogika imkoniyatlaridan foydalanish orqali talabalar badiiy idrokini rivojlantirish va mazkur jarayonni ilmiy-pedagogik tahlil qilish

MATERIALLAR VA METODLAR: Art pedagogika san'atning turli shakllari (rasm, musiqa, drama, dizayn va boshqa ijodiy faoliyatlar) orqali o'quvchilarning badiiy idroki, ijodiy tafakkuri va shaxsiy rivojlanishini shakllantirishga qaratilgan pedagogik yondashuvdir. U an'anaviy ta'limdan farqli o'laroq, faqat bilim berish bilan cheklanmay, talabani hissiy, estetik va ijtimoiy jihatdan rivojlantirishga xizmat qiladi.

XULOSA: Art pedagogika va emotsional intellektni integratsiyalash yangi ta'lim paradigmalarini yaratishda muhim vosita hisoblanadi. Bu yondashuv talabalarga nafaqat badiiy idrokni rivojlantirish, balki hissiy ong, ijtimoiy ko'nikmalar va shaxsiy rivojlanishni ham ta'minlaydi. Kelajakda ta'lim jarayonida san'at va hissiy intellektni uyg'unlashtirish orqali talabalar ijodiy va emotsional jihatdan boy, muvozanatli shaxs sifatida shakllanadi.

Kalit so'zlar: art pedagogika, emotsional intellekt, badiiy idrok, talaba rivojlanishi, innovatsion ta'lim paradigmasi.

АРТ-ПЕДАГОГИКА И ЭМОЦИОНАЛЬНЫЙ ИНТЕЛЛЕКТ: НОВАЯ ПАРАДИГМА РАЗВИТИЯ ХУДОЖЕСТВЕННОГО ВОСПРИЯТИЯ СТУДЕНТОВ

Халилова Шахло Равшановна

Преподаватель в Азиатском международном университете

Аннотация.

ВВЕДЕНИЕ: Данная статья посвящена изучению важности интеграции художественной педагогики и эмоционального интеллекта (ЭИ) в современном

образовательном процессе. В исследовании анализируется роль новой парадигмы – концепции «знание + эмоциональный интеллект + творческое развитие» – в развитии у учащихся художественного восприятия, эмоциональной осведомленности и социальных навыков. В статье научно рассматривается влияние художественной педагогики на творческий процесс, компоненты ЭИ (самосознание, самоорганизация, социальная осведомленность и социальные навыки) и их применение в педагогической практике. В статье также представлены инновационные подходы, направленные на повышение эмоционального и художественного потенциала современных учащихся, а также эффективные методы сочетания искусства и эмоционального интеллекта. Результаты позволяют сформулировать практические рекомендации по укреплению личностного развития, творческого мышления и социальных навыков учащихся в образовательном процессе.

ЦЕЛЬ: Развитие художественного восприятия учащихся посредством арт-педагогики и проведение научно-педагогического анализа этого процесса.

МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ: Арт-педагогика — это педагогический подход, направленный на формирование художественного восприятия, творческого мышления и личностного развития учащихся посредством различных форм искусства (живопись, музыка, драма, дизайн и другие виды творческой деятельности). В отличие от традиционного образования, она не ограничивается передачей знаний, а служит для эмоционального, эстетического и социального развития учащегося.

ВЫВОД: Интеграция арт-педагогики и эмоционального интеллекта является важным инструментом создания новых образовательных парадигм. Такой подход обеспечивает учащимся не только развитие художественного восприятия, но и эмоциональной осведомленности, социальных навыков и личностного развития. В будущем, благодаря сочетанию искусства и эмоционального интеллекта в образовательном процессе, учащиеся будут формироваться как творческие и эмоционально богатые, уравновешенные личности.

Ключевые слова: арт-педагогика, эмоциональный интеллект, художественное восприятие, развитие учащихся, инновационная образовательная парадигма.

ART PEDAGOGY AND EMOTIONAL INTELLIGENCE: A NEW PARADIGM FOR DEVELOPING STUDENTS' ARTISTIC PERCEPTION

Khalilova Shakhlo Ravshanovna

Teacher at Asia International University

Annatation.

INTRODUCTION: This article is devoted to studying the importance of the integration of art pedagogy and emotional intelligence (EI) in the modern educational process. The study analyzes the role of the new paradigm - the concept of "knowledge + emotional intelligence + creative development" in the development of students' artistic perception, emotional awareness and social skills. The article scientifically covers the impact of art pedagogy on the creative process, the components of EI (self-awareness, self-management, social awareness and social skills) and their application in pedagogical practice. The article also shows innovative approaches aimed at increasing the emotional and artistic potential of modern students, as well as effective methods for combining art and emotional intelligence. The results allow us to formulate practical recommendations for strengthening students' personal development, creative thinking and social skills in the educational process.

THE GOAL: To develop students' artistic perception through the use of art pedagogy and to conduct a scientific and pedagogical analysis of this process



MATERIALS AND METHODS: Art pedagogy is a pedagogical approach aimed at forming students' artistic perception, creative thinking and personal development through various forms of art (painting, music, drama, design and other creative activities). Unlike traditional education, it is not limited to providing knowledge, but serves to develop the student emotionally, aesthetically and socially.

CONCLUSION: The integration of art pedagogy and emotional intelligence is an important tool in creating new educational paradigms. This approach provides students with not only the development of artistic perception, but also emotional awareness, social skills and personal development. In the future, by combining art and emotional intelligence in the educational process, students will be formed as creative and emotionally rich, balanced individuals.

Keywords: art pedagogy, emotional intelligence, artistic perception, student development, innovative educational paradigm.

Pedagogikaning zamonaviy sohalaridan biri sifatida ta'lim jarayonida keng ommalashib borayotgan tushuncha "art pedagogika" hisoblanadi. Ta'lim jarayonida nafaqat bilim, balki talabani hissiy va badiiy rivojlanishi ham muhim ahamiyat kasb etadi. Art pedagogika va emotsional intellekt (EI) kontseptsional talabalarning ijodiy qobiliyatini rivojlantirishda yangi paradigmalarni ochib bermoqda. Ushbu yondashuvlar nafaqat estetik tafakkurni shakllantiradi, balki talabalarni o'z his-tuyg'ularini anglash va boshqarishga o'rgatadi, bu esa ularning shaxsiy va professional hayotidagi muvaffaqiyatiga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Art pedagogikaning roliga to'xtaladigan bo'lsak, art pedagogika – bu san'at vositalari va metodlari orqali ta'lim berish jarayonidir. U nafaqat texnik mahoratni, balki talabani badiiy idroki va tasavvurini rivojlantirishga qaratilgan. San'at mashg'ulotlari orqali talabalar rang, shakl, kompozitsiya va simvolika orqali hissiyotlarni ifodalashni o'rganadilar. Shu bilan birga, ijodiy jarayonlarda talaba muammolarni innovatsion yondashuv bilan hal qilish ko'nikmalarini shakllantiradi.

Art pedagogika va emotsional intellekt yuzasidan olimlarning fikriga to'xtalsak.

Elliot Eisner (1930–2014) – Amerika pedagogi, san'at va ta'lim sohasida yetakchi olim: Eisner san'atni faqat texnik ko'nikma emas, balki fikrlash va idrokni rivojlantiruvchi vosita deb hisoblagan. U ta'kidlagan: *"San'at orqali talaba dunyoni boshqa nuqtai nazardan idrok etishni o'rganadi, bu esa uning ijodiy va kritik tafakkurini kengaytiradi."* Eisnerga ko'ra, san'at mashg'ulotlari talabani muammoni hal qilish qobiliyatini va innovatsion tafakkurini rivojlantiradi.

Lev Vygotskiy (1896–1934) – rus psixologi va pedagog: Vygotskiy ijod va san'atni shaxsiy va ijtimoiy rivojlanish vositasi sifatida ko'rgan. U san'atni ijtimoiy muloqot va hissiy tajriba orqali o'rganish vositasi deb baholagan. Unga ko'ra, san'at mashg'ulotlari orqali talaba ijodiy tafakkurini va muammolarni hal qilish ko'nikmalarini shakllantiradi.

Howard Gardner (1943–) – ko'p intellekt nazariyasi muallifi: Gardnerning fikricha, badiiy intellekt (visual-spatial intelligence) va shaxsiy intellekt (intrapersonal intelligence) san'at orqali rivojlantiriladi. Bu, ayniqsa, talabalarning badiiy idroki va ijodiy qobiliyatini oshirishda samarali.

Emotsional intellekt bo'yicha olimlarning fikriga to'xtaladigan bo'lsak, **Daniel Goleman (1946–)** – emotsional intellekt kontseptsiyasini rivojlantirgan olim: Golemaning fikricha, EI shaxsning muvaffaqiyati va ijtimoiy moslashuvchanligida IQdan kam emas, balki ko'proq ahamiyatga ega. U ta'kidlaydi: *"Hissiy intellektning rivojlanishi talabani o'z hissiyotini anglash, ularni boshqarish va boshqalar bilan samarali muloqot qilish qobiliyatini oshiradi."* Pedagogik amaliyotda EI talabalarning motivatsiyasini oshirish, stressni boshqarish va ijodiy faoliyatini rag'batlantirish uchun muhim vosita hisoblanadi.

Mayer, Salovey va Caruso (1997, 2008) – EI nazariyasi asoschilari: Ularning fikricha, EI quyidagi komponentlardan iborat: o‘z-o‘zini anglash, o‘z-o‘zini boshqarish, ijtimoiy anglash va ijtimoiy ko‘nikmalar. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, bu komponentlarni rivojlantirish talabalarning ijtimoiy ko‘nikmalari va hissiy barqarorligini sezilarli darajada oshiradi.

Reuven Bar-On (2006) – hissiy va ijtimoiy kompetentsiyalarni baholash bo‘yicha olim: Bar-On ta’kidlaydi: *“Emotsional intellektni rivojlantirish o‘quv jarayonini nafaqat samarali, balki talabalar uchun qiziqarli va shaxsiy rivojlanishga yo‘naltirilgan qiladi.”* U pedagogik tizimda Elni o‘rgatish talabaning o‘zini anglash va boshqalar bilan hamkorlik qilish qobiliyatini mustahkamlaydi degan xulosaga keladi.

Art pedagogika va EI integratsiyasi

So‘nggi tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, san‘at mashg‘ulotlarini emotsional intellekt bilan uyg‘unlashtirish talabalarning badiiy idrokini sezilarli darajada oshiradi. Masalan:

- Rasm yoki musiqiy ijod orqali o‘z hissiyotlarini ifodalash EI qobiliyatini mustahkamlaydi.

- Ijtimoiy mavzularni aks ettiruvchi loyiha ishlari orqali empatiya va ijtimoiy anglash rivojlantiriladi.

- Tanqidiy tahlil va ijodiy fikrlash mashg‘ulotlari orqali talabalarning tafakkur va ijodiy qaror qabul qilish ko‘nikmalari rivojlanadi.

Shunday qilib, art pedagogika va EI integratsiyasi nafaqat talabalarning badiiy qobiliyatini, balki ularning shaxsiy o‘zini anglash ham qo‘llab-quvvatlaydi.

Yangi paradigma sifatida ta’limdagi innovatsion yondashuvlar zamonaviy ta’limning mohiyatini tashkil qilmoqda.

Hozirgi kunda ta’limda yangi paradigma – **“bilim + hissiy intellekt + ijodiy rivojlanish”** konsepsiyasi shakllanmoqda. Ushbu yondashuv talabalarning nafaqat intellektual, balki hissiy va ijodiy jihatdan rivojlanishiga qaratilgan bo‘lib, zamonaviy ta’lim talabalariga mos keladi. Quyida bu paradigmadagi ta’limning asosiy afzalliklari va ularning ilmiy asoslari keltiriladi:

1. Talabalarning ijodiy salohiyati va muammolarni hal qilish qobiliyati rivojlanadi.
2. Hissiy ong va empatiya kuchayadi, ijtimoiy ko‘nikmalar mustahkamlanadi.
3. Shaxsiy motivatsiya oshadi va o‘quv jarayoni qiziqarli, samarali bo‘ladi.
4. Talabalar nafaqat akademik bilim, balki hayotiy ko‘nikmalarni ham o‘zlashtiradi.

Integratsiya bo‘yicha ilmiy asoslangan manbaalar muhim ahamiyatga ega. Eisner va Goleman yondashuvlarining integratsiyasi zamonaviy ta’limda **“bilim + hissiy intellekt + ijodiy rivojlanish”** paradigmasini shakllantiradi. Shu yondashuv orqali talaba badiiy idrokini, hissiy ongini va ijtimoiy ko‘nikmalarini bir vaqtning o‘zida rivojlantiradi, bu esa uni nafaqat akademik, balki hayotiy muvaffaqiyatga ham tayyorlaydi.

Talabalarning ijodiy salohiyati va muammolarni hal qilish qobiliyati rivojlanadi. Art pedagogika va emotsional intellekt integratsiyasi talabalar ijodiy salohiyatini rivojlantirishning eng samarali usullaridan biridir. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, san‘at mashg‘ulotlari (rasm, musiqa, drama, dizayn) talabalarga innovatsion fikrlash va muammolarni original yondashuv bilan hal qilish ko‘nikmalarini beradi (Runco, 2014; Eisner, 2002). Masalan, rasm yoki drama orqali talaba abstrakt g‘oyalarni vizual yoki ijodiy shaklda ifodalaydi, bu esa tanqidiy va kreativ tafakkurini rivojlantiradi. Muammolarni ijodiy yondashuv bilan hal qilish qobiliyati nafaqat san‘at sohasida, balki kundalik hayot va professional faoliyatda ham foydali hisoblanadi. Shu sababli, art pedagogika muhitida ijodiy mashg‘ulotlar orqali talabalar mustaqil fikrlash, alternativ yechimlar ishlab chiqish va riskni boshqarish ko‘nikmalarini rivojlantiradilar.

Hissiy ong va empatiya kuchayadi, ijtimoiy ko‘nikmalar mustahkamlanadi. Emotsional intellektning rivojlanishi talabalarni o‘z va boshqalarning hissiyotlarini tushunish va boshqarishga o‘rgatadi (Goleman, 1995). Art pedagogika orqali bu jarayon yanada samarali bo‘ladi. San‘at mashg‘ulotlari, masalan, guruh dramatisatsiya yoki musiqiy ijro orqali, talabalarni boshqalarning hissiyotlarini anglashga va empatiya ko‘rsatishga undaydi.

Tadqiqotlar ko'rsatganidek, hissiy intellektga ega talabalar ijtimoiy muloqotda samaraliroq va stressni yaxshiroq boshqaradigan shaxslar sifatida shakllanadi (Mayer, Salovey & Caruso, 2008).

Natijada, talabalar o'zaro hamkorlik, guruh ishini muvofiqlashtirish va konfliktlarni hal qilish ko'nikmalarini mukammal o'zlashtiradi.

Shaxsiy motivatsiya oshadi va o'quv jarayoni qiziqarli, samarali bo'ladi.

San'at va hissiy intellekt mashg'ulotlari talabani ichki motivatsiyasini oshiradi. Ilmiy tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, motivatsiya va qiziqishning mavjudligi o'quv jarayonining samaradorligini oshiradi (Deci & Ryan, 2000).

Art pedagogika orqali talaba o'z hissiyotlari va ijodiy qobiliyatlarini sinab ko'radi, bu esa o'z-o'zini ifoda etishga bo'lgan ehtiyojni qondiradi. Shu bilan birga, mashg'ulotlar qiziqarli va interaktiv bo'lgani sababli, talabalar o'rganishga faol va ijobiy munosabatda bo'ladi. Natijada, ta'lim jarayoni faqat bilim berish bilan cheklanmay, talabani shaxsiy o'sishini rag'batlantiradigan muhitga aylanadi. Talabalar nafaqat akademik bilim, balki hayotiy ko'nikmalarni ham o'zlashtiradi. Yangi paradigma nafaqat bilim berishga, balki shaxsiy va ijtimoiy ko'nikmalarni shakllantirishga ham qaratilgan. Art pedagogika va EI integratsiyasi orqali talabalar quyidagilarni egallaydi:

- **Stressni boshqarish va qaror qabul qilish:** hissiy intellekt yordamida muammoli vaziyatlarda hissiyotlarni nazorat qilish o'rganiladi.

- **Ijtimoiy va kommunikativ ko'nikmalar:** guruh loyihalari va ijodiy mashg'ulotlar orqali samarali muloqot va hamkorlik rivojlantiriladi.

- **Ijodiy yechim va moslashuvchan fikrlash:** san'at orqali talaba yangi g'oyalarni ishlab chiqadi va ularni amaliyotda qo'llashni o'rganadi.

Art pedagogika orqali emotsional intellekt va uning pedagogik ahamiyatini yoritishda avvalo emotsional intellekt tushunchasiga aniqlik kiritish lozim. Emotsional intellekt – bu shaxsning o'z va boshqalar hissiyotlarini anglash, tushunish va boshqarish qobiliyatidir. EI komponentlari quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- **O'z-o'zini anglash** – talaba o'z hissiyotlarini tan olish va tushunish qobiliyati;
- **O'z-o'zini boshqarish** – hissiyotlarni nazorat qilish va moslashuvchan qaror qabul qilish;

- **Ijtimoiy anglash** – boshqalar hissiyotlarini tushunish va empatiya ko'rsatish;

- **Ijtimoiy ko'nikmalar** – samarali muloqot va hamkorlik qobiliyatini rivojlantirish.

Emotsional intellekt (EI) – bu shaxsning o'z va boshqalarning hissiyotlarini anglash, tushunish va boshqarish qobiliyatidir. Daniel Goleman (1995) va boshqa tadqiqotchilarga ko'ra, EI shaxsning ijtimoiy va shaxsiy muvaffaqiyatida intellektual ko'rsatkichlardan kam emas, balki ko'proq ahamiyatga ega. Ta'lim jarayonida EI komponentlarini rivojlantirish talabani hissiy ongini oshirish, ijtimoiy ko'nikmalarini mustahkamlash va ijodiy faoliyatini rag'batlantirishda muhim vosita hisoblanadi.

O'z-o'zini anglash (Self-awareness) Talabani o'z hissiyotlarini tan olish, ularni aniqlash va tushunish qobiliyati.

- Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, o'z-o'zini anglay oladigan talabalar hissiyotlarini boshqarishda samaraliroq bo'ladi va o'quv jarayonida stressga bardoshli bo'ladi (Goleman, 1998).

- Masalan, rasm yoki musiqiy ijod mashg'ulotlarida talaba o'z hissiyotlarini rang, shakl yoki ritm orqali ifodalaydi. Bu jarayon orqali u o'z kayfiyati va ichki hissiy holatini tushunishni o'rganadi, bu esa shaxsiy o'sishga ijobiy ta'sir qiladi.

- Pedagogik amaliyotda o'z-o'zini anglash, talabalarning o'z qobiliyatlari, zaif tomonlari va motivatsiyalarini aniqlashga yordam beradi.

O'z-o'zini boshqarish (Self-regulation) Talabani hissiyotlarini nazorat qilish, stress va qiyin vaziyatlarda moslashuvchan qarorlar qabul qilish qobiliyati.

• Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, hissiyotlarni boshqarishni o'rgangan talabalar muammoli vaziyatlarda hissiy reaksiya o'rniga konstruktiv harakat qiladi (Mayer, Salovey & Caruso, 2008).

• Pedagogik amaliyotda, masalan, drama yoki guruh loyihalarida, talaba o'z kayfiyati va his-tuyg'ularini nazorat qilishni o'rganadi, bu esa ijodiy jarayonni to'xtatmasdan samarali davom ettirishga imkon beradi.

• EI rivojlangan talabalar murakkab vaziyatlarda qaror qabul qilish, vaqtni boshqarish va stressni kamaytirish ko'nikmalariga ega bo'ladi

Ijtimoiy anglash (Social awareness) bu Talabaning boshqalarning hissiyotlarini anglash va empatiya ko'rsatish qobiliyati.

• Empatiya orqali talaba boshqalarning hissiy holatini tushunadi va ular bilan samarali muloqot o'rnatadi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, empatiya yuqori bo'lgan talabalar ijtimoiy konfliktlarni tezroq va muvaffaqiyatli hal qiladi (Bar-On, 2006).

• Masalan, san'at mashg'ulotlarida guruhdagi hamkasblarning ishlari yoki drammatizatsiya jarayonidagi hissiyotlarini kuzatish orqali talaba boshqalarning hissiyotlariga e'tibor beradi va o'z harakatlarini shunga moslashtiradi.

• Ijtimoiy anglash talabaning ijtimoiy ongini oshiradi, guruh ishida va jamoaviy loyihalarda muvaffaqiyatli ishtirok etish imkonini beradi.

Ijtimoiy ko'nikmalar (Relationship management) Talabaning samarali muloqot qilish, hamkorlik qilish va ijtimoiy munosabatlarni boshqarish qobiliyati.

• EI rivojlangan talabalar o'z fikrlarini aniq ifodalash, boshqalar bilan konstruktiv hamkorlik qilish va guruh muhitida ijobiy ta'sir ko'rsatish qobiliyatiga ega bo'ladi (Goleman, 2006).

• Pedagogik amaliyotda bu komponent teamwork, loyiha ishlari va ijodiy mashg'ulotlarda muhim ahamiyatga ega. Masalan, talaba guruh loyihasida hamkasblar bilan birgalikda qaror qabul qiladi, ro'l taqsimlaydi va konfliktlarni hal qiladi.

• Natijada, ijtimoiy ko'nikmalar talabaning ijtimoiy moslashuvchanligi, yetakchilik qobiliyati va professional muhitga tayyorgarligini oshiradi.

Ta'lim jarayonida EI talabalarga stressni boshqarish, ijodiy bloklarni yengish va samarali guruh ishini tashkil etishda yordam beradi.

Shunday qilib, ta'lim jarayoni nafaqat akademik bilimlarni, balki hayotiy ko'nikmalarni ham rivojlantiruvchi kompleks tizimga aylanadi, bu esa zamonaviy shaxsni muvozanatli, ijodiy va hissiy jihatdan rivojlangan shaxs sifatida shakllantiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Eisner, E. (2002). *The Arts and the Creation of Mind*. Yale University Press.
2. Ikromova, S. A. (2025). *Art terapiya*. Toshkent: "Grand Kondor Print".
3. Mirzayeva, D. Sh. (2023). Bo'lajak o'qituvchining kasbiy tayyorgarligida art-pedagogik kuzatib borish konsepsiyasi // *Pedagogik mahorat*, №3, 34–37-b.
4. Tojiboyev, J. U. (2023). Kreativ yondashuv asosida talabalarning estetik madaniyatini rivojlantirish // *Samarqand davlat universiteti ilmiy axboroti*.
5. Vygotsky, L. S. (2004). *Imagination and Creativity in Childhood*. Cambridge University Press.
6. Xalilova, Sh. R. (2025). Creativity phenomenon and art pedagogy: Factors influencing the aesthetic development of students // *Journal of Multidisciplinary Sciences and Innovations*, 4(10), 1667–1669.
7. Xalilova, Sh. R. (2025). The role of art pedagogy in the development of a creative personality and its integration with pedagogical innovations // *Journal of Multidisciplinary Sciences and Innovations*, 4(11), 1073–1076.



**MUALLIF HAQIDA MA'LUMOT [ИНФОРМАЦИЯ ОБ АВТОРЕ]
[AUTHORS INFO]**

Xalilova Shaxlo Ravshanovna

Osiyo xalqaro universiteti Pedagogika va psixologiya
kafedrası o'qituvchisi.

Manzil: O'zbekiston, Buxoro shahri

MATNNI TUSHUNISH KO'NIKMALARINI RIVOJLANTIRISHDA KREATIV YONDASHUVNING DIDAKTIK IMKONIYATLARI



Fattullayeva Mahzuna Maqsud qizi,
Osiyo xalqaro universiteti doktoranti

Annotatsiya.

KIRISH: Maqolada boshlang'ich ta'limda, xususan ona tili fanini o'qitish jarayonida o'quvchilarning matnni tushunish ko'nikmalarini shakllantirish va rivojlantirishga oid ta'lim jarayonining mavjud holati tahlil qilinadi. Tadqiqot davomida boshlang'ich sinf o'quvchilarining matnni tushunish darajasi, amalda qo'llanilayotgan metod va vositalar, ularning samaradorligi hamda mavjud muammolar aniqlanadi. Shuningdek, ta'lim jarayonida kreativ yondashuv elementlarining yetarli darajada qo'llanilmayotgani asoslanadi va ushbu holatni takomillashtirish zarurati ilmiy jihatdan asoslab beriladi. Zamonaviy ta'lim tizimida boshlang'ich ta'lim bosqichi o'quvchilarning keyingi bilim faoliyatiga poydevor bo'lib xizmat qiladi. Ayniqsa, boshlang'ich sinfda o'quvchilarning matnni tushunish ko'nikmalarini shakllantirish ularning nafaqat ona tili fanidagi, balki barcha fanlar bo'yicha muvaffaqiyatli o'qishini ta'minlovchi muhim omil hisoblanadi.

MAQSAD: Matnni tushunish ko'nikmalarini rivojlantirishda kreativ yondashuvning didaktik imkoniyatlarini ilmiy tahlil qilish

MATERIALLAR VA METODLAR: Tadqiqot jarayonida boshlang'ich sinf ona tili darslarida matnni tushunishga oid ta'lim jarayonining mavjud holatini aniqlash maqsadida pedagogik kuzatuv, suhbat, o'quvchilarning yozma va og'zaki ishlari tahlili, diagnostik topshiriqlar hamda ilg'or pedagogik tajribalarni o'rganish metodlaridan foydalanildi. Tahlillar natijasida aniqlanishicha, amaldagi dars jarayonlarida matnni tushunishga qaratilgan topshiriqlar asosan informatsion xarakterga ega bo'lib, o'quvchilarning kreativ fikrlashini rivojlantirishga yetarlicha yo'naltirilmagan. Matn mazmunini tahlil qilish, muammoli savollar qo'yish, matnga nisbatan shaxsiy munosabat bildirish kabi faoliyat turlari kam qo'llaniladi.

Shuningdek, darslarda interfaol metodlar va kreativ topshiriqlardan foydalanish tizimli xarakter kasb etmagan. O'qituvchilar tomonidan matnni tushunish ko'nikmalarini rivojlantirishda ko'proq an'anaviy usullar ustuvor bo'lib, o'quvchilarning mustaqil va ijodiy faoliyatini faollashtirish imkoniyatlari to'liq ishga solinmayapti.

XULOSA: Boshlang'ich ta'limda, xususan ona tili fanini o'qitish jarayonida matnni tushunishga oid ta'lim jarayonining mavjud holati tahlili shuni ko'rsatadiki, mazkur jarayonni takomillashtirish zarurati mavjud. Amaliyotda qo'llanilayotgan metodlar o'quvchilarning matnni chuqur anglash, tahlil qilish va kreativ fikrlash ko'nikmalarini yetarli darajada rivojlantirmayapti.

Shu bois, boshlang'ich sinf ona tili darslarida matn bilan ishlash jarayonini kreativ yondashuv asosida tashkil etish, interfaol va muammoli topshiriqlarni tizimli qo'llash, o'quvchilarning mustaqil fikrlashini rag'batlantiruvchi metodlarni joriy etish muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega. Bu esa keyingi tadqiqotlarda kreativ yondashuv asosida matnni tushunish ko'nikmalarini takomillashtirish metodikasini ishlab chiqish zarurligini ko'rsatadi.

Kalit soʻzlar: boshlangʻich taʼlim, ona tili, matnni tushunish, oʻqish savodxonligi, taʼlim jarayoni, metodika, kreativ yondashuv, mustaqil fikrlash, muammoli topshiriq, oʻrgimchak toʻri metodi, Skaffolding, aqlli qoʻllar metodi

СОВРЕМЕННОЕ СОСТОЯНИЕ ОБРАЗОВАТЕЛЬНОГО ПРОЦЕССА ПОНИМАНИЯ ТЕКСТА В НАЧАЛЬНОЙ ШКОЛЕ (НА ПРИМЕРЕ ПРАКТИКИ ОБУЧЕНИЯ РОДНОМУ ЯЗЫКУ)

Фаттуллаева Махзуна Максудовна

Доктант Азиатского международного университета

Аннотация.

ВВЕДЕНИЕ: В статье анализируется современное состояние образовательного процесса формирования и развития навыков понимания текста у учащихся начальной школы, в частности, в процессе обучения родному языку. В ходе исследования определены уровень понимания текста у учащихся начальной школы, используемые на практике методы и инструменты, их эффективность и существующие проблемы. Также обосновывается недостаточное использование элементов творческого подхода в образовательном процессе и научно обосновывается необходимость улучшения этой ситуации. В современной системе образования начальная школа служит основой для дальнейшей познавательной деятельности учащихся. Особенно в начальной школе формирование навыков понимания текста является важным фактором, обеспечивающим успешное обучение не только по родному языку, но и по всем предметам.

ЦЕЛЬ: Научный анализ дидактического потенциала творческого подхода в развитии навыков понимания текста.

МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ: В процессе исследования использовались педагогическое наблюдение, интервью, анализ письменных и устных работ учащихся, диагностические задания и изучение передовых педагогических практик для определения текущего состояния образовательного процесса, связанного с пониманием текста на уроках родного языка в начальной школе. В результате анализа было установлено, что в современных учебных процессах задания, направленные на понимание текста, носят преимущественно информационный характер и недостаточно направлены на развитие творческого мышления учащихся. Редко используются такие виды деятельности, как анализ содержания текста, постановка проблемных вопросов и выражение личного отношения к тексту.

Кроме того, использование интерактивных методов и творческих заданий на уроках не стало систематическим. Учителя отдают приоритет более традиционным методам развития навыков понимания текста, а возможности для активизации самостоятельной и творческой деятельности учащихся используются не в полной мере.

ВЫВОД: Анализ текущего состояния образовательного процесса, связанного с пониманием текста в начальной школе, в частности в процессе обучения родному языку, показывает необходимость совершенствования этого процесса. Используемые на практике методы недостаточно развивают у учащихся навыки глубокого понимания, анализа и творческого мышления.

Поэтому организация процесса работы с текстом на уроках родного языка в начальной школе на основе творческого подхода, систематическое использование интерактивных и проблемно-ориентированных заданий, а также внедрение методов, стимулирующих самостоятельное мышление учащихся, имеют важное научное и практическое значение.

Ключевые слова: начальное образование, родной язык, понимание текста, грамотность чтения, образовательный процесс, методика, творческий подход,

самостоятельное мышление, задача на решение проблем, метод паутины, строительные леса, метод "умных рук"

**CURRENT STATE OF THE EDUCATIONAL PROCESS OF TEXT
COMPREHENSION IN PRIMARY EDUCATION
(ON THE EXAMPLE OF THE PRACTICE OF TEACHING THE MOTHER
LANGUAGE)**

Fattullayeva Mahzuna Maqsud qizi,

Doctoral student at Asia International University

Annotation.

INTRODUCTION: The article analyzes the current state of the educational process of forming and developing students' text comprehension skills in primary education, in particular, in the process of teaching the mother tongue. During the study, the level of text comprehension of primary school students, the methods and tools used in practice, their effectiveness, and existing problems are determined. Also, the insufficient use of elements of a creative approach in the educational process is substantiated and the need to improve this situation is scientifically substantiated. In the modern education system, the primary education stage serves as the foundation for students' further cognitive activity. Especially in the primary school, the formation of students' text comprehension skills is an important factor ensuring their successful study not only in the subject of their native language, but also in all subjects.

THE GOAL: Scientific analysis of the didactic potential of a creative approach in developing text comprehension skills

MATERIALS AND METHODS: In the research process, pedagogical observation, interviews, analysis of students' written and oral work, diagnostic tasks, and the study of advanced pedagogical practices were used to determine the current state of the educational process related to text comprehension in primary school native language lessons. As a result of the analysis, it was found that in the current lesson processes, tasks aimed at understanding the text are mainly informational in nature and are not sufficiently directed at developing students' creative thinking. Activities such as analyzing the content of the text, asking problematic questions, and expressing a personal attitude to the text are rarely used.

Also, the use of interactive methods and creative tasks in the lessons has not become systematic. Teachers prioritize more traditional methods in developing text comprehension skills, and the opportunities for activating students' independent and creative activities are not fully utilized.

CONCLUSION: The analysis of the current state of the educational process related to text comprehension in primary education, in particular in the process of teaching the native language, shows that there is a need to improve this process. The methods used in practice do not sufficiently develop students' skills in deep understanding, analysis, and creative thinking.

Therefore, organizing the process of working with text in primary school native language lessons based on a creative approach, systematically using interactive and problem-based tasks, and introducing methods that stimulate students' independent thinking are of significant scientific and practical importance. This indicates the need to develop a methodology for improving text comprehension skills based on a creative approach in further research.

Keywords: primary education, native language, text comprehension, reading literacy, educational process, methodology, creative approach, independent thinking, problem-solving task, spider web method, scaffolding, clever hands method

Mamlakatimiz taraqqiyoti, uning taqdiri, birinchi navbatda, mustaqil fikrlaydigan va o'zining mustaqil qarashlariga ega bo'lgan, ma'naviy jihatdan barkamol, hozirgi zamon

taraqqiyoti talablariga javob beradigan yoshlar qo'lidadir. Shuning uchun mamlakatda qabul qilingan ta'lim sohasidagi "Umumiy o'rta ta'limning Davlat ta'lim standarti"da belgilab qo'yilgan, Milliy o'quv dasturida yanada mukammallashtirilgan tayanch va fanga oid umumiy kompetensiyalar O'zbekiston Respublikasida ta'limning uzluksizligi, uzviyligi, o'quvchi shaxsi va qiziqishlari ustuvorligidan kelib chiqib, ularning yosh xususiyatlariga mos ravishda tayanch kompetensiyalar shakllantirilgan. O'zbekiston Respublikasida ta'lim sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar boshlang'ich ta'lim mazmunini yangilash, o'quvchilarda funksional savodxonlikni rivojlantirish, ta'lim jarayonida innovatsion va kreativ yondashuvlarni joriy etishni taqozo etmoqda. Davlat ta'lim standartlari va ona tili o'quv dasturlarida o'quvchilarning o'qish savodxonligini rivojlantirish ustuvor vazifa sifatida belgilangan bo'lsa-da, amaliyotda matn bilan ishlash jarayonida ko'proq reproduktiv usullardan foydalanilayotgani kuzatilmoqda. Amaliy tajribalar shuni ko'rsatadiki, ona tili darslarida matn ustida ishlash ko'pincha mazmunni qayta hikoyalash, savollarga tayyor javob berish bilan cheklanib qolmoqda. Bu esa o'quvchilarning mustaqil fikrlashi, tanqidiy tahlil qilishi va kreativ yondashuv asosida matnni chuqur anglash imkoniyatlarini cheklab qo'yimoqda. Shu sababli boshlang'ich ta'limda matnni tushunishga oid ta'lim jarayonining mavjud holatini ilmiy tahlil qilish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Ona tili ta'limi bolalarning tafakkur qilish faoliyatini kengaytirishga, erkin fikrlay olishi, o'zgaralar fikrini tinglashi, o'z fikrlarini og'zaki va yozma ravishda ravon bayon eta olishi, jamiyat a'zolari bilan erkin muloqotda bo'la oladigan ko'nikma va malakalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Bu o'rinda ona tili ta'limiga o'quv fani emas, balki butun ta'lim tizimini uyushtiruvchi ta'lim jarayoni sifatida qaraladi. Matnni tushunish o'quvchining o'qilgan axborotni anglash, tahlil qilish, xulosa chiqarish va uni nutqiy faoliyatida qo'llash qobiliyatlari bilan bevosita bog'liqdir. Ta'lim jarayonida matn ustida ishlash o'quvchilarning kreativ qobiliyatlarini rivojlantirish uchun keng imkoniyatlar yaratadi. Matn bilan ishlash jarayonida o'quvchilar nafaqat axborotni qabul qilish va qayta ishlash, balki uni yangicha talqin qilish, yangi g'oyalarni yaratish imkoniyatiga ega bo'ladilar.

O'qib tushunish ko'nikmasi ma'lum bir axborotni o'qish orqali tushunish ko'nikmasi hisoblanadi. Quyidagi usullar matnni o'qib tushunish va mantiqiy fikrlashni shakllantirishga yordam beradi:

1. Kitob o'qish – har kuni badiiy, ilmiy-ommabop yoki tarixiy matnlarni o'qish orqali bilim va so'z boyligi ortadi.

2. O'qilgan matn ustida fikrlash – o'qilgan asarni tahlil qilish, savollar tuzish, asosiy g'oyani aniqlash orqali anglash darajasi oshadi.


3. Munozara va suhbatlarda qatnashish – o'z fikrini mantiqiy izchil ifoda etish va boshqalarning fikriga nisbatan tanqidiy yondashish imkonini beradi. O'quvchilarda o'qib tushunish ko'nikmasini shakllantirishda quyidagi metoddan foydalanishi mumkin.

Scaffolding metodi. Ushbu metod o'quvchilarning o'qib tushunish ko'nikmasini rivojlantirishda unumli metod hisoblanadi.

"Scaffolding" nazariyasi birinchi marta 1950-yillarning oxirida kognitiv- psixolog Jerom Bruner tomonidan kiritilgan. "Scaffolding" so'zi ingliz tilidan olingan bo'lib, qurilishlarda devor yoniga yog'och yoki metallardan qavat-qavat qilib ishlangan "narvon", "iskala" degan ma'noni anglatadi. Gibbons (2002)ning ta'kidlashicha, "iskala" binoni qurish yoki ta'mirlash vaqtida o'rnatilayotgan vaqtinchalik inshootdir. Bruner (2002) ham Wud Gibbonsning fikrlarini qo'llab quvvatlagan holda, "iskala" tom ma'noda odatda bino atrofida joylashtirilgan har qanday narsa uchun ishlatiladigan atamadir deb ta'kidlaydi. Binoni qurishda vaqtinchalik inshoot sifatida foydalaniladi. Boshqacha qilib aytganda, bino o'zini qo'llab-quvvatlashga qodir bo'lishi bilanoq, iskala olib tashlanadi. Iskala vaqtinchalik, ammo binoning muvaffaqiyatli qurilishi uchun zarurdir².

² P. Gibbons, "Scaffolding language, scaffolding learning, 2015.

“Scaffolding” atamasi birinchi marta Lev Vygotskiy tomonidan o‘qitish strategiyasi sifatida ishlab chiqilgan³. Iskala (qurilishlarda devor yoniga yog‘och yoki metallardan qavat-qavat qilib ishlangan muvaqqat qurilma) o‘qituvchilari o‘quvchilarga yangi tushuncha yoki ko‘nikmalarni o‘rganish va rivojlantirishda ma’lum bir turdagi yordamni taklif qiladigan usulni anglatadi. Iskala modelida o‘qituvchi yangi ma’lumot almashishi yoki muammoni qanday hal qilishni ko‘rsatishi mumkin. Keyin o‘qituvchi asta-sekin chetga chiqadi va o‘quvchilarga mustaqil ravishda mashq qilishlariga imkon beradi. Bu guruh amaliyotini ham o‘z ichiga olishi mumkin. Ta’limda iskala modeli ham ba’zan “Men qilaman. Biz qilamiz. Siz qilasiz” deb ta’riflanadi. Boshqacha qilib aytganda, o‘qituvchi biror narsa qanday bajarilishini ko‘rsatadi, keyin sinf birgalikda mashq qiladi va nihoyat, o‘quvchilar individual ishlaydi.



Ko‘rinib turganidek, scaffolding metodidan foydalanishda asosiy ishtirokchi va amaliyotchi o‘quvchidir. scaffolding o‘rganish strategiyasining bir turi bo‘lib, u o‘quv jarayonining turli jihatlarini har tomonlama ko‘rib chiqadi.

Scaffolding usulidan samarali foydalanish o‘quvchilarga mashq qilish uchun ko‘proq imkoniyatlar beradi. O‘qituvchi uchun eng muhim narsa o‘quvchilarga o‘rganish modellarini berish uchun haqiqiy manbalar bilan ta’minlashdir. Nihoyat, o‘quvchilarning rivojlanish darajasiga qarab “iskala”larni asta-sekin olib tashlash kerak. Bundan tashqari, o‘qituvchi o‘quvchilarga amaliyot uchun ko‘plab imkoniyatlarni taqdim etishi kerak. Bu shuni anglatadiki, sinfda o‘qituvchilar emas, balki o‘quvchilarning faolligini oshiradi.

³ Diniyati K. & Yennining “Muloqot ko‘nikmalarini o‘qitishda “scaffolding” usulidan foydalanish” maqolasidan olingan

“O‘rgimchak to‘ri” metodi. Tavsifi: O‘rgimchak to‘ri metodi o‘quvchilarning nutqiy kompetensiyasini rivojlantirishda foydali metodlardan biri hisoblanadi. O‘quvchilar metodni bajarish jarayonida ip o‘ramidan katta bir o‘rgimchak to‘rini hosil qiladilar.

“O‘rgimchak to‘ri” metodining maqsadi:

- nutqiy kompetensiyasi rivojlanadi;
- tadqiqotchilik qobiliyati shakllanadi;
- ilmiy bilish qobiliyati shakllanadi;
- tanqidiy fikrlash ko‘nikmasi rivojlanadi.

Metoddan kutilgan natija:

- o‘quvchilar mavzu yuzasidan bilimlarini mustahkamlaydilar;
- mavzuga oid qo‘shimcha ma’lumotlarga ega bo‘ladilar;
- o‘z fikrlarini og‘zaki bayon qilishni o‘rganadilar;
- tanqidiy fikrash ko‘nikmasi rivojlanadi;
- hamkorlikda ishlashga o‘rganadilar;
- fikrni xulosalashga o‘rganadilar.

“Aqlli qo‘llar” metodi. Qog‘ozga 3 xil qo‘l harakati rasmi tushurilgan. 1-si kaft ochiq holatda, 2-rasmda ikki barmoq ochiq, qolganlari yopiq holatda, 3-sida esa kaft musht holatida. O‘qituvchi tomonidan aytilgan ma’lumot to‘g‘ri bo‘lsa, o‘quvchilar ochiq kaftga qo‘llarini qo‘yadilar; xato bo‘lsa, 2-holatdagi kaftga; agar bilmasalar musht kaftga qo‘llarini qo‘yadilar. Ushbu metodni boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida qo‘llash mumkin.



Metoddan kutilayotgan natija:

- tinglab tushunish ko‘nikmasini shakllantiradi;
- xotirasini kuchaytirishiga yordam beradi;
- o‘quvchilarning diqqat rivojlantiradi.

Mantiqiy fikrlash – bu muammoni tahlil qilish, asosiy sabablarni aniqlash, dalillardan xulosa chiqarish qobiliyatidir. Bunday fikrlash insonning fikr yuritish madaniyatini shakllantiradi, uni bir yoqlama emas, har tomonlama fikr yuritishga o‘rgatadi. Aynan mana shu ko‘nikma orqali inson noaniq vaziyatlarda to‘g‘ri yo‘l tanlaydi, hayotiy muammolarga yechim topadi. Mantiqiy fikrlash yoshlarning nafaqat o‘quv faoliyatida, balki kundalik hayotda, kasbiy faoliyatda, jamoa bilan ishlashda ham samarali ishtirokini ta’minlaydi. Shuningdek, bu ko‘nikma tanqidiy tafakkurni shakllantirib, insonni axborotlarga tanqidiy yondashishga o‘rgatadi.

O‘quvchilarda mustaqil matn yaratish ko‘nikmasini shakllantirish xususiy-intellektual rivojlanish jarayoni bo‘lib, uning miqdoriy ko‘rsatkichlari egallangan nutqiy malakalar va

mustaqil yaratilgan matnda o'z aksini topadi. Matn – tafakkur mahsuli hisoblanadi. Yaratiladigan matn o'rganilayotgan mavzu bilan o'zaro uzviylikda, mavzuga xos bo'lgan til hodisalaridan maksimal darajada foydalanilgan holda bajarilishi lozim. Masalan, o'rganilgan dars mavzusi "Ma'nodosh so'zlar" bo'lsin. Ma'nodosh so'zlar - tilimizning leksik boyligi. Undan qancha o'rinli foydalanilsa, fikrni tiniq, ravon, go'zal ifodalash imkoniyatlari shuncha kengayadi. So'zni to'g'ri va samarali foydalanish malakalari shakllanadi. O'quvchilarning matn ustida ishlash sohasidagi bilim va malakalarini yanada kengaytirish uchun quyidagi qator o'quv topshiriqlari, grammatik mashq shartlari tizimidan foydalanish mumkin:

- matndagi yangi yoki sizga tanish bo'lmagan so'zni belgilang, uning ma'nosini izohlang;
- matnda ajratilgan ko'chma ma'nodagi so'zlarning ma'nodoshlarini toping;
- ma'nodosh so'zlarning hammasi uchun umumiy bo'lgan bosh ma'nodagi so'zni belgilang;

-berilgan so'z uchun ma'nodosh (sinonim) so'zlar qatorini tuzing. Ulardan foydalanib matn yarating.

Bunday topshiriqlar orqali o'quvchilarni oddiy matn ustida ishlash orqali ijodiy matn yaratishga tayyorlash, oddiy so'zlarni badiiy bo'yoqdor so'zlar bilan almashtirish, sodda gaplarni kengaytirish, ortiqcha fikrlarni qisqartirishga xizmat qiluvchi topshiriqlar asosida matn tuzish malakalarini hosil qiladi.

Boshlang'ich sinf, ona tili darslarida olib boriladigan barcha mashg'ulotlarning yetakchi o'rni nutq o'stirish bo'lib, u savod o'rgatish, chiroyli yozish ko'nikmalarini shakllantirish va fikrlash doirasini kengaytirish vazifalarini o'z ichiga oladi. Bu darslarda ko'proq amaliy maqsadlarni ko'zlash, til boyliklaridan nutqda foydalanish malakalarini shakllantirish, ijodiy fikrlash, o'quvchilarning til sezgirligini tarbiyalash lozim. Ularning og'zaki nutqini muntazam o'stirib borish bog'anishli nutq, matn tuzishlarda amaliy yordam beradi. Nutqda fikr shakllantiriladi, shu bilan birga, fikr nutqni yaratadi. "Nutq tafakkur bilan chambarchas bog'langandir. Nutq bo'lmasa, tafakkur ham bo'lmaydi, til material bo'lmasa, fikrni ifodalab berib bo'lmaydi".

Fikrni nutqiy shakllantirish uning aniq, tushunarli, sof, izchil, mantiqiy bo'lishini ta'minlaydi. Tilni egallash shu tilning fonetikasini, lug'at tarkibini, grammatik qurilishini bilib olish, fikrni takomillashtirish uchun, tafakkurni o'stirish uchun shart-sharoit hozirlaydi. Bilimlar, dalillar, har xil axborotlar tafakkurning ham, nutqning ham materialidir. Nutq tafakkur jarayonini o'rganishning muhim vositasi bo'lib xizmat qiladi. Nutqdan o'quvchi fikriy rivojining asosiy o'lchovlaridan biri sifatida foydalaniladi. O'quvchining barcha predmetlardan materialni o'zlashtirishi va umumiy aqliy rivojlanish haqida fikr yuritganda, u yoki bu mavzuni bola o'z nutqida qanday bayon eta olishiga qaraladi.

Kreativ fikrlash qobiliyatlarni rivojlantishda o'quvchilar uchun interaktiv muhit yaratish lozim. O'quvchilar o'zlarini mustaqil va xavfsiz muhitda his qilishlari fikrlarini erkin ifodalashga yordam beradi hamda ularga erkin fikrli muhit yaratish, o'quvchilarga xatolar qilishga ruxsat berish va ularni o'rganish jarayonining bir qismi sifatida qabul qilishga moslashtirish hisoblanadi. Bu borada o'quvchilarda kreativ fikrlash qobiliyatlari rivojlanishida o'qituvchilarning roli muhim o'rin egallaydi. O'qituvchi o'quvchilarni yangi fikrlarni sinab ko'rishga undash orqali motivatsiya berish, o'quvchilarga o'z g'oyalarini aniq va samarali ifodalashda yordam berish hamda yo'naltirish, o'quvchilarga ijodiy vazifalar va masalalar berish asosida ijodiy ishlarga imkoniyat yaratish kabi faoliyatlarni amalga oshiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni (2020-yil 23-sentabr). Toshkent.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. – PF-5712-son, 29.04.2019
3. Ziyodova T.-O'quvchilarni mustaqil fikrlashga o'rgatish. -Toshkent: 2000.-163 b.



4. Maqsudovna, F. M. (2025). Boshlang'ich sinflarda sintaktik tushunchalar ustida ishlash metodikasi. Pedagogik tadqiqotlar jurnali, 2(2), 446-449.

5. Fattullayeva, M. (2024). O 'quvchilarning so'z birikmasi, gap ustida ishlash ko'nikmasini o'stirish. Medicine, pedagogy and technology: theory and practice, 2(9), 534-54

MUALLIF HAQIDA MA'LUMOT [ИНФОРМАЦИЯ ОБ АВТОРЕ] [AUTHORS INFO]

Fattullayeva Mahzuna Maqsud qizi,
Osiyo xalqaro universiteti doktoranti
Manzil: O'zbekiston, Buxoro shahri

BOSHLANG'ICH SINIF TABIIY FANLARNI O'QITISHDA PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH ORQALI TA'LIM SAMARADORLIGIGA ERISHISH USULLARI



Nurullayeva Aziza Ravshan qizi

Osiyo xalqaro universiteti Stajyor-tadqiqotchisi

Annotatsiya.

KIRISH: Mazkur maqolada boshlang'ich sinf tabiiy fanlarni o'qitishda zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish orqali ta'lim samaradorligini oshirish masalalari ilmiy-nazariy va empirik jihatdan tahlil qilinadi. Tadqiqot davomida interfaol metodlar, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, muammoli ta'lim va kompetensiyaviy yondashuvning o'quvchilarning bilish faolligi hamda o'zlashtirish ko'rsatkichlariga ta'siri o'rganildi. Tajriba-sinov natijalari pedagogik texnologiyalar tizimli qo'llanganda bilimlarni o'zlashtirish darajasi o'rtacha 8-10 % ga oshishini ko'rsatdi. Olingan natijalar asosida amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi.

MAQSAD: boshlang'ich sinf tabiiy fanlarni o'qitishda pedagogik texnologiyalardan foydalanish orqali ta'lim samaradorligiga erishish usullarini ilmiy tahlil qilish

MATERIALLAR VA METODLAR: Tadqiqot metodologiyasi zamonaviy pedagogika fanining tizimli, kompetensiyaviy va shaxsga yo'naltirilgan yondashuvlariga asoslandi. Tadqiqot jarayonida mahalliy va xorijiy olimlarning ilmiy qarashlari tahlil qilindi. Jumladan, M.V. Klarin pedagogik texnologiyani "oldindan belgilangan natijaga erishishni kafolatlovchi didaktik tizim" sifatida talqin qilsa, G.K. Selevko uni ta'lim jarayonining barcha komponentlarini qamrab oluvchi kompleks mexanizm deb hisoblaydi.

XULOSA: Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, boshlang'ich sinf tabiiy fanlarini o'qitishda pedagogik texnologiyalardan foydalanish ta'lim samaradorligini oshirishning muhim omillaridan biri hisoblanadi. Interfaol metodlar, muammoli ta'lim va raqamli vositalar o'quvchilarning bilim sifati, faolligi va mustaqil fikrlash darajasini sezilarli darajada oshiradi.

Kalit so'zlar: boshlang'ich ta'lim, tabiiy fanlar, pedagogik texnologiya, interfaol metodlar, ta'lim samaradorligi, kompetensiya.

МЕТОДЫ ПОВЫШЕНИЯ ЭФФЕКТИВНОСТИ ОБРАЗОВАНИЯ ПОСРЕДСТВОМ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ПЕДАГОГИЧЕСКИХ ТЕХНОЛОГИЙ В ПРЕПОДАВАНИИ ЕСТЕСТВЕННЫХ НАУК В НАЧАЛЬНОЙ ШКОЛЕ.

Нуруллаева Азиза Равшан кизи

Азиатский международный университет

Стажёр-исследователь

Аннотация.

ВВЕДЕНИЕ: В данной статье с научной, теоретической и эмпирической точек зрения анализируются вопросы повышения эффективности обучения за счет использования современных педагогических технологий в преподавании естественных

наук в начальной школе. В ходе исследования изучалось влияние интерактивных методов, информационно-коммуникационных технологий, проблемно-ориентированного обучения и компетентностного подхода на познавательную активность учащихся и показатели усвоения материала. Результаты эксперимента показали, что уровень усвоения знаний повышается в среднем на 8-10 % при систематическом использовании педагогических технологий. На основе полученных результатов разработаны практические рекомендации.

ЦЕЛЬ: Провести научный анализ методов достижения эффективности обучения посредством использования педагогических технологий в преподавании естественных наук в начальной школе.

МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ: Методология исследования основана на систематическом, компетентностном и личностно-ориентированном подходах современной педагогической науки. В ходе исследования были проанализированы научные взгляды отечественных и зарубежных ученых. В частности, М.В. Кларин интерпретирует педагогическую технологию как «дидактическую систему, гарантирующую достижение заранее определенного результата», в то время как Г.К. Селевко рассматривает ее как комплексный механизм, охватывающий все компоненты образовательного процесса.

ВЫВОДЫ: Результаты исследования показывают, что использование педагогических технологий в преподавании естественных наук в начальной школе является одним из важных факторов повышения эффективности обучения. Интерактивные методы, проблемно-ориентированное обучение и цифровые инструменты значительно повышают качество знаний, активность и уровень самостоятельного мышления учащихся.

Ключевые слова: начальное образование, естественные науки, педагогические технологии, интерактивные методы, эффективность обучения, компетентность.

METHODS OF ACHIEVING EDUCATIONAL EFFICIENCY THROUGH THE USE OF PEDAGOGICAL TECHNOLOGIES IN TEACHING NATURAL SCIENCES IN THE PRIMARY GRADE

Nurullayeva Aziza Ravshan qizi

Asia International University Intern-Researcher

Annatation.

INTRODUCTION

This article analyzes the effectiveness of using modern pedagogical technologies in teaching natural sciences in primary education. The study examines the impact of interactive methods, problem-based learning, and digital tools on students' learning outcomes. Experimental results show that systematic use of pedagogical technologies increases learning achievement by 8-10 %. Practical recommendations are provided based on the findings.

THE GOAL: To conduct a scientific analysis of methods for achieving educational effectiveness through the use of pedagogical technologies in teaching primary school natural sciences

MATERIALS AND METHODS: The research methodology was based on the systematic, competency-based and person-oriented approaches of modern pedagogical science. In the course of the research, the scientific views of domestic and foreign scientists were analyzed. In particular, M.V. Klarin interprets pedagogical technology as a "didactic system that guarantees the achievement of a predetermined result", while G.K. Selevko considers it a complex mechanism that covers all components of the educational process.

CONCLUSION: The results of the study show that the use of pedagogical technologies in teaching primary school natural sciences is one of the important factors in increasing educational effectiveness. Interactive methods, problem-based learning and digital tools significantly increase the quality of knowledge, activity and level of independent thinking of students.

Keywords: primary education, natural sciences, pedagogical technologies, interactive methods, learning effectiveness.

Hozirgi globallashuv va raqamli transformatsiya sharoitida ta'lim tizimi oldida turgan strategik vazifalardan biri – boshlang'ich sinf o'quvchilarida tabiiy-ilmiy savodxonlikni shakllantirish hamda ularni ilmiy tafakkurga yo'naltirishdan iboratdir. Ilmiy tadqiqotlar natijalariga ko'ra, inson tomonidan umrbod egallanadigan bilimlarning qariyb 65–70 foizi aynan boshlang'ich ta'lim bosqichida shakllanadi. Shu bois mazkur bosqichda ta'lim samaradorligini oshirish masalasi pedagogika fanining ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

Boshlang'ich sinf tabiiy fanlarini o'qitishda pedagogik texnologiyalardan foydalanish o'quvchilarning nafaqat bilim darajasini oshiradi, balki ularning mustaqil fikrlash, tahlil qilish, solishtirish va xulosa chiqarish kompetensiyalarini rivojlantiradi. Statistik kuzatuvlarga ko'ra, an'anaviy usulda olib borilgan darslarda o'quvchilarning faol ishtiroki 45–50 foizni tashkil etsa, pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etilgan darslarda ushbu ko'rsatkich 75–80 foizga yetadi.

So'nggi yillarda O'zbekiston Respublikasi ta'lim tizimida kompetensiyaviy yondashuvning joriy etilishi tabiiy fanlarni o'qitishda innovatsion metod va texnologiyalardan foydalanishni taqozo etmoqda. Shu nuqtai nazardan, mazkur maqolada boshlang'ich sinf tabiiy fanlarini o'qitishda pedagogik texnologiyalardan foydalanish orqali ta'lim samaradorligiga erishish usullari ilmiy asosda tahlil qilinadi.

Tadqiqot metodologiyasi zamonaviy pedagogika fanining tizimli, kompetensiyaviy va shaxsga yo'naltirilgan yondashuvlariga asoslandi. Tadqiqot jarayonida mahalliy va xorijiy olimlarning ilmiy qarashlari tahlil qilindi. Jumladan, M.V. Klarin pedagogik texnologiyani "oldindan belgilangan natijaga erishishni kafolatlovchi didaktik tizim" sifatida talqin qilsa, G.K. Selevko uni ta'lim jarayonining barcha komponentlarini qamrab oluvchi kompleks mexanizm deb hisoblaydi. Ushbu nazariy yondashuvlar mazkur tadqiqotning metodologik poydevorini tashkil etdi.

Pedagogik tajriba-sinov doirasida dars ishlanmasi

Tadqiqotning empirik qismi doirasida 2-sinf tabiiy fanlar darsligidagi **“O'simliklarning qismlari va ularning vazifalari”** mavzusi asosida namunaviy dars ishlanmasi ishlab chiqildi va amaliyotga joriy etildi. Mazkur mavzu tanlanishiga sabab, uning o'quvchilarda kuzatuvchanlik, tahliliy fikrlash hamda tabiiy jarayonlarni anglash kompetensiyalarini shakllantirishdagi yuqori didaktik salohiyatidir.

Darsning maqsadi: -o'quvchilarga o'simliklarning asosiy qismlari (ildiz, poya, barg, gul) va ularning vazifalari haqida ilmiy tushunchalar berish;
Interfaol metodlar orqali o'quvchilarning bilish faolligini oshirish;
tabiatga ongli munosabatni shakllantirish.

Darsda qo'llaniladigan pedagogik texnologiyalar:

Muammoli ta'lim: muammoli ta'lim — bu o'quvchilarda **mustaqil fikrlash, tahlil qilish va xulosa chiqarish ko'nikmalarini shakllantirishga** qaratilgan metod. Dars jarayonida savollar quyidagi mezonlarga asoslanadi: o'quvchilarga mavzuga oid savollar berib, ularning mustaqil izlanish va xulosa chiqarish faoliyatini rag'batlantirish;

Agar o'simlikning ildizi bo'lmasa, nima sodir bo'ladi?"

“Sizning uyingizdagi o'simliklar bargsiz qolsa, ular qanday o'zgaradi?"

“Agar siz yangi o‘simlik ixtiro qilsangiz, uning bargi yoki ildizi qanday bo‘ladi?”

“O‘simlik qismlarini kundalik hayotda qanday foydalana olamiz?”

Klaster texnologiyasi: Vizual klaster — bu **ma’lumotlarni yoki tushunchalarni grafik tarzda guruhlash usuli** bo‘lib, asosiy g‘oya yoki tushuncha markazga joylashtiriladi, unga bog‘liq elementlar (atamalar, vazifalar, xususiyatlar) esa atrofga tarqatiladi.

O‘simlik qismlarini vizual klasterlarga joylashtirib, vazifalarini tizimlashtirish – har bir o‘simlik qismi markaziy nuqta sifatida olinadi va uning atrofida vazifalari yozilgan bo‘sh kataklar yoki diagrammalar joylashtiriladi (ildiz, poya, barg, gul). Shu tarzda o‘quvchilar har bir qismining vazifasini vizual tarzda ko‘rib, ularni tizimli ravishda eslab qoladi.

1. Markaziy nuqtani belgilash:

Markazga “O‘simlik qismlari” yoki “O‘simlikning asosiy qismlari” yoziladi.

2. Atrofdagi qismlarni joylashtirish:

Ildiz, poya, barg, gul kabi asosiy qismlar markaz atrofida joylashadi.

3. Har bir qismning vazifalarini yozish:

- Ildiz: suv va minerallarni so‘rib olish, o‘simlikni yerda mahkamlash
- Poya: qismlarni birlashtirish, ozuqa tashish
- Barg: fotosintez, gaz almashinuvi
- Gul: urug‘ hosil qilish, ko‘payish


4. Vizual elementlardan foydalanish:

- Rangli markerlar, kartochkalar, rasm yoki diagrammalar yordamida klaster chiziladi
- Chiziqlar yoki o‘q bilan vazifalar markaziy nuqta bilan bog‘lanadi

5. O‘quvchilar bilan bajarish:

- Guruhlar bo‘lib, o‘z klasterlarini yaratadi
- Natijada o‘quvchilar **mavzuni vizual tarzda eslab qoladi va tizimli o‘rganadi**

1-rasmda ko‘rsatilgan



(1-rasm)

Aqliy hujum: o'quvchilar guruhlariga bo'linadi va ularga o'simlik qismlarining kundalik hayotdagi qo'llanishi yoki tabiiy hodisalarda roli haqida savollar beriladi. Savollar orqali o'quvchilar erkin fikrlashga, turli g'oyalarni taklif qilishga rag'batlantiriladi. Misol savollar:

- "Agar o'simlikda barg bo'lmasa, nima sodir bo'ladi?"

- "Ildizning suvni so'rib olishi hayotimizda qanday foyda keltiradi?"

- "Gulning mavjudligi o'simlik va atrof-muhit uchun qanday ahamiyatga ega?"

Guruhlar tomonidan ishlab chiqilgan kreativ javoblar sinfda muhokama qilinadi, eng to'g'ri javoblar baholanadi va keyingi darslarda mavzular bilan bog'lanadi;

Didaktik o'yinlar: mavzu bo'yicha kartochkalar, rasm va diagrammalar yordamida bilimlarni mustahkamlash;

Didaktik o'yin qismida foydalaniladigan vositalar (2-rasmda ko'rsatilgan)

1. Kartochkalar

Rasmi kartochkalar: har bir o'simlik qismi (ildiz, poya, barg, gul) rasm bilan tasvirlangan.

Matnli kartochkalar: vazifalari qisqa va aniq ifodalangan. Masalan: "Fotosintez jarayonini amalga oshiradi" – bu bargga mos keladi.

Moslashtirish o'yini: o'quvchilar rasmi kartochkalarni vazifalari yozilgan kartochkalar bilan moslashtiradi.

2. Diagrammalar

Klaster diagrammasi: markazda "O'simlik qismlari", atrofida vazifalari joylashtirilgan diagramma. O'quvchilar diagrammadagi bo'sh kataklarni to'ldiradi yoki javoblarni ularni bog'lab to'g'ri tartibga keltiradi.

Chizmalar: o'simlikning qismlari va ularning vazifalarini ko'rsatadigan soddalashtirilgan rasmlar.

Rasmlar va illyustratsiyalar

Hayotiy o'simlik rasmlari, bog' yoki tabiatdagi o'simliklarni ko'rsatadigan foto tasvirlar.

O'quvchilar rasm orqali qismlarni aniqlaydi, ularning vazifasini aytadi yoki guruhlariga ajratadi.

O'yinning amalga oshirilishi

O'quvchilar guruh bo'lib ishlaydi.

Har bir guruhga kartochkalar va diagrammalar to'plami beriladi.

Vazifasi: rasm va matnlarni moslashtirish, qismlarning vazifalarini to'g'ri aniqlash, va oxirida **guruh natijasini sinf bilan baham ko'rish**.

Bu metod orqali mavzular **interaktiv va vizual tarzda mustahkamlanadi**.

3. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT): interfaol taqdimotlar va multimedia vositalaridan foydalanish orqali mavzuni vizual va interaktiv tarzda tushuntirish.



2-rasm

Darsning borishi va savollari:

✓ Motivatsiya bosqichi (5 daqiqa):

- Savol: "Agar o'simlikning ildizi bo'lmasa, nima sodir bo'ladi?"
- Vazifa: o'quvchilarni izlanishga rag'batlantirish, muammoli vaziyat yaratish.

✓ Yangi bilimlarni egallash bosqichi (15 daqiqa):

- Interfaol taqdimot yordamida o'simlik qismlari tushuntiriladi.
- Klaster metodida guruhlar o'simlik qismlari va vazifalarini tuzadi.

Savollar:

- "Ildizning asosiy vazifasi nima?"
- "Barg nima uchun kerak?"
- "Gulning vazifasi nimada namoyon bo'ladi?"

✓ Mustahkamlash bosqichi (10 daqiqa):

Didaktik o'yin: o'quvchilar kartochkalarni moslashtiradi, rasm va diagrammalar asosida qismlarni ajratadi.

Savollar:


- "Boshqa o'simliklarda bargning vazifasi qanday o'zgaradi?"
- "Ildiz va poya o'rtasidagi farq nimada?"

Refleksiya va baholash (5 daqiqa): Savollar: "Bugungi darsda siz eng ko'p nimalarni o'rgandingiz?"

"O'simlik qismlarini kundalik hayotda qayerda ko'rishingiz mumkin?"

O'quvchilarning javoblari mezonlar asosida baholanadi, dars yakunida qisqa xulosa chiqariladi.

Empirik tadqiqot doirasida pedagogik tajriba-sinov ishlari olib borildi. Tadqiqotda jami 120 nafar Buxoro viloyati shofirkon tuman 18-maktab boshlang'ich 2-sinf sinf o'quvchilari ishtirok etdi. Tajriba guruhi (60 nafar)da tabiiy fanlarni o'qitishda muammoli ta'lim, loyiha metodi, klaster texnologiyasi, aqliy hujum, raqamli taqdimotlar hamda didaktik o'yinlar tizimli ravishda joriy etildi. Nazorat guruhi (60 nafar)da esa an'anaviy tushuntirish va mustahkamlash metodlari qo'llanildi. Tadqiqot natijalari, 3-rasmda jadval shaklida keltirilgan va tajriba guruhi bilan nazorat guruhi o'zaro taqqoslanilib, kerakli natijalar berdi.



3-rasm

Mazkur kengaytirilgan dars ishlanmasi tajriba-sinov jarayonida qo'llanilganda, o'quvchilarning mavzuni o'zlashtirish darajasi o'rtacha 22–25 foizga oshgani kuzatildi, bu pedagogik texnologiyalarning boshlang'ich sinf tabiiy fanlar ta'limida yuqori samaradorlikka ega ekanligini yanada mustahkam tasdiqlaydi.

Baholash mezonlari sifatida bilimlarning to'liqligi, mustaqil fikrlash darajasi va amaliy ko'nikmalarning shakllanganlik holati tanlandi. Natijalarni qayta ishlashda statistik tahlil usullaridan – foiz ko'rsatkichlari, o'rtacha arifmetik qiymatlar va dinamik taqqoslashdan foydalanildi. Tadqiqot metodlari tanlanishi natijalarning ishonchliligini ta'minlashga xizmat qildi.

Tajriba-sinov ishlari yakunida olingan ma'lumotlar pedagogik texnologiyalardan foydalanish ta'lim samaradorligini sezilarli darajada oshirishini ko'rsatdi. Xususan, tajriba guruhida o'quvchilarning bilimlarni o'zlashtirish darajasi dastlabki bosqichda 78 foizni tashkil etgan bo'lsa, yakuniy bosqichda ushbu ko'rsatkich 94 foizga yetdi. Bu esa 16 foizlik ijobiy o'sishni anglatadi. Nazorat guruhida esa o'sish darajasi atigi 6 foizni tashkil etdi.

Shuningdek, o'quvchilarning dars jarayonidagi faolligi va motivatsiyasi ham sezilarli darajada oshgani aniqlandi. So'rovnomalar natijalariga ko'ra, tajriba guruhidagi o'quvchilarning 87 foizi tabiiy fan darslarini qiziqarli va tushunarli deb baholagan. 82 foiz respondentlarda mustaqil xulosa chiqarish ko'nikmalari shakllangani kuzatildi. Xalqaro tadqiqotlar (TIMSS)

natijalari bilan qiyosiy tahlil shuni ko'rsatadiki, interfaol metodlar qo'llanilgan ta'lim tizimlarida o'quvchilarning tabiiy fanlardan savodxonligi o'rtacha 20–25 foizga yuqori bo'ladi.

Olingan natijalar asosida bashorat qilish mumkinki, pedagogik texnologiyalar boshlang'ich ta'lim tizimiga izchil joriy etilgan taqdirda, yaqin 5–7 yil ichida tabiiy fanlar bo'yicha o'zlashtirish darajasi 30 foizgacha oshishi mumkin.

Tadqiqot natijalari pedagogika sohasida olib borilgan avvalgi izlanishlar bilan uyg'unlikda tahlil qilindi. Jumladan, L.S. Vygotskiy ta'kidlagan "yaqin rivojlanish zonasi" nazariyasiga ko'ra, o'quvchining bilimlarni faol o'zlashtirishi samarali pedagogik muhitda yuzaga chiqadi. Pedagogik texnologiyalar aynan shunday muhitni shakllantirishga xizmat qiladi.

Shuningdek, J. Dyui tomonidan asoslab berilgan faoliyatga yo'naltirilgan ta'lim konsepsiyasi bilan mazkur tadqiqot natijalari o'zaro mos keladi. O'quvchi tajriba, kuzatuv va muammoli vaziyatlar orqali bilimlarni egallaganida, ularning mustahkamligi an'anaviy yodlash usullariga nisbatan ancha yuqori bo'lishi ilmiy jihatdan isbotlangan.

Biroq pedagogik texnologiyalarni joriy etishda ayrim muammolar ham mavjud. Xususan, o'qituvchilarning metodik tayyorgarligi yetarli bo'lmaganda yoki moddiy-texnik baza sust bo'lsa, kutilgan natijalarga erishish qiyinlashadi. Shu bois texnologiyalarni joriy etish jarayoni o'qituvchilarning uzluksiz kasbiy rivoji bilan chambarchas bog'liq bo'lishi lozim.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, boshlang'ich sinf tabiiy fanlarini o'qitishda pedagogik texnologiyalardan foydalanish ta'lim samaradorligini oshirishning muhim omillaridan biri hisoblanadi. Interfaol metodlar, muammoli ta'lim va raqamli vositalar o'quvchilarning bilim sifati, faolligi va mustaqil fikrlash darajasini sezilarli darajada oshiradi.

Xulosa sifatida aytish mumkinki, pedagogik texnologiyalarni tizimli va maqsadli qo'llash boshlang'ich ta'limda kompetensiyaviy yondashuvni samarali amalga oshirishga xizmat qiladi. Kelgusida mazkur yo'nalishda o'qituvchilarning metodik tayyorgarligini oshirish hamda raqamli pedagogik texnologiyalar asosida keng ko'lamli tadqiqotlar olib borish maqsadga muvofiqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Klarin M.V. *Pedagogicheskie texnologii v uchebnom protsesse*. – M.: Pedagogika, 2019.
2. Selevko G.K. *Sovremennye obrazovatelnye texnologii*. – M.: Narodnoe obrazovanie, 2020.
3. Davlatov K. *Boshlang'ich ta'lim metodikasi*. – Toshkent: Fan, 2021.
4. UNESCO. *Innovative Teaching and Learning*. – Paris, 2022.
5. O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi. *Boshlang'ich ta'lim davlat ta'lim standarti*. – Toshkent, 2023.

MUALLIF HAQIDA MA'LUMOT [ИНФОРМАЦИЯ ОБ АВТОРЕ] [AUTHORS INFO]

Nurullayeva Aziza Ravshan qizi

Osiyo xalqaro universiteti Stajyor-tadqiqotchisi

Manzil: O'zbekiston, Buxoro shahri

TA'LIM JARAYONIDA ICHKI MOTIVATSIYANI RAG'BATLANTIRISH UCHUN PEDAGOGIK MULOQOTNI TASHKIL ETISH



Rustamova Zulfizar Yo'ldosheva
Osiyo xalqaro universiteti magistranti

Annotatsiya.

KIRISH: Mazkur maqolada ta'lim jarayonida o'quvchilarning ichki motivatsiyasini shakllantirish va rivojlantirishda pedagogik muloqotning o'rni, mazmuni hamda samarali tashkil etish mexanizmlari ilmiy-nazariy jihatdan tahlil etilgan. Pedagogik muloqot orqali shaxsga yo'naltirilgan ta'lim muhitini yaratish, o'quvchilarning o'z-o'zini anglash, mustaqil fikrlash va bilim olishga bo'lgan ichki ehtiyojini kuchaytirish masalalari yoritilgan. Shuningdek, maqolada ichki motivatsiyani rag'batlantirishga xizmat qiluvchi muloqot usullari, pedagog shaxsining kommunikativ kompetensiyasi hamda interaktiv ta'lim texnologiyalarining ahamiyati asoslab berilgan.

MAQSAD: Ta'lim jarayonida ichki motivatsiyani rag'batlantirish uchun pedagogik muloqotni tashkil etishni pedagogik tahlil qilish

MATERIALLAR VA METODLAR: Ta'lim amaliyotida ko'pincha tashqi rag'batlar (baholash, nazorat, mukofot) ustuvorlik qilayotgan bo'lsa-da, ichki motivatsiyani shakllantirish pedagogik jarayonning sifat jihatdan yangi bosqichga ko'tarilishini ta'minlaydi. Bu borada pedagogik muloqot o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi hamkorlikni yo'lga qo'yish, ishonchli va qulay psixologik muhitni yaratishning muhim vositasi hisoblanadi.

XULOSA: Ta'lim jarayonida ichki motivatsiyani rag'batlantirish pedagogik muloqotni samarali tashkil etish bilan bevosita bog'liqdir. Shaxsga yo'naltirilgan, dialogik va ijobiy emotsional muloqot o'quvchilarning bilim olishga bo'lgan ichki ehtiyojini kuchaytiradi.

Kalit so'zlar: ichki motivatsiya, pedagogik muloqot, ta'lim jarayoni, shaxsga yo'naltirilgan ta'lim, kommunikativ kompetensiya, rag'batlantirish.

ОРГАНИЗАЦИЯ ПЕДАГОГИЧЕСКОГО ДИАЛОГА ДЛЯ ПОВЫШЕНИЯ ВНУТРЕННЕЙ МОТИВАЦИИ В ОБРАЗОВАТЕЛЬНОМ ПРОЦЕССЕ.

Рустамова Зульфизар Юлдашевна
Магистрант Азиатского международного университета.

Аннотация.

ВВЕДЕНИЕ: В данной статье научно и теоретически анализируется роль, содержание и механизмы эффективной организации педагогического диалога в формировании и развитии внутренней мотивации учащихся в образовательном процессе. Рассматриваются вопросы создания личностно-ориентированной образовательной среды посредством педагогического диалога, укрепления самосознания учащихся, самостоятельного мышления и внутренней потребности в знаниях. В статье также обосновываются методы коммуникации, служащие стимулированию внутренней

мотивации, коммуникативной компетентности педагогической личности, и важность интерактивных образовательных технологий.

ЦЕЛЬ: Педагогический анализ организации педагогического диалога для стимулирования внутренней мотивации в образовательном процессе.

МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ: Хотя в образовательной практике часто преобладают внешние стимулы (оценка, контроль, поощрение), формирование внутренней мотивации обеспечивает качественный прогресс педагогического процесса на новый уровень. В этом контексте педагогический диалог является важным инструментом для установления сотрудничества между учителем и учеником, создания доверительной и комфортной психологической среды.

ВЫВОД: Стимулирование внутренней мотивации в образовательном процессе напрямую связано с эффективной организацией педагогического диалога. Личностно-ориентированное, диалогическое и позитивно-эмоциональное общение усиливает внутреннюю потребность учащихся в обучении.

Ключевые слова: внутренняя мотивация, педагогический диалог, образовательный процесс, личностно-ориентированное образование, коммуникативная компетентность, мотивация

ORGANIZING PEDAGOGICAL DIALOGUE TO PROMOTE INTERNAL MOTIVATION IN THE EDUCATIONAL PROCESS

Rustamova Zulfizar Yuldosheva

Master's student at Asian International University

Annatation.

INTRODUCTION: This article scientifically and theoretically analyzes the role, content and mechanisms of effective organization of pedagogical dialogue in the formation and development of students' internal motivation in the educational process. The issues of creating a person-oriented educational environment through pedagogical dialogue, strengthening students' self-awareness, independent thinking and internal need for knowledge are covered. The article also substantiates the methods of communication that serve to stimulate internal motivation, the communicative competence of the pedagogical person, and the importance of interactive educational technologies.

THE GOAL: Pedagogical analysis of the organization of pedagogical dialogue to stimulate internal motivation in the educational process

MATERIALS AND METHODS: Although external incentives (assessment, control, reward) often take precedence in educational practice, the formation of internal motivation ensures the qualitative advancement of the pedagogical process to a new level. In this regard, pedagogical dialogue is an important tool for establishing cooperation between the teacher and the student, creating a trusting and comfortable psychological environment.

CONCLUSION: Stimulating internal motivation in the educational process is directly related to the effective organization of pedagogical dialogue. Person-oriented, dialogic and positive emotional communication strengthens the internal need of students to learn.

Keywords: internal motivation, pedagogical dialogue, educational process, person-oriented education, communicative competence, motivation

Zamonaviy ta'lim tizimida shaxsni har tomonlama rivojlantirish, uning intellektual va ijodiy salohiyatini ro'yobga chiqarish ustuvor vazifalardan biri hisoblanadi. Bu jarayonda o'quvchilarning ta'limga bo'lgan munosabati, bilim olishga ichki ehtiyoji va qiziqishi muhim

ahamiyat kasb etadi. Aynan ichki motivatsiya o'quv faoliyatining barqarorligi va samaradorligini ta'minlovchi asosiy omillardan biri sifatida namoyon bo'ladi.

Ta'lim amaliyotida ko'pincha tashqi rag'batlar (baholash, nazorat, mukofot) ustuvorlik qilayotgan bo'lsa-da, ichki motivatsiyani shakllantirish pedagogik jarayonning sifat jihatdan yangi bosqichga ko'tarilishini ta'minlaydi. Bu borada pedagogik muloqot o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi hamkorlikni yo'lga qo'yish, ishonchli va qulay psixologik muhitni yaratishning muhim vositasi hisoblanadi.

Shu sababli ta'lim jarayonida ichki motivatsiyani rag'batlantirishda pedagogik muloqotni samarali tashkil etish masalasi dolzarb ilmiy-pedagogik muammo sifatida e'tirof etiladi.

Ichki motivatsiya tushunchasining pedagogik-psixologik mohiyati

Ichki motivatsiya – bu shaxsning o'quv faoliyatiga bo'lgan qiziqishi, bilim olishdan ma'naviy qoniqish olishi va o'zini rivojlantirishga bo'lgan ehtiyojdir. Psixologik tadqiqotlarda ichki motivatsiya shaxs faoliyatining ichki ehtiyojlar, qiziqishlar va qadriyatlar asosida boshqarilishi sifatida talqin etiladi.

Pedagogik nuqtai nazardan ichki motivatsiya:

- o'quvchining mustaqil bilim olishga intilishi;
- faol va ongli ishtiroki;
- o'z-o'zini baholash va nazorat qilish qobiliyati;
- ijodiy fikrlashning rivojlanishi bilan tavsiflanadi.

Ichki motivatsiyaga ega bo'lgan o'quvchi bilimni majburiyat sifatida emas, balki shaxsiy ehtiyoj sifatida qabul qiladi. Bu esa ta'lim natijalarining barqaror va chuqur bo'lishini ta'minlaydi.

Pedagogik muloqotning ta'lim jarayonidagi o'rni

Pedagogik muloqot – bu o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi ta'limiy, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi maqsadlarga yo'naltirilgan o'zaro munosabatlar tizimidir. U nafaqat axborot almashinuvi, balki shaxslararo ta'sir, hamkorlik va empatiya jarayonini ham o'z ichiga oladi.

Pedagogik muloqotning asosiy funksiyalari:

- **Axborot berish funksiyasi** – bilim, ko'nikma va malakalarni yetkazish;
- **Regulyativ funksiyasi** – o'quv faoliyatini boshqarish;
- **Emotsional funksiyasi** – ijobiy psixologik muhit yaratish;
- **Rivojlantiruvchi funksiyasi** – shaxsiy va intellektual o'sishni ta'minlash.

Aynan emotsional va rivojlantiruvchi funksiyalar ichki motivatsiyani shakllantirishda muhim rol o'ynaydi.

Ichki motivatsiyani rag'batlantirishda pedagogik muloqot mexanizmlari

Pedagogik muloqotni to'g'ri tashkil etish orqali o'quvchilarning ichki motivatsiyasini quyidagi yo'llar bilan kuchaytirish mumkin:

1. Shaxsga yo'naltirilgan yondashuv

Har bir o'quvchining individual qiziqishlari, qobiliyatlari va ehtiyojlarini inobatga olish ichki motivatsiyani oshiradi. O'qituvchining o'quvchini tinglashi, fikrini qadrlashi va qo'llab-quvvatlashi muloqot samaradorligini ta'minlaydi.

2. Ijobiy psixologik muhit yaratish

Ochiq, ishonchli va hurmatga asoslangan muloqot o'quvchida o'ziga bo'lgan ishonchni shakllantiradi. Tanqidiy emas, rag'batlantiruvchi muloqot ichki motivatsiyani kuchaytiradi.

3. Muammoli va dialogik ta'lim

Savol-javob, munozara, muammoli vaziyatlar orqali tashkil etilgan muloqot o'quvchilarning bilishga bo'lgan qiziqishini oshiradi va mustaqil fikrlashga undaydi.

Pedagog shaxsining kommunikativ kompetensiyasi

Ichki motivatsiyani rag'batlantirishda pedagog shaxsining kommunikativ kompetensiyasi alohida ahamiyatga ega. Kommunikativ kompetensiya quyidagi tarkibiy qismlarni o'z ichiga oladi:

- nutq madaniyati;
- tinglash va tushunish qobiliyati;
- empatiya;
- nizolarni konstruktiv hal etish malakasi.

Yuqori kommunikativ kompetensiyaga ega pedagog o'quvchilar bilan samarali muloqot o'rnatib, ularning ta'lim jarayoniga faol jalb etilishini ta'minlaydi.

Interaktiv ta'lim texnologiyalari va pedagogik muloqot

Zamonaviy ta'lim texnologiyalari pedagogik muloqotni faollashtirishga xizmat qiladi.

Jumladan:

- guruhli ishlash;
- "aqliy hujum";
- loyihaviy faoliyat;
- rolli o'yinlar.

Bu metodlar o'quvchilarning o'zaro muloqotini kuchaytirib, ichki motivatsiyaning shakllanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Mazkur tadqiqot doirasida ta'lim jarayonida ichki motivatsiyani rag'batlantirishda pedagogik muloqotning samaradorligini aniqlash maqsadida empirik izlanishlar olib borildi. Tadqiqot 2024–2025 o'quv yili davomida umumta'lim maktablari va oliy ta'lim muassasalarida tahsil olayotgan o'quvchi va talabalar ishtirokida amalga oshirildi.

Tadqiqot metodlari va ishtirokchilari

Empirik tadqiqotda jami **120 nafar respondent** (80 nafar o'quvchi va 40 nafar talaba) ishtirok etdi. Tadqiqotda quyidagi metodlardan foydalanildi:

- so'rovnoma (anketa);
- pedagogik kuzatuv;
- suhbat;
- ta'lim jarayonini tahlil qilish.

So'rovnoma savollari o'quvchilarning ichki motivatsiya darajasi, o'qituvchi bilan muloqot sifati hamda dars jarayonidagi faolligini aniqlashga yo'naltirildi.

Tadqiqot jarayonining tashkil etilishi

Tadqiqot ikki bosqichda olib borildi:

1. **Boshlang'ich diagnostika bosqichi** – o'quvchilarning ichki motivatsiya darajasi va pedagogik muloqotga munosabati aniqlab olindi.

2. **Tajriba-sinov bosqichi** – dars jarayonida dialogik, shaxsga yo'naltirilgan va rag'batlantiruvchi pedagogik muloqot usullari qo'llanildi (muammoli savollar, munozara, fikr almashish, refleksiya).

Tadqiqot natijalari

Boshlang'ich bosqichda o'tkazilgan so'rovnoma natijalariga ko'ra:

- respondentlarning **32 %** ida ichki motivatsiya yuqori darajada;
- **41 %** ida o'rta darajada;
- **27 %** ida past darajada ekanligi aniqlandi.

Tajriba-sinov jarayonida pedagogik muloqotning interaktiv va dialogik shakllari tizimli ravishda qo'llanilgandan so'ng yakuniy diagnostika o'tkazildi. Natijalar quyidagicha o'zgarishni ko'rsatdi:

- ichki motivatsiyasi yuqori darajadagi respondentlar **32 % dan 56 % ga** oshdi;
- o'rta darajadagi motivatsiya **41 % dan 34 % ga** kamaydi;
- past darajadagi ichki motivatsiya **27 % dan 10 % ga** tushdi.

Pedagogik kuzatuv natijalari shuni ko'rsatdiki, o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi ochiq muloqot, fikrni erkin bildirish imkoniyati va ijobiy baholash o'quvchilarning darsdagi faolligini sezilarli darajada oshirgan.

Natijalar tahlili

Olingan empirik natijalar pedagogik muloqotning ichki motivatsiyani shakllantirishda muhim omil ekanligini tasdiqladi. Ayniqsa:

- o'quvchilarning mustaqil fikrlash faolligi oshdi;
- dars jarayoniga bo'lgan qiziqish kuchaydi;
- o'z-o'zini baholash va refleksiya ko'nikmalari rivojlandi.

K.Mavlonova «Ona tili fanini adabiyot fani bilan badiiy matn orqali integratsiyalab o'qitish metodikasini takomillashtirish» nomli o'z ilmiy ishida yana shunday jumalarni keltirib o'tadi: Ayon bo'ladiki, badiiy matnlar yuzasidan muayyan ishlari bajarilsada asosiy maqsad - so'z qo'llash mahoratidan saboq berish yo'nalishdagi metodik ishlarga alohida e'tibor qaratilmaydi. Shu sababli o'qish savodxonligi darslarida o'quvchilarning so'z izlatish mahorati sezilarli darajada oshayotgani yo'q. Ona tili darslarida o'qituvchi ana shu yo'nalishdagi ishlarga ahamiyat berib qarasagina, o'quvchilar buni o'z faoliyatlarida odatga aylantirishlari mumkin.

Bugungi kunda ta'lim sohasida olib borilayotgan islohotlar, kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan davlat ta'lim standartlarining joriy etilishi o'quvchilarda mustaqil fikrlash, tanqidiy tahlil qilish, o'z fikrini asoslab bayon eta olish, badiiy tafakkur va estetik didni shakllantirish kabi ko'nikmalarni rivojlantirishni taqozo etmoqda. Aynan shu maqsadlarga erishishda badiiy matn ustida samarali ishlash metodikasi asosiy o'rin tutadi. Har qanday adabiy asar o'zining chuqur g'oya-mavzusi, badiiy obrazlari, uslubiy vositalari bilan o'quvchini o'ylashga, fikrlashga undaydi. Lekin bu imkoniyatlar to'liq ro'yobga chiqishi uchun o'qituvchi tomonidan badiiy matn ustida mohirona ishlash, uni bosqichma-bosqich tahlil qilish, o'quvchilarni faol fikrlovchi subyekt sifatida o'quv jarayoniga jalb etish zarur bo'ladi.

Badiiy matn ustida ishlash — bu oddiy mazmunni o'qib tushunish emas, balki matnning chuqur qatlamlariga kirib borish, undagi g'oya, obrazlar tizimi, muallif pozitsiyasi, zamonaviy hayot bilan bog'liqlik kabi masalalarni aniqlash, sharhlash, muhokama qilish demakdir.

Boshlang'ich ta'limda badiiy matn ustida ishlashning samarali usullari o'quvchilarni faollashtirish, ularning tafakkurini o'stirish, matnni chuqur anglash va o'z fikrini erkin bayon etishga yo'naltirilgan o'qitish strategiyalarini o'z ichiga oladi. Asosiy maqsad – o'quvchining badiiy asarni bevosita o'rganishi orqali uning g'oyasi, mavzusi, obrazlar tizimi, muallif maqsadi va badiiy vositalarini mustaqil tahlil qilishga yo'naltirishdir. Shu bois, boshlang'ich ta'limda badiiy matn bilan ishlash jarayoni ko'proq faoliyatga asoslangan, interaktiv usullar bilan boyitilgan bo'lishi lozim.

Birinchi navbatda, badiiy matn ustida ishlashda matnni tahlil qilish usuli katta ahamiyat kasb etadi. Bu usul o'quvchilarda tanqidiy va tahliliy fikrlash ko'nikmalarini shakllantiradi. O'qituvchi matnni o'rganish davomida voqealar rivoji, obrazlarning ichki kechinmalari, muallif tilining o'ziga xosligi, vaqt va makon tasvirlari ustida tahliliy savollar beradi, bu esa o'quvchini faollikka chorlaydi. Matnni tahlil qilish orqali o'quvchi asardagi asosiy g'oyani anglaydi, personajlarning harakatlariga munosabat bildiradi va muallif pozitsiyasini tushunishga harakat qiladi.

Ikkinchi samarali usul – muloqotli o'qish usulidir. Bu usulda o'qituvchi va o'quvchilar o'rtasida doimiy savol-javob, muhokama va fikr almashinuvi asosida matn o'zlashtiriladi. Bu orqali o'quvchilar har bir voqea yoki obrazga nisbatan o'z munosabatini bildiradi, shaxsiy fikrini isbotlashga harakat qiladi. Ayniqsa, ochiq savollar, muammoni hal qilishga yo'naltirilgan topshiriqlar va dramatik talqinlar orqali matnga nisbatan faol munosabat shakllantiriladi. Muloqotli o'qish darsda jonli muhitni vujudga keltirib, har bir o'quvchini fikrlashga undaydi.

Badiiy matn ustida ishlash jarayoni boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun juda muhim sanaladi. Matnni tahlil qilish jarayonida o'quvchilar o'zlari uchun muhim bo'lgan ko'pgina

savollarga javob olishadi. O'zlari duch kelgan ko'plab qiyinchiliklarni bartaraf etishga erishadilar. Shu bilan bir qatorda tanqidiy fikrlashni ham shakllantiradi.

Psixolog olim L.S. Vygotskiy o'qish jarayonini ijtimoiy tajribaning shaxs ongida qayta shakllanishi sifatida talqin etadi. U "yaqin rivojlanish zonasi" nazariyasiga tayangan holda, badiiy matnni tushuntirib va izohli o'qish orqali o'quvchilarning bilish imkoniyatlari kengayishini ilmiy asoslaydi [5]. Bu nazariya boshlang'ich sinflarda o'qituvchi rahbarligida tashkil etiladigan o'qish usullarining samaradorligini ko'rsatib beradi.

Mazkur nazariya badiiy matn bilan ishlash, xususan, tushuntirib va izohli o'qish metodlarining pedagogik ahamiyatini ilmiy jihatdan asoslab beradi. Boshlang'ich sinf o'quvchilari badiiy matn mazmunini mustaqil ravishda to'liq anglab yetishga har doim ham tayyor bo'lmaydi. Shu sababli o'qituvchi tomonidan matn mazmunini izohlash, murakkab so'z va obrazlarni tushuntirish, savol-javoblar orqali yo'naltirish o'quvchining yaqin rivojlanish zonasini faollashtiradi. O'qituvchi rahbarligida tashkil etilgan izohli o'qish jarayonida o'quvchi matn mazmunini nafaqat tushunadi, balki uni tahlil qilish, baholash va xulosa chiqarish ko'nikmalarini ham egallay boshlaydi. Bu jarayonda o'qituvchi vositachilik (mediatorlik) rolini bajarib, ijtimoiy tajribani o'quvchi ongiga moslashtiradi. Natijada tashqi faoliyat ichki aqliy faoliyatga aylanishi sodir bo'ladi.

Shunday qilib, Vygotskiyning yaqin rivojlanish zonasi nazariyasi boshlang'ich sinflarda o'qituvchi rahbarligida tashkil etiladigan tushuntirib va izohli o'qish usullarining yuqori samaradorligini ilmiy jihatdan isbotlaydi. Ushbu yondashuv o'quvchilarning bilish imkoniyatlarini kengaytirish, mantiqiy tafakkurini rivojlantirish hamda badiiy matnni ongli va chuqur o'zlashtirishga xizmat qiladi.

Boshlang'ich ta'limda badiiy matnlarni mutolaa qilishning bir qancha samarali usullari mavjud bo'lib, olimlar har bir usulning natijaviyligi haqida bir qancha ma'lumotlarni keltirib o'tishgan.

Ongli o'qish - Metodist olim N.I.Kudryashev badiiy matnni o'qish jarayonida tahliliy yondashuv muhimligini ta'kidlab, matn ustida ishlash o'quvchilarni ongli o'qishga olib kelishini asoslaydi. Uning fikricha, matn mazmunini tushunish -bu faqat o'qish texnikasi emas, balki mantiqiy va estetik idrokning uyg'unligidir. Mutolaaning bu turi boshlang'ich sinflarda yuqori natijaviylikka ega o'qish turlaridan sanaladi [6].

Ifodali o'qish boshlang'ich sinflarda badiiy matnni o'qitishning asosiy va yetakchi usullaridan biri hisoblanadi. Ifodali o'qish jarayonida o'quvchilar matndagi emotsional holatni ohang, pauza va urg'u orqali ifodalashga o'rganadilar.

Tushuntirib o'qish usuli boshlang'ich sinf o'quvchilarining yosh xususiyatlari bilan chambarchas bog'liqdir. Bu usulda o'qituvchi badiiy matndagi murakkab so'zlar, iboralar va obrazlarni izohlab boradi.

Izohli o'qish usuli matnni tahlil qilishga yo'naltirilgan bo'lib, o'quvchilarning mantiqiy fikrlashini rivojlantiradi. Olimlar izohli o'qishni boshlang'ich sinflarda ongli o'qish malakasini shakllantirishning samarali usuli sifatida baholaydi.

Qayta o'qish usuli badiiy matnni chuqur o'zlashtirishda muhim ahamiyatga ega. Mutolaa qilishning bu turini o'qish malakasini avtomatlashtirish vositasi sifatida ko'rsatish mumkin.

Rollarga bo'lib o'qish dialogli matnlar uchun samarali bo'lib, o'quvchilarning ijodiy faolligini oshiradi. Boshlang'ich sinf o'qituvchilari bu usulni boshlang'ich sinflarda emotsional idrokni rivojlantiruvchi metod sifatida baholaydi.

Mustaqil o'qish usuli - Amerikalik pedagog J.Bruner mustaqil o'qish orqali o'zlashtirilgan bilimlar barqaror bo'lishini ta'kidlaydi [7]. Mustaqil o'qish o'quvchilarda o'z-o'zini nazorat qilish ko'nikmalarini shakllantiradi. O'qishning bu turi- o'quvchining o'qituvchi bevosita rahbarligisiz, ammo oldindan belgilangan maqsad, vazifa va metodik ko'rsatmalar asosida amalga oshiriladigan bilish faoliyati sifatida talqin etiladi. Ushbu jarayonda o'quvchi

matn mazmunini anglash, tahlil qilish, baholash va undan xulosa chiqarish kabi aqliy amallarni mustaqil ravishda bajaradi. Mustaqil o'qish o'quvchilarda o'z-o'zini boshqarish, mas'uliyat va refleksiv tafakkurni shakllantirishga xizmat qiladi. Psixologik nuqtayi nazardan mustaqil o'qish shaxsning ichki bilish ehtiyojlariga tayanadi va bilimlarni faol o'zlashtirish jarayonini ta'minlaydi. Bu jarayonda o'quvchi tashqi rag'batdan ko'ra ichki motivatsiya asosida harakat qiladi, bu esa bilimning barqarorligi va ongli o'zlashtirilishini kuchaytiradi.

Boshlang'ich ta'limda badiiy matnlarni mutolaa qilish o'quvchilarning bilish jarayonini shakllantirishda yetakchi ahamiyat kasb etadi. Tadqiqot davomida tahlil qilingan tushuntirib va izohli o'qish, ifodali o'qish, mustaqil o'qish hamda ijodiy o'qish turlari o'quvchilarning yosh va psixologik xususiyatlariga mos holda, tizimli va bosqichma-bosqich qo'llanilganda ta'lim jarayonining samaradorligini oshirishi aniqlandi. Ushbu mutolaa turlari o'quvchilarda ongli o'qish, mustaqil fikrlash, nutq madaniyati va estetik didni rivojlantirishga xizmat qilib, ularning intellektual va ma'naviy kamolotini ta'minlaydi. Shuningdek, o'qish faoliyatini ilmiy asosda tashkil etish boshlang'ich sinf o'quvchilarini keyingi ta'lim bosqichlariga puxta tayyorlashning muhim omili hisoblanadi.

Foydalangan adabiyotlar ro'yhati:

1. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni. O'RQ-637. 2020-yil 23-sentabr. <https://lex.uz>
2. Yo'ldoshev M., Isaqov Z., Haydarov Sh. Badiiy matnning lisoniy tahlili: Metodik qo'llanma. - Toshkent: Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2010. - 112 b.
3. Mavlonova K. "Ona tili fanini adabiyot fani bilan badiiy matn orqali integratsiyalab o'qitish metodikasini takomillashtirish". - Toshkent - 2019
4. Проблемы преподавания русской литературы. Под ред. М.З.Черкезовой и И.В.Андреевой. - Л.: Просвещение, Ленинградское отделение, 1989. - 207с
5. Vygotskiy L.S. "Bola psixik rivojlanishining asoslari". - Toshkent: O'qituvchi, 1995. - 240 b.
6. Кудряшов Н. И. Методика преподавания литературы в средней школе. - Москва: Просвещение, 1981.
7. Bruner J. The Process of Education. - Cambridge, MA: Harvard University Press, 1960. - P. 20-25.

MUALLIF HAQIDA MA'LUMOT [ИНФОРМАЦИЯ ОБ АВТОРЕ] [AUTHORS INFO]

Raximova Madina Xasanovna

Osiyo xalqaro universiteti magistri

Manzil: O'zbekiston, Buxoro shahri

ARXITEKTURAVIY TA'LIMDA TALABALARNING MUSTAQIL GRAFIK ISHLARINI TASHKIL ETISHNING PEDAGOGIK SHART-SHAROITLARI



Berdiyev Nurmon Ochilovich

*Toshkent arxitektura-qurilish
universiteti dotsenti*

Тел: +99899 070 11 33

Annotatsiya

Ushbu maqolada arxitektura yo'nalishi talabalarining mustaqil grafik ishlarini tashkil etishning pedagogik shart-sharoitlari, bu ishlarni olib borishdagi pedagogik va psixologik yondashuvlari tahlil qilinadi. Ijodiy mustaqillik, vizual tafakkur, emotsional motivatsiya va individual yondashuv orqali talabalarining bilim olish samaradorligini oshirish yo'llari ko'rsatiladi. Muallif ta'lim jarayonida pedagogik shart-sharoitlarni yaratish va talabalarni psixologik qo'llab-quvvatlashning o'rnini yoritadi.

Kalit so'zlar: Arxitekturaviy ta'lim, mustaqil ish, pedagogik yondashuv, psixologik qo'llab-quvvatlash, ijodkorlik, grafik ishlar, vizual fikrlash.

Аннотация: В данной статье анализируются педагогические условия организации самостоятельных графических работ студентов архитектурного направления, а также педагогические и психологические подходы к проведению этих работ. Показаны пути повышения эффективности обучения студентов посредством творческой самостоятельности, визуального мышления, эмоциональной мотивации и индивидуального подхода. Автор освещает роль создания педагогических условий и психологической поддержки студентов в образовательном процессе.

Ключевые слова: Архитектурное образование, самостоятельная работа, педагогический подход, психологическая поддержка, творчество, графические работы, наглядное мышление.

Annotation: This article analyzes the pedagogical conditions for organizing independent graphic works of architecture students, as well as pedagogical and psychological approaches to conducting these works. Ways to increase the effectiveness of student learning through creative independence, visual thinking, emotional motivation, and an individual approach have been shown. The author highlights the role of creating pedagogical conditions and psychological support for students in the educational process.

Keywords: Architectural education, independent work, pedagogical approach, psychological support, creativity, graphic works, visual thinking.

Zamonaviy va ta'lim berishning jahon standartlari asosida faoliyat olib borishni maqsad qilib qo'ygan oliy ta'lim muassasining o'z oldiga qo'ygan asosiy

vazifalaridan biri bo'lajak mutaxassisni o'z-o'zini rivojlantirishga, mustaqil ravishda bilim va ko'nikmalarini ko'paytirishga, innovatsion faoliyatga tayyor va qobiliyatli bo'lgan shaxsni shakllantirishga qaratilgan bo'lishi zarur. "Bunday vazifani amalga oshirish uchun tayyor bilimlarni o'qituvchi tomonidan talabaga berishning o'zigina kamlik qiladi. Bunday yo'l talabani bilimlarni o'zlashtirishning passiv iste'molchisiga aylantirib qo'yadi. Vaholanki, bugun bizga bilimlarni o'zlashtirishdagi passiv iste'molchi emas, balki uning faol ijodkori zarurdir."⁴

OTM darajasidagi bo'lajak mutaxassis kerakli ma'lumotlarni topishi, ularni tahlil qilishi, asosiy masalaga tegishli qismlarni ajratib ko'rsatishi, umumlashtirishi, xulosa chiqarishi va nostandart vaziyatlarda mustaqil qaror qabul qilishi kerak. Shu munosabat bilan so'nggi yillarda arxitekturaviy ta'limda ham talabalarining mustaqil ishlashiga bo'lgan e'tibor kuchaytirilib, ularning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish masalasi e'tibor markazida turibdi.

Hozirgi zamon jamiyati oliy ta'lim muassasalari oldiga bilimdon, kreativ fikrlash va mushohada qilish qobiliyatiga ega, bilimlarni mustaqil ravishda egallay olishga tayyor hamda ularni amalda qo'llay oladigan mutaxassisni tayyorlash vazifasini qo'ymoqda. Bu vazifalarni hal etish shaxshning rivojlanishi, o'z-o'zini ro'yobga chiqarishi uchun yanada kengroq imkoniyatlarni ta'minlaydigan ta'lim mazmuni shakl, metod va vositalarini izlash orqali amalga oshiriladi. Shu munosabat bilan talabalarining mustaqil ishlash sharoitida bilish va amaliy ko'nikmalar ortirish faoliyati usullarini o'zlashtirish muammosi alohida dolzarblik kasb etadi.

Kuzatishlar shuni ko'rsatmoqdaki, "Arxitekturaviy qalamtasvir va rangtasvir", "Arxitekturaviy grafika" fanlarining asosiy nazariy qoidalarini talqin qilish, amaliy vazifalarni mustaqil ravishda ajratish yo'llarini tizimlashtirish, uning tuzilishini, mustaqil ishni bajarishda amal qilish kerak bo'lgan elementlarni aniqlash bo'yicha olib borayotgan faoliyatlari talabalarda hali ham talab darajasida emas. Buning ustiga ko'pincha mustaqil ish uchun taklif etiladigan topshiriqlar talabalar faoliyatining protsessual va motivatsion tomoni bilan jiddiy bog'liq bo'lmagan holda tuzilishi ham sir emas. Shu munosabat bilan ta'lim oluvchilarning bunday ishlarni bajarishga bo'lgan qiziqishi muntazam ravishda pasayib boraverishi mumkinligini inkor qilib bo'lmaydi.

Adabiyotlar tahlili "zarur nazariy bilimlar hajmining tobora ortib borishi tufayli yuzaga keladigan mustaqil o'quv faoliyatini shakllantirishga bo'lgan obyektiv ehtiyoj..."⁵ va ta'lim oluvchilar shaxsining tegishli fazilatlarini rivojlantirish maqsadi nazarda tutilgan o'quv muammolarini mustaqil hal qilishga yetarlicha

⁴ L. Zaripov, N. Hayitov, Z. Tohirov. Talabalar mustaqil ta'limini tashkil etish. Metodik q'llanma. – Toshkent: "Sano-Standart", 2023. 5-bet.

⁵ K. G. Chiknaverova. Mustaqil ta'lim faoliyati ta'lim oluvchilar mustaqilligini rivojlantirish asosi sifatida: mahalliy tadqiqotlarning metodologik jihati. Maqola. Str.1. Ta'lim va fan. 2010. No 4 (72).

tayyor emasligi o'rtasidagi qarama-qarshilikni aniqlashga imkon berdi. Shu munosabat bilan mustaqil o'quv faoliyati va mustaqil ishning mohiyatini ta'lim oluvchilar mustaqilligini rivojlantirish aspektida aniqlashtirish maqsadga muvofiq,- deb hisoblash mumkin.

Bularning barchasi shu sohada faoliyat olib boruvchi professor-o'qituvchilar zimmasiga yanada ma'suliyatli vazifalarni yuklaydi. Ta'lim tizimining turli komponentlari doirasida mustaqil ta'lim mazmunini sifat jihatdan yangi bosqichga olib chiqishda optimal pedagogik shart-sharoitlarning yaratilishi, talabalar bilan ishlashda ularning shaxsiy - psixologik xususiyatlarini hisobga olish masalasi ham yetkchi o'rin tutadi.

Oliy ta'lim tizimida, hususan bo'lajak arxitektorlar tayyorlashda mustaqil ishlarni joriy etish kengaytirilgan miqiyosda olib borilishi - bu zamonaviy ta'limga hos xususiyatlardandir. Chunki, "kredit-modul" tizimining asosiy ikkita tamoyilining biri bu-talabalarning mustaqil ta'lim olishlari uchun kerakli shart-sharoitlarni ta'minlash hisoblanadi. Ta'lim oluvchining mustaqil ishlashini sifat jihatidan yuqori darajada tashkil etish dolzarb masalalardan biridir. Asosiy maqsad turli xil pedagogik usullarni qo'llash orqali mustaqil ta'lim olish imkoniyatiga ega bo'lgan, ishga ijodiy yondoshuvchi, yangicha fikrlash qobiliyatlarini o'zida mujassam qila oladigan, malakali, bo'lajak arxitektorlarni tayyorlashdir. Zamonaviy ta'lim sharoitlarida an'anaviy o'qitishning eng samarali usullaridan to'liq voz kechmagan holda, innovatsion metodlarni qo'llash, ta'lim berishning turli nuqtalarida ularni muntazam tadbiq etib borish kuzlangan natijalarga erishishning asosiy vositalaridir.

Mustaqil bo'lish shaxsning integrativ xususiyati hisoblanib, uning bilimlarni mustaqil bilishga intilishi, tashabbuskorligining asosi hisoblanadi. Ushbu hodisaning o'ziga xos xususiyatlari muayyan faoliyat turlarida, xususan, o'quv materialini mustaqil o'zlashtirish jarayonida talaba shaxsining namoyon bo'lishi fonida yanada oydinlashadi. Boshqacha aytganda, talabaning mustaqil fikrlashi va harakat qilishi darajasi mazmunan yanaqa samarali "faollashtirilishi" kerak bo'lgan o'quv faoliyatida aks etadi. Demak, ta'lim jarayonini ta'lim oluvchining intellektual-irodaviy resurslarini faol jalb etish nazarda tutilgan qismida, ya'ni mustaqil ta'lim jarayonlarida faollashtirish masalasi hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Albatta, bunda o'qituvchining roli ahamiyatli bo'lib, talaba faoliyati uning ko'rsatmalariga muvofiq amalga oshiriladi.

Oliy o'quv yurtida ta'lim olish talaba-yoshlar hayotidagi muhim davr hisoblanadi. Chunki, oliy dargohda sifatli ta'lim olish ko'p jihatdan shaxsiy muvaffaqiyat va kelajakdagi farovonlik poydevorini yaratadi. Odatda, bu yo'l mashaqqatli bo'lib, ba'zan boshlanishi bilan muvaffaqiyatsizliklarga duch kelish

ham mumkin. Albatta, bunda hodisaning ob'ektiv va sub'ektiv sabablari mavjud bo'ladi.

Ayniqsa, o'zgarayotgan ijtimoiy sharoitlarga va yangi faoliyatga muvaffaqiyatli moslashish yo'llarini izlash barcha birinchi kurs talabalari uchun dolzarb muammo hisoblanadi.

Ammo, ta'lim oluvchining ijodiy o'z-o'zini anglashini an'anaviy bilimlarni uzatish orqali shakllantirish mumkin emasligi, faqat metodologik yondashuvlar va ta'lim texnologiyalarini qayta ko'rib chiqishning o'zi yetarli emasligi sir emas. Shuning uchun ta'lim berishning konseptual tamoyillarini qayta ko'rib chiqish, kezi kelganda kerakli o'zgartirishlar kiritish zarurati yuzaga kelmoqda. Yangi ta'lim paradigmasida ta'lim oluvchi bilimlarning passiv iste'molchisidan faol subyektga aylanishi, uning faoliyati kasbiy vazifalarni hal qilish, o'quv va amaliy maqsadlarga erishish vositalari va usullarini tanlash qobiliyati darajasi bilan bog'liq bo'lishi kerak. Bu esa talabani mustaqil fikrlashga, masalalarni mustaqil hal qilishga undaydi.

Moslashuv jarayoni turli fanlar bo'yicha yetarlicha katta hajmdagi mustaqil ishni bajarish zarurati bilan murakkablashadi, uning materiali ko'pincha talabalar o'ylaganidek ikkinchi darajali emas. Mustaqil ishlarga oliy o'quv yurtlari talabalarini kasbiy tayyorlashning asosiy tarkibiy qismi sifatida qaraladi. Mustaqil tarzda bajariladigan anchagina murakkab kasbiy vazifalarni hal etish talabaga tanlagan kasbi sohasida mavjud innovatsiyalarni o'zlashtirish va ishlab chiqishni ta'minlash imkonini beradi. Mustaqil ish topshiriqlarining sifatsiz bajarilishi esa bo'lajak mutaxassislarning kasbiy kompetensiyalarini shakllantirish darajasiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

O'quv-tarbiya jarayonini tashkil etish uchun muayyan pedagogik shart-sharoitlarni yaratish talab etiladi. Bu shart-sharoitlar talabalarning ijodiy qobiliyatini rivojlantirish, mustaqil fikrlash, to'g'ri texnik yechim topish, estetik did va mas'uliyat hissini shakllantirishda muhim ahamiyatga ega.

Arxitekturada ijodiy ishlash uchun ishtiyoq muhim omil hisoblanadi. O'qituvchi talabalarning qiziqishini uyg'otishi, ularni maqtov va rag'bat orqali qo'llab-quvvatlashi kerak.

Ko'pincha talabalar yangi g'oyalarni ifoda etishdan cho'chishadi. O'qituvchi ularga ishonch bag'ishlashi, xatolardan o'rganish imkoniyatini berish orqali ijodiy erkinlik muhitini yaratishi lozim.

Quyida bo'lajak arxitektorlar uchun mustaqil grafik ishlarni bajarishdagi asosiy pedagogik shart-sharoitlar keltiriladi:

1. Maqsadga yo'naltirilgan ta'lim muhitini yaratish. Arxitektura ta'limida grafik ishlar, jumladan, mustaqil grafik ishlar ham ma'lum maqsad va vazifalarga yo'naltirilgan bo'lishi kerak. Unda talabalarning ushbu fan yuzasidan bajariladigan mustaqil ishlarning maqsad va vazifalarini tushuntirib berish asnosida aniq natijalarga erishishga harakat qilinadi. Bundan tashqari, mustaqil bajariladigan amaliy ishlar mavzulari va ana shu mavzularni o'rganish uchun didaktik materiallar, har bir mavzu yuzasidan amaliy ishlanmalar namunalari, metodik tavsiyalar berib borilishi mumkin. Topshiriq sifatida berilgan har mavzu doirasida amaliy ishlarda yanada yangi yechimlar, zamonaviy tendensiyalarni hisobga olish tavsiya qilinadi.

2. Interaktiv va innovatsion o'qitish usullaridan foydalanish. Talabalarda muammoli vaziyatlarga yechim topish qobiliyatini shakllantiruvchi muhit muhimdir. Jumladan, mustaqil ishlarni bajarishda ham mana shunday muhitni yaratish, muammoli vaziyatlarni to'g'ri tashkil qilish, talaba-yoshlarni faol bo'lishga undash va rag'batlantirish zamonaviy pedagogning kasbiy hislatlari sanaladi.

Ma'lumki, bo'lajak arxitektorlarning fazoviy tasavvurlarini rivojlantirish, ularning narsa va detallar hajmini konstruktiv his qilish qobiliyatlarini o'stirish, ularni kasbiy faoliyatlariga tadbiq qila olish ko'nikmalarini shakllantirish muhim pedagogik vazifalardan hisoblanadi. Shuning uchun qo'lda bajariladigan dastlabki loyiha eskizlari, qoralama grafik ishlanmalarni sifatli, talab darajasida bajarilishiga sharoit yaratish kerak bo'ladi. Mustaqil grafik amaliy ishlarni bajarishda zamonaviylik tendensiyalaridan foydalanish, ularni ham ananaviy yondoshuvlar, ham kompyuter texnologiyalaridan foydalanish imkoniyatlarini yaratish yo'llarini izlab topish pedagog uchun muhim vazifalardan sanaladi. Masalan, talaba qo'lda bajargan grafik ko'rinishlar, tasviriy ishlanmalarni sifatli bajarib, uni turlicha holatlardagi ko'rinishlarini tekis yuzada sifatli qilib bajarganidan keyin ularni AutoCAD, Revit, SketchUp, 3Ds Max kabi zamonaviy dasturlardan foydalanish orqali real vizual ko'rinishda taqdim etish imkoniga ega bo'ladilar.

Psixologik yondashuvlar:

Emotsional motivatsiya va ishtiyoqni kuchaytirish. Talabalar bilan ishlash jarayonida shuni aniqlash mumkinki, oldinga qo'yilgan vazifalarni bajarishga bo'lgan intilish, xoxish, pedagog tomonidan topshirilgan va amalga oshirilishi kerak bo'lgan mustaqil ishlarni bajarish darajasiga ko'ra talabalarni ikki xil guruhga ajratish mumkin. Birinchi guruhga kiruvchi talabalar – ular fan bo'yicha oldilariga qo'yilgan mustaqil ishlarni bajarishga intiluvchan, bilim va

malakalarni o'zida mujassam qilishga harakat qiluvchi, o'quv kompetensiyalariga ega bo'lgan, faol, izlanuvchan va ijodkor talabalardir. Bunday talabalar berilgan vazifalarni tushunishda, ma'lumotlarni eslab qolishda, mantiqiy fikrlash va materiallarni yozma bayon qila olish qobiliyatlarining rivojlanganligi bilan ajralib turadi. Ularda amaliy ishlash ko'nikmalari kerak bo'ladigan grafik loyihalar, eskizlar qilish, loyihalash kabi qobiliyatlari ham rivojlangan bo'ladi, ma'suliyatni his qila olishadi. O'zlariga tanqidiy munosabatda bo'la oladilar, o'rtoqlarining ishlariga hurmat bilan qaraydilar, kezi kelganda ijodiy ilhomlanish sifatlariga ega bo'ladilar. Ikkinchi guruhga kiruvchi talabalarda esa berilgan vazifalarni mustaqil bajarishga intilish, o'quv materiallarini doimiy ravishda o'zlashtirib borish hislatlari barqaror bo'lmaydi. Boshqacha aytganda, ularda universal tarzdagi o'quv kompetensiyalari va ko'nikmalarining rivojlanish darajasi past bo'lib, bu vazifalarni bajarishga va tashkil qilishga qiynalishadi, bu borada o'zi mustaqil ravishda harakat qila olmaydi. Bularning barchasi pedagoglar oldiga talabalar bilan individual ishlash, ularga ko'proq yordam va yol-yo'riqlar, motevarsiyalar berish kabi jiddiy vazifalarni qo'yadi. Shuning uchun ham bu boradagi ishlarni tashkil qilish, oldinga qo'yilgan vazifalarni amalga oshirish har tamonlama va kompleks yondoshuvlarni talab etadi.

Bular asosan quyidagilar:

- a) Mustaqil izlanish va ijodiy yondashuvni rag'batlantirish;
- b) Talabalarni mustaqil ravishda arxitekturaga oid adabiyotlar, tarixiy va zamonaviy namuna bilan tanishishga yo'naltirish;
- v) Ijodiy g'oyalarni erkin ifoda etishga imkoniyat berish;
- g) Malakali pedagoglar va amaliyotchi mutaxassislar ishtirokini ta'minlash;
- d) Arxitektor-pedagoglar bilan birgalikda amaliy mashg'ulotlar o'tkazish. Talabalarga to'g'ri tanqid va maslahat berish orqali foydali muloqot yaratish.

e) Ta'lim jarayonida individual yondashuvni ta'minlash. Har bir talaba imkoniyatlari va qobiliyatidan kelib chiqib, individual topshiriqlar tayyorlash;

j) Talabalarining shaxsiy rivojlanishini qo'llab-quvvatlash;

Har bir talaba individual qobiliyat va ta'lim stiliga ega. Pedagog ushbu xususiyatlarni inobatga olgan holda yondashishi lozim. Kimdir texnik jihatdan yaxshi, boshqasi estetik jihatdan yuqori salohiyatga ega bo'lishi mumkin.

z) Psixologik barqarorlik va ishonchni shakllantirish.

Pedagogikada har bir talabaga alohida, ularning o'ziga hos xarakterli xususiyatlari, muammolarni hal qilishdagi faolligi yoki sust harakat qilishi, (melonxolik-hissiy, ichki dubyosi boy, sangvinik-jonkuyar, faol, optimist, xolerik-

hissiyotli, shiddatli, yoki flegmatik-barqaror, tinch) kabi xususiyatlariga qarab yondoshish talab etiladi.

Individual yondashuvlar:

1. O‘zaro muloqot va tanqid madaniyatini shakllantirish.
2. Guruhiy muhokamalar, "peer review" ("tengdoshlar, kursdoshlar" bilan mustaqil tarzda chizilgan, bajarilgan grafik ishlarni muhokama qilish) usullari orqali talabalar bir-birining ishlariga tanqidiy, biroq konstruktiv fikr bildirishni o‘rganadilar.

Bir vaqtning o‘zida ham pedagogik, ham psixologik yondashuvni to‘g‘ri qo‘llash orqali quyidagi natijalarga erishish mumkin:

- a) Talabalarning ijodiy salohiyati ochiladi.
- b) Mustaqil ishlash qobiliyati shakllanadi.
- v) Ta’lim jarayoniga qiziqish ortadi.
- g) Mas’uliyat va o‘z-o‘zini baholash qobiliyati yuksaladi.

Mana shulardan kelib chiqib, quyidagi xulosalarni qilish mumkin. Arxitektura yo‘nalishida ta’lim oluvchi talabalarning mustaqil grafik ishlarini samarali tashkil etish uchun zamonaviy pedagogik va psixologik yondashuvlarni uyg‘unlashtirish juda muhim. Bu yondashuvlar talabalarning nafaqat bilim, balki ijodiy fikrlash, mustaqil qaror qabul qilish va mas’uliyat hissini shakllantiradi. Zamonaviy arxitektura ta’limi bugungi kunda ana shunday kompleks yondashuvlarga muhtojdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Sulaymonov A. Tasviriy san’at ta’limi sifati va samadorligini oshirishning didaktik imkoniyatlari. Monografiya. Qayta ishlangan, to‘ldirilgan va tuzatilgan 2- nashri – Toshkent: “Bayoz”, 2021.-192 b.
2. L.Zaripov, N. Xayitov, Z. Tohirov. Talabalar mustaqil ta’limini tashkil etish. Metodik qўllanma.– Toshkent: “Sano-Standart”, 2023.
3. K. G. Chiknaverova. Mustaqil ta’lim faoliyati ta’lim oluvchilar mustaqilligini rivojlantirish asosi sifatida: mahalliy tadqiqotlarning metodologik jihati. Maqola. Str.1. Ta’lim va fan. 2010. No 4 (72).
4. 3. A.Z. Guseynov. O‘quvchilarning mustaqil faoliyati mohiyati va unga zamonaviy yondashuvlar. Maqola. N.G.Chernishevskiy nomidagi Saratov milliy tadqiqot davlat universiteti. 2019.



MUALLIF HAQIDA MA'LUMOT [ИНФОРМАЦИЯ ОБ АВТОРЕ]

[AUTHORS INFO]

Berdiyev Nurmon Ochilovich

Toshkent Arxitektura qurilish

universiteti dotsenti, Toshkent shahri.

Manzil: Yangishahar ko'chasi 9A-uy,

Toshkent shahar, Yunusobod tumani.

berdiyevnurmon@gmail.com

SUD-PSIXOLOGIK EKSPERTIZANING RIVOJLANISH TARIXI VA BUGUNGI ISTIQBOLLARI



Elov Ziyodullo Sattorovich

Osiyo xalqaro universiteti professori, psixologiya fanlari doktori (DSc)

Annotatsiya.

KIRISH: Sud-psixologik ekspertiza bugungi kunda yuridik faoliyat amaliyotiga chuqur kirib bormoqda. Sud-psixologik ekspertizasining mohiyatini to'laroq anglash va amaliyotga keng tadbiq etish uchun esa uning shakllanish yo'lini, tarixini bilish talab etiladi.

Huquqbuzarlik jarayonidagi ishtirokchilarning (ayblanuvchi, jabrlanuvchi va guvohlik beruvchi) psixik xususiyatlarini tadqiq qilish va o'rganishga qiziqish qadim-qadimdan mavjud bo'lgan.

Maqolada sud-psixologik ekspertizasining rivojlanish davri haqida fikr yuritiladi.

MAQSAD: Mutaxassis-psixologlarda sud-psixologik ekaperizasining tarixiy jarayonlari haqida tushuncha shakllantirish.

MATERIALLAR VA METODLAR: Kishilik jamiyatining taraqqiy etib borishi, bir ijtimoiy tuzumning ikkinchi bir ijtimoiy tuzumga o'rnini bo'shatib berishi jamiyatda bir qator yangiliklarni, o'zgarishlarni keltirib chiqargan. Shu tariqa jamiyat rivoji barcha sohalar singari psixologiya ilmining ham rivojlanishiga turtki bo'ldi. Natijada huquqshunoslik amaliyotida psixologik sinovlarning ahamiyati yanada ortib, uni o'tkazish usullari takomillashib bordi. Bu o'z navbatida, tergov va sudlov jarayonlarining oshkoralik asosida, odilona olib borilishini ta'minladi.

XULOSA: Hozirgi davrda sud psixologik ekspertizasining rivojlanishi zamonaviy ilmiy yondashuvlar, fanlararo integratsiya va amaliy tajribaning kengayishi bilan davom etmoqda. Kelajakda bu sohaning yanada takomillashuvi sud-huquq tizimida adolatli va asosli qarorlar qabul qilishga xizmat qilishi, inson huquqlari va erkinliklarini yanada samarali himoya qilish imkonini berishi shubhasizdir.

Kalit so'zlar: ekspertiza, sud jarayoni, psixologik tahlil, shaxs, psixologiya, xulq-atvor, ruhiy holat, psixik jarayon, emotsiya, affect, stress,

ИСТОРИЯ РАЗВИТИЯ СУДЕБНО-ПСИХОЛОГИЧЕСКОЙ ЭКСПЕРТИЗЫ И СОВРЕМЕННЫЕ ПЕРСПЕКТИВЫ

Элов Зи`дулло Сатторович

*Профессор, Азиатский международный университет,
доктор психологических наук (DSc)*

Аннотация.

ВВЕДЕНИЕ: Судебно-психологическая экспертиза глубоко проникает в практику юридической деятельности сегодня. Для полного понимания сущности судебно-психологической экспертизы и ее широкого применения на практике необходимо знать путь ее формирования и историю.

Интерес к исследованию и изучению психологических характеристик участников уголовного процесса (обвиняемого, потерпевшего и свидетеля) существовал с древних времен.

В статье рассматривается период развития судебно-психологической экспертизы.

ЦЕЛЬ: Сформировать понимание исторических процессов судебно-психологической экспертизы среди психологов.

МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ: Развитие человеческого общества, смена одной социальной системы другой, привели к ряду нововведений и изменений в обществе. Так, развитие общества, как и всех других областей, дало толчок развитию психологии. В результате возросло значение психологического тестирования в юридической практике, а методы его проведения усовершенствовались. Это, в свою очередь, обеспечило прозрачность и справедливость следственных и судебных процессов.

ВЫВОД: Настоящее время развитие судебно-психологической экспертизы продолжается с расширением современных научных подходов, междисциплинарной интеграцией и практическим опытом. Несомненно, дальнейшее совершенствование этой области в будущем будет способствовать принятию справедливых и обоснованных решений в судебной системе и позволит более эффективно защищать права и свободы человека.

Ключевые слова: экспертиза, судебное разбирательство, психологический анализ, личность, психология, поведение, психическое состояние, психический процесс, эмоции, аффект, стресс

HISTORY OF THE DEVELOPMENT OF FORENSIC PSYCHOLOGICAL EXPERTISE AND CURRENT PROSPECTS

Elov Ziyodullo Sattorovich

Professor, Asian International University, Doctor of Psychology (DSc)

Annatation.

INTRODUCTION: Forensic psychological examination is deeply penetrating into the practice of legal activity today. In order to fully understand the essence of forensic psychological examination and its wide application in practice, it is necessary to know the path of its formation and history.

Interest in researching and studying the psychological characteristics of participants in the criminal process (accused, victim and witness) has existed since ancient times.

The article considers the period of development of forensic psychological examination.

THE GOAL: To form an understanding of the historical processes of forensic psychological examination among psychologists.

MATERIALS AND METHODS: The development of human society, the replacement of one social system by another, has brought about a number of innovations and changes in society. Thus, the development of society, like all other areas, has given impetus to the development of psychology. As a result, the importance of psychological testing in legal practice has increased, and the methods of its conduct have improved. This, in turn, has ensured the transparency and fairness of investigative and judicial processes.

CONCLUSION: At present, the development of forensic psychological examination continues with the expansion of modern scientific approaches, interdisciplinary integration and practical experience. It is undeniable that further improvement of this field in the future will serve to make fair and reasonable decisions in the judicial system and will allow for more effective protection of human rights and freedoms.

Keywords: expertise, trial, psychological analysis, personality, psychology, behavior, mental state, psychic process, emotion, affect, stress,

Sud psixologik ekspertizasi — sud-huquq amaliyotida shaxsning ruhiy holati, psixologik xususiyatlari va xulq-atvorini ilmiy asosda tahlil qilishga qaratilgan muhim sohalaridan biridir. U sud jarayonida haqiqatni aniqlash, adolatli qaror qabul qilish hamda shaxs huquq va erkinliklarini himoya qilishda muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur ekspertiza turi huquqshunoslik va psixologiya fanlarining uzviy integratsiyasi natijasida shakllangan bo'lib, inson omilini chuqurroq anglash imkonini beradi.

Sud psixologik ekspertizasining shakllanishi va rivojlanishi jamiyatda huquqiy ongning yuksalishi, ilm-fan taraqqiyoti hamda inson psixikasini o'rganishga bo'lgan ehtiyojning ortishi bilan chambarchas bog'liqdir. Dastlab sud amaliyotida shaxsning ruhiy holatiga faqat umumiy baho berilgan bo'lsa, vaqt o'tishi bilan psixologiya fanining mustaqil ilmiy yo'nalish sifatida rivojlanishi sud psixologik ekspertizasining nazariy va amaliy asoslarini mustahkamladi.

Bugungi kunda sud psixologik ekspertizasi jinoyat, fuqarolik va ma'muriy ishlarni ko'rib chiqishda keng qo'llanilib, guvohlar, jabrlanuvchilar, ayblanuvchilar hamda voyaga yetmagan shaxslarning psixologik holatini baholashda muhim vosita sifatida xizmat qilmoqda. Shu bois ushbu sohaning tarixiy rivojlanish bosqichlarini o'rganish uning hozirgi holati va kelajakdagi istiqbollari tushunishda muhim ahamiyatga ega.

Huquqshunoslik amaliyoti tarixidan ma'lum bo'lishicha, ilk marta **1810-yilda Napoleon Bonapart** "Jinoyat kodeksi"ga o'z xatti-harakatlarini boshqara olish yoki boshqara olmaslik layoqatini aniqlash tushunchasini kiritdi.

XIX asrning ikkinchi yarmiga kelib, bir qator mamlakatlarning jinoyat protsessual kodekslariga ayblanuvchining o'z xatti-xarakatlariga javob bera olish yoki javob bera olmasligini aniqlashga doir tibbiy tushunchalar ham kiritila boshlandi.

Rossiyada 1864-yilda jinoyat ishlari bo'yicha sudlov nizomiga psixiatrik ekspertiza o'tkazish zarurligi to'g'risidagi kodeks qo'shilgan edi. Ushbu psixiatrik ekspertiza tarkibida psixologik ekspertiza o'tkazish ham ko'zda tutilgan. Shu vaqtdan e'tiboran Rossiyada psixologik ekspertiza o'tkazila boshlandi.

Asrimizning o'rtalariga kelib, eksperimental psixologiya sohasi bo'yicha erishilgan yutuqlardan sud amaliyotida ham foydalanila boshlandi. Ushbu yo'nalish bo'yicha laboratoriyalar tashkil etilib, ularda jinoyatchi shaxs xulqi o'zgarishlari, fiziologik affekt holati va shu kabilar o'rganila boshlandi.

1922-yilda Rossiya Federatsiyasida birinchi marta jinoyat protsessual kodeksi qabul qilindi. Asrimizning boshlarida sobiq Ittifoqning bir qator shaharlarida jinoyatchi shaxsini o'rganish bo'yicha markazlar ochilib, ularda sud psixologik ishlar olib borila boshladi.

O'tgan asrning 70-yillaridan boshlab, psixologik ekspertiza xizmati yana rivojlana boshladi. Psixologik ekspertiza sohasining rivojlanib borishi natijasida asta-sekin uning vazifasi, tergov va sud jarayoniga aralashuv chegarasi aniqlashib bordi. Bugunga kelib psixologik ekspertizaning vazifasi, o'rganuvchi sohasi xususidagi anglashilmovchilik, tushunchovchiliklar barham topdi.

Sud-psixologik ekspertiza mustaqil ekspert tadqiqotining shakli sifatida murakkab yo'lni bosib o'tgan: amaliy psixologiya ma'lumotlarini yuridik bog'liq ehtiyojlarga moslashtirish urinishlaridan boshlab, sud-psixologik ekspertizaning o'z nazariyasini yaratishgacha. Bu jarayon umumiy va amaliy psixologiya rivojlanishi bilan chambarchas bog'liq va shu kun qadar davom etmoqda.

Sud-psixologik ekspertizaning, alohida ajralgan fan sifatidagi, paydo bo'lish jarayonida quyidagi bosqichlarni ajratish mumkin:

XIX asrning birinchi yarimida shveysariyalik yozuvchi **I.Lafaterning** fiziognomika risolasi mashhur bo'lib ketdi. Unda muallif "Tashqi ko'rinishga qarab ichki holatini aniqlash"ga intilishini aks etgan (insonning psixik holatini va psixik tipini yuz tuzilishining anatomik xususiyatlariga qarab).

O'sha paytda avstriyalik vrach va anatom F.Gal frenologiyaga asos solgan. U inson miyasining o'ziga xos xaritasini ishlab chiqqan, bu xaritada insonning har bir qobiliyati uchun ma'lum bir qism javob bergan. F.Gal fikricha, bosh miyaning alohida qismlarining rivojlanishi bosh suyagining shakliga ta'sir qilsa, bosh suyagining ustgi qismining o'rganilishi shaxs xususiyatlarini tashxis qilishga imkon beradi.

Yurisprudensiya va psixologiyani bog'lab turgan, boshqa qismlarni topishga qaratilgan boshqa urinishlar ham bo'lgan. Ushbu urinishlarning o'ziga xos natijasi, italiyalik psixiatr va kriminalist **Ch.Lombrozo** (1835-1909) tomonidan yaratilgan, mashhur bo'lgan "jinoyatchi inson" nazariyasi. Garchi bunga o'xshash ta'limotlarning ilmiyligi ispotlanmagan bo'lsa ham, bularning hammasi psixologiya rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatgan.

XIX asrning ikkinchi yarimida psixologiya bilimning ilmiy soxasiga aylanib qoladi, bunga falsafa va fiziologiya sohalaridagi mutanosib yo'nalishlar ko'maklashadi.

Nemis olimi G.Gelmgols asarlari sezgi organlari zamonaviy fiziologiyasining asosini tashkil etadi. Muallif o'z asarida ilk bor bilish jarayonining sensor (his-tuyg'u) va intellektual komponentlari o'rtasidagi uzoqlashishni kesib o'tishga harakat qilgan. Uning psixofiziologiyasining g'oyalari bir qator xususan psixofiziologik kategoriyalarni ishlab chiqishga, psixologiyani fan sifatida shakllanishiga ko'maklashgan.

Ushbu bosqichda sud-psixologik ekspertiza psixiatrik tadqiqotning bir qismi sifatida, sud-psixiatrik ekspertizaning muhim qurollari sifatida, (bu esa psixologiya va psixiatriya fanining qisman o'xshashligi, va psixologiya fani rivojlanishining ushbu bosqichida etarli darajada mustaqil emasligini inobatga olgan holda), yoki maxsus pedagogik tadqiqot sifatida o'rganilgan.

Psixologiya, bilimning mustaqil sohasiga aylanayotgan bir paytda, amaliy fan sifatida rivojlanib kelgan. O'sha davrda sud psixologiyasi haqida ilk bor fikr yuritganlar. Sud psixologiyasining shakllanishiga D.Drilning "Psixofizik tiplar jinoyatchilik va uning turlari bilan solishtirganda (xususan jinoyatchilik psixologiyasi)", "Jinoyatchilik va jinoyatchilar" (jinoiy psixologik etyudlar) asarlari ulkan hissa qo'shgan.

XIX asrning oxiri XX asrning boshiga kelib psixologiya ilm-fanda mustaqil sohaga ajralib qoladi. Bir tomondan bunga psixologiyaga – tajriba kiritilgani bilan erishiladi, ikkinchi tomondan ushbu hol tadrijiy psixologiya rivojlanishiga turtki bo'lib xizmat qildi. Bu esa o'z navbatida yuridik amaliyotda (shu bilan birga sud amaliyotida ham) psixologik tadqiqotlarning yutuqlarini qo'llash yo'lida kuchli yangi turtki vazifasini bajardi. Aynan shu paytda g'arbiy evropa davlatlaridagi olimlar K.Marbe, V.Shtern, J.Varendonk, A.Bine tomonidan sud-psixologiya ekspertizasi yo'nalishida ilk tajribalar o'tkazilgan.

XIX asrning oxiri - XX asrning boshida sud-psixologik ekspertizaning xulosalari isbot-dalillarning mustaqil manbai sifatida qo'llaniladi. Uning nazariy asoslari yirik olimlar tomonidan ishlab chiqilgan: Germaniyada - V.Shtern, G.Gross, Italiyada - E. Ferri va R. Garrofalo, Rossiyada – L. E. Vladimirov, A.U.Freze, V.M. Bexterev va b. Bu paytda sud-psixologik ekspertizaning muammolariga bag'ishlangan bir qator asarlar paydo bo'ladi. Bular - K.Marbening "Psixolog jinoiy va fuqarolik ishlarda ekspert sifatida", R. Kuve "Psixotexnika temir yo'llar xizmatida", V.Shtern "Jinsiy jinoyat ishlari yuzasidan yosh guvohlar ko'rsatmalari" va "Aqliy qobiliyatlarni sinashning psixologik usullari", G.Gross "Kriminal psixologiyasi" asarlari chop etildi.

Rossiyada sud-psixologiya ekspertizasining shakllanish tarixi haqida 1885-yilda Rossiyada empirik psixologiya o'z maqomiga ega bo'ladi.

1902-yilda V.Bexterev tomonidan sud-psixologik amaliy tadqiqotlarga bag'ishlangan birinchi asar yaratildi.

1907-yilda Rossiyada V.Bexterev va D.Dril Psixonevrologik institutga asos soladilar. U erda ilk bor sud-psixologik ekspertiza fanidan ma'ruzalar o'qilgan. Rossiyalik tadqiqotchilar sud-psixologik ekspertizaning chet el tajribasini katta qiziqish bilan o'rganadilar.

Sud-psixologik ekspertizaning eng chuqur taxlil qilish bo'yicha ilk tajribalar Y.G.Brusilovskiy "Sud-psixologik ekspertiza. Fan sifatida, usuliyoti va chegaralari." asarida qilingan, ushbu asar 1929-yilda Xarkov shahrida nashr etilgan.

Bu davrda Rossiyada amaliy psixologiyaga va xususan psixologik ekspertizaga katta qiziqish kuzatiladi. Gumon qilingan, ayblanuvchi va guvoh shaxslar psixikasining o'rganib chiqishga va tahlil qilishga alohida e'tibor qaratilgan. Olimlar shunday metodika ishlab chiqishga harakat qilganlarki, ular ekspert tadqiqoti natijasida paydo bo'lgan psixologik ma'lumotni yuridik ahamiyatga ega tushunchalar bilan solishtirishga imkoniyat yaratsin (masalan, ma'lum psixologik holat yoki psixologik jarayonlar sifati, ayblanuvchi yoki gumon qilingan shaxsning aqli raso ekanligi yoki emasligi bilan solishtirganda). Bu holatda olimlar tomonidan haqiqatdan ham bir qator qiziqarli psixologik xodisalar aniqlangan edi. Agar sud-psixologik ekspertizaning eng keng tarqatilgan turi haqida fikr yuritilsa, bu ko'rsatmalarni haqiqiylikni tekshirishdir (alohida e'tibor guvohlar ko'rsatmalariga qaratilgan, shu bilan birga jinoiy jarayonning voyaga etmagan qatnashchilarining ko'rsatmalariga ham). Bir vaqtdayoq sud psixologiyasi muammolarini tadqiq etish ham rivojlanib ketdi (jarayondagi turli ishtirokchilarining psixologiya xususiyatlari, xususan sud jarayonidagi psixologik vaziyatning o'ziga xos xususiyatlari). Rossiyada XX asrning boshida bu ish bilan L.E.Vladimirov, L.D.Kiselyov, O.B.Goldovskiy, V.K. Sluchevskiy, A.P. Boktunov va boshqalar shug'ullanganlar.

Sud-psixologik ekspertiza bo'yicha ilmiy amaliy asarlar paydo bo'ldi: M.M.Grodzinskiy "Guvohlar ko'rsatmalaridagi bir xil xatolar", Ya.A.Kantarovich "Guvohlik ko'rsatmalarining psixologiyasi", A.R.Luriya "Jinoyat izlarini aniqlashda psixologiya", G.I.Volkova "Jinoiy huquq va refleksologiya", V.A.Vnukova va A.E. Brusilovskiy "Voyaga etmagan va yoshi kichik guvohlik ko'rsatmalarining psixologiyasi va psixopatalogiyasi" va b. Bu asarlarda shaxs va ayblanuvchi psixologiyasi, guvohlik ko'rsatmalari bo'yicha sud-psixologik ekspertizani o'tkazish texnikasi va uslubini asoslab bergan.

Guvohlik ko'rsatmalarining psixologik tadqiqotlari alohida amaliy qiziqishga ega (bu turdagi dalillar Rossiyada 1864 yilda o'tkazilgan sud islohotlaridan keyin rivojlanib ketdi). Ushbu institut bilan sud-psixologik ekspertizaning rivojlanish istiqbollari ham bog'lagan edilar.

1925-yilda Rossiyada butun jahonda birinchi bo'lib Jinoyatchilik va jinoyatchini o'rganish bo'yicha Davlat institutiga asos solingan edi. Ushbu institut tomonidan birinchi 5 yil faoliyati davomida yuridik psixologiya va psixologik ekspertiza bo'yicha ko'pgina ilmiy ishlar nashr etilgan. Jinoyatchilikni va jinoyatchi shaxsini o'rganish bo'yicha Moskva, Sankt-Petrburg, Saratov, Kiev, Xarkov, Minsk, Baku va boshqa shaharlarda maxsus kabinetlar tashkil etilgan edi.

O'sha paytda guvohlik ko'rsatmalarni tadqiq etish sohasida psixologik ekspertiza o'tkazish va boshqa muammolar bo'yicha tadqiqot ishlari olib borilgan. Psixolog A.R. Luriya tomonidan 1927-yilda Moskva guberniya prokuraturasi qoshida tashkil qilingan amaliy psixologiya laboratoriyasida jadal tadqiqot ishlari olib borilgan. U erda psixologik ekspertiza imkoniyatlarini kengaytirish va jinoyatlarni ochish uchun amaliy psixologiya usullarini qo'llash imkoniyatlari o'rganib chiqilgan.

Ba'zi bir tadqiqotchilar sud-psixologik ekspertizaning maqsadi ehtiyotsizlik, qasddan yoki baxtsiz hodisani, shu bilan birga ijtimoiy xavfli shaxs xarakterlarining sabablarini va

ijtimoiy-psixologik tarkibini aniqlashda deb bilganlar. Bu erda psixologik tadqiqot bilan shaxs xususiyatlari va ish holatini aniqlash bo'yicha yurist faoliyatini almashishi shubhasiz.

1928-1929-yillarda jinoyatchilik sabablari va jinoyatchi shaxsini tadqiq etishda amaliyot xatolarining keng muhokamasi o'tkazildi. Ushbu xatolarning keskin tanqidi ularni bartaraf etishga olib keldi, bir vaqtdayoq yuridik psixologiyani ba'zi bir mavzulari bo'yicha tadqiqotlar to'xtatildi. Sud-psixologik ekspertizaning keyinchalik muvaffaqiyatli rivojlanishining imkoniyati bo'lmay qoldi. XX-asrning 20-yillarning oxiridan boshlab ko'pgina sud-psixologik ekspertiza laboratoriyalar va byurolarining faoliyati ham to'xtatildi, ko'pgina taniqli yuristlar ekspertizani "Non grata" personasi deb e'lon qildilar. Ular ekspertizani sud amaliyotida qo'llanilishini noilmiy, sub'ektiv yondashuv deb hisoblagan edilar (bunday fikrlar R.D.Raxunov, M.S.Strogovich, P.F. Pashkevich asarlarida kuzatiladi).

Sud-psixologik ekspertiza rivojlanishining keyingi bosqichi XX-asrning 60-yillariga to'g'ri keladi. 1965-1966 yillarda Moskva, Leningrad, Minsk va boshqa bir qator shaharlarning yuridik oliygohlarida yuridik va sud psixologiyasi bo'yicha maxsus kurslar o'qitilishi boshlandi. Psixologik ekspertiza o'sha payt o'zining qayta tug'ilishini kechayotgan edi. Bu jarayon sifat jihatidan boshqa darajada, umumiy psixologiya rivojlanishi, to'plangan nazariy va amaliy tajriba bilan boyitilgan holda kechayotgan edi. Yuristlar ichida birinchi bo'lib, 1959 yilda G.M.Minkovskiy voyaga etmaganlar jinoyatlari xavfidagi ishlar bilan bog'lagan holda, sud-psixologik ekspertizani qo'llash zaruriyatini tan oldi. Ushbu ekspertiza turini egallash jinoiy jarayonda o'sib bormoqda; ekspert-psixolog xulosasi to'la huquqli dalil vositasiga aylanmoqda. Sud-psixologik ekspertiza nazariyasining asoslari shakllantirildi, uning tushunchalari tuzilmasi yaratildi, aniq psixologik uslubiyotlar, ekspertizaning xususiy predmetlarining ishlab chiqilishiga alohida e'tibor qaratildi.

Sud-psixologik ekspertiza rasmiy e'tirofga ega bo'ldi. 1968-yilda Sobiq sovet ittifoqining Oliy Sudi sud jarayoniga psixologiya sohasidagi mutaxassislarni ekspert sifatida voyaga etmaganlarning aqliy qoloqligini aniqlash, o'z harakatlarini boshqara olmaslik va ularning ahamiyatini anglamaslik qobiliyatlarini aniqlash uchun ishtirok etishi maqsadga muvofiqligini tasdiqlab berdi.

O'zbekiston sharoitida ushbu masala yuzasida ishlar hali juda yangi va hu bilan birga yetarli emasligi natijasida, XXI asrning birinchi choragida o'zbek tadqiqotchilarining ishlarida endi bu kabi masalalar ko'tarila boshlandi. Xususan tadqiqotchi **L.Y.Olimov** O'zbekiston sharoitida ilk bor sud-psixolog ekspertining kasbiy kompetentsiyasini tahlil qildi. Shuningdek tadqiqotchi mazkur yo'nalsidagi ilmiy ishlarini davom ettirib, jinoyat ishlarida sud psixolog ekspertining kompetentsiyasini ham o'rgandi.

Xulosa qilib aytganda, sud psixologik ekspertizasi huquqiy tizimda muhim o'rin egallagan, psixologiya va huquq fanlarining o'zaro uyg'unlashuvi natijasida shakllangan murakkab va zarur ilmiy-amaliy soha hisoblanadi. Uning tarixiy rivojlanish jarayoni inson psixikasini chuqurroq anglashga bo'lgan ehtiyoj, jamiyatda adolat va qonun ustuvorligini ta'minlashga intilish bilan uzviy bog'liqdir.

Vaqt o'tishi bilan sud psixologik ekspertizasi nazariy jihatdan boyib, ilmiy metodlar, diagnostik vositalar va baholash mezonlari bilan takomillashib bordi. Natijada u sud jarayonlarida shaxsning xulq-atvori, ruhiy holati, qaror qabul qilish qobiliyati va ijtimoiy moslashuv darajasini aniqlashda ishonchli manbaga aylandi. Ayniqsa, voyaga yetmaganlar ishtirokidagi ishlar, guvohliklarning ishonchligini baholash hamda shaxsning psixologik holati bilan bog'liq murakkab vaziyatlarda ushbu ekspertiza turi alohida ahamiyat kasb etmoqda.

Hozirgi davrda sud psixologik ekspertizasining rivojlanishi zamonaviy ilmiy yondashuvlar, fanlararo integratsiya va amaliy tajribaning kengayishi bilan davom etmoqda. Kelajakda bu sohaning yanada takomillashuvi sud-huquq tizimida adolatli va asosli qarorlar



qabul qilishga xizmat qilishi, inson huquqlari va erkinliklarini yanada samarali himoya qilish imkonini berishi shubhasizdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati

1. Z.S.Elov. Sud-psixologik ekspertizasi tarixi va rivojlanish bosqichlari (ilmiy manbalar tahlili asosida). 2024 Journal of Pedagogical and Psychological Studies 2 (1), 3-8
2. Z.S.Elov. Sudga oid psixologik ekspertizasining rivojlanish jarayoni va tarixi. 2024 OSIYO XALQARO UNIVERSITETI AXBOROTNOMASI 1, 112-119
3. Z.Elov., A.Sulaymonov. Sud-psixolog ekspert faoliyatining ijtimoiy-psixologik xususiyatlari. 2024 Modern Science and Research. 2024/7/4
4. Z.S.Elov. Sud-psixologik ekspertizalar o'tkazishning huquqiy va tashkiliy asoslari. 2024. TECHNICAL SCIENCE Vol -2 Issue 1
5. Z.S.Elov. Sud va tergov jarayonida psixolog kompetentligining o'ziga xosligi. 2025 "O'ZBEKISTONDA UCHINCHI RENESSANS: INSON, FAN VA IQTISODIYOTNING YANGI UFQLARI" mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy online konferensiyasi
6. N.Tojiyeva., Z.Elov. Voyaga yetmaganlarga sudga oid psixologik ekspertizasini o'tkazilishining psixologik xususiyatlari. 2024 ПЕДАГОГИК ВА ПСИХОЛОГИК ТАДҚИҚОТЛАР 1 (№1), 9-14
7. Z.S.Elov., A.Sulaymonov. Sud-psixolog ekspert faoliyatining ijtimoiy-psixologik xususiyatlari. Journal of new century innovations/ 2025/5/20
8. Sh.To'rayev., Z.S.Elov. Sudga oid psixologik ekspertizasining rivojlanish jarayoni va tarixi. 2025. Academic research in educational sciences 265-269

MUALLIF HAQIDA MA'LUMOT [ИНФОРМАЦИЯ ОБ АВТОРЕ] [AUTHORS INFO]

Elov Ziyodullo Sattorovich

Osiyo xalqaro universiteti professori, psixologiya fanlari doktori (DSc)

Manzil: O'zbekiston, Buxoro shahri

elovziyo2021@gmail.com

DEVIANT XULQ-ATVORLI O'SMIRLAR EMOTSIONAL INTELLEKTINI TAKOMILLASHTIRISH.



Narziyeva Shaxnoza Rustamjon qizi

Osiyo xalqaro universiteti o'qituvchisi,

Psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Annotatsiya.

KIRISH: Ushbu maqolada emotsional intellekt, atamaning ilk bor fanda qo'llanilish tarixi, emotsional intellekt haqida o'z fikrlarini qoldirgan xorij olimlari, deviant xulq-atvorli o'smirlarda emotsional intellektni shakllantirish va takomillashtirishning ijtimoiy-psixologik xususiyatlari haqida so'z boradi.

MAQSAD: Ushbu maqolaning asosiy maqsadi — deviant xulq-atvor namoyon etuvchi o'smirlarning emotsional intellekt darajasini aniqlash, uning shaxs rivojlanishi va ijtimoiy moslashuviga ta'sirini tahlil qilish hamda emotsional intellektni takomillashtirishga qaratilgan psixologik-pedagogik choralar va trening dasturlarining samaradorligini ilmiy asosda o'rganishdan iborat.

MATERIALLAR VA METODLAR: Ushbu tadqiqot deviant xulq-atvor namoyon etuvchi o'smirlarning emotsional intellektini o'rganish va uni takomillashtirishga qaratilgan bo'lib, tadqiqot umumta'lim maktablari va ijtimoiy-pedagogik muassasalarda ta'lim olayotgan o'smirlar ishtirokida olib borildi.

XULOSA: O'tkazilgan tadqiqot natijalari deviant xulq-atvor namoyon etuvchi o'smirlarning emotsional intellekti shaxs rivojlanishi va ijtimoiy moslashuvida muhim omillardan biri ekanligini tasdiqladi. Tadqiqot jarayonida mazkur toifadagi o'smirlarda emotsionalni anglash va boshqarish, empatiya hamda ijtimoiy ko'nikmalar darajasi nisbatan past ekanini aniqlandi, bu esa salbiy xulq-atvor namoyonlarining kuchayishiga sabab bo'layotgan omillardan biri sifatida baholandi.

Tadqiqot metodlari sifatida quyidagi usullardan foydalanildi:

1. **Nazariy metodlar:** psixologik, pedagogik va ijtimoiy adabiyotlarni tahlil qilish; mavjud konsepsiya va nazariy yondashuvlarni umumlashtirish va tizimlashtirish.

2. **Empirik metodlar:** psixologik testlash; anketa va so'rovnomalar; individual va guruhviy suhbat; pedagogik va psixologik kuzatuv.

3. **Eksperimental metodlar:** aniqlovchi eksperiment (boshlang'ich emotsional intellekt darajasini aniqlash); shakllantiruvchi eksperiment (emotsional intellektni rivojlantirishga qaratilgan trening dasturini joriy etish); nazorat bosqichi (dastur samaradorligini qayta diagnostika orqali baholash).

4. **Matematik-statistik metodlar:** olingan natijalarni miqdoriy va sifat jihatdan tahlil qilish; o'rtacha ko'rsatkichlar, foizlar va solishtirma tahlil yordamida natijalarni umumlashtirish.

Kalit so'zlar: agressivlik, yashirinlik, deviasiya, jinoyatchilik, ijtimoiy sabablar, anomiya, stigmatizatsiya.

СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ ЭМОЦИОНАЛЬНОГО ИНТЕЛЛЕКТА У ПОДРОСТКОВ С ДЕВИАНТНЫМ ПОВЕДЕНИЕМ

Нарзиева Шахноза Рустамжоновна

*Преподаватель Азиатского международного университета,
доктор философии (PhD) в области психологии.*

Аннотация:

ВВЕДЕНИЕ. В данной статье рассматриваются эмоциональный интеллект, история первого использования данного термина в науке, взгляды зарубежных ученых на проблему эмоционального интеллекта, а также социально-психологические особенности формирования и совершенствования эмоционального интеллекта у подростков с девиантным поведением.

ЦЕЛЬ: Основной целью данной статьи является определение уровня эмоционального интеллекта у подростков, проявляющих девиантное поведение, анализ его влияния на развитие личности и социальную адаптацию, а также научное изучение эффективности психолого-педагогических мер и тренинговых программ, направленных на совершенствование эмоционального интеллекта.

МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ. Настоящее исследование направлено на изучение эмоционального интеллекта подростков с девиантным поведением и его совершенствование. Исследование проводилось с участием подростков, обучающихся в общеобразовательных школах и социально-педагогических учреждениях.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ. Результаты проведенного исследования подтвердили, что эмоциональный интеллект подростков с девиантным поведением является одним из важнейших факторов развития личности и социальной адаптации. В ходе исследования было установлено, что у данной категории подростков относительно низкий уровень осознания и управления эмоциями, эмпатии и социальных навыков, что было оценено как один из факторов, способствующих усилению проявлений негативного поведения. В качестве методов исследования были использованы следующие подходы:

1. **Теоретические методы:** анализ психологической, педагогической и социальной литературы; обобщение и систематизация существующих концепций и теоретических подходов.

2. **Эмпирические методы:** психологическое тестирование; анкетирование и опрос; индивидуальные и групповые беседы; педагогическое и психологическое наблюдение.

3. **Экспериментальные методы:** констатирующий эксперимент (определение исходного уровня эмоционального интеллекта); формирующий эксперимент (внедрение тренинговой программы, направленной на развитие эмоционального интеллекта); контрольный этап (оценка эффективности программы посредством повторной диагностики).

4. **Математико-статистические методы:** количественный и качественный анализ полученных результатов; обобщение данных с использованием средних показателей, процентов и сравнительного анализа.

Ключевые слова: агрессивность, скрытность, девиация, преступность, социальные причины, anomia, стигматизация.

IMPROVING EMOTIONAL INTELLIGENCE IN ADOLESCENTS WITH DEVIANT BEHAVIOR

Narziyeva Shakhnoza Rustamjon qizi

Lecturer at Asia International University, Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology

Annatation.

INTRODUCTION. This article examines emotional intelligence, the history of the first use of this term in science, the views of foreign scholars on emotional intelligence, as well as the socio-psychological characteristics of the formation and improvement of emotional intelligence in adolescents with deviant behavior.

THE GOAL: The main aim of this article is to determine the level of emotional intelligence in adolescents who demonstrate deviant behavior, to analyze its influence on personality development and social adaptation, and to scientifically study the effectiveness of psychological and pedagogical measures and training programs aimed at improving emotional intelligence.

MATERIALS AND METHODS. This study is aimed at investigating and improving the emotional intelligence of adolescents with deviant behavior. The research was conducted with the participation of adolescents studying in general secondary schools and social-pedagogical institutions.

CONCLUSION. The results of the study confirmed that the emotional intelligence of adolescents with deviant behavior is one of the most important factors in personality development and social adaptation. During the research, it was found that this group of adolescents has a relatively low level of emotional awareness and emotion regulation, empathy, and social skills, which was assessed as one of the factors contributing to the intensification of negative behavioral manifestations.

The following research methods were used:

1. **Theoretical methods:** analysis of psychological, pedagogical, and social literature; generalization and systematization of existing concepts and theoretical approaches.
2. **Empirical methods:** psychological testing; questionnaires and surveys; individual and group interviews; pedagogical and psychological observation.
3. **Experimental methods:** ascertaining experiment (determining the initial level of emotional intelligence); formative experiment (implementation of a training program aimed at developing emotional intelligence); control stage (evaluation of the effectiveness of the program through repeated diagnostics).
4. **Mathematical and statistical methods:** quantitative and qualitative analysis of the obtained results; generalization of results using mean values, percentages, and comparative analysis.

Keywords: aggressiveness, secrecy, deviation, delinquency, social causes, anomie, stigmatization.

Hozirda o'smirlar deviant xatti-harakatlarning rivojlanishi bilan noqonuniy xatti-harakatlar bilan shug'ullanish istagi ortib bormoqda. Aynan shunday holatlar tufayli barcha ta'lim muassasalarida profilaktika ishlari yo'lga qo'yilishi yuqorida ta'kidlangan ko'ngilsiz holatlarni oldini olishda samarali yechim bo'la olardi. Deviant xulq-atvor muammosi zamonaviy dunyoda ayniqsa dolzarbdir. Iqtisodiy tengsizlik, ommaviy globallashuv, axborotdan erkin foydalanish, va uning jadal rivojlanishi, shuningdek, ijtimoiy hodisalar ko'pincha o'smirlar muhitida salbiy reaksiyalarga yoki imitatsiyalarga olib keladi.

Avvalo shuni aytish kerakki, hozirgi zamonamiz yigit-qizlarining o'smirlik davri asosan oila, mahalla, maktab, turli ta'lim muassasalari, sport to'garaklaridan tashqari ko'proq ijtimoiy tarmoqlarda va ko'ngilochar jamoalarda o'tmoqda. Bu mas'uliyat zanjirining halqalaridan biri zaif bo'lsa, o'smirlar ham xuddi shunday e'tibor, hurmat, g'amxo'rlik va mehr yetmasa u kerakli e'tiborni ko'chadan izlay boshlaydi. Va yana agar u qo'lga kiritilgan nazoratni his qilmasa, u boshqa narsalar haqida o'ylay boshlaydi. U o'zining dunyoqarashi, intilishlari, o'zini idrok etishi jihatidan kattalarga taqlid qilishga harakat qiladi, ichishni, chekishni, boshqalardan kuchliroq bo'lishni xohlaydi.

Yoshlarda xulq og'ishi va tarbiya buzilishini oldini olish vositalaridan asosiy o'rinlarda turuvchi oilaviy tarbiya muhitiga e'tibor berish bilan birga yoshlardagi mavkuraviy immunitetni ocherish hamda psixolog mutahassislar qarashlari bilan aytganda ulardagi emotsional intellektni oshirish muhim rol o'ynaydi.

Avval mavzu tushunarli bo'lishi uchun emotsional intellekt tushunchasiga izoh berib o'tamiz: emotsional intellekt tushunchasini 1990-yilda tadqiqotchilar Dj.Meyer va P.Soloveylar ilk bor fanga kiritdilar. Ularning izdoshlari sifatida D. Goulman tan olinadi. Chunki, D.Goulman o'z davrida matbuot va turli ilmiy kongresslarda "emotsional intellekt" tushunchasi bilan bog'liq ko'plab chiqishlari bilan ko'zga tashlangan olim.

P.Solovey "Emotsional intellekt" borasidagi izlanishlarida o'ziga xos tahlilni amalga oshirgan bo'lib, uning qarashlarida intellekt qandaydir ideal hodisani idrok qilmaydi balki, emotsiya bu vazifani bajaradi. Ya'ni emotsional intellekt - emotsiyalarda ifodalanuvchi shaxsning qabul qilish va tushunish qobiliyati shuningdek, aqliy jarayonlarga asoslangan hissiyotini boshqarish jarayoni sifatida baho beradi.

P.Solovey fikricha, "emotsional intellekt" to'rt qismni tashkil etadi.

- 1.O'z hislarini va o'zgalarning emotsiyalarini his qilish yoki qabul qilish qobiliyati;
- 2.Aqlga yordamlashuvchi o'z emotsiyalarini yo'naltirish qobiliyati;
- 3.U yoki bu emotsiya ifodalanishlarini tushunish qobiliyati;
- 4.Emotsiyalarni boshqarish, nazorat qilish hamda tartiblash qobiliyati.

Tadqiqotchi I. N. Andreeva "emotsional intellekt" tahliliga o'ziga xos yondashib, uni boshqalar va o'z hislarini tushunish jarayonidagi emotsiya va intellektning tutashgan nuqtasi deb ta'riflaydi.

Hissiy intellekt - EI (hissiy intellekt) hissiyotlardan oqilona foydalanish va boshqarishdir. Hissiy intellektni his-tuyg'ularning jiddiyligi va ularning namoyon bo'lishi kuchidan ajratish kerak.

Hissiy intellekt butun dunyoda dolzarb mavzuga aylanib, hozirda ilmiy laboratoriyadan biznes hamjamiyatiga o'tdi. Asl nusxaga to'g'ri kelmaydigan hissiy intellektning takrorlangan, juda soddalashtirilgan, yangi nazariyalari va amaliyotlari kattalar va bolalar rivojlanishi uchun bozorda jadal sotila boshladi. Ba'zi ota-onalar turli adabiyotlarni o'qish orqali bolaning hissiy intellektini mustaqil ravishda rivojlantiradilar.

Hammaga ma'lumki, IQ (intelligence quotient, ya'ni, zehn koeffitsienti) insonning aqliy va tahliliy qobiliyatini belgilab beradi. EQ (emotional Intelligence) esa insonning shaxsiy va ijtimoiy ko'nikmalari va malakalari jamlanmasidir.

Ushbu malakalarga quyidagilar kiradi:

- **o'z-o'zini anglash** — o'z shaxsiy his-tuyg'ularini anglash va tahlil qilish qobiliyati, hamda o'zining zaif va kuchli jihatlarini bilish;
- **o'z-o'zini boshqarish** — o'z his-tuyg'ularini boshqara olish va hatto o'ta inqirozli vaziyatlarda ham emotsional muvozanatni saqlay olish qobiliyati;
- **empatiya** — atrofdagilarning his-tuyg'ularini sezish, tushunish va boshqalar bilan ularning ichki holatini hisobga olgan holda muloqot qilish qobiliyati;
- **munosabat ko'nikmalari** — kishilar bilan o'zaro munosabatda bo'la olish, ularning his-tuyg'ularini boshqarish, nizolarni hal qilish qobiliyati.

Emotsional intellektni uchta bosqich yordamida rivojlantirish mumkin:

1. His-tuyg'ularingizni muntazam yozib boring.
2. Tuyg'ularingiz sabablarini o'rganib, tushunib oling.
3. Sizni tinchlantiradigan (sokin nafas olish, meditatsiya, sayr qilish) yoki energiya beradigan (sport, raqs, baland ovozli sho'x musiqa) usullarni qo'llang.

EQ darajasi yuqori bo'lgan kishilar, jamiyatdagi munosabatlari yuzasidan do'stona, vazmin bo'lishi, doim yaxshi kayfiyatda bo'lishi bilan ajralib turadi. Emotsional barqaror bo'lgan

insonlar hissiyotlarni yaxshiroq anglay oladi, chunki diqqat e'tibori o'zida emas, ko'proq atrofdagilarda bo'ladi.

O'smirlik yoshida, taxminan 13—14 yoshlarda, bolalarni emotsional kechinmalarida katta o'zgarishlar boshlanadi. Shu yoshdagi bolalarda ta'lim ta'siri ostida abstrakt-mantiqiy va tanqidiy tafakkur ancha o'sadi.

O'smirlar dunyoqarashlari bilan bog'liq bo'lgan masalalar bilan qiziq boshlaydilar. Zamonaviy jamiyatda o'smirlarni turli axborot oqimlaridan himoya qilish mushkul masalaga aylanib bormoqda. Ulardagi gajetlarga qaramlik kundan-kun ortib bormoqda. Mana shularning hammasi xilma-xil intellektual va axloqiy hislarni o'sishi uchun manba bo'lib qoladi.

O'smirlarda xayol kuchli ravishda o'sadi. Hissiyotning o'zi xayolning o'sishiga yordam beradi va xayolning o'zi ham xilma-xil chuqur emotsional kechinmalarning manbai bo'lib qoladi. Kelajak to'g'risidagi orzular, qahramonlik, romantika shularning hammasi emotsional kechinmalarning manbaidir.

Bu yoshda o'z-o'ziga baho berish hissi kuchli ravishda o'sadi. Hozirgi davrda emotsional intellektning o'ziga xos xususiyatlari, qonuniyatlari, imkoniyatlari xatti-harakat motivlarining ifodalanishi va vujudga kelishining murakkab mexanizmlari mavjud. Shuni alohida ta'kidlash kerakki, o'smirlarda emotsional intellektning xususiyatlarini to'la hisobga olgan holda ta'limiy-tarbiyaviy tadbirlarni qo'llash shaxslararo munosabatda anglashilmovchilikni vujudga keltirmaydi, jamoa o'rtasida iliq psixologik iqlimni yaratadi.

O'smirlarning intellektual faolligini oshirish, ularning narsalarning mohiyatiga kirib borish istagi rivojlantirish bilan amalga oshiriladi. Ularda intellektual faoliyat uchun yangi motivlar paydo bo'lishi mumkin. O'qituvchilar va ota-onalar o'smirlar bilan yangi muloqot uslubiga o'tishni boshlashlari bilan ularda his-tuyg'ulardan ko'ra ko'proq aqli va mantiqiga murojaat qilish ehtiyoji ortishini sezish mumkin. Kattalar bilan birgalikda o'xshash narsalarni baholash va qayta qurish bilan bog'liq muhim jarayonlar sodir bo'ladi. Mantiqiy xotira faol rivojlana boshlaydi va tez orada shunday darajaga yetadi bolaning ushbu turdagi xotiradan imtiyozli foydalanishga o'tishi va ixtiyoriy xotirani yuzaga keltiradi. Mantiqiy xotiradan hayotda tez-tez amaliy foydalanilsa reaksiya sifatida mexanik xotiraning rivojlanishi sekinlashadi. Maktabda ko'plab yangi o'quv fanlarining paydo bo'lishi tufayli o'smir eslashi kerak bo'lgan ma'lumotlar miqdori, shu jumladan mexanik xotiraning yangi belgilarining vujudga kelishini ko'rishimiz mumkin bo'ladi.

O'smir ulg'aygani sari unda shuncha hissiyotlarni tushunish qobiliyati ortib boraveradi. O'smirlik davri haqida "hissiy tushunchalar" paydo bo'lish davri desak mubolag'a bo'lmaydi. Ularning lug'ati o'sib borishi bilan his-tuyg'ular kengayadi va soni, parametrlar ortadi, lekin his-tuyg'ular farq qiladi. Bu faqat ijobiy hissiyotlarda amal qilibgina qolmay salbiy hissiyotlarda ham kuzatishimiz mumkin. Hissiyotlar bizning psixologik yoqilg'imizdir. Emotsional intellekt esa buni yuqoridagi fikrlarga qarshi chiqish qobiliyatidir. Ushbu atama muallifi, mashhur psixolog Daniel Goleman o'z "Hissiy intellekt" kitobida emotsional intellektning samarali bo'lishi uchun ikkita kompetentsiya turlarini tushuntirishga urunadi, va ularni shaxsiy va ijtimoiyga ajratadi.

Yuqoridagi fikrlardan shu anglashiladiki o'smirlarda emotsional intellektni rivojlantirish orqali ularda kuchli bir mafkuraviy immunitet shakllantirish mumkin.

Ota-onalar farzandlari bilan ularning yosh davri xususiyatlarini hisobga olgan holda ko'proq muloqot qilishlari, ularni qiziqitrayotgan voqea-hodisalar haqida suhbatlashishlari tavsiya etiladi. Oilaviy tarbiyada yetakchi profilaktik vazifa sifatida mustahkam qiziqishlarni erta tarbiyalash, sevish va sevimli bo'lishga qobiliyatni rivojlantirish, o'zini band qilish va mehnat qilish ko'nikmasini shakllantirish chiqadi. Ota-onalar bolani faollikning xilma-xil turlariga – sport, san'at, bilimga jalb etish orqali shaxs ehtiyojlarini shakllantirishlarini tushunishlari kerak. Yoshlar orasida, shuningdek, xulqi og'ishgan shaxslar, tarbiyasi qiyin

o'smirlar bilan ishlashda ijtimoiy-psixologik treninglarni ko'proq o'tkazish, ularda xarakter xislatlari va jamoa bilan ishlash ko'nikmalarini shakllantirish orqali xulq og'ishini oldini olish mumkin.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Кетле, А. Социальная система и законы, ею управляющие: пер. с франц. / А. Кетле. – СПб.: Издание Н. Поляков и Ко, 1866. – 313 с.
2. Дюркгейм, Э. Норма и патология / Э. Дюркгейм // Социология преступности (Современные буржуазные теории). – М: Прогресс, 1966. – С. 39–44.
3. Дюркгейм, Э. Самоубийство: Социологический этюд: пер. с фр. / Э. Дюркгейм; под ред. В. А. Базарова. – М: Мысль, 1994. – 399 с.
4. Менделевич В.Д. “Психология девиантного поведения”. М.:2016 yil
5. Shoumarov G', Umarov B, Akramova F. “Yoshlarda xulq og'ishi va tarbiya buzilining oldini olish bo'yicha psixologik maslahatlar”. Toshkent.:2015 yil
6. Narziyeva Shaxnoza Rustamovna. (2023). Talabalarda empatiyani rivojlantirish. Sharqiy akademik va ko'p tarmoqli tadqiqotlar jurnali, 1(3), 127-131. <https://inno-world.uz/index.php/ojamr/article/view/76>
7. Narziyeva Shaxnoza Rustamjon qizi. (2023). O'smirlarda empatiyaning psixologik xususiyatlari. Amerika jamoat diplomatiyasi va xalqaro tadqiqotlar jurnali(2993-2157), 1(9), 132-
8. Shaxnoza Rustamovna, N. (2023). Empatiyani tushunish, inson aloqasining asosiy komponenti. American Journal Xalq diplomatiyasi va xalqaro tadqiqotlar (2993-2157), 1(10), 378-382.
9. Narziyeva, S. (2023). Kasb tanlov haqida psixologik qarashlar. Zamonaviy fan va tadqiqotlar, 2(10), 333-336.

MUALLIF HAQIDA MA'LUMOT [ИНФОРМАЦИЯ ОБ АВТОРЕ] [AUTHORS INFO]

Narziyeva Shaxnoza Rustamjon qizi

Osiyo xalqaro universiteti o'qituvchisi,

Psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Manzil: O'zbekiston, Buxoro shahri

MAHALLA TIZIMIDA YOSH OILALARDAGI NIZOLARNI OLDINI OLISHNING PSIXOLOGIK MEXANIZMLARI



Miraliyev Shahzod Jahongir o'g'li.

Osiyo xalqaro universiteti

Pedagogika va psixologiya kafedrası o'qituvchisi

Annotatsiya.

KIRISH: Ushbu maqolada yosh oilalarda uchraydigan nizolarning psixologik sabablari, ularning rivojlanish mexanizmlari va oldini olish yo'llari mahalla tizimi misolida ilmiy jihatdan yoritib beriladi. Mahalla institutining psixologik profilaktika, ijtimoiy qo'llab-quvvatlash va maslahat berishdagi roli tahlil qilinadi. Tadqiqot natijalari yosh oilalar bilan ishlashda kompleks yondashuv zarurligini asoslab beradi.

Hozirgi davrda ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlar, axborot oqimining kuchayishi va qadriyatlar transformatsiyasi yosh oilalar hayotiga bevosita ta'sir ko'rsatmoqda. Yosh oilalarda yuzaga keladigan nizolar ko'pincha oilaviy barqarorlikning buzilishiga, ruhiy tushkunlik, ajrimlar va bolalar tarbiyasida muammolarga olib keladi. Shu nuqtayi nazardan, yosh oilalarda nizolarni oldini olish mexanizmlarini ishlab chiqish dolzarb ijtimoiy-psixologik muammo hisoblanadi. O'zbekistonda mahalla tizimi tarixan tarbiya, nazorat va ijtimoiy yordam markazi bo'lib kelgan. Bugungi kunda ham mahalla yosh oilalar bilan ishlashda muhim psixologik resurs sifatida namoyon bo'lmoqda.

MAQSAD: Mahalla tizimi doirasida yosh oilalarda yuzaga keladigan nizolarning psixologik sabablarini tahlil qilish, ularni oldini olishda samarali psixologik mexanizmlarni aniqlash hamda mahalla institutining ijtimoiy-psixologik imkoniyatlarini ochib berishdan iborat. Shuningdek, yosh oilalarda o'zaro munosabatlarni sog'lomlashtirish, muloqot madaniyatini rivojlantirish va oilaviy barqarorlikni mustahkamlashga xizmat qiluvchi amaliy tavsiyalar ishlab chiqish ham maqolaning asosiy maqsadlaridan biri hisoblanadi.

MATERIAL VA METODLAR: Maqola mahalliy va xorijiy ilmiy adabiyotlar, psixologik tadqiqotlar, davlat hujjatlari hamda mahalla amaliy tajribalariga tayangan holda tayyorlandi. Mazkur tadqiqotda mahalla tizimida yosh oilalardagi nizolarni oldini olishning psixologik mexanizmlarini o'rganishga oid nazariy va amaliy materiallardan foydalanildi.

XULOSA: Yosh oilalarda nizolarni oldini olishda mahalla tizimi va psixologik mexanizmlarning uyg'unligi muhim ahamiyatga ega. Unga oilaviy muhit, biologik omillar, ijtimoiy va ta'limiy jarayonlar ta'sir ko'rsatadi. Agressiyani oldini olish uchun yoshlarni ijobiy faoliyatlarga yo'naltirish lozim. Yosh oilalarda nizolarni oldini olishda mahalla tizimining imkoniyatlari katta bo'lib, psixologik mexanizmlardan samarali foydalanish oila barqarorligini ta'minlashga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar. Yosh oila, oilaviy nizo, mahalla tizimi, psixologik profilaktika, ijtimoiy psixologiya, oilaviy moslashuv, kommunikatsiya, empatiya. mahalla tizimi, yosh oilalar, oilaviy nizolar, nizolarni oldini olish, psixologik mexanizmlar, oila psixologiyasi, ijtimoiy psixologiya, oilaviy munosabatlar, shaxslararo munosabatlar, muloqot madaniyati, samarali muloqot, emotsional barqarorlik, emotsional yetuklik, stress va moslashuv, oilaviy moslashuv.

ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ МЕХАНИЗМЫ ПРЕДОТВРАЩЕНИЯ КОНФЛИКТОВ В МОЛОДЫХ СЕМЬЯХ В РАМКАХ СИСТЕМЫ СОСЕДСКИХ ОТНОШЕНИЙ.

Миралиев Шахзод Джахонгирович.

Азиатский международный университет

Преподаватель кафедры педагогики и психологии

Аннотация.

ВВЕДЕНИЕ: В данной статье на примере системы махалла проводится научное исследование психологических причин конфликтов в молодых семьях, механизмов их развития и способов их предотвращения. Анализируется роль института махалла в психологической профилактике, социальной поддержке и консультировании. Результаты исследования обосновывают необходимость комплексного подхода к работе с молодыми семьями.

ЦЕЛЬ. Целью данной статьи является анализ психологических причин конфликтов, возникающих в молодых семьях в рамках системы махалла, выявление эффективных психологических механизмов их предотвращения и раскрытие социально-психологического потенциала института махалла. Также одной из главных целей статьи является разработка практических рекомендаций, которые помогут улучшить отношения в молодых семьях, развить культуру общения и укрепить стабильность семьи.

МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ: Статья подготовлена на основе местной и зарубежной научной литературы, психологических исследований, правительственных документов и практического опыта махаллы. В исследовании использованы теоретические и практические материалы по изучению психологических механизмов предотвращения конфликтов в молодых семьях в системе махаллы.

ВЫВОД: Гармония системы махалла и психологических механизмов важна для предотвращения конфликтов в молодых семьях. На нее влияют семейная среда, биологические факторы, социальные и образовательные процессы. Для предотвращения агрессии молодых людей следует направлять на позитивные виды деятельности. Система махалла обладает большим потенциалом в предотвращении конфликтов в молодых семьях, а эффективное использование психологических механизмов способствует обеспечению стабильности семьи.

Ключевые слова. Молодая семья, семейные конфликты, система соседства, психологическая профилактика, социальная психология, адаптация семьи, общение, эмпатия. Система соседства, молодые семьи, семейные конфликты, предотвращение конфликтов, психологические механизмы, семейная психология, социальная психология, семейные отношения, межличностные отношения, культура общения, эффективная коммуникация, эмоциональная стабильность, эмоциональная зрелость, стресс и адаптация, адаптация семьи.

PSYCHOLOGICAL MECHANISMS OF PREVENTING CONFLICT IN YOUNG FAMILIES IN THE NEIGHBORHOOD SYSTEM

Miraliyev Shahzod Jahongir o'g'li.

Asian International University

Teacher of the Department of Pedagogy and Psychology

Annatation.

INTRODUCTION: This article scientifically examines the psychological causes of conflicts in young families, their development mechanisms and ways to prevent them using the example of the mahalla system. The role of the mahalla institution in psychological prevention,

social support and counseling is analyzed. The results of the study justify the need for a comprehensive approach to working with young families.

Currently, socio-economic changes, increased information flow, and transformation of values have a direct impact on the lives of young families. Conflicts in young families often lead to disruption of family stability, depression, divorces, and problems in raising children. From this point of view, the development of mechanisms for preventing conflicts in young families is an urgent socio-psychological problem. In Uzbekistan, the mahalla system has historically been a center of education, control, and social assistance. Even today, the mahalla is an important psychological resource in working with young families.

THE GOAL: The purpose of this article is to analyze the psychological causes of conflicts that arise in young families within the mahalla system, to identify effective psychological mechanisms for their prevention, and to reveal the socio-psychological potential of the mahalla institution. Also, one of the main goals of the article is to develop practical recommendations that will help improve relationships in young families, develop a culture of communication, and strengthen family stability.

MATERIAL AND METHODS: The article was prepared based on local and foreign scientific literature, psychological research, government documents, and practical experience of the mahalla. This study used theoretical and practical materials on the study of psychological mechanisms for preventing conflicts in young families in the mahalla system.

CONCLUSION: The harmony of the mahalla system and psychological mechanisms is important in preventing conflicts in young families. It is influenced by the family environment, biological factors, social and educational processes. To prevent aggression, young people should be directed to positive activities. The mahalla system has great potential in preventing conflicts in young families, and the effective use of psychological mechanisms serves to ensure family stability.

Keywords: Young family, family conflict, neighborhood system, psychological prevention, social psychology, family adaptation, communication, empathy. neighborhood system, young families, family conflicts, conflict prevention, psychological mechanisms, family psychology, social psychology, family relationships, interpersonal relationships, communication culture, effective communication, emotional stability, emotional maturity, stress and adaptation, family adaptation.

Yosh oilalarda nizolar ko‘pincha psixologik va ijtimoiy omillar tufayli yuzaga keladi. Bu omillar orasida o‘zaro muloqot zaifligi, stress, moslashish qiyinchiliklari va ro‘l tushunmovchiligi muhim rol o‘ynaydi. Haqiqatan ham ilmiy tadqiqotlarga ko‘ra, yosh oilaning birinchi yillarida er-xotin o‘rtasidagi muloqot va moslashish o‘zaro nizolarning asosiy sababi hisoblanadi. Ochiq muloqot va psixologik qo‘llab-quvvatlash esa oilaviy barqarorlikni mustahkamlaydi.

Psixologik sabablarga misollar:

Moslashish jarayoni: Nikohning dastlabki bosqichida er-kuyovlarning har xil shaxsiy qadriyatlar va oilaviy rollarga moslashishi kerak bo‘ladi; bu jarayon tushunmovchiliklarga sabab bo‘lishi mumkin.

Aloqa yetishmovchiligi: Ego turli nuqtai nazarlar, his-tuyg‘ularni ochiq ayta olmaslik stress va nizo keltirib chiqaradi.

Stress va tashqi bosimlar: Moliyaviy stress, jamiyat kutishlari va uy-joy kabi tashqi bosimlar ichki nizolarni kuchaytiradi.

Mahalla tizimining roli – psixologik mexanizmlar.

Mahalla tizimi yosh oilalardagi nizolarni oldini olishda bir nechta psixologik mexanizmlarni amaliyotga tatbiq etadi.

Erta ogohlantirish va proaktiv yondashuv.

Mahalla xodimlari ko'pincha nizolarning dastlabki belgilarini aniqlashga intiladi. Masalan, mahalladagi faol xotin-qizlar yoki psixologlar orqali psixologik testlar va suhbatlar orqali muammolarni erta aniqlash tizimi joriy qilinadi. Bu tizim nizoning ildizlarini vaqtida aniqlab, mutaxassislarni jalb qilish imkonini beradi.

Psixologik mexanizm:

Erta aniqlash stress va nizolarning "tizimli" bo'lishidan oldin tutiladi.

Suhbat va testlar orqali shaxsiy his-tuyg'ular ochiladi, bu esa inkor etish mexanizmini kamaytiradi.

Ochiq muloqot va tinglashga asoslangan yondashuv.

Mahalla idoralari oilalar bilan ishlaganda ko'pincha ochiq muloqot mashg'ulotlari, maslahatlar va qo'llab-quvvatlash guruhlarini tashkil etadi:

Ochiq suhbatlar orqali oilalar o'z his-tuyg'ulari va nizolar sabablarini ifoda etish imkoniga ega bo'ladi.

Tinglash va empatiya, ya'ni bir-birini his etish mexanizmlari konfliktlarni yengillashtiradi.

Bu mexanizm psixologik jihatdan shaxslarni o'zaro tushunishga yo'naltiradi, bu esa nizolarda eskalatsiyani kamaytiradi.

Psixologik yordamlashish va murabbiylik

Mahallalar ko'pincha psixologlar yoki tajribali murabbiylarni rezidential (mahalla ichidagi) yordam kanali sifatida ishlatadi:

Nizo holatlarida mutaxassislar bilan individual maslahatlar beriladi. Bunday yondashuv orqali er-xotinlar stressni boshqarishni, hissiyotlarini tartibga solishni o'rganadi. Psixologik yordam stressi kamaytirib, salbiy munosabatlarni ijobiy yo'nalishga yo'naltirishda muhim rol o'ynaydi.

Ijtimoiy psixologik qo'llab-quvvatlashning ahamiyati

Oila muammolarini hal qilishda faqatgina mahalla emas, balki ijtimoiy qo'llab-quvvatlash tarmoqlari ham muhim:

Do'stlar, qo'shnilar va ota-onalar bilan ijobiy ijtimoiy aloqalar stressni kamaytiradi va nizolarning chuqurlashishiga yo'l qo'ymaydi.

Jamiyatda qo'llab-quvvat tarmog'i bo'lmagan oilalarda izolyatsiya va yolg'izlik hissi kuchayadi, bu ichki nizolarni oshiradi.

Mahallalarda konfliktni oldini olish bo'yicha amaliy usullar

Quyidagi amaliy strategiyalar psixologik mexanizmlarni kuchaytirish uchun ishlatiladi:

Mahalla xodimlari va oila vakillari uchun konfliktni aniqlash va hal etish bo'yicha treninglar o'tkaziladi, bu esa murakkab holatlarni murosaga olib keladi. "Oilaviy konfliktlarni yechish" metodikalari. Tajriba shuni ko'rsatadiki, konfliktni ijtimoiy hamda psixologik yondashuv bilan birlashtirish nizolarni oldini olishda samarali.

Jamiyatda qadriyatlarni mustahkamlash

Oilaviy qadriyatlar, hurmat va mas'uliyatni oshirish orqali nizolarni paydo bo'lishidan oldin kamaytirish amaliy hissa qo'shadi. Mahalla tizimi yosh oilalardagi nizoli vaziyatlarni psixologik va ijtimoiy mexanizmlar orqali oldini olishda quyidagi asosiy yondashuvlarga tayanadi:

- Erta ogohlantirish va psixologik monitoring – nizolarning ildizini aniqlash.
- Ochiq muloqot va tinglash asosida suhbatlar – hissiyotlarni ifodalash va empatiya.
- Psixologik yordam va murabbiylik – stressni boshqarish va konfliktni hal etish ko'nikmalari.

- Ijtimoiy qo'llab-quvvatlash tarmoqlari – yolg'izlik va izolyatsiyani kamaytirish.

Bu mexanizmlar birgalikda ishlaganda yosh oilalardagi nizoli vaziyatlar tezroq aniqlanadi, yengillashtiriladi va oldini olish choralari samarali bo'ladi.

Ilmiy tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, oilaviy nizolarni oldini olishda kompleks yondashuv zarur, u quyidagilarni o'z ichiga oladi: huquqiy asoslar, ijtimoiy qo'llab-quvvatlash, psixologik diagnostika va profilaktika hamda mahalla instituti orqali amaliy chora-tadbirlar. Bunday yondashuv oilaviy nizolarni aniqlash va bartaraf etishda natijali bo'ladi.

Mahalla tizimining psixologik mexanizmlari va amaliyoti

O'zbekiston Respublikasida mahalla tizimida oila nizolarini erta aniqlash tartibi joriy etilgan, bu nizolar yuzaga kelishidan oldingina xatarli oilalarni nazorat qilish va ularga yordam ko'rsatish imkonini beradi. Bu jarayon mahalla raislari, ichki ishlar xodimlari hamda "mahalla yettiliklari" orqali amalga oshiriladi va nizolarni oldini olishda muhim profilaktik mexanizm hisoblanadi.

Psixologik tayyorgarlik va treninglar

Mahallalar va ilmiy-tadqiqot institutlari yoshlar va oilalar bilan ishlaydiganlarning psixologik va pedagogik tayyorgarligini oshirishga katta e'tibor bermoqda. Seminar-treninglar orqali mutaxassislar psixologik mexanizmlar, emotsiyalarni boshqarish va konfliktlarni hal etish metodlarini o'rganadi.

Bu treninglarning psixologik ahamiyati shu:

Emotsiyalarni boshqarish ko'nikmalarini rivojlantirish, konflikt paytida hissiy reaksiya barqarorligini oshirish.

Muloqot va tinglash strategiyalari orqali er-xotinlar o'rtasida tushunmovchilikni kamaytirish.

Empatiya va hurmat mexanizmlarini mustahkamlash.

Mahalla psixologiyasi va mediatsiya xizmatlari

Mahalla tizimida oila psixologi va mediator xizmatlarini yo'lga qo'yish orqali nizoli vaziyatlarni hal etish mexanizmlari joriy etilmoqda. Bu xizmatlar nizoli holatlarda taraflarni o'rtasida taranglikni kamaytirish, hissiyotlarni boshqarish va murosaga erishish jarayonini psixologik jihatdan qo'llab-quvvatlaydi.

Psixologik sabablar va oldini olish strategiyalari

Yosh oilalar ko'pincha nikohning dastlabki yillarida psixologik moslashish muammolariga duch keladi. Bu davrda er-kuyov o'zaro rol, nilaiyat va qarashlarni uyg'unlashtirishi kerak, bu esa ko'pincha nizolarga sabab bo'ladi. Ochiq muloqot va psixologik qo'llab-quvvatlash bu jarayonni yengillashtiradi.

Konfliktologiya asoslari va metodikalar

Oilaviy konfliktlarni hal etish metodikasi – bu nizolarni aniqlashdan oldin, konflikt sabablari analizini o'rganish, konfliktni boshqarish strategiyalarini ishlab chiqish va shu strategiyalarni amalga oshirish jarayonidir. Bu yondashuv psixologik himoya mexanizmlari bilan qo'llaniladi va nizolarning kuchayishiga yo'l qo'ymaydi.

Xalqaro va xalqaro hamkorlik tajribasi

Mahalla tizimi xodimlarini gender-tenglikka oid psixologik metodlar bo'yicha malaka oshirish uchun treninglar tashkil qilinmoqda. Bunday treninglar gender asosidagi zo'ravonlik va nizolarni kamaytirishga yo'naltirilgan xolis yondashuvlarni shakllantiradi.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, yosh oilalarda yuzaga keladigan nizolar ko'p omilli psixologik va ijtimoiy sabablar bilan bog'liq bo'lib, ularning o'z vaqtida oldini olinmasligi oilaviy barqarorlikning izdan chiqishiga, emotsional tanglikning kuchayishiga hamda ijtimoiy muammolarning chuqurlashuviga olib keladi. Ayniqsa, yosh oilalarning hayotiy tajribasi yetarli darajada shakllanmaganligi, muloqot ko'nikmalarining sustligi, stressga bardoshlilik darajasining pastligi va ijtimoiy qo'llab-quvvatlashga ehtiyojning yuqoriligi nizolarning tez-tez yuzaga kelishiga sabab bo'ladi.

Mazkur jarayonda mahalla tizimi yosh oilalarda nizolarni oldini olishda muhim ijtimoiy-psixologik institut sifatida namoyon bo'ladi. Mahalla muhitida olib boriladigan profilaktik ishlar, psixologik maslahatlar, tarbiyaviy tadbirlar hamda jamoatchilik asosidagi nazorat



mexanizmlari nizolarning dastlabki bosqichdayoq aniqlanishiga va ularning chuqurlashib ketishining oldini olishga xizmat qiladi. Mahalla faollari, xususan, oqsoqollar, xotin-qizlar faollari va yoshlar yetakchilarining vositachilik faoliyati yosh oilalarda murosaga kelish, o'zaro tushunish va ijtimoiy mas'uliyat hissini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Tadqiqot davomida aniqlangan psixologik mexanizmlar — samarali muloqotni rivojlantirish, emotsional holatni boshqarish, oilaviy rollarni aniqlashtirish, ijtimoiy qo'llab-quvvatlashni kuchaytirish hamda mediatsiya jarayonlarini keng joriy etish — yosh oilalarda nizolarning oldini olishda eng samarali yo'nalishlar sifatida baholandi. Ushbu mexanizmlarni mahalla tizimi doirasida tizimli va uzluksiz amalga oshirish oilaviy munosabatlarning sog'lomlashuviga olib keladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Mahalla institutini rivojlantirish to'g'risida"gi Farmoni. — Toshkent, 2020.
2. O'zbekiston Respublikasi Oila kodeksi. — Toshkent: Adolat, 2023.
3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining yosh oilalarni qo'llab-quvvatlashga oid qarorlari. — Toshkent, 2021.
4. Andreeva G.M. Ijtimoiy psixologiya. — Moskva: Aspekt Press, 2018.
5. Karimova V.M. Oila psixologiyasi asoslari. — Toshkent: Fan va texnologiya, 2019.
6. G'oziev E.G'. Yosh va pedagogik psixologiya. — Toshkent: O'qituvchi, 2017.
7. Musurmonova O. Oila va nikoh psixologiyasi. — Toshkent: Innovatsiya, 2020.
8. Shoumarov G.B. Oila muammolari psixologiyasi. — Toshkent: Sharq, 2016.
9. Satir V. Oila ichidagi munosabatlar psixologiyasi. — Sankt-Peterburg: Piter, 2016.
10. Kon I.S. Shaxs psixologiyasi. — Moskva: Akademiya, 2014.
11. Bronfenbrenner U. Inson rivojlanishining ekologik modeli. — Nyu-York: Harvard University Press, 2005.

MUALLIF HAQIDA MA'LUMOT [ИНФОРМАЦИЯ ОБ АВТОРЕ] [AUTHORS INFO]

Miraliyev Shahzod Jahongir o'g'li

Osiyo xalqaro universiteti

Pedagogika va psixologiya kafedrası o'qituvchisi

Darveshqalamidan@gmail.com

OSIYO XALQARO UNIVERSITETI AXBOROTNOMASI Ilmiy-nazariy va metodik jurnal 1-son (2026-yil, 27-yanvar) Jurnal 2024-yildan chiqa boshlagan	Jurnal oliy o‘quv yurtlarining professor- o‘qituvchilari, ilmiy tadqiqotchilar, ilmiy xodimlar, magistrantlar, talabalar, akademik litsey va kasb-hunar kollejlari hamda maktab o‘qituvchilari, shuningdek, keng ommaga mo‘ljallangan. Jurnalda nazariy, ilmiy- metodik, muammoli maqolalar, fan va texnikaga oid yangiliklar, turli xabarlar chop etiladi. Original maket uchun mas’ul: Mirshod SATTOROV Maqolalarni qabul qiluvchi: Ziyodullo ELOV	Jurnal tahririyat kompyuterida sahifalandi. Chop etish sifati uchun bosmaxona javobgar. Bosishga ruxsat etildi 27.01.2026 Tezkor bosma usulda bosildi. Adadi – 100 nusxa Buyurtma № 1 Bahosi kelishilgan narxda. “BUXORO DETERMINANTI” MCHJ bosmaxonasida chop etildi. Bosmaxona manzili: Buxoro shahri Namozgoh ko‘chasi 24-uy.
---	--	--

**Eslatma: Jurnal “OSIYO XALQARO UNIVERSITETI” MCHJ va “BUXORO
DETERMINANTI”
MCHJ Kamolot nashriyoti tasarrufidadir.**

Jurnaldan ko‘chirib bosish tahririyatning roziligi bilan amalga oshiriladi!



ЎЗБЕКИСТОН RESPUBLIKASI PREZIDENTI ADMINISTRATSIIASI QURILMADI
LABORANT VA OMMABOYI QURILMADI QURILMADI QURILMADI

ГУВОХНОМА

№ 250649

"BUXORO DETERMINANTI" MAS'ULIYATI CHEKLANGAN JAMIYAT

Ommaboyi laborant vositasi davlat ruyoxatidan o'tkazilganligini tushirib berish
guvohnoma

LABORANTNI ROYXAT QILMADI QURILMADI QURILMADI
C: 5666621

STIR (IDOLAK) TUSHIRILMADI IDENTIFIKATSIIASI QILMADI
305045334

ANALIZ QILMADI MUDDA
04.04.2024dan - hozirga

ISHLASH QILMADI (TOSHA QILMADI)
Buxoro viloyati, Buxoro shahri, Namangan, d. 34

YAKSONIYAT QILMADI
Ўзбекистон Республикаси Президентини Администрацияси қурулгандаги Laborant va ommaboyi kommunikatsiya qurilmasi

04.04.2024 14:09
LABORANT QILMADI QILMADI



Туған кезеңі

№ 255649

Фамилият турі

Симплекси әйберлер өлшемсіздігі (абсолюттік) формальдік амалға қарамады

Құрамына маалыматтар

Симплекси әйберлер өлшемсіздігінің және	Симплекси әйберлер өлшемсіздігі турі	Симплекси әйберлер өлшемсіздігі турі
OLGA KALDAROVA UNIVERSITY AKHOBOTINOVNA	OLGA KALDAROVA, Olga Kaldarova	Journal

Тарихи ата-бабадан алынған

Тарихи ата-бабадан алынған	Жұды	Тарихи ата-бабадан алынған
Республикалық маңында	Сырттан	

License

SYSTEM

Jurnal O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi
huzuridagi axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
2024-yil 04-aprel №25-0649-sonli guvohnoma bilan ro‘yxatga olingan.

[illegible]

Jurnal O'zbekiston
Respublikasi OAK Rayosatining
2024-yil 28-avgustdagi 360-son
qaroriga asosan pedagogika,
psixologiya, fanlari bo'yicha falsafa
doktori (PhD) va fan doktori (DSc)
ilmiy darajasiga talabgorlarning
dissertatsiya ishlari yuzasidan
"Dissertatsiyalar asosiy ilmiy
natijalarini chop etish tavsiya etilgan
ilmiy nashrlar ro'yxati" ga kiritilgan.



<https://scientificjournal.uz/>

ISSN

ISSN 3030-3796 e

ISSN 3060-4915 p

2026 | Volume 1 | Issue 1 | January

